

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI  
PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

**AHOLI FAROVONLIGINI  
OSHIRISHDA YOSHLAR VA  
XOTIN-QIZLARNI TADBIRKORLIK  
SAVODXONLIGINI OSHIRISH**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami

ISBN 978-9910-747-94-6



9 789910 747946

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
PROFESSIONAL TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**“AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA  
YOSHLAR VA XOTIN-QIZLARNI  
TADBIRKORLIK SAVODXONLIGINI  
OSHIRISH”**

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami**

**Toshkent – 2023**



**UDK: 338.2:004**

**BBK: 65,29**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Professional ta'limni rivojlantirish instituti, -T.: 2023-yil 27-sentyabr, 174 bet.

Mazkur to'plam "Yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish va o'z o'zini bandligini ta'minlashga qaratilgan yagona elektron ma'lumotlar bazasini (onlayn veb-portal) yaratish" mavzusidagi ilmiy-innovatsion loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashdan iborat. To'plamga "Aholi farovonligini oshirishda yoshlar va xotin qizlarni tadbirkorlik savodxonligini oshirish" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalari, maqola va tezislar kiritilgan. Konferensiya materiallari Respublika universitetlar, malakasini oshirish institutlari, markazlar, professional ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar, professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, doktorantlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining talabalari, magistrilar, pedagog xodimlari, doktorantlar uchun mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**

D.R.Raxmatullayeva, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

**Tahrir hay'ati a'zolari:**

Z.Xudayberdiyev, iqtisod fanlari doktori, professor

S.Ashurova, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

D.Sharipova, pedagogika fanlari doktori, professor

G.Jalalova, falsafa fanlari bo'yichi falsafa doktori (PhD), dotsent

D.Zaripova, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.Avliqulov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**ISBN 978-9910-747-94-6**

Professional ta'limni rivojlantirish instituti Ilmiy-pedagogik kengashining 2023-yil 20-sentyabrda o'tkazilgan 11-sonli yig'ilishning qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun shaxsan mualliflar mas'uldirlar.

## **PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBA**

*Z.Xudayberdiyev-Professional ta'limni rivojlantirish instituti direktori, i.f.d., prof.*

*D.Raxmatullayeva – Professional ta'limni rivojlantirish instituti*

*“Ta'limda boshqaruv” kafedrası dotsenti, p.f.f.d., (PhD)*

*S.Raxmanova - German Sparkassenstiftung for International Cooperation  
tashkilotining uzoq muddatli eksperti*

Bugungi kunda jahon globallashuv sharoitida yoshlar oldiga ta'lim olish bilan birga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri – egallagan kasbi bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini yuritish va dunyo talablari darajasida har tomonlama kompetentli mutaxassis bo'lib yetishish zaruratidir. Mehnat bozorida u ishchi kadrlar va mutaxassislarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish vazifasini oldinga qo'ymoqdaki, bunda mazkur mutaxassislarning malaka darajasi ular bajaradigan kasbga oid ishlarning murakkabligidan yuqoriroq bo'lishi, bo'lajak mutaxassis nafaqat mamlakatdagi ishlab chiqarish va iqtisodiyotning hozirgi holatiga javob bera oladigan, balki ishlab chiqarishning tez o'zgaruvchan sharoitlari va texnologiyalariga ham tezkorlik bilan ta'sir ko'rsata olish imkoniyatini beradigan kasbiy tayorgarlikdagi tadbirkorlik qismining ahamiyatini kuchaytirishga asoslanadigan ishchi kadrlarning kasbiy-malakali tuzilmasini rivojlantirish orqali moliyaviy savodxonligini oshirish zarur.

Professional ta'lim tizimi o'quvchilarini xorijiy tajribalar asosida moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida “German Sparkassenstiftung for International Cooperation” tashkiloti bilan hamkorlikda professional ta'lim tizimi pedagog kadrlarini Germaniya metodikasi asosida tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish yo'lga qo'yilib, joriy yilning 16-23 iyul kunlari 19 nafar professional ta'lim tizimi pedagog-kadrlari Germaniyaning Landshut shahrining “Sparkassenakademie Beyern” akademiyasida Germaniyada dual ta'lim tizimi, “WISO darsi” misolida o'quv jarayonlari, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish metodikalari, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha xalqaro ekspertlar tomonidan malaka oshirdilar.

Mazkur tajribalar asosida xalqaro ekspertlar bilan birgalikda professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan simulyatsion va kompetensiyaga asoslangan “Biznes asoslari” o'quv dasturi ishlab chiqildi. Ushbu o'quv dasturining maqsadi, o'quvchilarga o'z biznes-g'oyasini amalga oshirish va shaxsiy daromadga ega bo'lish hamda daromadlarini



oshirish uchun o'zining shaxsiy tadbirkorlik korxonasiga asos solishga o'rgatishdan iborat.

O'quv dastur 3 ta "simulyatsion o'yin"dan iborat bo'lib, ular "Jamg'arma o'yini" simulyatsiyasi 18 soat bo'lib, shundan, 12 soat biznes o'yin, 6 soat nazariy dars; "Mikro biznes o'yini" simulyatsiyasi 30 soat bo'lib, shundan, 22 soat biznes o'yin, 8 soat nazariy dars; "Biznesni rejalashtirish va kredit olish bo'yicha suhbatga tayyorgarlik ko'rish" o'yini 12 soat bo'lib, shundan, 6 soat nazariy dars, 6 soat amaliy mashqlardan iborat etib belgilandi.

"Biznes asoslari" o'quv dasturi 2023 o'quv yilidan joriy etilib, unda o'quv jarayoni maxsus jihozlangan auditoriyada tashkil etilishi, auditoriyada dars jarayonlari bir vaqtda ikki nafar pedagoglar tomonidan, kichik guruhlariga ajratilgan holda olib borilishi, shuningdek, har bir o'quv jarayoni simulyatsiya uchun zarur bo'lgan moddiy va metodik ta'minot vositalari yordamida tashkil etilishi rejalashtirilgan. Bunda Germaniyaning "German Sparkassenstiftung for International Cooperation" tashkiloti hududdagi barcha professional ta'lim muassasalarini "Jamg'arma o'yini", "Mikro biznes o'yini", "Biznesni rejalashtirish va kredit olish bo'yicha suhbatga tayyorgarlik ko'rish" simulyatsion o'yinlari uchun zarur bo'ladigan moddiy va metodik ta'minot vositalari bilan ta'minlashni o'z oldiga maqsad etib belgilab qo'ygan.

"Biznes asoslari" o'quv dasturini joriy etishda o'quv jarayonlari Germaniya tajribasidan kelib chiqib simulatsion o'yinlar, Noy-hau sessiyalar, enerjayerlar, amaliy mashqlar, ishtirokchilarning taqdimotlari va feydebeyk kabi usullardan foydalanib tashkil etiladi.

"Biznes asoslari" o'quv dasturi davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baholanishi belgilangan. Baholash usullari yozma, og'zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlar, ishbilarmonlik-vaziyatli rolli o'yinlarni bajarish orqali o'quvchilarning o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi.

Demak, simulyatsion va kompetensiyaga asoslangan o'quv dastur asosida o'quv jarayonlarini tashkil etish o'quvchilarga ham o'quv jarayoniga bo'lgan qishiqishlarini oshiradi, kichik guruhlarda ishlash orqali soft skills kompetensiyalarini shakllantirishga, amaliy mashqlar va simulyatsion o'yinlar orqali amalda bajarib ko'rish va real tasavvur shakllanishiga hamda hard skills kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

## **YOSHLAR VA XOTIN-QIZLARNING TADBIRKORLIK SAVODXONLIGINI OSHIRISH VA O‘Z-O‘ZINI BANDLIGINI TA‘MINLASH BO‘YICHA SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARI**

*D.R.Raxmatullayeva – “Yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish va o‘z-o‘zini bandligini ta‘minlashga qaratilgan yagona elektron ma‘lumotlar bazasini (onlayn veb-portal) yaratish” loyiha rahbari*

Bugungi kunda yoshlar orasida ishsizlikni kamaytirish, ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish va yoshlar bandligini ta‘minlash muammolari dolzarbligicha qolmoqda.

Ayni damda ish bilan band bo‘lmagan aholini, xususan yoshlarni, kasb-hunarga o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratilgan va manzilli hamda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq yoshlar ushbu sharoitlardan foydalanish o‘rniga, ko‘p vaqtlarini internetdan foydalanishga sarflamoqdalar.

Mamlakatimizda 2020-yil yakunida nashr etilgan hisobot natijalariga ko‘ra, internet xizmatidan foydalanuvchilar soni – 22,1 milliondan oshgani hamda ulardan mobil internet foydalanuvchilari soni 19 million kishini tashkil etgani ma‘lum bo‘ldi [1]. Yoshlarning 85 foizi internetdan, ulardan 76 foizi asosan uyali telefondan foydalanishi aniqlanib, uning internetdan uy sharoitida (44%) va o‘qishda (22%) ko‘proq foydalanishlari namoyon bo‘ldi. Yoshlarning internetdan foydalanishini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali ularni jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga yordam berish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda ularni kasb-hunarga yo‘naltirish va tadbirkorlik savodxonligini oshirish orqali o‘z-o‘zini bandligini ta‘minlash orqali real daromad manbaiga ega bo‘lishi, bu nafaqat o‘z oilasiga balki jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shishini ta‘minlaydi.

Yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish va tadbirkorlik savodxonligini oshirishga qaratilgan “Yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish va o‘z-o‘zini bandligini ta‘minlashga qaratilgan yagona elektron ma‘lumotlar bazasini (onlayn veb-portal) yaratish” loyihasi doirasida [biznestadbir.uz](http://biznestadbir.uz) elektron platformasi ishga tushirilib, ushbu platformaning multimedia resurslaridan iborat tashkiliy komponentlari ishlab chiqilgan.

Ushbu loyiha doirasida tajriba sinov tariqasida Yoshlar va xotin qizlarning moliyaviy va tadbirkorlik savodxonligini oshirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari Toshkent shahar Chilonzor tumanida, Toshkent viloyati Chinoz tumanida, Jizzax viloyati Zomin tumanida va Buxoro viloyati Vobkent va Peshku tumanlarida olib



borildi. “Yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish va o‘z-o‘zini bandligini ta’minlashga qaratilgan yagona elektron ma’lumotlar bazasini (onlayn veb-portal) yaratish” innovatsion loyiha doirasida ishlab chiqilgan anketa so‘rovnomalari asosida tajriba ob’yektlarida anketa so‘rovnoma o‘tkazildi. Olib borilgan tajriba-sinov yakunida yoshlar va xotin qizlarda tadbirkorlik va moliyaviy savodxonlikni shakllanganlik darajasi aniqlandi.

Yoshlar va xotin qizlarning tadbirkorlik va moliyaviy savodxonlik ko‘nikmalarini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari hududlar kesimida quyidagicha ifodalandi.

Toshkent shahar Chilonzor tumanida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarida:

- nazorat guruhlarida dastlabki bosqichda 9,8 % yoshlar va xotin-qizlar yuqori daraja ko‘rsatgan bo‘lsa, tajriba yakunida 15,7 % yoshlar va xotin-qizlar yuqori daraja ko‘rsatdi, tajriba-sinov guruhlarida esa dastlabki bosqichda 11,3 % yoshlar va xotin-qizlar yuqori daraja ko‘rsatgan bo‘lsa, tajriba yakunida 32,1 % yoshlar va xotin-qizlar yuqori daraja ko‘rsatdi;

- o‘rta daraja ko‘rsatgan yoshlar va xotin-qizlar soni nazorat guruhlarida tajriba boshida 21,6 % bo‘lgan bo‘lsa, oxirgi bosqichda bu ko‘rsatkich 45,1 % ni tashkil etdi, tajriba-sinov guruhlarida esa 20,8 % yoshlar va xotin-qizlar tajriba boshida o‘rta daraja ko‘rsatishgan edi, oxirgi bosqichda 54,7 % yoshlar va xotin-qizlar ushbu darajani ko‘rsatishdi;

- past darajadagi yoshlar va xotin-qizlar soni nazorat guruhlarida 68,6 % dan 39,2 % ga kamaydi, tajriba-sinov guruhlarida esa bu ko‘rsatkich 67,9 % dan 13,2 % ga kamaydi.

Toshkent viloyati Chinoz tumanida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarida:

- nazorat guruhlarida dastlabki bosqichda 10,2 % yoshlar va xotin-qizlar yuqori daraja ko‘rsatgan bo‘lsa, tajriba yakunida 16,3 % yoshlar va xotin-qizlar yuqori daraja ko‘rsatdi, tajriba-sinov guruhlarida esa dastlabki bosqichda 11,8 % yoshlar va xotin-qizlar yuqori daraja ko‘rsatgan bo‘lsa, tajriba yakunida 33,3 % yoshlar va xotin-qizlar yuqori daraja ko‘rsatdi;

- o‘rta daraja ko‘rsatgan yoshlar va xotin-qizlar soni nazorat guruhlarida tajriba boshida 20,4 % bo‘lgan bo‘lsa, oxirgi bosqichda bu ko‘rsatkich 44,9 % ni tashkil etdi, tajriba-sinov guruhlarida esa 19,6 % yoshlar va xotin-qizlar tajriba boshida o‘rta daraja ko‘rsatishgan edi, oxirgi bosqichda 54,9 % yoshlar va xotin-qizlar ushbu darajani ko‘rsatishdi;

- past darajadagi yoshlar va xotin-qizlar soni nazorat guruhlarida 69,4 % dan 38,8 % ga kamaydi, tajriba-sinov guruhlarida esa bu ko‘rsatkich 68,6 % dan 11,8 % ga kamaydi.

Jizzax viloyati Zomin tumanida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarida:

- nazorat guruhlarida dastlabki bosqichda 12,5 % yoshlar va xotin-qizlar yuqori daraja ko'rsatgan bo'lsa, tajriba yakunida 14,3 % yoshlar va xotin-qizlar yuqori daraja ko'rsatdi, tajriba-sinov guruhlarida esa dastlabki bosqichda 12,7 % yoshlar va xotin-qizlar yuqori daraja ko'rsatgan bo'lsa, tajriba yakunida 34,5 % yoshlar va xotin-qizlar yuqori daraja ko'rsatdi;

- o'rta daraja ko'rsatgan yoshlar va xotin-qizlar soni nazorat guruhlarida tajriba boshida 23,2 % bo'lgan bo'lsa, oxirgi bosqichda bu ko'rsatkich 39,3 % ni tashkil etdi, tajriba-sinov guruhlarida esa 20,0 % yoshlar va xotin-qizlar tajriba boshida o'rta daraja ko'rsatishgan edi, oxirgi bosqichda 54,6 % yoshlar va xotin-qizlar ushbu darajani ko'rsatishdi;

- past darajadagi yoshlar va xotin-qizlar soni nazorat guruhlarida 64,3 % dan 46,4 % ga kamaydi, tajriba-sinov guruhlarida esa bu ko'rsatkich 67,3 % dan 10,9 % ga kamaydi.

Buxoro viloyati Vobkent va Peshku tumanlarida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida:

- nazorat guruhlarida dastlabki bosqichda 9,8 % yoshlar va xotin-qizlar yuqori daraja ko'rsatgan bo'lsa, tajriba yakunida 15,7 % yoshlar va xotin-qizlar yuqori daraja ko'rsatdi, tajriba-sinov guruhlarida esa dastlabki bosqichda 11,3 % yoshlar va xotin-qizlar yuqori daraja ko'rsatgan bo'lsa, tajriba yakunida 32,1 % yoshlar va xotin-qizlar yuqori daraja ko'rsatdi;

- o'rta daraja ko'rsatgan yoshlar va xotin-qizlar soni nazorat guruhlarida tajriba boshida 21,6 % bo'lgan bo'lsa, oxirgi bosqichda bu ko'rsatkich 45,1 % ni tashkil etdi, tajriba-sinov guruhlarida esa 20,8 % yoshlar va xotin-qizlar tajriba boshida o'rta daraja ko'rsatishgan edi, oxirgi bosqichda 54,7 % yoshlar va xotin-qizlar ushbu darajani ko'rsatishdi;

- past darajadagi yoshlar va xotin-qizlar soni nazorat guruhlarida 68,6 % dan 39,2 % ga kamaydi, tajriba-sinov guruhlarida esa bu ko'rsatkich 67,9 % dan 13,2 % ga kamaydi.

Biz tajriba-sinov natijalarining haqqoniyligini ta'minlash uchun matematik – statistik usuldan, ya'ni K.Pirson tomonidan taklif etilgan “Xi kvadrat” ( $\chi^2$ ) mezonidan foydalandik.

Tajriba-sinov maydonchalarida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida yoshlar va xotin-qizlar tomonidan egallangan tadbirkorlik ko'nikmalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari jadvalda keltirilgan bo'lib, matematik – statistik ishlov berish materiali bo'lib xizmat qildi.



### Tajriba ob'yektlarida olib borilgan tajriba-sinov natijalari

Yoshlar va xotin-qizlarning o'zlashtirish ko'rsatkichi	Nazorat guruhida n=219				Tajriba-sinov guruhida m=227			
	Tajriba boshida		Tajriba oxirida		Tajriba boshida		Tajriba oxirida	
Yuqori	27	12,33%	41	18,72%	30	13,22%	84	37,00%
O'rta	87	39,73%	102	46,58%	96	42,29%	117	51,54%
Past	105	47,95%	76	34,70%	101	44,49%	26	11,45%

Tadqiqot natijalariga "Xi kvadrat" ( $\chi^2$ ) muvofiqlik mezonini bo'yicha matematik-statistik ishlov berish uchun ishchi jadval ishlab chiqildi.

#### "Xi kvadrat" ( $\chi^2$ ) muvofiqlik mezonini ishchi jadvali

Yoshlar va xotin qizlarning o'zlashtirish ko'rsatkichi	Yuqori	O'rta	Past	$\Sigma$
Tajriba-sinov guruhi	$E_1=84$	$E_2=117$	$E_3=26$	$n_e = E_1 + E_2 + E_3 = 227$
Nazorat guruhi	$K_1=41$	$K_2=102$	$K_3=76$	$n_k = K_1 + K_2 + K_3 = 219$
$\Sigma$	$E_1 + K_1 = 125$	$E_2 + K_2 = 219$	$E_3 + K_3 = 102$	$N = n_e + n_k = 446$

Hisoblashlar natijalari asosida  $\chi_{emp}^2 \approx 17,13$  ekanligi aniqlandi. Bizning tadqiqotimizda erkinlik darajasi  $\nu = S - 1 = 3 - 1 = 2$  va bu erkinlik darajasi uchun  $\chi^2$  - muvofiqlik mezonini maxsus jadvali bo'yicha 95% ishonchlilik oralig'i uchun  $\chi_{kri95\%}^2 = 5,99$ , shuningdek 99% ishonchlilik oralig'i uchun esa  $\chi_{kri99\%}^2 = 9,21$  qiymatlar to'g'ri keladi. Pedagogik tajriba-sinov ishlaridagi natijalarning samaradorligi 17,13 foizga yuqoriligi matematik-statistika usullari orqali isbotlandi.

## SHARQ MUTAFAKKIRLARINING SIVILIZATSION TADQIQOTLARGA OID YONDASHUVLARI

*Abdullayev Akmal Gadaymurodovich*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi  
doktoranti, Sotsiologiya fanlari bo‘yicha (PhD)*

**Annotatsiya.** Maqolada sotsiologik tadqiqotlar strategiyasini ishlab chiqishda sivilazatsion yondashuvning o‘rni va ahamiyati muhimligi yoritilib, Sharq sotsiologiyasida jamiyat sotsial stratifikatsiyaga doir tadqiqotlarni olib borishdagi farqlar aynan sivilizatsion yondashuvlar aks etishi yoritilgan. Sharq mutafakkirlaridan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy va Ibn Xaldunning ko‘chmanchi va sivilizatsiyalashgan jamiyatlar sharoitida zamonaviy umumiy va maxsus sotsiologiyaning deyarli barcha asosiy muammolarini har tomonlama ko‘rib chiqqanligi va ularning ta’limotlari hozir ham zamonaviy ko‘rinishga ega ekanligi yoritilgan.

Jamiyatshunoslik fanlarida sivilizatsion yondashuv o‘ziga xos boy tarixga ega. Sivilizatsion yondashuv tarix, falsafa, ijtimoiy falsafa, dinshunoslik, madaniyatshunoslik va tarix falsafasi fanlari doirasida shakllangan. Sotsiologiyada esa sivilizatsion yondashuv har bir ijtimoiy hodisa yoki voqelikni madaniyat va dinning bog‘liqlik fragmentlarini alohida tahlil qilish bilan tavsiflash mumkin. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng O‘zbekiston tarixni tiklash va haqqoniy tarixni yuzaga chiqarish bilan birga tarixiy sotsiologiyaning modernizatsiya nazariyalari doirasida turli jamiyatlarning rivojlanish va birlashishdagi ijtimoiy shakllari bo‘yicha kuzatilgan universalizmning yetishmasligi sivilizatsiya nazariyasidan foydalanish zarurati borligi yaqqol namoyon bo‘ldi.

O‘zbekistonda sotsiologiya fani alohida fan sifatida shakllanishi, shu jumladan jamiyatni isloh qilish va modernizatsiyalash muammolari nuqtayi nazaridan sivilizatsion yondashuv zamonaviy global dunyoni o‘rganishda boshqa yondashuvlar qatorida muqobil yondashuv sifatida yuzaga keldi. Sivilizatsiyalar nazariyasini ilmiy nazariy tahlil qilish bizga sotsiologiya metodologik bazasini yanada boyitish va uning doirasida sotsiologik tadqiqotlarni madaniyat, din, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy guruhlarining o‘ziga xosliklarini yagona madaniy va sivilizatsion majmuasida o‘rganish imkonini beradi.



Sivilizatsiya soʻzi lotincha *civilis* – fuqarolik, grajdanlik yoki davlatga taaluqlilik maʼnolarini anglatadi. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida Sivilizatsiya – tamaddun deb keltirilgan [1]. Sivilizatsiya atamasi XVIII asrlarda Fransuz maʼrifatparvarlari tomonidan “Madaniyat” tushunchasi bilan bogʻliq boʻlgan mustaqil atama sifatida ilmiy isteʼmolga kiritilgan.

Ilmiy adabiyotlar va lugʻatlarda sivilizatsiya atamasining taʼriflari bir xilda tushuncha bermaydi. Sivilizatsiya oʻzining kelib chiqishi va tuzilishiga koʻra jamoaviy va koʻp omillarni oʻzi ichiga olgan hodisadir. Sivilizatsiya tabiiy muhitning xususiyatlari (iqlim sharoiti, geografik va demografik omillar), inson ehtiyojlari, qobiliyatlari, bilimlari va koʻnikmalarining erishgan darajasi, ishlab chiqarishning iqtisodiy va texnologik tartibi va davlat va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimida jamiyatning etnik va milliy tarkibi bilan shakllanadi. Sivilizatsiyalarning darajasi esa xalqlarning madaniy-tarixiy va diniy-axloqiy qadriyatlarining oʻziga xosligi, maʼnaviy taraqqiy topganligi, xizmat koʻrsatish va ishlab chiqarishning noyobligi va rivojlanish darajasi bilan baholanadi [2].

Sivilizatsiyaning sotsiologik tadqiqotlarda oʻrni va ahamiyatini aniq bilish uchun “Tarix sotsiologiyasi”ning oʻrni beqiyosdir. Tarix sotsiologiyasi har qanday jamiyatda koʻplab tabiiy va ijtimoiy omillar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarga, shaxslarning rivojlanishga, ularning oʻzgarishini oʻrganadi. Shuningdek, ushbu tarmoq yoʻnalishi jamiyatdagi sinfiy boʻlinish, stratifikatsion jarayonlar, diniy va etnik (irqiy) mansublik, diniy gʻoyalar, urf-odatlar anʼanalar va qadriyatlarni avloddan-avlodga oʻtishi jarayonlarini aniq tarixiy faktlar asosida tahlil qiladi.

Sivilizatsion yondashuvlar haqida gap borganda, jamiyatni oʻrganuvchi fanlar nazariyasini rivojlantirishga ulkan hissa qoʻshgan olim va mutafakkir hamda davlat arbobi boʻlgan Abu Rayhon “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” va “Hindiston” asarlarini toʻla maʼnoda insoniyat tarixining oʻtgan besh ming yilligi voqealari tahlili va sinteziga bagʻishlangan mumtoz etnosotsiologik asar, deb baholash mumkin. Mazkur kitobda ulugʻ mutafakkir asar yozilishi jarayonida olib borgan jamiyatga doir tadqiqotlari, qoʻllagan usullari xususida soʻz yuritib shunday yozgan: “Mazkur asarni yozish asnosida oʻzimga ishonch hosil qildim-ki, aqliy narsalardan dalil keltirish, kuzatilgan narsalarga qiyos qilish yoʻli bilan haqiqiy maʼlumotlarga ega boʻlish mumkin emas. Bunga faqat “Kitob ahllari” va turli din arboblari, shu (eʼtiqodlarga) amal qiluvchi har xil maslak va ishonch egalariga ergashish, ularning tushunchalarini hamisha asos tutish bilan belgilanadi. Soʻngra ularning isbot uchun keltirgan soʻz va eʼtiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi»[3].

Beruniy olamni ijtimoiy taraqqiyotga olib keluvchi kuch ziddiyat va qarama-qarshiliklar emas, balki turli ijtimoiy darajalardagi murosa, yaʼni konsensus

ekanligini uqtiradi. “Qarama-qarshiligi ravshan ayon bo‘lgan narsaga qanday ishonib bo‘ladi”, – deb mutafakkir ziddiyatlardan xoli bo‘lgan jarayonlarda o‘zgarish ehtiyoji kuchayishiga ishora qiladi. Mutafakkirning ushbu fikrini sivilizatsiyalarni sotsiologik tahlil qilish jarayonlarida ham kuzatish mumkin [4].

Beruniy zamonaviy sotsiologiyadagi sivilizatsiyalar haqida ham fikr yuritib, jumladan, shunday yozgan: “Tillarning turlicha bo‘lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun zarur bo‘lgan so‘zlarga ehtiyoj tug‘ilishidir. Zamonlar o‘tishi bilan bunday iboralar ko‘payib, yodda saqlanishi va takrorlanishi natijasida tarkib topib, tartibga tushgan” [5].

Beruniy o‘z asarlarida xalqlar sivilizatsiyasidagi yutuqlar, sivilazitsiyalarning qudrati, shon-shuhrati, sivilizatsiyalardagi dinlar, e‘tiqodlar, jamiyatning tabaqalashuvi, kundalik hayot va sivilazatsiyalarni boshqa sivilizatsiyalarga ta‘siri hamda aloqadorligiga oid aniq faktlar va ilmiy tadqiqot natijalari jamiyatning rivojlanishini yoki tanazzulga uchrashishini X asrda nazariy jihatdan asoslab bergan.

Sivilizatsiyaning asosiy qismi va talabi bo‘lgan modernizatsiya, har qanday o‘tish bir turdagi tartibdan boshqa tartibga o‘tishdir. Shuning uchun ham sotsiologiya o‘z e‘tiborini ma‘lum bir jamiyatda tarixiy jihatdan o‘ziga xos ijtimoiy tuzum qanday va qanday asosda qurilganligi haqidagi so‘rovlarga javob beradigan ijtimoiy jarayonlar va mexanizmlar, institutlar va ijtimoiy rollar, ijtimoiy harakatlar va mafkuralarni aniqlashga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Sivilizatsion yondashuv doirasidagi sotsiologiyaning predmet sohasi birinchi navbatda sivilizatsiya tushunchasi bilan belgilanadi. Bu mavzu sohasi til, tarix, din, urf-odatlar, ijtimoiy institutlar, sub‘yektiv o‘zini o‘zi identifikatsiya qilish bilan belgilanadigan eng yuqori madaniy jamoa va madaniy o‘ziga xoslikning eng yuqori darajasi sifatida sivilizatsiyani tuzadigan bir xil tarkibiy qismlar tomonidan tuzilgan bo‘lishi lozim.

Sotsiologik tadqiqotlarda sivilizatsion yondashuvni qo‘llash sotsiologik tadqiqotlarda quyidagi predmet yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi: Birinchidan, o‘rganilayotgan tadqiqot ob‘yektini madaniyati va madaniy an‘analarni institutsional tahlil qilish, umumiy hayot tarzi, faoliyat tarzi, odamlarning mental xususiyati, ijtimoiy guruhlar yoki umuman jamiyatdagi mavjud e‘tiqodning ta‘sir doirasi va jamiyatdagi axloq normalarini tizimli o‘rganish. Ikkinchidan, ijtimoiy institutlarni turli madaniy o‘ziga xosliklari va sivilizatsiya amaliyotlarini tarixiy o‘ziga xosligi bo‘yicha sotsioantropologik nuqtai-nazaridan o‘rganish. Uchinchidan, turli tarixiy, madaniy va sivilizatsiyaviy



o'ziga xosliklarni etnosotsiologik nuqtayi nazardan o'rganish imkonini beradi. Sotsiologiyaning ushbu tadqiqot yo'nalishlari sotsiologik yondashuv va sotsiologik konseptuallikni zamonaviy madaniyatshunoslik va ijtimoiy hayotni semantik o'qishga qaratilgan tarixiy bilimlar bilan uyg'unlashtirishni o'z ichiga oladi va o'z navbatida sotsiologik tadqiqot metodlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

G'arb global madaniyatining yana bir muhim tarkibiy qismi ommaviy madaniyat iste'mol modellarini targ'ib qiladigan ommaviy axborot vositalari va Internetdir. Ommaviy madaniyat va ommaviy iste'mol dunyoning eng chekka burchaklariga, aholining barcha qatlamlariga kirib boradi va ommaviy iste'mol amaliyoti va xatti-harakatlarining global tizimini yaratadi. Natijada jamiyatda avlodlar aro to'qnashuv, deviant xulq-atvori, madaniy o'zgarishlar, marginallik, qadriyatlar o'zgarishi va e'tiqodlar almashinuvi kabi ko'plab ijtimoiy muammolar yuzaga keladi.

Shu bilan birga, bu manzara modernizatsiya jarayonlari zamonaviy dunyo oldiga qo'yayotgan qiyinchilikdan dalolat beradi. Vaziyatning paradoksi shundaki, madaniy sohada modernizatsiya muammosi plyuralizm chaqirig'idir. Kengayayotgan individuallashtirish jarayoni din, qadriyatlar, turmush tarzi, madaniy iste'mol va turli madaniyatlar va sivilizatsiyalar doirasida yaratilgan turmushning madaniy namunalari bo'yicha keng tanlov imkoniyatlarini ochib beradi. Aynan mana shu namunalardan individlar o'zlarining shaxsiy o'ziga xosligini shakllantirish uchun madaniy va tarixiy mazmunni topishlari mumkin. Shu o'rinda, turlicha sivilizatsiyaviy o'ziga xoslik qanchalik barqaror degan savol tug'iladi. Uning o'zagi yoki poydevori nima bo'lishi mumkin? Bu o'ziga xoslik ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy-funksional tizimiga singib ketganmi yoki u estetik va ovuntirish yoki ko'ngil xushlik xususiyatga egami? Ushbu savollarga javob topish uchun sotsiologiya sivilizatsiya tartibi bilan tarixiy artefakt sifatida emas, balki sivilizatsiyalar tarixidan kelib chiqadigan zamonaviy global tartib sifatida shug'ullanishi kerak. Bu shuni anglatadiki, sotsiologiya madaniyat tahlilidan institutsional tahlilga qadam qo'yishi va hech bo'lmaganda zamonaviy ijtimoiy institutlar orqali sivilizatsiya ma'nolari va an'alarining zamonaviy dunyoga haqiqiy ma'nosini va tarjimasini taqdim qilishi lozim.

Zamonaviy jamiyatlar o'zlarining institutsional tartibiga ega, ular ba'zi tarkibiy qismlarida an'anaviy va zamonaviydan farq qilishi mumkin, ammo uning madaniy va ramziy asoslanishi sivilizatsiya tartibiga asoslangan. G'arbda zamonaviy institutlari ro'y berayotgan o'zgarishlar va yangi shakllanayotgan G'arbgacha xos bo'lgan qadriyatlarni oqlaydilar balki bunday qadriyatlarni universalistik xususiyatga ega bo'lishini xohlaydilar, hatto G'arb madaniyati va sivilizatsiyasining tarixini ham o'zgartirish tarafdori ham bo'ladilar. Muammo, biz

ko‘rib turganimizdek, jamiyatning ijtimoiy tartibini belgilaydigan va sivilizatsiyaning madaniy va ramziy tartibida dunyoning mifologik yoki diniy manzarasida, tarixiy rivoyatlarda aniq ildiz otgan axloqiy va diniy an‘analardagi asosiy, tizimli va institutsional bloklarni o‘zgartirmoqda va bunday o‘zgarishlarni global dunyoga tarqatmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sotsiologiya fani doirasida ushbu turdagi tadqiqotlarni o‘tkazish jamiyatning madaniy-sivilizatsiyaviy tabiatining o‘ziga xos xususiyatlarini va madaniyat sohasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni aniqlashga, shuningdek, asosiy madaniy-sivilizatsiyaviy o‘ziga xosliklarni va ularning rivojlanishidagi rolini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirishda qo‘llash mumkin. Bu nafaqat sotsiologik tadqiqotlarga, balki tarixiy bilimlarga, madaniyatshunoslikka, dinshunoslikka va etnografiyaga eng chuqur murojaat qilishni ham talab qiladi. Bularning barchasini sotsiologiyada sivilizatsion yondashuv doirasida olib borilgan tadqiqotlarda ijtimoiy birlikni ta‘minlash milliy va madaniy identiklikni belgilashda ham qo‘llash mumkin.

Darhaqiqat, sivilizatsiya nazariyasiga tayanish ijtimoiy va gumanitar fan sifatida sotsiologiyaning metodologik bazasida yanada boyitish imkon berdi. Sivilizatsion yondashuv doirasidagi tadqiqotlar madaniyat, din, ijtimoiy institutlar va madaniyatning yagona madaniy-sivilizatsiyalarni identifikatsiyalash majmuasiga oid miqdoriy va sifatiy sotsiologik tadqiqotlar olib borishda ham o‘z samaradorligini ko‘rsatadi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (S harfi). “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2000. – B.16.
2. Кимелев Ю.А., Полякова Н.Л. Модерн и процесс индивидуализации: исторические судьбы индивида модерна. М., 2017. – С.25.



## O‘QUVCHILARNI LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TAJRIBA – SINOV ISHLARINI O‘RNI VA AHAMIYATI

*Abdullayev A'zamjon Kamolxanovich*

*Professional ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** O‘quvchilarni loyihalash kompetentligini rivojlantirishda ta’lim jarayoniga qo‘llaniladigan usul va metodlarni samarali ekanligini matematik statistikalar yordamida tekshirishlar keltirilgan.

**Annotatsiya:** Эффективность методов и методов, используемых в образовательном процессе в развитии проектной компетентности студентов, проверяется с помощью математической статистики.

Dunyoda ta’limni rivojlantirishning asosiy tendensiyalari orasida virtual texnologiyalarni keng qo‘llash dolzarb muammo sanaladi. Xususan yurtimizda raqamli texnologiyalarni qo‘llash, bu orqali ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. «Raqamli O‘zbekiston – 2030» Strategiyasiga muvofiq hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo‘llash, raqamli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta’minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida o‘rta bo‘g‘in kadrlarini ichki va tashqi mehnat bozori talablariga raqobatbardosh qilib tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Texnologiyalar imkoniyatlaridan keng foydalanib, o‘qitish interaktiv dasturiy vositalar, vizual modellar, multimediali elektron ta’lim resurslar yaratish, bo‘lajak arxitektura-qurilish mutaxassislarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish masalalariga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Ushbu texnologiyalarning o‘quv jarayoniga qay darajada sifatli ta’sir ko‘rsatayotganligini bilish uchun matematik statistikalariga tayanamiz.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi ilmiy tadqiqot ishida ilgari surilgan farazning to‘g‘ri tanlanganligi, tajriba natija berishini isbotlashdan iborat bo‘lib, bu jarayon o‘zaro aloqadorlikda, mavjud muammoning yechimini bosqichma-bosqich hal etishga yo‘naltirilgan uch bosqichda amalga oshirildi. Pedagogik eksperimentning bosqichlari, pedagogik eksperiment bosqichma-bosqich o‘tkazish va aniqlash hamda shakllantirish bosqichlarini o‘z ichiga oldi. Ilmiy tadqiqot ilmiy farazi bo‘yicha tahlillar, kuzatuvlar amalga oshiriladi. Jumladan, quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratiladi [2]:

- bo'lajak arxitektorlarning loyihalash kompetensiyasini shakllanadigan o'quv jarayonining dastlabki holatini baholash;
- diagnostik vositalarni ishlab chiqish;
- nazorat va eksperimental guruhlarini aniqlash;
- kiruvchi nazorat va uning natijalarini tahlil qilish;
- model va pedagogik shartlarni moslashtirish.


Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda tajriba va nazorat guruhlarida ishtirok etgan professional ta'limdagi o'quvchilar sonini quyidagi jadvalda keltirib o'tamiz:

Tajriba-sinov ishlarida tanlab olingan tajriba-sinov hamda nazorat guruhlarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

<b>Sinov guruhi</b>	<b>Tajriba o'tkazilgan professional ta'lim muassasasi nomi</b>	<b>5 (a'lo)</b>	<b>4 (yaxshi)</b>	<b>3 (qoniqarli)</b>	<b>Jami</b>
	Namangan sanoat texnikumi	5	10	6	21
	Namangan arxitektura va qurilish texnikumi	8	17	13	38
	Buxoro arxitektura va qurilish texnikumi	6	15	9	30
	Marg'ilon arxitektura va qurilish texnikumi	13	25	20	58
	Olmaliq arxitektura-qurilish texnikumi	4	10	8	22
	<b>Jami</b>	<b>36</b>	<b>77</b>	<b>56</b>	<b>169</b>
<b>Nazorat guruhi</b>	<b>Tajriba o'tkazilgan professional ta'lim nomi</b>	<b>5 (a'lo)</b>	<b>4 (yaxshi)</b>	<b>3 (qoniqarli)</b>	<b>Jami</b>
	Namangan sanoat texnikumi	2	7	10	19
	Namangan arxitektura va qurilish texnikumi	4	10	22	36
	Buxoro arxitektura va qurilish texnikumi	3	9	18	30
	Marg'ilon arxitektura va qurilish texnikumi	6	10	38	54
	Olmaliq arxitektura-qurilish texnikumi	1	4	16	21
	<b>Jami</b>	<b>16</b>	<b>40</b>	<b>104</b>	<b>160</b>



Yuqoridagi jadvaldagi ma'lumotlarni matematik modellar va Styudent metodidan foydalanib, quyidagi diagrammani hosil qilamiz.



**1-rasm. Pedagogik tajriba-sinovning umumiy statistik tahlili diagrammasi**

Sinov va nazorat guruhlaridagi o'quvchilarning o'zlashtirish bahosini hamda o'zlashtirgan o'quvchilar sonini mos ravishda,  $X_i$ ,  $n_i$  va  $Y_j$ ,  $n_j$  lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variasion qatorlarga ega bo'lamiz. Shuningdek, yuqori ko'rsatkichni 5 ball bilan, o'rta ko'rsatkichni esa 4 ball bilan va past ko'rsatkichni 3 ball bilan belgilaymiz [3-4].

Pedagogik tajriba-sinov natijalari tahlili ishning boshida ilgari surilgan ilmiy farazning to'g'riligini, ya'ni virtual modellashtirishdan foydalanish, arxitekturaviy loyihalashni o'qitishda ijobiy natijalarga erishish hisobiga uning samaradorligini 13% foizga oshirilganligini va o'quvchilarning egallagan bilimlarini mustahkamlashi, ularning loyihalash kompetensiyasi, kreativ fikrlashi, fazoviy tafakkurini rivojlantirishini amaliy va nazariy jihatdan tasdiqladi.

Bu esa biz tomondan ishlab chiqilgan professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini virtual modellashtirish asosida loyihalash kompetentligini rivojlantirish jarayoni modeli samarali ekanligini ko'rsatadi.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.02.2021-yildagi PQ-4996-sonli qarori.
2. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Dis....pedagogika fan. doktori - Toshkent, 2007. - 349 b.
3. Васютинская С.И. Модели в виртуальных образовательных технологиях. Перспективы Науки и Образования. 2016. 6 (24).
4. Филимонова М.И. Проектирование педагогической системы обучения инженерной графике с использованием новых информационных технологий: На примере подготовки инженеров-нефтяников: Дис канд. пед. наук: 13.00.08. – М.: RGB, 2003. – 117s.

## РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ НОРМАТИВНО-ПРАВОВОЙ ПОДДЕРЖКИ СЕМЕЙ, ВОСПИТЫВАЮЩИХ ДЕТЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

*Абдувалиева Мумтозхон Асилбековна*

*Старший преподаватель Национального университета Узбекистана,  
док., филос. по социол. н. (PhD)*

**Аннотация:** Данная статья посвящена эволюции нормативно-правовой системы, которая направлена на поддержку семей, воспитывающих детей с инвалидностью в Узбекистане. Автор исследует изменения в законодательстве и разработку новых программ, которые обеспечивают социальную защиту и поддержку таких семей. В статье также рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются семьи с детьми-инвалидами, и анализируются меры, предпринимаемые государством для их решения.

Эффективную систему социальной защиты в стране составляют сильная нормативно-правовая база, финансовое, материально-техническое и кадровое обеспечение, социальная инфраструктура, и развитая информационная система. О безусловной важности дальнейшего развития социальной сферы для нашего правительства говорит тот факт, что совершенствование системы социальной защиты и охраны здоровья населения, является одним из приоритетных направлений развития Узбекистана на ближайшие годы. Этому свидетельствует то, что одним из важнейших направлений Стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы, является справедливая политика в сфере социальной защиты и усиление всесторонней поддержки уязвимых слоев населения[1].

На наш взгляд это дает основания утверждать, что начиная с 2016 года в Узбекистане формируется «Новая политика» в отношении людей с инвалидностью основанная на принципе «Во имя чести и достоинства человека», реализуемая в рамках новой парадигмы «человек-общество-государство».

Также, необходимо подчеркнуть, что в Узбекистане на развитие системы социальной защиты населения Узбекистан инвестирует 9,7% своего ВВП, что ставит нашу страну в один ряд с крупнейшими инвесторами среди стран со средним уровнем доходов.



В нашей стране права людей с инвалидностью и семей, воспитывающих детей с инвалидностью на полноправное участие в жизни общества и защита их интересов закреплены более 80 законами и иными нормативно-правовыми актами Республики Узбекистан, направленными на предоставление им равных с другими гражданами возможностей в реализации гражданских, экономических, политических и других конституционных прав и свобод человека.

Прежде всего можно отметить, что принятие Указа Президента от 1 декабря 2017 года №-5270 «О мерах по кардинальному совершенствованию системы государственной поддержки лиц с инвалидностью», а также «Программы комплексных мер по дальнейшему совершенствованию системы поддержки лиц с инвалидностью и усилению гарантий защиты их прав и свобод», стали одними из основных документов и правовых платформ в повышении удовлетворенности жизнью лиц с инвалидностью и их семей в осуществлении их законных прав, свобод и интересов, формировании их активной позиции в обществе.

В частности необходимо отметить, что в соответствии с Указом Президента № УП-5270 от 1 декабря 2017 года, с целью обеспечения доступности высшего образования для молодых людей с инвалидностью, были предусмотрены 2% дополнительные квоты для приема лиц с инвалидностью I и II групп в высшие образовательные учреждения на основе государственного гранта[2]. Начиная с 2018 года, начался прием документов для лиц с инвалидностью по 2% квоте. Общее количество студенческих мест, выделенных по квоте в 2018/19 году составило 1384 мест, в 2019/20 году 2068 мест, в 2020/21 году 2799 мест [3].

Данная квота расширяет возможности молодых людей с инвалидностью на социальную адаптацию и интеграцию в общество, получение качественного высшего образования, по профессиям, востребованным на рынке труда, за которую им будет выплачиваться достойная заработная плата. Тем самым облегчив материальное состояние семей воспитывающих детей с инвалидностью, а также позволив молодым людям с инвалидностью жить независимой жизнью, в качестве полноценного участника социальной и политической жизни страны не становясь на путь иждивенчества.

Включение впервые понятия «Инклюзивное образование» в новый Закон Республики Узбекистан «Об образовании» принятый 23 сентября 2020 года, стало очередной вехой в сфере защиты прав детей с физическими, умственными, сенсорными (чувственными) или психическими нарушениями

на обеспечение равного доступа к образованию, с учетом разнообразия особых образовательных потребностей и индивидуальных возможностей.

Необходимо подчеркнуть о внедрение списков «Темир дафтар» (Железная тетрадь), «Аёллар дафтари» (Женская тетрадь), «Ёшлар дафтари» (Молодежная тетрадь) – прозрачные списки малообеспеченных, нуждающихся семей и безработной молодежи. За короткий период внедрение данных списков показали свою эффективность в системной социальной поддержке семей воспитывающих детей с инвалидностью, молодежи и женщинам с инвалидностью, в трудоустройстве и в вовлечении в предпринимательство, в оказании материальной и социальной помощи, а также медицинских услуг.

В подтверждении начала «Нового периода» в социальной политики нашего государства стало принятие 15 октября 2020 года Закона Республики Узбекистан № ЗРУ-641 «О правах лиц с инвалидностью» в новой редакции.

Данный закон стал гарантом недопущения дискриминации по признаку инвалидности, равенства возможностей при реализации прав и свобод, доступности объектов и услуг, а также уважения развивающихся способностей детей с инвалидностью и их права сохранять свою индивидуальность, а также закрепил новый порядок признания статуса «Ребенок с инвалидностью».

В частности, согласно Закону от 18 ноября 1991 года № 422-ХП «О социальной защищенности инвалидов», «Ребенком с инвалидностью» признавался ребенок, имеющий стойкие физические и психические, сенсорные и интеллектуальные нарушения в возрасте до 16 лет, а также прошедший экспертизу врачебно-консультативной комиссии[4]. Данный статус давал семье воспитывающей ребенка с инвалидностью возможность получать ежемесячное пособие по инвалидности ребенка. С 16 до 18 лет ребенок должен был пройти экспертизу со стороны врачебно-трудовой экспертной комиссии, которая устанавливала одну из трех групп инвалидности. Процесс прохождения экспертизы занимал довольно длительное время и мог длиться до полугода, в течение которого семье не выплачивалось ежемесячное пособие для ребенка. Данная экспертиза могла присвоить ребенку с инвалидностью III-группу инвалидности, за которую в нашей стране не предусмотрена выплата пособий. В новом Законе Республики Узбекистан от 15 октября 2020 года № ЗРУ-641 «О правах лиц с инвалидностью», ребенком с инвалидностью считаются дети с различными стойкими нарушениями здоровья до 18 лет. Только после достижения



18 летнего возраста, он проходит медико-социальную-экспертную комиссию и после ее заключения получает статус лица с инвалидностью[5]. Данное изменение дало возможность многим семьям, воспитывающим ребенка с инвалидностью получать социальную поддержку со стороны государства до 18 летнего возраста их ребенка, что способствует улучшению материального положения в семье.

Также, необходимо упомянуть, о выступление Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева на 46-й сессии Совета ООН по правам человека 2 февраля 2021 года, в которой он подчеркнул, что «Центральное место в реформировании Республики Узбекистан и впредь будет занимать обеспечение основных прав и свобод человека, в этой связи особое внимание будет уделено обеспечению прав лиц с инвалидностью»[6].

Важным моментом в жизни людей с инвалидностью и семей воспитывающих детей с инвалидностью стала принятие 7 июня 2021 года Закона Республики Узбекистан «О ратификации Конвенции о правах инвалидов». Данный документ стал «Дорожной картой», в которой выделены и уточнены, основополагающие права людей с инвалидностью, определены области, требующие адаптации под нужды людей, детей с инвалидностью и их семей, обозначены моменты, в которых права людей с инвалидностью могут быть нарушены и где их защита должна быть особенно усилена.

Принятие Постановления Президента № ПП-57 от 22 декабря 2021 года «О дополнительных мерах по всесторонней поддержке лиц с инвалидностью, оказанию содействия их занятости и дальнейшему повышению социальной активности» еще раз продемонстрировало политическую волю руководства Узбекистана, на создание в нашей стране инклюзивного общества, в котором каждый человек чувствовал бы свою ценность. Данное постановление направлено на решение проблем, связанных с получением молодыми людьми с инвалидностью качественного и востребованного образования, с которым у них не будет проблем в процессе их дальнейшего трудоустройства, а также на создания всех условий для их полноценной социализации.

Однако, не смотря на целый ряд положительных реформ в социальной политике Узбекистана в данной сфере все еще остаются проблемы требующие незамедлительных решений.

1. Обеспечение доступности инфраструктуры для детей с инвалидностью и их семей, включая образовательные учреждения, медицинские учреждения, общественный транспорт и другие объекты.

2. Создание программ поддержки для семей, воспитывающих детей с инвалидностью, включая финансовую помощь, консультации специалистов и другие меры.

3. Развитие системы реабилитации и медицинской помощи для детей с инвалидностью, включая доступ к современным методам лечения и реабилитации.

4. Проведение информационной работы среди населения о правах и потребностях детей с инвалидностью и их семей, а также о том, как общество может помочь им в интеграции в общество.

Подводя итог можно сказать что, изучение развития нормативно-правовой системы поддержки семей, воспитывающих детей с инвалидностью в Узбекистане, показало, что государство активно работает над решением проблем, с которыми сталкиваются эти семьи. В Узбекистане создаются новые программы и изменяется законодательство, направленные на обеспечение социальной защиты и поддержки таких семей. Однако, перед государством и обществом все еще стоят множество задач, связанных с обеспечением базовых прав и свобод детей с инвалидностью и их семей. Необходимо продолжать работу в этом направлении, чтобы обеспечить полноценную социализацию и интеграцию этих детей в общество и обеспечить им равные возможности для профессионального и личностного развития.

### Литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60. «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

2. Указ Президента Республики Узбекистан от 1 декабря 2017 года № УП-5270 «О мерах по кардинальному совершенствованию системы государственной поддержки лиц с инвалидностью».

3. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан. №417 от 2 июня 2018 года. «Об утверждении положения о порядке приема лиц с инвалидностью в высшие образовательные учреждения на обучение по дополнительным квотам на основе государственного гранта». Закон

4. Закон Республики Узбекистан «О правах лиц с инвалидностью» № ЗРУ-641 от 22 июля 2020 года. Ст. – 31.

5. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 46-й сессии Совета по правам человека Организации Объединенных Наций 22 февраля 2021 года.



## XOTIN-QIZLAR IJTIMOIIY MAVQEYINING SHARQONA TA'RIFI

*Adilova Rayxon Xamidovna - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat Boshqaruvi akademiyasi stajyor-tadqiqotchisi.*

**Annotatsiya.** Maqolada xotin-qizlarning ijtimoiy maqomiga oid ijtimoiy va huquqiy normalarning ahamiyati va Sharq mutafakkirlarining shu jumladan, Abu Ali ibn Sino va Abu Nasr Farobiyning jamiyat haqidagi qarashlaridan xotin-qizlarning ijtimoiy maqomi haqidagi yondashuvlari bayon qilingan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning huquqlari va ularning qonuniy manfaatlarining huquqiy va ijtimoiy kafolatlari yoritilgan.

Har bir mamlakatning o'z taraqqiyot yo'li, imkoniyatlari va prinsiplari o'ziga xosliklari mavjud. Tabiiyki, davlat va jamiyat rivojida, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish va jamiyat hayotida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy huquqlarini kafolatlanishi mamlakatda demokratik prinsiplarni naqadar to'liq qo'llanishiga bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeyini mustahkamlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Jamiyat hayotining turli sohalarida ularning faol ishtirok etishlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Mamlakatimizda ayolga bo'lgan munosabat o'z tarixiy ildizlariga ega, ajdodlarimiz doimo ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmat va izzatda bo'lishga da'vat etishgan. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng Birlashgan Millatlar tashkilotining "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllarini yo'q qilish haqidagi konvensiyasi", Xalqaro mehnat tashkilotining "Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi" va "Mehnat va mashg'ulotlar sohasidagi kamsitishlar to'g'risidagi konvensiya"lariga Mustaqil davlat hamdo'stligi davlatlari orasidan birinchilardan bo'lib ratifikatsiya qilgan. Bu hujjatlar xotin-qizlar manfaatlarini muhofaza qilish, ularning oila va umuman jamiyatdagi ijtimoiy va huquqiy mavqeyini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar kompleksining tarkibiy qismidir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug' kelajagimiz ham ayollarga bog'liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo'lishini xohlasak, avvalo, mo'tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo'lsa, oila rozi bo'ladi, oila rozi bo'lsa jamiyat rozi bo'ladi" deb ta'kidlab, porloq kelajagimiz ko'p jihatdan ayollarga bog'liq, chunki ayollar baxtli yashagan oilada fayz-baraka, jamiyat esa tinch va farovon bo'ladi [1].

Bugungi kunda har qanday jamiyatning asosiy “Ko‘zgusi” – xotin-qizlar ekanligi shubhasizdir. Chunki, jamiyatning ijtimoiy tuzumi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘sha jamiyat aholisi turmushining farovonlik darajasi, oilalar barqarorligi, kelajak avlod – farzandlar tarbiyasi, iqtidori, jamiyatdagi intellektual salohiyat, ma’naviyat va madaniyat, ma’rifat, qo‘yingki, barcha jabhalarda erishilgan yutuqlar shu jamiyat taraqqiyotiga xotin-qizlarning qo‘shadigan hissasi va o‘sha jamiyatning ayollarga munosabati bilan belgilanadi. Xalqimiz orasida “Ayol bir qo‘li bilan beshikni, ikkinchi qo‘li bilan dunyoni tebratadi”, degan naql bejiz vujudga kelmagan. Mashhur qomusiy alloma va mutafakkir Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasida ayolning o‘rni nihoyatda katta ekanligi haqida qimmatli fikrlar bildirgan. Shulardan ayrimlarini aytib o‘tish joiz, Ibn Sinoning ta’kidlashicha, “Go‘dak emizikli yoshdan o‘tishi bilanoq, ona-otasi u haqida qayg‘urishi, uni noxush ta’sir va shu kabi ko‘ngilsizliklardan himoya qilishi zarur. Bola olti yoshga qadam qo‘yganida, uni murakkab bo‘lmagan vazifalarni bajarishga o‘rgatish kerak.”

Ibn Sinoning tavsiyasiga ko‘ra, ehtiyotkorlik bilan, bolani haddan ziyod zo‘riqtirib yubormasdan amalga oshirish, bolaning topshiriqni bajarishga qiziqish bilan qarashini nazorat qilgan holda bajarish lozim bo‘ladi. Ibn Sino bunday bolalarning xulq-atvori risoladagidek rivojlanib, sog‘lom va bardam o‘sishlariga ishonch bildirgan. Tarbiyachi bolalarni yaxshi ko‘rishi, hurmat qilishi, ular bilan xushmuomala bo‘lishi shart. Agar bola vazifasini yaxshi bajarsa, uni o‘z vaqtida rag‘batlantirish, gohida maqtab qo‘yish, aksincha bo‘lganda esa, unga tanbeh berish kerak. Bola tarbiyasida bu holat muhim hisoblanadi. Allomaning ming yil muqaddam bitilgan bu fikrlari barkamol avlodlarimizni to‘g‘ri yo‘lga solishga, ularni jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk qilishga xizmat qiladi [2].

Ulug‘ mutafakkir Abu Ali Ibn Sino o‘z qarashlarida oila va unda muhim rol o‘ynagan xotin-qizlar haqida bir qancha fikrlar qoldirgan. Ibn Sino o‘zining “Uy-joy tutish tadbiri” haqidagi asarida ayollarning o‘n yetti xislatini sanab ko‘rsatadi. Unga ko‘ra:

- 1) oqila va imonli;
- 2) dindor bo‘lishi;
- 3) sharm-hayoli va or-nomusli;
- 4) ziyrak va mulohazali bo‘lishi;
- 5) mehr –muhabbatli bo‘lishi;
- 6) farzandlari ko‘p bo‘lishi;
- 7) kam suxan bo‘lishi;
- 8) itoatkor bo‘lishi;



- 9) pokdil va ochiq ko'ngil bo'lishi;
- 10) eriga vafodor bo'lishi
- 11) og'ir va bosiq bo'lishi;
- 12) viqorli bo'lishi;
- 13) salobatli bo'lishi;
- 14) eriga xizmati maqomida takabburlik qilmasligi, kamtarin bo'lishi;
- 15) o'z ishi va xizmatlarining tadbirini yaxshi va go'zal ko'rsatishi;
- 16) tejamkor bo'lishi;

17) turmush o'rtog'ining ko'nglidan g'am-anduhning gardi hamda g'uborini yaxshi xulqi va go'zal zaboni ila pok etishi hamda erining g'amnokligiga o'zining chiroyli muomalasi bilan tasalli berishi lozim;[3]

Demak, Ibn Sino bu yerda ayollarning donoligini maqtaydi. Uningcha, agar ayol oqila bo'lsa, o'z erining ishonchli do'sti va hamdardi bo'la oladi, u bevafoqlikni qoralaydi, oilani halokatga olib boradigan narsa, o'sha bevafoqlik, deydi. Ibn Sino kishi doimo erkin va ozod harakat qilishi lozim, xatti-harakatlari uchun insonga mas'uliyat, burch yuklatilgan, deydi. Ibn Sino bola tarbiyasiga oid o'z fikr va mulohazalarini bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo'yishdan boshlashni lozim topadi hamda bolalarga yaxshi, munosib ism tanlashni ota-onaning dastlabki olijanob vazifalaridan hisoblaydi.

Dunyoda mashhur olim, ma'rifatparvar Abu Nasr Farobiy inson kamoloti, baxti, ta'lim-tarbiyasi, axloqi, dinga munosabati haqidagi qarashlarini mashhur "Fozil odamlar shahri" va "Baxt-sharofatga erishuv haqida" asarlarida bayon etadi. Farobiy keraksiz urf-odatlardan voz kechish, baxt-saodatga erishish yo'llari haqida gapirib, shunday deydi "Rahbarlar yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmish talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi". Shuningdek, Farobiy "Baxt saodatga erishuv yo'lida nimaiki (bilim, odob-axloq, kasb-hunar)" yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq, nimaiki zararli bo'lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur"ligini ta'kidlaydi [4].

Buyuk ajdodlarimiz, millatimiz tarixidan ma'lumki, o'zbek ayoli, o'zbek onalari nafaqat o'z elimiz, balki dunyo hamjamiyati, umumbashariyat taraqqiyotiga ulkan hissasini qo'shgan mashhur o'g'lonlari – jasur, botir Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi sarkardalari, Bahouddin Naqshband, Abduholiq G'ijduvoni, hazrat Xo'ja Ahror Vali kabi aziz avliyolari, jahonni turli jabhalarda lol qoldirgan olimlari – Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Imom Al Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Al Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, adib va mutafakkirlari – Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Umar Hayyom, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qahhor, Oybek singari insonlar bilan mashhurdirlar.

Magʻrur, jasur va dono Toʻmaris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiylar nomlari nafaqat biz uchun, balki ilgʻor fikrli dunyo ahli uchun ham iliq va ulugʻ ekanini hammamiz yaxshi bilamiz.

Hozirgi kunda yuqorida aytib oʻtilgan axloq tamoyillarini hayotimizda tutgan oʻrni borasida koʻpgina tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu jumladan professor B.Karimov nafaqat xotin-qizlar balki insonlar uchun kerak boʻlgan mehr omili toʻgʻrisida shunday fikrlarni bildiradi. Jumladan, “Inson mehirsiz, toʻlaqonli, yorqin, toʻla-toʻkis hayot kechira olmaydi. Baxtli yashayotgan odamlar yaxshi koʻrgan narsalari toʻgʻrisida koʻproq gapiradilar. Shu bilan birga hayot farovonliklariga cheksiz yoʻl ochadilar. Mehr shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli yurishini taʼminlaydi” [5].

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Sharq mutafakkirlari azaldan xotin-qizlarning ijtimoiy maqomiga katta eʼtibor bilan qaragan. Bundan maqsad oilada va jamiyatda xotin-qizlarning oʻrni muhim ekanligi, mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini kafolatlash, ularga munosib mehnat va turmush sharoitini hamda qobiliyatlarini roʻyobga chiqarish uchun yetarli sharoitlarni yaratish, jamiyatda xotin-qizlarning mavqeyini mustahkamlash, umuminsoniy tamoyillarga rioya qilish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ayolning nafosati va nazokati, vafo va sadoqati, aql-zakovati va fidoyiligi asrlar mobaynida yer yuzida hayot davomiyligi va abadiyligiga asos boʻlib keladi. Shu bois ham dunyodagi eng buyuk sanʼat asarlari, qoʻshiq va qasidalar, meʼmoriy obidalar ayolni ulugʻlashga bagʻishlangan.

Yangi Oʻzbekistonda xotin-qizlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oila mustahkamligini taʼminlash davlat siyosati darajasida ekanligi bilan har qancha faxrlansak arziydi.

### **Adabiyotlar roʻyxati**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga bagʻishlangan bayram tadbiri. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/5035/>

2. Ibn Sinoning ilm va axloqqa doir baʼzi risolalari. Toshkent-2009. Sharq matbaa nashriyoti. – B.34.

3. Ibn Sinoning ilm va axloqqa doir baʼzi risolalari. Toshkent-2009. Sharq matbaa nashriyoti. – B.35.

4. Karimov B.Sh. (2021). Mehr–muvaffaqiyat omili. jurnal sotsialnix issledovaniy, № 4 (1) – S.25.



## KOMPETENTLI MUTAXASSISNI TAYYORLASHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI O‘RNI

*Agaliyeva Xabiba Narmaxmad qizi*

*Professional ta’limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada keltirilgan tahlillar, hozirgi kun zamonaviy mutaxassis uchun kommunikativ kompetensiyani o‘rni yuqori daraja ekanligini ta’minlaydi. Uni oshirish yo‘llari va mexanizmlari tushunarli darajada berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kommunikativ kompetensiya, mexanizm, metodika, metodlar, mutaxassis, jahon bozori, demokratik, ijtimoiylashuv, integratsiyalashgan.

Har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi shu mamlakat fuqarolarining intellektual, ahloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Zero, jamiyatimizning ma’naviy yangilanishida, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo‘shilishini ta’minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi globallashuv jarayonida, modernizatsiyalashayotgan va shiddat bilan rivojlanib borayotgan ijtimoiy hayotda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish davr talabi bo‘lib bormoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim sohasini yangi bosqichga olib chiqish, uning rivojlanish bosqichida, albatta, barcha sohani qamrab olishi va kerak bo‘lsa kadrlar tayyorlash sifatini tubdan isloh qilish nazarda tutilgan. Ushbu maqsadga erishishda professional kadrlarda ham kasbiy, ham shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantiribgina qolmay, endilikda ularning kommunikativ kompetensiyalariga ham e’tibor qaratishimizni talab etmoqda. Professional kadrlar o‘z bilimlarini ham texnik, ham pedagogik yo‘nalishlarda ilm, fan, ta’lim, texnika, iqtisodiyot bo‘yicha integratsiyalashgan holda qo‘llay olish prinsiplarini yaratishi lozim. Integratsiyalashgan davrda muhim yo‘nalishlar o‘z faoliyati davomida har qanday soha va yo‘nalishni bazaviy o‘qitish tizimiga innovatsion yondashuv asosida takomillashtirilishini tadbiiq etadi. Takomillashib borayotgan davrda albatta professional mutaxassislariga qo‘yilayotgan talab va ularning ilmiy salohiyatini oshirish va ta’lim mazmunini boyitib borish albatta kelajak avlod tarbiyasida o‘z ahamiyatini topadi. Kasbiy va umumiy kompetensiyalarga ega professional kadrlarga hozirgi kunda talab kuchli hisoblanadi, biroq bugungi kunda kommunikativ kompetensiyalarga ega bo‘lgan kadrlarga talab esa yanada ortib bormoqda. Bu esa, o‘quvchilarda o‘quv predmetlari bo‘yicha faqatgina bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishning o‘zi yetarli emasligi ma’lum bo‘lmoqda.

Kommunikativ kompetensiya biz uchun samarali madaniyatlararo ishbilarmonlik aloqalarini ta'minlaydigan murakkab shaxsiy resurs sifatida qaraladi.

Shaxs kamolotida insonlar bilan o'zaro muloqot va suhbatlashish muhim ekanligini sharq allomalari ham pedagogik qarashlarida asoslab berganlar. Dunyoda ikkinchi muallim deb tan olingan Abu Nasr Forobiy "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida" asarida "inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi"-degan g'oyani ilgari suradi. Darhaqiqat, o'quvchi shaxsini rivojlanishida uni o'zгалar bilan samarali muloqoti, dunyoqarashi va kommunikativligi muhim o'rin egallaydi.

D.Uilkins tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kommunikativ kompetensiya-"o'ylashni boshlamasdan gapirishni boshlamang". Ular kommunikativ jarayonning asosiy tamoyili sifatida o'ylashni, ya'ni fikr yuritish deya ta'kidlaganlar.

T.N.Astafurovaning fikriga ko'ra, jamiyat haqidagi madaniy bilimlar samarali madaniyatlararo muloqotga va natijada xalqaro professional hamkorlikka "idrok etish tayyorligini" shakllantiradi.

Kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning texnologik ta'minoti ta'lim oluvchilarda kommunikativ kompetentligini shakllantirishning prinsipial muhim sharti bo'lib, uni ta'lim mazmunining mazmunini boyitish deb hisoblash mumkin, bu esa uni ijodiy qobiliyatga aylantirish imkonini beradi, kognitiv rivojlanish vazifalarini hal qilish orqali o'quvchilarning bilim faolligini rag'batlantiradigan shaxsiy-muhim jarayon (G.S.Altshuller). Ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan ta'lim bilan ta'limning asosiy mazmuni va jarayoni maksimal darajada mazmunli va individual ahamiyatga ega. Ta'lim oluvchilar shaxsan ular uchun nima muhimligini o'rganadilar. Bu o'qituvchiga ham tegishli bo'lib, ular uchun cheklovli dasturlar qo'yilmaydi, balki o'zlarining va ta'lim oluvchilarning xohishlariga ko'ra aniq "yo'l" ni tanlash qobiliyatini saqlab qolgan holda taxminiy yakuniy ko'rsatma bo'ladi. Shunda ta'lim olish har bir kishi uchun o'zining madaniy shaxsiy qiyofasini kashf etish va izlash uchun qiziqarli va qimmatli jarayon bo'lib, unda barcha ishtirokchilar faol ishtirok etadilar va bu jarayon ishtirokchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga yordam beradi.

Har qanday mavzuni o'rganishda biz faktik tomon va ob'yektiv bilimga emas, balki sub'yektiv shaxsiy ma'noga - o'rganilayotgan har qanday materialning insoniy o'lchamiga e'tibor qaratamiz. Ta'lim oluvchilar tomonidan o'rganiladigan mavzularni o'ylangan va motivli tanlash ta'lim oluvchilar tomonidan shaxsiy – ta'lim oluvchilar uchun eng chuqur, bardoshli va qimmatli bilimlarni



o'zlashtirishga yordam beradi. Kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning tematik tashkil etilishi umuman ta'lim muassasasida ta'lim qiymatining uyg'unligiga, fanlararo aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Asosiy e'tibor mutaxassis bo'lishning yaxlit jarayoni, uning muhim qismi sifatida kasbiy kompetentlik va kommunikativ kompetentlikni shakllantirishga qaratiladi.

O'qituvchi nafaqat bilimning o'zini, balki uni bilish usullarini ham ishlab chiqishidan kelib chiqishi kerak. U ta'lim oluvchilarning dunyoga faol munosabati amalga oshiriladigan shunday faoliyat turlari haqida o'ylashi kerak. Bularga, birinchi navbatda, kommunikativ ijodiy mashqlar - rolli o'yinlar, guruh muhokamalari, shaxslararo muloqotlar, talabalarning faolligini oshirish va kommunikativ kompetentlikni shakllantirish usullari kiradi. Kommunikativ mashqlar dialogik nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi (suhbatdoshning xatti-harakatlarini rag'batlantiradi, yo'naltiradi va tartibga soladi, uni og'zaki va og'zaki bo'lmagan harakatlarga undaydi, o'z fikrini himoya qiladi, suhbatdoshni uning haqligiga ishontiradi). Bu mashqlarning barchasi bo'lajak mutaxassisni tayyorlashning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan professional muloqot kompetensiyasining asosini tashkil qiladi. Y.P.Azarova, S.L.Bratchenko, A.V.Mudrik tadqiqotlari asosida va boshqalarning fikriga ko'ra, biz rolli o'yin bir qator xususiyatlarga ega degan xulosaga kelishimiz mumkin: o'yinga qo'shilgan odam juda tabiiy tajribalarni boshdan kechiradi; o'yin ishtirokchilarga o'zlarini ozod qilishga yordam berishi mumkin; o'yin katta rag'batlantiruvchi kuchga ega, ularning muloqotini va o'zaro ta'sirini rag'batlantiradi. Dastlabki vaziyatning muammoli tabiati o'yinda ishtirok etishni hissiy jihatdan boy va shaxsan ahamiyatli qiladi. Rolli o'yin darsdagi talabalarning nutq faolligini haqiqiy nutq aloqasiga yaqinlashtirishga imkon beradi va shuning uchun kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. O'qituvchi uchun "rolli o'yinning mazmunini jamoa a'zolarining kundalik hayoti va hayotining haqiqatiga mos keladigan va ular uchun ahamiyatli bo'lgan tarzda belgilash" muhim ahamiyatga ega, bunda muammoning murakkablik darajasini aniqlashda talaba auditoriyasining tayyorgarlik darajasini hisobga olish kerak. Rolli o'yinlar shakli jihatidan xilma-xildir. Shakllarning xilma-xilligi terminologik xilma-xillikka mos keladi. Adabiyotlarda o'yin usullarini guruhli o'yinlariga (simulyatsiya, innovatsion, tashkiliy, tashkiliy-fikrlash, boshqaruv, ko'ngilochar, o'quv va pedagogik) va rolli o'yinlarga (vaziyatli-rolli o'yin, rollar bajarish usuli va boshqalar) bo'linadi. Ijtimoiy o'yinda nutq faoliyati jarayonida rolli xatti-harakatlar amalga oshiriladi. Ushbu o'yinlarni rolning faolligi va tabiati, shuningdek, ijtimoiy va nutq odob-axloq qoidalari bilan belgilanadigan qoidalarga muvofiq o'yinlarga kiritish mumkin. Bu yerda faoliyat aspekti (umumiy ijtimoiy

yoki kundalik rejadagi nizolarni hal qilishni bashorat qilish) va psixolingvistik (motivlarga muvofiq nutq bayonotlarini yaratish va ulardan foydalanishni modellashtirish) ajralib turadi. Professional mutaxassis o'yini maxsus fan va pedagogik faoliyatning xususiyatlariga mos ravishda quriladi. O'yin davomida o'rganishning sotsializatsiyasi chuqurlashadi, bu mutaxassislarni kelajakdagi ishi uchun yetarli darajada tayyorlashga yordam beradi. Professional mutaxassis o'yinida faol va psixolingvistik jihatlar ham ajralib turadi, ammo o'yinlar boshqacha tarzda farqlanadi, bu yerda aniqlovchi xususiyat kasbiy faoliyatidagi muammoli vaziyatlarning o'ziga xosligi hisoblanadi. O'quv jarayonida qo'llaniladigan rolli o'yinlarning turlari aniq farqlanadi: boshlang'ich bosqichda - ijtimoiy, va yuqori bosqichda - professional.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda va xorijda o'yin usullarining juda keng tarqalgan shakli professional mutaxassis o'yinidir. Professional mutaxassis o'yini deganda "axborot va ziddiyatli vaziyat mavjud bo'lganda shartli sharoitda korxonalar, xo'jalik tashkilotlari rahbarlari va mutaxassislari faoliyatini guruh idrok etish; ma'lum bir vaziyat uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilish amaliyoti", iqtisodiy vaziyatni modellashtirish va o'yin davomida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish omillarini bosqichma-bosqich aniqlashtirish; real vaziyatga taqlid qilish, qaror qabul qilish va tahlil qilish uchun boshqaruv faoliyatini o'yinli modellashtirish" tushuniladi. Keng ma'noda, professional mutaxassis o'yinini kasbiy faoliyatning ramziy modeli sifatida belgilash mumkin, uning konteksti ramziy vositalar bilan - modellashtirish, taqlid qilish va muloqot tillari, shu jumladan tabiiy til yordamida o'rnatiladi. Kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda rolli o'yinlarning ikkita funksiyasi aniqlanadi: a) ijtimoiy (o'yin o'zaro ta'sirida yangi ijtimoiy shaxslararo rolni modellashtirish) va b) didaktik (an'anaviy o'qitish usuli bilan solishtirganda hissiy rangdagi muloqot sharoitida materialni o'zlashtirish samaradorligini oshirish). O'quv jarayonida rolli o'yin ta'lim oluvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish vositasi va o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish usuli sifatida qaraladi. Ta'lim oluvchilar nuqtai nazaridan, rolli o'yinning maqsadi ma'lum bir o'yin va ta'lim natijasiga erishish, o'qituvchi nuqtai nazaridan tayyorlanmagan muloqotning kommunikativ va axloqiy meyorlarini o'rgatishdir.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim oluvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda, dars jarayonida foydalaniladigan innovatsion metodlarning o'zni juda katta. Pedagogik jarayonning ajralmas bo'lagi bo'lib xizmat qiladigan metodlarni uyg'unlashtira olish, pedagog oldidagi eng katta vazifalardan hisoblanadi. Bugungi zamon talabi nafaqat kompetentli mutaxassisni balki kasbiy



faoliyatda professional kadrlarni tayyorlashni va ularni yuksak marralarga olib chiqa oladigan pedagoglarga ham ehtiyoj sezmoqda, ta'lim oluvchilarning shaxsiga yo'naltirilgan ta'limdan asosiy maqsad shu. Biz keltirgan metodlarni har qanday dars jarayoniga qo'llash va kerakli marraga erishishda qo'llashni tavsiya etamiz. Kommunikativ nafaqat muloqot kompetensiyasi, balki ta'lim oluvchilarning shaxsiy fazilatlarini kasbiy faoliyati davomida professional bilimlari bilan uyg'unlashtirishni talab etadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Xoshimov K, Nishonova S. Pedagogika tarixi: Darslik. - T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. - 82 b.
2. Revisiting Communicative Competence in the Teaching and Assessment of Language for Specific Purposes April 2019 [Language Education & Assessment](#) 2(1):1-19 DOI:[10.29140/lea.v2n1.33](#) Licensu [CC BY-NC](#)
3. Agapov I.G. Kompetentnostniy podxod k obrazovaniyu // Realizatsiya kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii,- M., 2008. - S.8-22.
4. Baydenko V.I. Kompetentnostniy podxod k proektirovaniyu gosudarstvennix obrazovatelnix standartov visshego professionalnogo obrazovaniya (metodologicheskie i metodicheskie voprosi): Metodicheskoe posobie. - M.: Issledovatel'skiy sentr problem kachestva podgotovki specialistov, 2005. - 114 s.
5. Alliluyko Y.A. Formirovanie kommunikativnoy kompetentnosti menedjerov turizma v protsesse izucheniya inostrannogo yazika. Avtoref. dis.... kand. ped. nauk. - M., 2000. - 25 s.

## **XOTIN-QIZLARNI VA YOSHLARNI TADBIRKORLIKKA YO'NALTIRISH ORQALI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI OSHIRISH TENDENSIYALARI**

*Agaliyeva Xabiba Narmaxmad qizi*

*Professional ta'limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada keltirilgan tahlillar, hozirgi kunda xotin-qizlar va yoshlarni tadbirkorlikka yo'naltirib, ularning kommunikativ kompetensiyasini oshirish tendensiyalari keltirilgan. Yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotgan jamiyatda xotin-qizlarni va yoshlarni o'rnini topishi uchun ulardan yuksak darajali kommunikativlikka egalikni talab etadi.

**Kalit soʻzlar:** kommunikativ kompetensiya, tendensiya, tadbirkorlik, treninglar, mutaxassis, jahon bozori, demokratik, ijtimoiylashuv, integratsiyalashgan.

Jamiyatning shiddat bilan rivojlanishida yuqori darajali va malakali kadrlarga boʻlgan ehtiyoj bugungi davrning murakkab muammolaridan biri hisoblanadi. Zero, mashhur amerikalik olim A.Megrabyan tadqiqotiga koʻra, boʻljak mutaxassislarning mehnat bozoriga kirishda va ishga joylashish jarayonida birinchi marta amalga oshirilgan suhbatda, taasurotlarning ijobiy boʻlishiga 7% verbal omil, paralingvistik omillar 38%, noverbal omillar esa 58 % gacha taʼsir qiladi. Ushbu omillardan koʻrinib turibdiki, aynan ish beruvchilar bilan boʻlgan kommunikatsiya orqali xotin-qizlar va yoshlar kasbiy va umumiy kompetensiyalarini namoyon qiladilar va ish oʻrniga ega boʻladilar. Bu jarayonda esa kommunikativ kompetensiya nafaqat, xushmuomalalik balki, oʻziga boʻlgan ishonch va qatiyatlilikni, suhbat holatini ham oʻzida aks etishini talab etadi. Muammoni oʻrganish darajasi shuni koʻrsatadiki, bizning zamonamizda yuqori saviyali shaxsni koʻrish mumkin, lekin ularning kasbiy faoliyatiga oʻz shaxsiy kompetensiyalarini tadbiiq eta olgan va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantira olgan shaxsni uchratish juda qiyin boʻlib bormoqda. Kommunikativ kompetentlik shaxsni ish faoliyati davomida uning kreativ va tezkorligini, muomala madaniyatini, sohasini professional darajada bilishi, bilimlarini ish jarayoniga toʻgʻri tadbiiq eta olishi, jamoada ishlay olish qobiliyatini shakllantira olgan kadrlarga boʻlgan talab kuchaydi va uning kamchiliklari oʻquv jarayonidagi yetishmovchiliklar bilan belgilanmoqda. Bizning zamon talabi salohiyatli xotin-qizlarni va yoshlarni tadbirkorlikka yoʻnaltirish va ularni bozor sharoitiga koʻniktirish va shaxsiy fazilatlarini yuzaga chiqarish imkonini yaratish. Gender tenglik jamiyat hayotida xotin-qizlarni oʻrnini va ular ham professional darajadagi mutaxassis boʻla olishini taʼminlaydi.

protsessual (gapirish, tinglash, yozish, oʻqish)



belgi (nutq, til);



matn (turi, janri, nutq uslubi))



### 1-rasm. Kommunikativ kompetensiya komponentlari



Ma'lumki hozirgi kunda yuqori martabali xotin-qizlarni va yoshlarni jamiyat hayotida uchratish mumkin. Kommunikativ kompetentlikni quyidagi o'zaro bog'liq komponentlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarni uzatish, idrok etish va qayta ishlashning ijtimoiy shartli jarayoni sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi: Kommunikativ kompetensiyaning asosiy texnologiyalari quyidagilardan iborat: internet texnologiyasi, telekommunikatsiya va asosiy texnologiyalar, shu bilan birga ularning kombinatsiyasiga ruxsat beriladi. internet-axborot resurslarining didaktik imkoniyatlarini o'rganish, uni o'quv jarayonida qo'llashning asosiy ikki turi: sinxron va asinxron shakldagi aloqa vositasi; chet tilidagi muloqotni o'rganish va o'rgatish vositasi, ya'ni haqiqiy matn, audio va video materiallar va o'quv dasturlari manbai sifatida; o'z ijodiy ishingizni yaratish va nashr etish vositasi yo'nalishlarini shakllantirish imkonini beradi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida jadal rivojlanayotgan texnologiyalar sharoitida talabga ega bo'lgan malakali mutaxassis o'z sohasi bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Hamkorlar bilan zamonaviy aloqa vositalari, internetning axborot resurslariga kirish nafaqat kompyuter texnologiyalari, balki muloqot ko'nikmalarini ham yetarli darajada yaxshi bilishni talab qiladi. Axborotlashtirish asrida ustuvor qiymat axborotdir. Ko'p sohalarda muvaffaqiyatga erishish yo'li - axborotga kirish va u bilan ishlash qobiliyati. Faoliyatning pedagogik nazariyasiga muvofiq, har qanday faoliyat turini o'rganish uni amalga oshirish, u bilan bog'liq harakatlar va operatsiyalar jarayonida sodir bo'ladi. Demak, xotin-qizlar va yoshlarni kommunikativ faoliyatining har xil turlarini o'rgatish uchun har kim ma'lum bir davrda o'zlashtirgan nutqiy faoliyat turi bo'yicha amaliyotni ta'minlashi zarur. Har qanday kommunikativ faoliyatda ko'nikmalarni shakllantirishning markazida eshitish vosita qobiliyatlari yotadi, shuning uchun og'zaki mashqlar ustuvor hisoblanadi. Kommunikativ faoliyatni faqat muloqotda, jonli muloqotda o'rgatish mumkin. Kompyuter dasturi, disk qanchalik interaktiv bo'lishidan qat'iy nazar, faqat kvazi-aloqani (ya'ni tirik odam bilan emas, balki mashina bilan aloqani) ta'minlaydi. Talaba haqiqiy sherik bilan jonli muloqotga (yozma yoki og'zaki) kirganda, kompyuter telekommunikatsiyalari bundan mustasno. Internet odamlarni matnli, grafik (statik yoki dinamik) va audio ma'lumotlar bilan ta'minlash imkoniyatiga ega. Xotin-qizlar va yoshlarni mustaqil ishlarida tarmoq resurslari va xizmatlaridan foydalanishning mumkin bo'lgan usullarini tahlil qilishda internetning imkoniyatlariga ishonish mumkin. Bunday imkoniyatlar quyidagilardan iborat:

- og'zaki nutq mavzusi bo'yicha ma'lum autentik o'qish materiallarini tanlashi mumkin; (muayyan texnik shartlar bilan) ovozi ma'lumotni (siyosiy va

davlat arboblarning nutqi, turli mavzularda turli mavzulardagi qiziqarli chiqishlari), uni talab qilinadigan chegaralarga qisqartirish;

- loyiha hamkorlaridan elektron pochta orqali kelgan xatlarni og'zaki muhokama qilish;

- hamkorlik guruhlarida munozara, internet resurslaridan olingan u yoki bu muammoli ma'lumotlar yuzasidan muhokama o'tkazish, so'ngra butun guruhning umumiy muhokamasini tashkil etish;

- frazeologik birliklar, realliklar, idiomalar, maqollar, matallar, neologizmlar, madaniy o'ziga xosliklarni o'z ichiga olgan ayrim xabarlar, og'zaki yoki yozma nutqlarni tahlil qilish;

- virtual kutubxonalarda olingan mualliflarning badiiy asarlaridan turli loyihalar va muhokamalar uchun material sifatida foydalanish;

Xulosa qilib aytganda treninglardan olingan bilimlarni yoshlar va xotin-qizlar axborot-kompyuter texnologiyalaridan foydalanish kontekstida kommunikativ kompetentlikni shakllantirish, bilim faolligi va diqqatini jamlashning ortishiga, ularning mustaqil ta'lim faoliyati uchun malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga, fanga qiziqish va motivatsiyani oshirishga yordam beradi, buning natijasida o'rganilayotgan materialni o'zlashtirish sifati yaxshilanadi, malaka va nutq ko'nikmalari yanada kuchli shakllanadi. Biz keltirgan misollarni albatta seminar treninglar orqali va ularni xotin-qizlarning shaxsiy va kasbiy faoliyatning ajralmas bo'lagi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bizga ma'lum hozirgi kun talablari mutaxassis oldiga qo'yilgan barcha masalalarni optimal yechimini bera olishi kerakligi va ularni o'z vaqtida bartaraf eta olishi va kerak bo'lsa butun jamoani o'ziga ergashtira olishi kerakligi ma'lum. Albert Megrabyan tadqiqotini ko'rib shuni xulosa qilish kerakki, biz hayotimizning asosiy bo'lagi bo'lgan tadbirkorlikni tashkil etish hammamizni asosiy maqsadimiz. Kommunikativlik yuqori kuch va salohiyatli yoshlarni va ayollarni tadbirkorlikda o'z o'rnini topishga va albatta yuksak marralarga erishishga imkon beradi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Alliluyko Y.A. Formirovanie kommunikativnoy kompetentnosti menedjerov turizma v protsesse izucheniya inostrannogo yazika. Avtoref. dis.... kand. ped. nauk. - M., 2000. - 25 s.

2. Anoxin P.K. Ot modeley povedeniya k iskusstvennomu intellektu/ Pod red. V.G.Redko,- M., 2006.- 447 s.



3. Baydenko V.I., Van Zantvort Dj. Modernizatsiya professionalnogo obrazovaniya: sovremenniy etap.- M.: Issledovatel'skiy sentr problem kachestva podgotovki specialistov, 2003. - 674 s

## **PEDAGOGIK FAOLIYATDA TARBIYA TURLARI VA USULLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

*Alimova Saodat Azatovna*

*Loyixa xodimi, Toshkentdagi TMC Instituti "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi  
(sirtqi) 2-kurs talabasi*

Xalqni, millatni ravnaq topishi, rivojlanishi va aksincha, jaholatga yuz tutishi shakllanib kelayotgan "inson kapitali"ning ma'rifati, ma'naviyati, ilmi va ko'nikma darajasiga bog'liq. Bu xususiyatlarni kamol toptirish uchun tarbiya jarayoni to'g'ri va to'liq holda olib borilishi darkor.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, Xalq shuncha baxtli yashaydi", tarbiya xalqimiz uchun abadiy yo'qolmaydigan qadimiy tushuncha hisoblanadi. Ahloq, ta'lim, odob, tarbiya kabi tuyg'u-tushunchalar qonimizga singib ketgan qadriyatlarimizdir. Qadimdan tarbiya, maktab, ta'lim sohasiga jiddiy e'tibor qaratilgan.

Tarbiya nazariyasi-pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etish masalalarini o'rganadi. Tarbiya nazariyasi markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagoglarining tarbiya borasida boy tajribalariga tayanadi. U o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, etsetika, fiziologiya, psixologiya, fanlaridan foydalanadi.

Tarbiya nazariyasi pedagogikaning tashqi bilimlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy bog'langandir. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, ahloqiy, irodaviy etsetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy rivojlanadi. Bola o'sgan sari bu faoliyatlar takomillashadi, mustahkamlashadi.

Bola o'qishni, tarbiya olishni, ulg'ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qay tarzda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalashi zarurligini bilishi kerak. O'qituvchi do'st, murrabbiy, yo'l boshlovchi bo'lgandagina o'quvchilar o'zlarining ichki adabiyotlarini ochib ko'rsatadilar. Tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilimi va tarbiyaga ega bo'lgan qonunlar, tarbiyalanuvchilar (faoliyatlarini o'z ichiga olgan)

bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko'rsatishlari kerak.

Demak tarbiya usuli tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorligidagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir.

“Metod” – so'zi grekcha so'z bo'lib yo'l, usul ma'nosini bildiradi. Tarbiya vositalari bu biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi. Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi, tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Tarbiya natijalari tarbiyaviy jarayonning usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog'liq. Tarbiya usullari bir bolaga, har qaysi bolalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. Shunday qilib tarbiya jarayonida o'qituvchi yakka o'quvchiga yoki sinf manfaati yo'lida biron-bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o'quvchilarni yosh va individual xususiyatlarini, tarbiyalanganlik darajasini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda ta'sir etish shakllari majmuasiga tarbiya metodi deyiladi. Tarbiya g'oyatda murakkab jarayon bo'lib, har davrning ijtimoiy siyosiy hayotini o'zida aks ettiradi. Uning usullari, shakllari, vositalari va omillari asrlar davomida shakllanib takomillashadi, an'anaga aylanadi. Shu sababli tarbiya milliy va tarixiy zamindan uzilmasligi kerak.

Xalq pedagogikasining nodir namunalari, tarbiya usullari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, musobaqalar, sayllar, turli marosimlar, bazmlar va boshqalar o'ziga xos tarbiya vositasi vazifasini bajaradi. Yoshlarni tarbiyalashda turli milliy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar asos qilib olinishi kerak. Inson qalbiga bugun ekilgan yaxshilik urug'i oradan 10 yil o'tgach unib chiqishini har bir pedagog ilmiy asoslab oldindan ko'ra bilishi kerak. Tarbiya usullarini o'rganish, tahlil qilish, bu usullardan pedagogik jarayonda foydalanish, ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruhga bo'lib olamiz:

- ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar;
- o'z-o'zini tarbiyalovchi usullar;
- rag'batlantirish usullari;
- jazolash usullari.

**Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar:** Bu guruhda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni, ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni onggi, hislari va irodasiga ta'sir etish usullari kiradi: suhbat va hikoya; hikoya; namuna.



**O‘z-o‘zini tarbiyalash usullari:** O‘z-o‘zini tarbiyalash sifatlari bola bunga tayyor bo‘lganda, u o‘zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mustaqillik ko‘rsata boshlagan vaqtdan boshlanadi. O‘z-o‘zini tarbiyalashda (axloqiy, xissiy-irodaviy) maslahat va ko‘nikmalar berilishi lozim.

**Rag‘batlantirish va jazolash usullari:** O‘quvchi bolalarning har biri o‘‘sib, ulg‘ayib, kamol topib borayotganidan xursand bo‘lganini sezishi kerak. Shundagina bola o‘zining olg‘a siljib borayotganini ko‘ra biladi, o‘z kuchiga ishonadi.

Jazolash bu tarbiyalanuvchining harakat va faoliyatiga salbiy baho berish, bu oxirgi tarbiya usuli, (urish, kaltaklash, jismoniy jazo mumkin emas).

Xulosa qilib aytganda, bolaning shaxs bo‘lib rivojlanishi, uning odatlari, xulqi qay darajada bo‘lishi, dunyoqarashi, ongi, his-tuyg‘ularini shakllantirish tarbiya jarayonida hosil bo‘ladi. Olmon faylasufi Immanuel Kant o‘z asarida “Inson faqat tarbiya orqali inson bo‘ladi, uning qandayligi tarbiyaning natijasidir”, degan fikrlarni bildirib o‘tgan. Abdulla Avloniyning ta‘biri bilan aytganda: “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”. Shaxsning jamiyatdagi o‘rnini topishi, his-tuyg‘u, kechinmalarini yo‘nalishi, o‘‘sishi ham tarbiyaga bog‘liqdir. Zero, ta‘limni tarbiyadan, tarbiyani ta‘limdan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pedagogika. Munavvarov A.K.ning umumiy tahriri ostida. –T.: 2007.
2. G‘aybullayev N.va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent. 2000.
3. Xayrullayev M., To‘xliyev B., Qurbonov Sh., Masudov X., Qurbonov M. Pedagogika tarixi. 2004.

### IQTISODIY TARBIYA – IQTISODIY BILIM POYDEVORI

*Avezova Ozoda Ilxomovna*

*Xorazm viloyati Hazorasp tumani 3 – son kasb-hunar maktabi*

*“Biznes asoslari” fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtisodiy tarbiyaning iqtisodiy bilim poydevori ekanligi, hozirgi davrda iqtisodiy tarbiyaning yoshlar uchun ularning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari uchun zarurligi, iqtisodiy tarbiyaning metodlari, ahamiyati haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy bilim, iqtisodiy tushunchalar, iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik, tejamkorlik, jamg‘arish.

Iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asosiy kuch-bu inson. Demak, bugungi kunda bizlar iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lmog‘imiz, iqtisodiy tarbiyaga ega bo‘lgan yetuk shaxslarni shakllantirishimiz zarur. Iqtisodiy bilim o‘z ichiga iqtisodiy tushunchalar, iqtisodiy qonuniyatlar va iqtisodiy strukturalarni qamrab oladi, xo‘sh iqtisodiy tarbiya nima? Iqtisodiy tarbiya – bu iqtisodiy hayotga bo‘lgan munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan tarbiyadir.

Biz ko‘pincha aqliy va ahloqiy tarbiyaga e‘tiborimizni qaratib, iqtisodiy tarbiyaga kam e‘tibor berar edik. Bizga ma‘lumki, rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy tarbiyaga bo‘lgan munosabat juda kuchli bo‘lgan. Masalan Germaniyada iqtisodiy tarbiyaga chuqur yondashiladi va natijada tejamkorlikka, hisob – kitobga kuchli e‘tibor qaratiladi. Tejamkorlikka o‘rganishning o‘zi ham katta daromad olish imkonini beradi.

Tejamkorlikni tarbiyalash iqtisodiy tarbiyada bosh masala hisoblanadi. Tejamkorlikni o‘rganish uchun hisob-kitobga o‘rgatish lozim. Tejamkorlik odat tusiga va turmush tarziga aylanishi zarur. Bundan tashqari o‘quvchi yoshlar iqtisodiy organism bir butun yaxlit organism ekanligini his qilish darajasiga yetishi kerak. Yuksak iqtisodiy madaniyat buni taqozo etadi. Agar o‘quvchi yoshlar kelajakda kichik bir tarmoq uchun uning ravnaqi uchun yoki o‘z oldiga maqsad qilib biznes bilan shug‘ullanaman biznesimni rivojlantirishda hech qachon to‘xtamayman deb fikr yuritsa, demak uning iqtisodiy tarbiyasi kerakli darajada shakllangan bo‘ladi.

Biz o‘quvchi yoshlarda yaxlit iqtisodiyotni rivojlanishi uchun harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishimiz lozim. Bizning berayotgan Iqtisodiy tarbiyamiz avtonom xususiyatga emas, balki butun iqtisodni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Buning uchun iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda biz yaxlitlik hissini ham shakllantirishga harakat qilishimiz kerak. Yaxlitlik hissini shakllantirish natijasida biz o‘quvchi yoshlarda pirovard natija uchun ishlash xususiyatini takomillashtiramiz.

Iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda birinchi galda o‘quvchi yoshlarda eng sodda malakalar hosil qilishdan boshlash kerak. Iqtisodiy fikrlash iqtisodiy tushunchalar, iqtisodiy his-tuyg‘ular avvalo oilada, so‘ngra bog‘cha maktab, kasb-hunar maktabi, kollej, texnikum, oliy o‘quv dargohlarida shakllanadi.

Biz Yangi O‘zbekistonda yashar ekanmiz, yangicha iqtisodiy fikrlashga o‘rganishimiz zarur. Iqtisodiy qonunlar o‘zining yangi talablarini har bir inson oldiga qo‘yadi. Shuning uchun ham bugungi kunda iqtisodiy ta‘lim va iqtisodiy tarbiyaga alohida e‘tibor qaratishga majburmiz. Ayniqsa iqtisodiy tarbiya masalasi bozor munosabatlari davrida yanada kuchliroq bo‘lishi – bu davr



talabidir. Umuman, iqtisodiy tarbiyaning maqsadi iqtisodiy madaniyatni insonda shakllantirishdan iboratdir.

Bu maqsadga erishish uchun tejamkorlik, tadbirkorlik, hisob-kitob, yangiliklarga intilish, iqtisodiy yangilikni his qilish kabi xususiyatlarni vujudga keltirish va rivojlantirish zarur. Buning uchun quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Ongni shakllantiruvchi metodlar (suhbat, ma'ruza, nasihat), ya'ni o'quvchilarda shu metodlardan foydalanib, iqtisodiy bilim, iqtisodiy qarashlarni vujudga keltirish.

2. Odatlantirish metodi (tejamkorlikka odatlantirish, ijodkorlikka odatlantirish)

3. Jazolash metodi (isrofgarshilikni imkoniyati boricha jazolab turish)

4. Yangilikka bo'lgan intilishni rag'batlantirish.

Har tomonlama yetuk mutaxassislarni tarbiyalash bugungi kunda biz pedagoglarning muhim vazifasiga aylangan. Tarbiya jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish uslublari ko'pdir. Ular jumlasiga individual turli topshiriqlar kiradi. Bu topshiriqlar turli-tuman bo'lishi mumkin, bularning hammasi o'quvchi shaxsini shakllantiradi va ularni mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlaydi.

Individual topshiriq metodlaridan jamoa rivojining quyi bosqichlaridan foydalanish mumkin. Bunda o'quvchining mustaqil bajarayotgan ishlariga yordam berish kuchayadi va unga to'g'ri baho beriladi. Ana shunday tarzda o'quvchida ijobiy emotsiya paydo bo'ladi. Bu jamoa rivojining erkin birlashuvi-pedagogika samarasidir.

Iqtisodiy tarbiyada qator yo'nalishlar ajratilib ko'rsatiladi:

- Iqtisodiy qonunlar harakati mexanizmini to'g'ri taraqqiy ettirish uchun iqtisodiy tafakkurni yuksaltirish;

- iqtisodiy madaniyatni shakllantirish, jamiyatning hozirgi zamon taraqqiyoti jarayonini anglash;

- davlat va xususiy mulkga tegishli bo'lgan munosabatni, har bir o'quvchining mehnat jarayonida o'z o'rnini va jamiyatdagi o'rnini to'g'ri anglashga yo'naltirilgan.

O'quvchining iqtisodiy tafakkur darajasini baholash mezoni bu-iqtisodiy bilimlarni puxta bilishi, voqealar mohiyatini o'rganish shakl va mazmunini ko'ra bilishi lozim. Iqtisodiy tafakkurning hozirgi stili faoliyatining oxirgi natijalari, xo'jalik muammolarini hal etishda tizimli kompleks yondashish va jamiyat boyligiga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishni taqozo etadi.

Yangi O‘zbekistonda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar biz pedagoglardan iqtisodiy tarbiya masalalariga yangicha yondashishni talab etadi. O‘quvchi yoshlarning garmonik rivojlanishi va dunyoqarashini shakllantirishda, ijtimoiy hayotning negizi bo‘lgan iqtisodiy jarayonlarni, uning shakl va mazmuniy o‘zgarishlarini, mamlakatimizdagi resurslardan samarali foydalanib milliy boyligimizni ko‘paytirish yo‘l-yo‘riqlari ruhida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, bizning asosiy maqsadimiz o‘quvchi yoshlarga iqtisodiy tarbiya haqida tushuncha berish, ularni yangicha mustaqil iqtisodiy fikr va mulohazalar yuritishga, iqtisodiy voqealar, jarayonlar haqida yetuk va chuqur fikrlashga o‘rgatish hamda ularni iqtisodiy barkamol tarbiyalashdan iboratdir.

Tarbiya – san’at. O‘quvchi tarbiyasi esa mo‘jizaviy san’at, mo‘jizaviy najot – saodat. Iqtisodiy tarbiya saodatga chorlovchi tarbiyadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh.Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. Toshkent-2021.
2. U.G‘ofurov., Q.Sharipov. “Tadbirkorlik asoslari”, Toshkent-2018.
3. N.Ismatova., Z.Zamonov. “Tarbiya”. Toshkent-2021.
4. V.Qo‘chqorov. O.Maxmudov. “Ma’naviyat asoslari” Toshkent-2017.

## **PROFESSIONAL TA’LIMDA TA’LIM SIFATINI TA’MINLASHDAGI BA’ZI MUAMMOLARI**

*Avliyakov Abdurashit Karimovich*

*Professional ta’limni rivojlantirish instituti dotsenti., p.f.n.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sifat, ta’lim sifati tushunchalari, uni ta’minlash, ta’lim sifatini boshqarish bilan bog‘liq fikrlar, ta’lim sifatini ta’minlashdagi dolzarb muammolar, amalga oshiriladigan istiqbolli rejalar va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** professional ta’lim, sifat, ta’lim sifati, innovatsiya, modernizatsiya.

Keyingi yillar O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun yangi kontseptual g‘oyalar va rivojlanish yo‘llarini jadal izlash davriga aylandi. Nazariy va amaliyotda ta’limni tabaqalashtirish va ta’lim mazmunini integratsiyalash masalalari faol rivojlandi. Vaqt va amaliyot shuni ko‘rsatdiki, bu g‘oyalar va tushunchalarning hech biri



murakkab ta'lim tizimining alohida tarkibiy qismlarini takomillashtirishga qaratilganligi sababli asosiy, hamma narsani qamrab oluvchi deb hisoblanishi mumkin emas. Ta'lim tizimini takomillashtirishning asosiy vazifasi ta'lim sifatini oshirishdan iboratdir. Bugungi kunda yurtimizda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha islohotlar olib borilmoqda. Bir narsani bilishimiz kerakki, kambag'allikdan chiqishning yagona yo'li bu — sifatli ta'limdir. Qachonki ta'lim yuqori sifatli bo'lsa, u natijador bo'ladi. Barcha insonlar uchun ularning butun hayotlari davomida ta'lim olish imkoniyati yaratiladi. Ta'lim olish orqali insonlar o'z qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatlari kengayadi, hamda turmushning to'laqonli bo'lishiga xizmat qiladi. Xo'p ta'lim sifati qanday ta'minlanadi?

Sifat – bu murakkab tushuncha bo'lib, unga ko'plab ta'riflar berilgan. Ikki ming yildan ortiq rivojlanish davrida falsafiy kategoriya bo'lgan (Aristotel, G.V.F.Gegel, I.Kant, K.Marks) "sifat" tushunchasi nafaqat kuchli nazariy asosga, balki inson va uning faoliyatiga, jamiyatga, iqtisodiyotga, ta'limga, boshqaruvga, atrof-muhitga nisbatan aniq amaliy ahamiyatga ega bo'lgan refraksiyadir. Eramizdan oldin 3 asrda yashab o'tgan Aristotel sifatni predmetlar orasidagi farqlar; “yaxshi-yomon” belgilari bilan ajratish deb tushuntirgan bo'lsa, mutafakkirimiz Ibn Sino esa narsalarning ajralmas xususiyati, o'z-o'zicha mavjud emas deb hisoblaydi, Gegel (XIX asr) sifat bu narsaning birinchi navbatda haqiqiy, aniq mavjudligi bilan aniqlansa, narsa sifatini yo'qotishi bilan u o'zligini yo'qotadi, deb ta'riflagan.

“Sifat” deganda umumiy ma'noda, insonlarning ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan asoslanuvchi mahsulot, material, ish turi, mehnat, xizmat va shu kabi xususiyatlar hamda xususiy belgilarining majmui bo'lib, ularga qo'yilgan talab va vazifalarga mos kelishi bilan baholanadi. Bunday moslik asosan standartlar, shartnomalar, kelishuvlar, iste'molchilarning talablari bilan aniqlanadi. Demak, sifat kompleks, keng tushuncha. Shuning uchun barcha soha, yo'nalish, faoliyatlarda sifatga katta ahamiyat qaratiladi. Ayniqsa ta'lim sohasida sifat bu ta'limda ko'zlangan maqsadga erishish samaradorligini ta'minlashga va ko'rsatkichlarni aniqlashga yordam beradi. "Ta'lim sifati" nisbiy tushunchadir: undan foydalanadigan har bir kishi unga o'z ma'nosini qo'yadi. Bu ma'no mos keladigan ehtiyojlar, so'rovlar, umidlar, imtiyozlar bilan bog'liq. Ushbu talablarni qo'yadigan "iste'molchilar" doirasi keng. Bular, birinchi navbatda, ta'lim munosabatlarining ishtirokchilari - o'qituvchilar, o'quvchilar va ularning ota-onalari. Bular, albatta, kasb-hunar ta'limining ta'lim tashkilotlari. Bular ish beruvchilar, turli sinf va kasbiy guruhlar, umuman jamiyat, davlat organlari va tuzilmalari va boshqalar. Ularning har biri ta'lim sifatini o'ziga xos tarzda qabul qiladi va unga o'ziga xos ma'no qo'yadi. Shuning uchun biz uning ta'lim

xizmatlari iste'molchilarining xilma-xilligi bilan bog'liq o'lchovi haqida gapirishimiz mumkin [1]. Demak yuqoridagi yondashuvga asosan **ta'lim sifati** - kasbiy anglashning kompleks tavsifi bo'lib, zamonaviy rivojlanish bosqichida iqtisodiy tarqqiyot talablariga mos kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli yurituvchi mutaxassis qobiliyati va ish faoliyati bilan belgilanadi. **Ta'lim sifati ta'minlash** – bu kadrlarni kasbiy jihatdan tayyorlashning zaruriy darajasi uchun eng maqbul sharoitlarning yaratilishiga qaratilgan rejali, oldindan mo'ljallab qo'yilgan va texnologik jihatdan ta'minlab qo'yilgan boshqaruvdir.

**Ta'lim sifati boshqarish** - ta'lim jarayoni sharoitlari sifatini loyihalashtirish, unga erishish va qo'llab-quvvatlash, uni amalga oshirish hamda natijalarini ta'minlashdan iborat. Shuning uchun professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni qabul qilindi [2]. Farmonda professional ta'lim muassasalarining asosiy maqsadi belgilab qo'yilgan. Belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur bo'ladi:

- ❖ Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilgan holda iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarni hisobga olib, ehtiyoj yuqori bo'lgan va turdosh mutaxassisliklar bo'yicha ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan va kasbga yo'naltirilgan xorijiy tillar asoslarini biladigan va faoliyatida qo'llay oladigan malakali kadrlarni tayyorlash;

- ❖ Kadrlarga bo'lgan real mehnat bozori ehtiyojini, ish beruvchi korxonalarining takliflarini hisobga olgan holda, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun zarur mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha professional ta'lim muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish;

- ❖ Yetakchi mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalari bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovatsion o'quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun professional ta'lim tizimini sohasiga yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni hamda texnologiyalarni jalb etish;

- ❖ Mamlakat iqtisodiyotini yanada isloh qilish, uni barqaror o'stirish hamda modernizatsiyalash jarayonlarida samarali ishtirok etishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida o'quv jarayoniga innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va



ishlanmalarni faol qo'llab, kasb-hunar ta'limi va ishlab chiqarishning o'zaro yaqin hamkorligini ta'minlash;

- ❖ Professional ta'lim muassasalarining innovatsion texnologiyalarga asoslangan zamonaviy moddiy-texnika bazasini shakllantirish va yanada mustahkamlash, ularni yuqori samarali o'quv-laboratoriya uskunalari, kommunikatsiya texnologiyalari texnikasi bilan jihozlash va ulardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- ❖ Shaxslarga professional ta'lim bo'yicha tegishli malaka va ko'nikmaga, jumladan ta'lim muassasalarda o'qish davrida kasb-hunar ta'limini olish, professional ta'lim muassasalarda ixtiyoriylik asosida kasb yoki mutaxassislikka, hayot davomida kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlashdan o'tish imkoniga ega bo'lish sharoitlarini yaratish;

- ❖ Pedagoglar kasbiy mahorati va axborot kommunikatsiya texnologiyalari savodxonligini yuksaltirish;

- ❖ Ta'lim sifatini ob'yektiv baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Yuqorida keltirilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda kelajak professional ta'lim muassasalar ta'limini tubdan modernizatsiya qilish asosida amalga oshirish ko'zda tutilmoqda, ya'ni ta'limning sifat samaradorligiga ta'sir etadigan barcha omillarni (ta'lim standartlari, malaka talablar, o'quv dasturlari, o'qitish metodikalari va texnologiyalari, o'quv didaktik vositalar va h.k.) qayta ko'rib chiqib, zamonaviy talablardan kelib chiqib, tegishli o'zgartirishlar kiritish bilan amalga oshiriladi.

Fikrimizcha hozirgi kunda professional ta'lim tizimini oldida turgan eng katta va muhim dolzarb muammolardan biri bu professional ta'lim muassasalar pedagoglarining kasbiy mahorati va kompetensiyasidir. Ravshanki har bir mashg'ulotni biron-bir texnologiya asosida tashkil etish pedagogdan nafaqat kasbiy mahorat endi u ham moderator, ham tyutorlik san'atini egallagan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari savodxonligi yuqori saviyada bo'lgan kompetentli ustoz sifatida namoyon bo'lishi kerak. O'quvchini bilim olish jarayonida unga mustaqil fikrlash, tahlil qilish, kognitiv qobiliyatini rivojlantirish usul va yo'llarini ko'rsata oladigan mohir o'qituvchi bo'lishi kerak. Bunday talablar pedagog degan yuksak ma'suliyatni o'z zimmasiga olgan har bir shaxsdan o'z ustida muntazam va tizimli ishlashni taqozo qiladi. Zamonaviy professional ta'lim muassasalarda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng tarzda qo'llanilib o'quv mashg'ulotlari tashkil etilishi kerak, jumladan:

- ❖ materiallari kasbga o'rganuvchida tasavvur uyg'otish uchun vizuallashtirish;

❖ videodarslarni yo‘lga qo‘yish (o‘quvchi xohlagan vaqtda o‘tilgan darsni qaytadan ko‘rishi mumkin bo‘ladi);

❖ ta‘lim jarayoniga videoinstruktorlarni kiritish (darsda biron sabab tufayli qatnasha olmagan o‘quvchi uchun bu katta qulaylik tug‘diradi).

Yuqorida keltirilgan usullarni joriy etish uchun virtual laboratoriyalar, elektron ta‘lim va multimediya resurslari bazasi yaratilgan bo‘lishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Качество образования: инновационные тенденции и управление [Электронный ресурс]: монография / В.П.Панасюк, Н.В.Третьякова. Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2018. 201 с.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni.

## MOLIYAVIY SAVODXONLIK - IQTISODIY TARAQQIYOT ASOSI

*Babadjanova Malika*

*Nukus shahar 2-son kasb-hunar maktabi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘quvchilarning moliyaviy savodxonligini oshirish, kelgusidagi rejalarida moliyaviy tejash masalasi bo‘yicha nazariy ma‘lumotlarni shakllantirish haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** iqtisod, moliyaviy iqtisod, moliyaviy ko‘nikma, boshqaruv, moliyaviy inqiroz.

Bugungi kunda jamiyatimizda insonlarning moliyaviy savodxonligini oshirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy xizmatlarning ortishi aholining savodxonlik darajasi yuqori bo‘lishini talab etadi va yaqqol isbotidir.

Aslida moliyaviy savodxonlik deganimiz nima? degan savol tug‘ilishi tabiiy.

**Moliyaviy savodxonlik** – bu shaxsiy moliyaviy boshqaruv, byudjetlashtirish (kirim-chiqim) va investitsiyalarni o‘z ichiga olgan turli xil moliyaviy ko‘nikmalarni tushunish va samarali ishlatish qobiliyati sanaladi.



Ayni damda moliyaviy savodxonlik iqtisodiy taraqqiyotimiz uchun yanada muhim ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Istalgan moliyaviy maqsadlarga erishish uchun aholining daromad topish, sarflash, tejash, qarz va investitsiyalar bo'yicha savodxonlik darajasi yuqori bo'lishi muhim hisoblanadi.

Jamiyatimizda insonlarning moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lishi natijasida tadbirkorlikda omadsizlikka uchrashi, o'z moliyaviy resurslarini to'g'ri joylashtira olmasligi mumkin. Mavjud moliyaviy bozor instrumentlaridan maqsadli foydalana olmasligi oqibatida esa kambag'allik yoki o'rta hol turmush darajasidan yuqori pog'onalarga chiqishi murakkablashadi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, aholining moliyaviy jihatdan savodsizligi shaxsiy farovonlik uchun ham ancha zarari bor, shuningdek, butun moliyaviy sohaga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi, albatta.

Insonlarda moliyaviy savodxonlikning yuqori darajada bo'lishi to'g'ri investitsiya qilishi, doimiy daromad manbaini shakllantirishda hamda keksalikda o'zining moddiy ehtiyojlarini qoplashi uchun aql bilan tadbirli ish tutushini ta'minlaydi.

Aholi moliyaviy savodxonligining ijtimoiy ahamiyati ham mavjud. Sababi, shaxsning moliya borasidagi bilim va ko'nikmalari natijasida butun jamiyat iqtisodiy hayotining muvaffaqiyati va barqarorligini belgilab beradi. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, fuqarolarning o'z daromadlari va xarajatlarini aniq tasavvur eta bilmasligi yoki noto'g'ri rejalashtirishi oqibatida kreditorlik qarzдорlik paydo bo'ladi, moliyaviy piramidalar va firibgarliklar sonining oshishiga olib keladi. Global miqyosda bu mamlakat iqtisodiyotini moliyaviy inqirozga olib kelishi mumkin. Endi bu borada asosiy muammo nimada? degan savol tug'iladi. Ya'ni insonlar boyligini, ularning ilmsizligi, yetarli ma'lumotga ega emasligi, haq-huquqlarini unchalik yaxshi bilmasligidan foydalangan holda tez va osonlikcha o'zlashtirish, aldov va firibgarlikdan foydalanish uzoq o'tmishdan davom etib kelmoqda. Ayniqsa, texnika va texnologiyalar rivojlangan bugungi kunda bu narsa yanada takomillashganligi bois moliyaviy xizmatlarning ishonarli yoki ishonarsiz manbalardan taklif etilayotganligini aniqlash imkoniyati juda murakkablashgan desak mubolag'a emas. Chunki har qanday inson telefoniga kelgan aldov SMS-xabarlar yoki o'ta professional darajada o'zlarini reklama qilish orqali firibgarlikka qurilgan har xil (biznes piramidalar, virusli dasturlar, soxta tadbirkorlar, soxta yutuqli o'yinlar va hokazo) xizmatlarning qurboniga aylanib qolishi mumkin.

Xo'sh, bu yuqorida keltirilgan muammolarga qanday yechim topishimiz mumkin?

Darvoqe, insonning ma'lum soha bo'yicha ilm va tushuncha olishida ta'lim eng muhim tizim hisoblanadi. Yoshlarning moliyaviy savodxonligini asta-sekin

ta'lim davrida oshirib borish samarali natijadir. Buning uchun har bir hududda hamda ish joylarida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha ekspertlarni jalb qilgan holda treninglar tashkil etish zarur. Mahalliy hokimiyat, ish beruvchilar, mahalla faollari bu borada yanada mas'uliyatli bo'lishlari lozim, chunki har qanday moliyaviy yo'qotish bir oila uchun bu o'sha hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga sekin asta ta'sir qilib boradi. Uy xo'jaliklari, oilalar va shaxslarga o'z byudjetlarini shakllantirish va rejalashtirishga oid bilim hamda ko'nikmalarni muntazam berib borishning universal usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish maqsadga muvofiq. Shuningdek, aholining turli ijtimoiy guruhlari uchun mo'ljallangan moliyaviy savodxonlik, uning tarkibiy qismlarini takomillashtirish bo'yicha turli axborot va ta'lim dasturlarini ishlab chiqilishi, hamda ularni muntazam tegishli aholi qatlamlari uchun yetkazib borish ham muhim choralardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy savodxonlik aholining kundalik hayotdagi iqtisodiy voqea va jarayonlar, jumladan, oziq-ovqat va uy-ro'zg'or buyumlarini xarid qilish, turli resurslar (elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi) va kommunal xizmatlardan foydalanganlik uchun to'lovlarni amalga oshirish, xususiy yoki davlat sektorida mehnatda band bo'lish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, qolaversa, tijorat banklari kreditlaridan foydalanish va hokazolarda ishtirok etishigacha qamrab oladi. Uning markazida inson turadi. Yuqorida sanalgan jarayonlarni amalga oshirishdan maqsad ham uning farovonligi va hayot sifatini oshirish hisoblanadi. Shu bois ham aholida moliyaviy savodxonlik yuqori bo'lishi zarurdir. Chunki moliyaviy savodxonlik iqtisodiy taraqqiyotimiz asosidir. Bundan tashqari jamiyatda har bir shaxs uzoq muddatli qarorlar qabul qila bilishi va moliyaviy rejalashtirish usullarini to'g'ri anglamog'i lozim. Aholi orasida o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi kabi ishlarni tizimli amalga oshirish, ularning moliyaviy savodxonligini oshirish bugungi zamon talabidir.

## **GENDER TENGLIK VA AYOLLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIIY FAOLLIGI**

*Baqoyev Olim Atoyevich*

*Professional ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil tadqiqotchisi,*

*Vobkent tuman 2-son kasb-hunar maktabi*

Ma'lumki, tarixiy taraqqiyot davomida O'zbekiston jahonning rivojlangan davlatlari qatori o'z milliy qiyofasida, ya'ni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida xalqimizning milliy mentalitetiga xos bo'lgan ijobiy an'analar va qadriyatlarni



saqlab qolgan holda maydonga chiqdi. Bu davr jamiyatimizda ayollarni ulug‘lash, davlat tomonidan ularni siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy manfaatlarini himoya qilishning negizi sifatida tarix zarvaraqlarida yorqin iz qoldirdi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan tizimli tadbirlar ayollar masalasining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligidan dalolat beradi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatimizda ayollar masalasiga umumijtimoiy va milliy jihatdan yondashishni talab etadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning negizini har doim iqtisodiyot, jamiyatda yetakchilik qilayotgan iqtisodiy munosabatlar belgilab kelgan. Sub’yektiv omillarning ahamiyati qanchalik yuqori bo‘lmasin, pirovardida iqtisodiy muammolarni hal etish orqaligina ma’naviy-madaniy voqelikka aylanadi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish davlat va jamiyat tomonidan maxsus chora-tadbirlar ko‘rishni, uzoqqa mo‘ljallangan rejalar, dasturlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bugun dunyo miqyosida tadbirkorlik va biznes sohasida qolishmasliklarini isbotlamoqdalar. Statistik ma’lumotlar ayollarning ta’siri oshib borayotganidan dalolat bermoqda.

Tadbirkorlik tashkilotlari, sohasini rivojlantirishga biznes tuzilmalari, banklar ko‘maklashuvchi davlat va nodavlat hamda moliyaviy institutlarning tashkil etilishi va ular amalga oshirayotgan ishlar biznes sohasini mustahkamlashga va bozorda o‘z o‘rnini topib olishga imkoniyat yaratib kelmoqda.

Shu o‘rinda Buxoro viloyati «Tadbirkor ayol» uyushmasidan olingan ma’lumotlarga e’tibor bersak, viloyat iqtisodiyotini rivojlantirishda tadbirkor ayollar ham salmoqli o‘rin tutishiga guvoh bo‘lamiz.

Buxoro viloyatida bozor infratuzilmasini rivojlantirishda ayollarning roli va o‘rnining ortib borishiga ko‘maklashayotgan «Tadbirkor ayol» uyushmasi faoliyati misolida nodavlat notijorat sektorining ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi salmog‘ini kuzatish mumkin. Ushbu uyushmaning asosiy vazifasi ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, qo‘llab-quvvatlash, bilimlarini oshirish, huquqiy himoyalash, ish o‘rinlari tashkil qilish, kasb-hunarga o‘rgatish, hunarmand ayollarning o‘z mahsulotlarini ko‘rgazma-sotuvlarga chiqarishlarida ko‘maklashishdan iborat.

Ayollar o‘rtasida «O‘z ishingni boshla», «Tadbirkorlik faoliyatining imkoniyatlari va huquqiy asoslari», «Biznes–rejalashtirish», «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish» mavzularida o‘quv-seminar va treninglar o‘tkazilishi natijasida Uyushma ayollarni mulk sub’yektlariga aylantirish ishlariga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda. O‘z ishini boshlagan tadbirkor ayollarga imtiyozli va foizsiz kreditlar olishlarida ko‘maklashilib, ularning grantlar dasturida ishtirok

etish imkoniyatlari kengaytirildi, ularga konsalting xizmatlari ko'rsatilmoqda.

Joylarda uyushmaning biznes trenerlaridan tashqari kasb-hunar o'rgatuvchi ustalari ham faoliyat yuritishmoqda. Ular ayollarga milliy hunarmandchiligimiz turlarini o'rgatishmoqda. Iqtisodiyotimizning barcha sohalarida ayollar ishtiroki – bu ularning jamiyatda ayollarga yaratib berilgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalanib, o'zi, oilasi va jamiyatimiz taraqqiyotiga qo'shayotgan munosib ulushi deb bilamiz. Har bir ochilgan sex, korxonalar yoki uyda o'tirib bajarilgan bejirim ish – bularning hammasi jamiyat va ayol uchun foyda keltiradi, ayolning jamiyatdagi mavqeini yanada oshiradi.

Hozirgi kunda xotin-qizlarimizning jamiyatdagi rolini oshirishga, ularni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham juda katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni [1] qabul qilindi. Qonun bilan ilk bor milliy qonunchiligimizda “gender” tushunchasiga ta'rif berilib, davlat xizmati, saylov jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim, ilm-fan, madaniyat hamda sog'liqni saqlash sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun davlat tomonidan teng huquq va imkoniyatlar yaratilishi kafolatlandi. Gender tenglikni ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, parlament yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha Maslahat-kengashlari tashkil etildi.

Ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy hayotga keng jalb etish, islohotlarning faol sub'yektlariga aylantirish mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning shartlaridan biridir. Aynan shuning uchun ham respublikamiz hukumati xotin-qizlarning ijtimoiy va ijodiy kuchlaridan, intellektual salohiyatidan, irodasi va mehnatidan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rib kelmoqda. Ammo bu borada amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar ham ancha.

Birinchi, O'zbekiston xotin-qizlarining bilimini, intellektual salohiyatini, ijtimoiy-huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish masalalari umumdavlat miqyosida hal etilishi darkor.

Ikkinchi, moddiy-iqtisodiy qiyinchiliklarni eng avvalo ayollar, oila sezadi, payqaydi. Bu esa, ularni har qanday vazifalarni bajarishga undaydi. Faqat ongli, bilimli va yuqori malakali ayol o'zini, oilasini o'ylashdan tashqari yon-atrofidagi kishilarni ham ish bilan ta'minlashga intiladi, yangi korxonalar, firmalar va ish joylari barpo etib, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga o'z



hissasini qo‘shadi.

Uchinchidan, O‘zbekiston ayollarida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda faol, xususiyl mulk sub‘yektlari sifatida qatnashishga xohish va intilish mavjud. Ularni ish bilan band etish uchun esa, ayollar tadbirkorligi va ishbilarmonligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (O‘RQ-562-son 02.09.2019).
2. Ahrorova S.A. O‘zbekistonda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish omillari: Falsafa fan. nomz. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2005.
3. Shayxova X.A. O‘zbek ayoli – odob timsoli. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2007.
4. Хусейнова А.А. (2010). Торговля людьми: попытка противодействия. Социологические исследования, (11), 150-151.
5. Холова, Э.Х., & Хусейнова, А.А. (2010). Закон Республики Узбекистан «о противодействии торговле людьми». Journal of Siberian Medical Sciences, (4).

## **MALAKA OSHIRISH JARAYONINI SMART TA’LIM TEKNOLOGIYASI ORQALI TASHKIL ETISH**

*Begimqulov Hasanboy Shukurboy o‘g‘li*  
*Professional ta’limni rivojlantirish instituti dotsenti (v.b.)*

Zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etilishi jamiyat taraqqiyotining zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Demokratik islohotlar va bozor iqtisodiyotini rivojlantirish yo‘lidan borayotgan O‘zbekiston ham bundan mustasno emas. Mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq amalga oshirilmoqda [1]. Bu yo‘nalishda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy metodlarini joriy etishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Uzluksiz malaka oshirish tizimida raqamli texnologiyalar asosida pedagog kadrlarning masofaviy malaka oshirish tizimi maqsadini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ta’lim jarayonining mazmuni, tarkibiy-tashkiliy qismlarini axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari va vositalari imkoniyatlarini inobatga olgan holda uzviylashtirish va tizimlashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [2].

SMART-ta'lim texnologiyalar – masofaviy malaka oshirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladigan innovatsion texnologiya hisoblanadi.

"SMART Education" yoki SMART-ta'lim – bu vaqt va manzildan qat'iy nazar, global tarmoqdagi kontentlardan mobil qurilmalar orqali foydalanishga asoslangan interaktiv ta'lim muhitidir.

SMART tushunchasi nimani anglatadi?

S - Self-Directed – o'z-o'ziga yo'naltirilgan;

M - Motivated – motivatsion;

A - Adaptive – adaptiv;

R - Resource – ochiq manba;

T - Technology Embedded – texnologiyalar bilan to'ldirilgan.

SMART-ta'lim ko'p sonli manbalarga ega bo'lishni, multimedaning turli xilligi (audio, video, grafika), tinglovchining darajasi va ehtiyojlariga tez va oddiy tarzda moslashish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu butunlay yangi ta'lim muhiti bo'lib, unda ta'lim faoliyati ta'lim muassasalari tarmog'i va professor-o'qituvchilar o'rtasida o'rnatilgan umumiy standartlar, texnologiyalar va kelishuvlar asosida onlayn tarzda amalga oshiriladi va umumiy kontentdan foydalanadi.

SMART (aqlli), birinchi navbatda, nafaqat ta'limni, balki boshqa faoliyat turlarini ham sezilarli darajada o'zgartiradigan, uni bilimlardan foydalanishga yo'naltiradigan jamoaviy faoliyat kommunikatsiya texnologiyalarining mavjudligi bilan tavsiflanadi [3]. Raqamli va jamoaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga erishiladi. Shu bilan birga, SMART-ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish fikrlash va ijodkorlikni individual o'rganish bilan birlashtirilgan.

Uzluksiz malaka oshirish tizimida SMART-ta'lim texnologiyalardan foydalanishning afzalliklaridan biri bu trenerlarning har bir tinglovchi bilan individual ishlash imkoniyatidir. Trenerlarga har bir tinglovchining bilim darajasi va ehtiyojlariga mos keladigan shaxsiy o'quv dasturini yaratishi, shuningdek, jamoaviy loyiha faoliyatini tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, SMART-ta'lim texnologiyalari masofaviy ta'limning muhim elementi bo'lgan bilimlarni onlayn sinovdan o'tkazish va baholash imkonini beradi. O'qituvchilar SMART-ta'lim texnologiyalaridan tinglovchilarining bilim darajasini baholashga yordam beruvchi testlar va so'rovnomalar yaratishda foydalanishlari mumkin.

Sun'iy intellekt (Artificial intelligence) va ma'lumotlarni tahlil qilish (Data analysis) texnologiyalari SMART-ta'limning asosini tashkil etadi. Shaxsga



yo‘naltirilgan malaka oshirish kurslarini yaratishda SMART-ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish ta‘limga innovatsion yondashuv hisoblanadi.

Sun‘iy intellektga asoslangan SMART-ta‘lim xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

1. **Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim** har bir tinglovchi uchun individual ehtiyoj va qobiliyatlariga mos ravishda o‘quv dasturlarini yaratish imkonini beradi.

2. **Adaptiv yondashuv** o‘quv dasturi mazmunini har bir tinglovchining bilim darajasi, qiziqishlari haqidagi ma‘lumotlardan foydalangan holda individual ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradi.

3. **Interaktiv texnologiyalar** tinglovchilarga malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ishtirokini oshirish va ta‘lim samaradorligini oshirish uchun virtual yordamchilar, chat-botlar va boshqa vositalar kabi interaktiv texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi.

Ma‘lumotlarni tahlil qilish (Data analysis) texnologiyasi ta‘lim jarayoni unumdorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalar va ma‘lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanadigan ta‘limga innovatsion yondashuv hisoblanadi. Ma‘lumotlar tahliliga asoslangan SMART-ta‘limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. **Katta hajmli ma‘lumotlar** – ta‘lim jarayonining samaradorligini tahlil qilish va baholash uchun o‘quv materiallari, test sinovi natijalari va boshqa turli manbalardan to‘plangan katta hajmdagi ma‘lumotlar.

2. **Baholashning takomillashtirilgan usullari** – tinglovchilar bilim, malaka va ko‘nikmalarini baholashning aniq va ob‘yektiv usullarini, masalan, test va topshiriqlar javoblarini tahlil qilish imkonini beradi, bu esa tinglovchilarning o‘zlashtirishini yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

3. **Ma‘lumotlar tahlili** – ta‘lim jarayoni haqidagi ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilish va kelajakdagi ta‘lim talablarini bashorat qilish imkonini beradi.

Sun‘iy intellekt (Artificial intelligence) va ma‘lumotlarni tahlil qilish (Data analysis) texnologiyalari yuqori samaradorlikka erishish uchun tinglovchilarning bilim darajasi, o‘rganish uslubi, topshiriqlarga sarflangan vaqt va shu kabi boshqa omillarni hisobga olgan holda o‘quv jarayonini optimallashtiradi.

Shunday qilib, SMART-ta‘lim texnologiyalari asosida shaxsga yo‘naltirilgan masofaviy malaka oshirish platformasini takomillashtirish asosida har bir tinglovchiga adaptiv shart-sharoitlarni ta‘minlash ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2018-yil 21-sentabrdagi PF-5544-sonli «2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmon.

2. Zakirova F.M., Xurramov B.S. Masofaviy o‘qitish tizimini rivojlantirishdagi muammolar va yechimlar xususida tahliliy mulohazalar // Современное образование (Узбекистан). 2021. №1 (98). 18-27 б

3. Бектурова З.К., Вагапова Н.Н. Smart-технологии в образовании // Педагогическая наука и практика. 2015. №3 (9). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/smart-tehnologii-v-obrazovanii> (дата обращения: 29.03.2023).

### TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH – DAVR TALABI

*Begimqulova Sevara Shukurboyevna*

*Loyixa xodimi, Guliston tibbiyot texnikumi o‘qituvchisi*

Respublikamizda ta’lim islohotlariga davlat siyosati darajasida e’tibor qilinib, sohada innovatsiya va raqamli texnologiya yutuqlaridan foydalanish tobora jadallashtirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi”.

Ta’lim sohasini raqamlashtirish faqatgina o‘quv jarayoniga elektron ta’limni joriy etishgina bo‘lib qolmasdan, ushbu sohaning barcha bo‘g‘inlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va boshqarish, axborot resurslari bilan ta’minlash, ish yuritish hujjatlari aylanmasini yo‘lga qo‘yish, moliyaviy tizimni optimallashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

*Ta’limni raqamlashtirish* – ta’lim sohasini uslubiy-amaliy jihatdan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalari bilan ta’minlash hamda ulardan samarali foydalanish asosida ta’lim-tarbiya jarayonining psixologik-pedagogik maqsadlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan jarayondir.



Bundan tashqari, raqamlashtirish masofali o'qitish tizimining taraqqiyoti uchun baza bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim sohasidagi raqamlashtirish XX asrning 90-yillari oxiridan boshlab jahon ilmiy jamoatchiligi e'tiborini tortdi. Ko'pgina tadqiqotchilar ilmiy ishlarida raqamlashtirishning asosiy xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan izlanishlar taqdim etildi. Xususan, xorijlik tadqiqotchilardan R.Barglow, H.A.Horst, D.Miller, N.Negroponte izlanishlarida raqamlashtirish tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari va shakllantirilishiga doir ilmiy mushohadalar bayon etildi.

Shuningdek, xorijiy mualliflarning tadqiqotlari rivojlanayotgan raqamli madaniyatni aniqlashga urinishlar, ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishning zamonaviy iqtisodiy talablarini qondirish imkonini beruvchi afzalliklarni taqdim qiladi.

Rossiyalik olimlar Y.V.Maslanov, G.L.Tulchinskiy, A.G.Chernishov ilmiy tadqiqotlarida esa raqamlashtirish masalalari, uning ta'lim tizimidagi o'rnini o'rganilganini ko'rish mumkin.

“Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida ba'zi tadqiqotchilar va o'qituvchilar tomonidan ta'limni axborotlashtirish raqamlashtirishning tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Jumladan, D.Sviridenko qarashicha, raqamlashtirish axborotlashtirish va kompyuterlashtirishdan keyingi bosqich bo'lib, u asosan hisoblash texnikalari, kompyuterlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq deb hisoblaydi”.

Ta'lim tizimida raqamli texnologiya imkoniyatlaridan foydalanish jamiyatni raqamlashtirish davriga adaptatsiyalashuvi, texnik va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va axborot xavfsizligi sohasidagi yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashni tashkil qilishni talab etadi. Raqamlashtirish albatta, oliy ta'limda elektron axborot muhitining shakllantirish, ta'limga innovatsiya va transformatsiyaning ildam kirib kelishi, ixtisoslik, mutaxassislik va ta'lim bosqichlariga muvofiq o'quv materiallarini moslashtirishni taqozo qiladi.

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish maqsadidan kelib chiqqan holda, so'nggi yillarda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, “Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayoni oliy o'quv yurtlariga qabul jarayonlaridan boshlandi. Yurtimizdagi barcha davlat oliy ta'lim muassasalarida HEMIS axborot tizimi joriy etildi.

Ushbu axborot tizimi jahon banki bilan hamkorlikda ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ushbu tizimni yaratish, o'quv jarayonini tashkil qilishda talabaning mustaqil ta'lim olishidan tortib, har bir fan yoki laboratoriya mashg'ulotini o'zlashtirish ko'rsatkichigacha bo'lgan barcha jarayonlar inobatga olingan. Bir so'z

bilan aytganda, raqamli texnologiyalar talabalarni axborot bilan ta'minlash, sifati ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda vaqt va makon cheklovlarini chetlab o'tishga yordam bermoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, davlatimizni taraqqiy ettirish faqatgina ta'limni kuchaytirish, uni zamonaviy innovasion texnika va texnologiyalar bilan boyitish hisobiga amalga oshishi mumkin. Bunday dolzarb vazifalardan biri esa, albatta o'quv jarayonini raqamli texnologiyalar orqali tashkil qilish, boshqarish, ta'limda multimedia va internet imkoniyatlari integratsiyasini ta'minlash hisoblanadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.

2. Fayzullayeva N.S. Ta'lim jarayonini raqamlashtirishda texnik va didaktik sharoitlari. "current issues of bio economics and digitalization in the sustainable development of regions" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand. 27-28-aprel, 2022-yil. 333-334-betlar.

3. Horst H.A. New Media Technologies in Everyday Life // Horst H.A., Miller D. (eds.) Digital Anthropology. London: Berg, 2012. Pp. 61-79.

4. Miller D., Horst H.A. The Digital and the Human: A Prospectus for Digital Anthropology // Horst H.A., Miller D. (eds.) Digital Anthropology. London: Berg, 2012. Pp. 3-38.

5. Масланов Е.В. Цифровизация и развитие информационно-коммуникационных технологий: новые вызовы или обострение старых проблем? // Цифровой учений: лаборатория философа. 2019. Т.2, №1. С.6-21.

6. Mahkamov M. Raqamlashtirish — ta'lim sifati va shaffoflikni ta'minlaydi. [https://uza.uz/uz/posts/raqamlashtirish-ta'lim-sifati-va-shaffoflikni-ta'minlaydi\\_451251](https://uza.uz/uz/posts/raqamlashtirish-ta'lim-sifati-va-shaffoflikni-ta'minlaydi_451251)



## PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI O'QUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

*Ergashev Bobirjon Bohodirovich*

*p.f.d., dotsent, Professional ta'limni rivojlantirish instituti, dekan,*

*Xasanov Mansur Abrarovich*

*Shayxontohur tuman kasb-hunar maktabi, Ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha  
direktor o'rinbosari:*

**Annotatsiya:** Professional ta'lim tizimida o'quv jarayonlarini sifatli tashkil etish hamda mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mezonlarining ilmiy amaliy asoslari keltirilgan.

**Аннотация:** Приведены научно-практические основы качественной организационной учебной деятельности в системе профессионального образования и критерии конкурентоспособной подготовки кадров на рынке труда.

Jahon pedagog olimlari va amaliyotchilarining pedagogik nazariyalariga ko'ra, professional ta'limda o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishda ta'limning uzviyligi-uzluksizligi, mantiqiyliigi va ehtiyojga asoslanganligi, ta'lim tizimi faoliyatining samaradorligi ta'lim oluvchining pedagogik-psixologik, iqtisodiy-ijtimoiy, individual qobiliyatlarini inobatga olgan holda bilim berishning turli xildagi usul, vositalarini qo'llash orqali, uning yashirin qobiliyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun texnika-texnologiya, ijodiy muhit va ta'lim makonini yaratish bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli, professional ta'limda o'qitishning uzviyligini ta'minlash, o'quv-bilish jarayonlarini rivojlantirish va ixtisoslik fanlar mazmunini amaliy ko'nikmalarga yo'naltirish, mutaxassislarda hayotiy va kasbiy faoliyatini tashkil etish uchun zarur amaliy bilimlarni izchil hamda maqsadli rivojlantirish, professional ta'lim muassasalarining ijtimoiy-iqtisodiy, uslubiy-metodik, ilmiy-pedagogik hamkorligini yangi bosqichga ko'tarish, ta'lim tizimida ilg'or pedagogik, raqamli texnologiyalar va o'qitishning kredit-modul tizimi kabi zamonaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish va bitiruvchilarning kasbiy kompetentligini ta'minlash tamoyillarini hamda metodikalarini ilm-fan taraqqiyoti tendensiyalari asosida takomillashtirishni talab etadi [1].

Professional ta'lim tizimida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish va takomillashtirishda bir qator mezonlarni e'tiborga olish zarur bo'ladi ya'ni [2]:

- hozirgi zamon talabiga javob beradigan o'quv-amaliyot jarayonlarini tashkil etishda eng avvalo jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga master-klasslar o'tkazish, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali pedagoglar hamda olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda Respublikamiz professional ta'lim muassasalaridagi o'quvchilar, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarning stajirovka o'tashlarini, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish;
- kasbiy-faoliyatga tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, ta'lim muassasasida o'qitish yo'nalishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar hamda iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, amalga oshirilayotgan hududiy va tarmoq dasturlarining talablarini inobatga olgan holda optimallashtirish;
- ta'lim muassasasida, o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, kasbiy-faoliyatga tayyorlashda ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish;
- yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni ta'lim muassasasining ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, shu jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlar sotib olish va tarjima qilish, axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish;
- kasbiy-pedagog kadrlarning professional mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish, xorijda kasbiy-pedagog va master xodimlarning malakasini oshirish hamda stajirovkasini o'tkazish;
- ta'lim muassasasida moddiy-texnika bazasini o'quv va ilmiy-laboratoriya bino va korpuslari, sport inshootlari, ijtimoiy-muhandislik infratuzilmasi ob'yektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ta'lim muassasasida ilm-fanining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalarini zamonaviy asbob va uskunalar bilan jihozlash orqali yanada mustahkamlash;
- ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, professional ta'lim tizimi o'quvchi va pedagoglarining jahon ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish shular jumlasidandir.



Bu keltirib o‘tilgan mezonlar professional ta’lim tizimida o‘quv jarayonlarini sifatli tashkil etishga imkon beradi, unga ko‘ra o‘quvchilarning shaxsini shakllantirishga, mutaxassis va uning kompetensiga ega bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan hamda ish beruvchilari va zamonaviy ta’lim xizmatlari bozori talablarga javob beradigan kasbiy-pedagogik xususiyatlar va sifatni orttirish imkonini beradi [3].

### **Adabiyotlar**

1. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Dis....pedagogika fan. doktori - Toshkent, 2007. - 349 b.
2. Ergashev B. Monitoring ta’lim sifatini boshqarish vositasi sifatida // Namangan Davlat Universiteti Ilmiy Axborotnomasi. – Namangan. - 2019. - №5.- B. 414 – 419
3. Эргашев Б.Б. Качество образования как критерий конкурентоспособности выпускников вуза на рынке труда // Наманган Давлат Университети Илмий Ахборотномаси. – Наманган. - 2020. - №12. - Б. 329-333.

## **YOSHLAR VA XOTIN-QIZLAR O‘RTASIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIK VA TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBALAR**

*Ilxomov Baxodir Ilxom o‘g‘li*

*Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi o‘quv markazi,*

*“Davlat moliyasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)*

**Annotatsiya.** Jadal iqtisodiy rivojlanish sharoitida moliyaviy savodxonlik muvaffaqiyatli tadbirkorlikning asosiy omiliga aylanmoqda. Bu, ayniqsa, moliyaviy mustaqillikka erishish yo‘lida murakkabliklarga duch keladigan yoshlar va xotin-qizlar uchun muhim jihat hisoblanadi. Mazkur maqolada moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik ko‘nikmalari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilingan shuningdek, xorijiy tajribalardan foydalangan holda samarali o‘qitish amaliyoti o‘rganilgan.

**Аннотация.** В условиях стремительного экономического развития финансовая грамотность становится главным фактором успешного предпринимательства. Это важный аспект, особенно для молодых людей и женщин, которые сталкиваются с трудностями на пути к достижению финансовой независимости. В данной статье анализируется взаимосвязь между финансовой грамотностью и предпринимательскими навыками, а

также исследуется практика эффективного обучения с использованием зарубежного опыта.

Jahon iqtisodiy tizimiga integratsiya va globallashtirish jarayonlari bugungi kunda moliyaviy savodxonlikni nafaqat shaxsiy moliyani boshqarish vositasi, balki muvaffaqiyatli tadbirkorlikning muhim omili sifatida belgilamoqda. Mazkur jihat moliyaviy mustaqillik va tadbirkorlik borasida bir qator qiyinchilik va murakkabliklarga duch keladigan yoshlar va xotin-qizlar uchun e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim masaladir. Iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, moliyaviy savodxonlik sohasida tashkil etilgan tizimli va maqsadli ta'lim, istiqbolda yoshlar va xotin-qizlarning moliyaviy mustaqilligini sezilarli darajada oshirishi mumkin [1]. Bu holat nafaqat barqaror moliyaviy odatlarni rivojlantirishga hissa qo'shadi, balki tadbirkorlik tashabbusini rag'batlantiradi, daromad olish imkoniyatini osonlashtiradi, bozor mexanizmlarini tushunishni hamda biznes loyihalarini boshqarish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish ayniqsa yoshlar va xotin-qizlar uchun ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning katalizatori bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan strategik manba hisoblanadi.

Moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik ko'nikmalari ikki xil tushuncha bo'lib, ular tabiatan har xil bo'lsa-da, zamonaviy biznes manzarasi kontekstida bir-birini sezilarli darajada to'ldiradi. **Moliyaviy savodxonlik** - nafaqat pulni boshqarish qobiliyati yoki asosiy iqtisodiy tamoyillarni tushunishni nazarda tutadi. Balki moliyaviy vositalar, mexanizmlar va mahsulotlar, shu jumladan byudjetlashtirish, soliqqa tortish, investitsion strategiyalar, qarzlarni moliyalashtirish va xatarlarni boshqarish bo'yicha keng qamrovli tushunchadir. Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy muhitda moliyaviy savodxonlik kriptovalyutalar va boshqa moliyaviy texnologiyalar kabi yangi moliyaviy vositalarga moslashish qobiliyatini ham anglatadi. Ilmiy adabiyotlarda moliyaviy savodxonlik - shaxsning moliya va investitsiyalarni boshqarish bilan bog'liq samarali qarorlarni qabul qilish uchun moliyaviy bilimlarni qo'llash qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Bunga pulning vaqt qiymati, foiz stavkalari, inflyatsiya, aktivlarni diversifikatsiya qilish va xatarlarni boshqarish kabi asosiy tushunchalarni anglash kiradi. Zamonaviy tadqiqotlar moliyaviy savodxonlikning rolini oshirish bilan birga, oddiy byudjetni boshqarish yoki pensiyani rejalashtirishdan tashqari, soliq yukini optimallashtirish, korporativ moliya menejmenti va moliya bozorini tahlil qilish kabi strategik jihatlarni ham o'z ichiga oladi [2].

**Tadbirkorlik ko'nikmalari** - muvaffaqiyatli biznesni boshlash va boshqarish uchun zarur bo'lgan keng ko'nikmalarni qamrab oladi. Ushbu ko'nikmalarga



strategik rejalashtirish, marketing, inson resurslarini boshqarish, yetakchilik, innovatsion qobiliyat va boshqalar kiradi. Shuningdek, tadbirkorlik ko'nikmalari ko'p qirrali bo'lib, tijorat imkoniyatlarini aniqlashdan tortib, biznesning barcha jihatlarini boshqarishgacha bo'lgan bir qator ko'nikmalarni qamrab oladi. Ushbu ko'nikmalarga bozor tahlili, biznes modelini ishlab chiqish, strategik rejalashtirish, operatsiyalarni boshqarish, marketing va sotish, inson resurslarini boshqarish ko'nikmalari kiradi. Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik ko'nikmalari faoliyat samaradorligi va muvaffaqiyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan madaniy, iqtisodiy va psixologik kabi turli omillarni hisobga olgan holda o'rganiladi.

Moliyaviy savodxonlik sohasidagi xorijiy tajribalar davlat va xususiy tuzilmalarning faol ishtirokini o'z ichiga olgan murakkab kompleks yondashuvni nazarda tutadi. Moliyaviy savodxonlik ilmiy tadqiqotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va aniq demografik guruhlariga qaratilgan bo'lib, bu uni nafaqat shaxsiy moliyaviy boshqaruv vositasi, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning kuchli katalizatoriga aylantiradi.

AQSH, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi kabi rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy savodxonlikning ahamiyati yuqori baholanadi. Masalan, Aqshda boshlang'ich maktab darajasida boshlanadigan va universitet kurslarida davom etadigan turli xil o'quv dasturlari mavjud bo'lib, bunday dasturlar ko'pincha ularning samaradorligini baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar bilan birga olib boriladi va bu ularni takomillashtirish imkonini beradi. Yevropa Ittifoqining ko'plab mamlakatlarida moliyaviy savodxonlik milliy rivojlanish strategiyalariga kiritilgan bo'lib, barqaror va raqobatbardosh iqtisodiy muhitni qo'llab quvvatlash maqsadida dasturlarni Davlat tomonidan moliyalashtirish yoki subsidiya ajratish amaliyotlari mavjud. Xorijiy tajribalar shuni ta'kidlaydiki, moliyaviy savodxonlik - kredit olish imkoniyatini yaxshilash, investitsiyalar darajasini oshirish va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi. Xorijiy mamlakatlarda e'tiborli jihat shundaki, moliyaviy savodxonlik ko'pincha ijtimoiy integratsiya va harakatchanlik vositasi sifatida qaraladi, ayniqsa tadbirkor xotinqizlar va yoshlar uchun ayrim mamlakatlarda biznesning umumiy jihatlaridan tashqari moliyaviy rejalashtirish va boshqarishga qaratilgan ixtisoslashtirilgan dasturlar ham mavjud. Yoshlar uchun muvaffaqiyatli moliyaviy savodxonlik dasturlaridan biri Aqshdagi **Junior Achievement** bo'lib, ushbu notijorat loyiha nafaqat moliya va iqtisodiyot to'g'risida fundamental bilimlarni beradi, balki ishtirokchilar o'rtasida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun interaktiv usullar va amaliy tadqiqotlardan faol foydalanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday dasturlarning samaradorligi ko'pincha moliyaviy farovonlik darajasi, iqtisodiy hayotda ishtirok etish darajasi kabi qisqa muddatli va uzoq muddatli

ko'rsatkichlarni hisobga oladigan ilmiy tadqiqotlarda o'rganiladi. Xotin-qizlar o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar bilan birga ularning iqtisodiy mustaqilligini oshiradi. Xotin-qizlar uchun moliyaviy savodxonlik dasturlari nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan mamlakatlarda ham muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Biroq, ushbu dasturlarning samaradorligi ko'pincha ularning mahalliy sharoitlarga, shu jumladan Qonunchilik asoslari, madaniy xususiyatlari va iqtisodiy omillarga moslashish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. AQShdagi istiqbolli amaliyotlardan biri bu "Financial Literacy Bootcamps" deb nomlangan - yosh tadbirkorlar uchun mo'ljallangan intensiv qisqa muddatli kurslar bo'lib, ular odatda universitetlar, moliya institutlari va startup inkubatorlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi[3]. Mazkur kurslarda nafaqat nazariy bilimlar, balki biznes ssenariylarini simulyatsiya qilish va real holatlarni tahlil qilish kabi amaliy mashg'ulotlar qo'shib olib boriladi. Tadbirkor ayollarni global miqyosda qo'llab-quvvatlash uchun ko'p funksiyali "Women Entrepreneurs Finance Initiative (We-Fi)" nomli platforma yaratilgan bo'lib, ushbu tashabbus uchta asosiy jihatga qaratilgan: moliyaviy mablag'lar va ta'lim resurslari bilan ta'minlash hamda o'zaro aloqa[4]. "Women Entrepreneurs Finance Initiative (We-Fi)"ning eng muhim yutuqlaridan biri bu xotin - qizlar uchun maxsus ishlab chiqilgan mikrokreditlar va grantlar kabi moliyaviy vositalarni yaratishdir.

Xulosa qilib aytganda yoshlarning va xotin-qizlarning moliyaviy savodxonligini oshirish va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish yo'nalishidagi xorijiy tajribalar kompleks yondashuvni nazarda tutadi. Moliyaviy savodxonlik muvaffaqiyatli tadbirkorlikning muhim omili sifatida moliyaviy mustaqillikka erishishda murakkabliklarga duch keladigan yoshlar va xotin-qizlar uchun muhim hisoblanadi. Xorijiy tajribalar xususan, AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi turli dastur va tashabbuslarni o'rganish moliyaviy savodxonlikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vositasi sifatida muhimligini tasdiqlaydi. "Financial Literacy Bootcamps" va "Women Entrepreneurs Finance Initiative (We-Fi)" kabi moliyaviy ta'lim dasturlari yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmidir. Umuman olganda, moliyaviy savodxonlik alohida mahorat emas, balki tadbirkorlik ko'nikmalarining keng doirasining bir qismidir. Uni yoshlar va xotin-qizlar o'rtasida targ'ib qilish nafaqat ushbu guruhlarining iqtisodiy farovonligiga hissa qo'shadi, balki jamiyatning umumiy iqtisodiy rivojlanishi uchun ham juda muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar va ta'lim tashabbuslari dolzarb hisoblanadi.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Williams T. (2021). "Women Entrepreneurs Finance Initiative: A Case Study". *Journal of Women in Business*, 10(3), pp. 200-219.
2. Smith J. (2020). "The Role of Financial Literacy in Entrepreneurial Success." *Journal of Business Studies*, 45(2), pp. 123-145.
3. GEM Women's Report. (2019). "Women's Entrepreneurship 2018/2019 Report". *Global Entrepreneurship Monitor*. Str. 34-46.
4. We-Fi Annual Report. (2020). "Empowering Women Through Entrepreneurship: Global Trends and Results". *Women Entrepreneurs Finance Initiative Publications*. Str. 7-21.
5. B.Ilxomov, Hududlarda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish borasida xorijiy tajribalar: asosiy mexanizmlar va yondashuvlar // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, Toshkent 2023, may
6. Chakrabarti R., & Scholnick B. (2019). "The Mechanics of Financial Literacy". *Journal of Economic Perspectives*, 33(3), 225–241.
7. SBA & WHM (2020). "Financial Literacy Programs and Their Impact on Minority Entrepreneurship". *Small Business Administration & Women's Business Centers*. Str. 9-18.

### ISSUES TO ENSURE THE ACTIVE PARTICIPATION OF YOUTH AND WOMEN IN SOCIETY INCLUDING GENDER EQUALITY

*Ilkhomova Gulnoza Zayniddin qizi*

*Master Student, Department of Foreign Economic Activity and Tourism,  
Tashkent State University of Oriental Studies,*

#### **Abstract.**

This article examined the main demographic indicators of youth and their relationship was also studied using the example of global popularity among gender representatives on Instagram. In the modern world we cannot imagine ourselves without virtual entertainment, since it has the ability to always be available and, under current conditions, it is highly effective in marketing, education and entertainment. Each person now, before making a choice, can first look at the virtual part of these offers. The scientific work examined consequences of gender equality by ensuring the participation of youth in social/cultural life and the role of women in the development of entrepreneurship in Uzbekistan. These issues are the most pressing and promotional and accompanying support from the state will be

continuously introduced, as well as all the necessary work will be introduced for implementation from a variety of segments of the population.

**Key words:** *Legislation, fair, society, improvement, generation Y, millennials.*

In accordance with the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated March 7, 2019 No. PP-4235 “On measures to further strengthen guarantees of labor rights and support women’s entrepreneurial activities,” Much attention is paid to the active involvement of women in social life and the introduction of new projects to support for the implementation of entrepreneurial activities. This resolution significantly softens working hours for women with children and provides the opportunity to combine work and maternal care. According to this document, the introduction of business among women is highly valued and support is provided in all possible ways. For the active and healthy development of youth, there are various projects and actions. Similarly, launched among women the new direction “Oqila Ayollar” (Translation: Smart, resourceful, intelligent, wise girl). Moreover, Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, dated October 12, 2021 No. 637, On Approval of the Regulations on the Procedure for Issuing no security loans for the Construction of Additional Housing for Children of Families Included in The “Iron Book” And “Women’s Book” And Newlyweds Included in The “Youth Book”. These changes show the vastness of the area covered for dynamic development and show the high importance of the role of women in society through government support.

Successful woman. Nowadays, where development is actively taking place in every industry such as Economics, Culture, Medicine, Art, Digitalization, Education and much more, the role of a woman becomes more relevant since with the improvement of living conditions, a young mother can afford to engage in her favorite hobby and earn money from it. Additional classes or challenges always enlarge your horizons and worldview and have an impact on making certain decisions starting from A to Z. The extra experience acquired will allow a deeper understanding and can motivate detailed analysis and reflection before acting. After all, the right decisions are not always the fastest. Globalization has become much easier these days because of a worldwide system of computer networks and from one of the main attributes as Social Media helps to accomplish of Brand Recognition. New opportunities for introducing work or activity through digital platforms may well raise new questions and challenges among their users to promote their product. How can we describe a successful woman? who has a lot of



money or many children? or, nevertheless, the acquired knowledge and experience may be an indicator of success. After all, success is a long-term project in our life and you cannot achieve success in one day, but in a day it is also impossible to sense or experience your success. Therefore, gender equality is considered the most pressing issue in our society. Each person is considered a separate individual with his own point of view on a particular issue. Naturally, it is the responsibility of every individual to treat each other with respect. So, if we consider a request for additional experience or knowledge in a chosen field among women in a team of men, can a refusal to participate be considered fair? As it is believed in the East, the role of a woman is in the family hearth, but everyone always wants what is convenient for him and can interpret basic concepts in different ways. Sometimes we don't always want to do the right thing, but most likely we like to do what's convenient. Convenient is not always true, but a reasonable decision will be the key to success. In the space of these endless stereotypes, opinions, prejudices, statements, principles, behavior or attitude, being stricter and restrained in the totality of courage entails achieving goals and is considered the discipline of success. (Evy et al., 2023)

Inspiring youth. If history is knowledge and experience and ready-made material with which you can work, create, analyze, discuss, etc. then the future is the formation of this practice in the right direction. A good foundation laid initially will last for centuries, and with the younger generation there is a need to work carefully and tactfully. Just as in construction, it is necessary to avoid any possible injuries, so during the process of educating the younger generation, acquired injuries will not serve as a lesson. but on the contrary, a repulsive factor to avoid unnecessary memories. Therefore, rather than punishing for actions already committed, the best option would be to avoid bad consequences and this will save time of which we have little. The future is a correctly selected development strategy, then difficulties can be considered as errors in the process that need to be dealt with much more carefully and diplomatic. The behavior of young generation should inspire the older generations and not disgust them or cause negative opinions. In this context, the word inspire makes sense as encourage, because many already experienced individuals can build on what has been achieved and not consider innovations as new opportunities for development. This is where the younger generation provides positive assistance in the form of support and thereby builds strong relationships. In Ozhegov's dictionary (*Толковый Словарь Ожегова Онлайн*, n.d.) this word is translated as encourage or inspire. therefore, if the future is encouraging then history will be successful.

This scientific article selected to be done by observation method of research process among popular digital platform as Instagram. Instagram is currently one of the leading social networks among users and is very popular among young people and among the older generation. In this research work, the Instagram platform was chosen as the research area under study and to assess popularity among public figures, dividing them by gender. Several stage studies were carried out to determine the exact percentage of the ratio of men and women in virtual life. Initial stage is comparing Instagram social media users for 2023 from January till July. According the popularity indicator.

Social life. The first stage was to collect statistical materials among Instagram users. The second stage was to determine the rating of the most popular persons for the first half of 2023. During third stage all the collected data divides into three main categories as Male Users, Female Users and Popular Brands.





Figure 1.

According Figure 1, for the first half of 2023 among the most popular business accounts 64% users are women and 36% belongs to male users. Which describe that the most are female accounts as Public Persons or Singers. As the result we have hypothesis: Woman more active in virtual life. But if we include that Instagram platform is the one best ways to buy or sell products then we have brand accounts which help to develop Brand recognition and our TOP 20 business accounts also include popular brand and we easily can describe them as favorite brands all over the world. And their product valuable among any category of genders. That most well-known brands are Nike which is the fashionable



sportswear brand and NatGeo (National Geographic Wild – television channel about environment and wild life).

Based on the Figure 2, business accounts which have the highest percentage of followers divided into categories as Products Brands and Self Brands which has 2 main directions as Male and Female users. According this table, we got results the leading account also belongs to female persons that consist of 58% then we have Male user's accounts 33% and the lowest one is branded product 9%.



*Figure 2.*

Of course inside the whole Instagram accounts this lowest indicator is one of the leading products all over the world and high demanded among every user of this platform which is notable and attractive.

The most famous and highly investing sport is football, which is called the game of millions. Also on the pages of social networks, football and its players still remain at the peak of popularity.

Based on the report Statistics & Data research and statistic company the high-end sport is Football accordingly the most popular Instagram users are football players.

**Demographic data.** During this research work, the ratio of men and women of Millennials and Generation Z<sup>1</sup> in 2022 of Uzbekistan population was studied and their age between 20-29. The reason for choosing this particular age is the most important period when a person chooses a profession, what he or she wants to do in life, that is, the stage of self-awareness.




Figure 3

Based on Figure 3, we can look in detail the percentage of young men in Uzbekistan separately by regions. So, we have results on the Table 1 and 2.

Table 1. Population aged 20-29-Men, in thousands

Republic of Karakalpakstan	163 935
Andijan	271 258
Bukhara	159 752
Jizzakh	129 458
Kashkadarya	306 323
Navoi	84 611
Namangan	252 292
Samarkand	350 293
Surkhandarya	246 825
Syrdarya	74 607
Tashkent	234 035
Fergana	328 466
Khorezm	162 964
Tashkent	200 406



Table 2. Population aged 20-29-Women, in thousands

Republic of Karakalpakstan	155 603
Andijan	256 032
Bukhara	153 962
Jizzakh	122 907
Kashkadarya	289 478
Navoi	81 057
Namangan	237 999
Samarkand	334 688
Surkhandarya	236 166
Syrdarya	73 857
Tashkent	222 142
Fergana	310 985
Khorezm	159 038
Tashkent	202 789

The population data was obtained from the Agency for Statistics under the President of the Republic of Uzbekistan (<https://stat.uz/>). Based on the results, it can be seen densely populated areas in all regions of the country, including the Republic of Karakalpakstan, this data can be useful for implementing projects among youth and for local employment.




Figure 4

The proportion of young girls is smaller compared to boys which described on Figure 4. Therefore, the active participation of women and girls in society is very important and demonstrate that gender equality is supported without suppressing women's rights.




Figure 5

As performed on Figure 5, the proportion has distinctness for 2%. It is not high difference but also should be taken into account.

According to the results of this study, a ranking of the top 20 personalities by number of followers on Instagram was compiled in the category of business accounts. Their total number was 6059 users among men and women, also including popular brands. So, according the initial date by Global company Statista's report(*Www.Statista.Com*, n.d.) for business analytics from which the original Instagram user count database was based. During the second stage of the research all users were divided by their gender: female and male users and separately popular brands. The result indicators perform the TOP 20 popular female business accounts reached 3852 million followers. Male business accounts consist of 2207 million followers. Then the most popular brand for sportswear with TV channel. Based on obtained data, we got the result that in Uzbekistan the percentage of young women less for 2% compared to the same category of young men among population in the past year. Interesting moment that female accounts are highly popular, which proves the advertising for a female audience should be required through Instagram the best option. Promotion of various projects to attract women and the younger generation through social networks will have high efficiency.



## Reference

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.08.2022-yildagi 437-son “oqila ayollar” harakati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.10.2021-yildagi 637-son “Temir daftar” va “Ayollar daftari”ga kiritilgan oilalarning farzandlari hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yangi turmush qurgan yoshlarning yakka tartibdagi xonadonida qo‘shimcha uy-joy qurish uchun garovsiz kredit ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida qarori.
3. Fitri, N., Pinagaran Nasution, H., & Wiana, D. (n.d.). *Building Participation in Sustainable Mice Event Based on Social Identity in Medan City*.
4. Evy, C., Widyahening, T., & Handini, O. (2023). Film “Anna and the King”: A Reflection on West and East Cultural Misunderstandings. *Journal of Hunan University Natural Sciences*, 50(3).
5. *Влияние цифровой среды на современное мировоззрение: pro et contra*. (n.d.). Retrieved September 12, 2023,
6. United Nations Development Programme, Nativos, B., Pr, A. P., Tipo, a R., Nro, P. O. a, Nro, P. O. a, Referencial, C. F., No, E., World Bank, Rogério dos Santos Alves; Alex Soares de Souza, et all, World Bank Group, Statistics, O. F., & Cnuced, D. E. L. A. (2015). Public Disclosure Authorized Public Disclosure Authorized. *Igarss 2014*, 205(January), 69–80.
7. Inglehart, R., Norris, P., & Welzel, C. (2021). Gender Equality and Democracy. *Human Values and Social Change*, 91–115.
8. *Gender Equality and Democracy in: Human Values and Social Change*. (n.d.). Retrieved September 22, 2023.
9. Inglehart, R., Norris, P., & Welzel, C. (2021). Gender Equality and Democracy. *Human Values and Social Change*, 91–115.
10. Fristedt, S., Kammerlind, A. S., Fransson, E. I., & Ernsth Bravell, M. (2022). Physical functioning associated with life-space mobility in later life among men and women. *BMC Geriatrics*, 22(1), 1–7.

## YOSHLAR VA XOTIN-QIZLARNING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH BOSQICHLARI

*D.Raxmatullayeva, D.Zaripova, I.Xudayberdiyeva – “Yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish va o‘z-o‘zini bandligini ta‘minlashga qaratilgan yagona elektron ma‘lumotlar bazasini (onlayn veb-portal) yaratish” loyiha xodimlari*

Bugunga kunga qadar ishsiz aholi va bo‘sh ish o‘rinlari o‘zaro uyg‘unlikda ko‘rilmagan. Hozirda xotin-qizlar va yoshlarni band etishda ishga solinmagan ko‘plab imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ular yordamida muammolarga ijobiy yechim topish mumkin. Ushbu muammo va to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida hamda xorijiy tajribalar tahlili asosida uydan chiqmasdan turib internet orqali masofadan, ularning tadbirkorlik va moliyaviy savodxonligini rivojlantirish kerak. Shu maqsadda ham mazkur loyiha yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish va o‘z-o‘zini bandligini ta‘minlashga qaratilgan yagona elektron ma‘lumotlar bazasini (onlayn veb-portal) yaratish ilmiy-innovatsion loyihasi ishlab chiqildi.

Ushbu loyihaning maqsadi: Yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish va o‘z-o‘zini bandligini ta‘minlashga qaratilgan yagona elektron ma‘lumotlar bazasini (onlayn veb-portal) yaratishdir.

Loyihaning vazifalari: yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlik savodxonligini oshirish orqali kasbga yo‘naltirish va o‘z-o‘zini bandligini ta‘minlash uchun yaratilgan saytlarni o‘rganish va ularni tahlil qilish; yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlik tafakkuri va savodxonligini oshirish, biznes g‘oyalar va biznes rejalar ma‘lumotlar bazasi (banki)ni yaratish; yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlik savodxonligi hamda ularning motivatsiyasini oshirishga qaratilgan masofadan o‘qitish kursining o‘quv metodik ta‘minotini yaratish; yoshlar va xotin-qizlarda o‘z-o‘zini bandligini ta‘minlashga qaratilgan soft skills, hard skills va self menejment kompetensiyalarini rivojlanishiga qaratilgan elektron metodik vositalar bazasini ishlab chiqish. Yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish va o‘z-o‘zini bandligini ta‘minlashga qaratilgan yagona elektron ma‘lumotlar bazasini (onlayn veb-portal) tashkil etish; “Yoshlar tadbirkorligi” nomli elektron mobil o‘quv qo‘llanma ishlab chiqish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida yoshlar va xotin-qizlarning o‘z-o‘zini bandligini ta‘minlash bo‘yicha zamonaviy tajribalar o‘rganildi, tizimlashtirildi, milliy pedagogik va psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda



yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlik savodxonligini oshirish bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi. Ilmiy tahlillar asosida xorijiy va respublika OAK tomonidan tasdiqlangan jurnallarda bir qancha ilmiy maqolalar chop etildi va loyiha jarayonlari quyidagi bosqichlar asosida ishlar amalga oshirildi:

- tajriba ob'yektlariga borib, har bir tumandan tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan yoshlar va xotin-qizlar ro'yxati tuzildi;

- loyiha doirasida belgilab olingan tajriba ob'yektlarida tadqiqotlar o'tkazish uchun anketa so'rovnoma ishlab chiqildi va yoshlar hamda xotin-qizlar o'rtasida anketa-so'rovnoma o'tkazildi;

- yoshlar va xotin-qizlarning moliyaviy va tadbirkorlik savodxonligini oshirishga qaratilgan seminar trening tashkil etildi;

- yoshlar va xotin-qizlarning ehtiyojlari aniqlandi hamda anketa so'rovnomalari o'rganildi;

- yoshlar va xotin-qizlarning o'z-o'zini bandligini ta'minlash bo'yicha zamonaviy tajribalar o'rganildi, tizimlashtirildi, milliy pedagogik va psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlik savodxonligini oshirish bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi;

- tahlillar asosida yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik bilim, ko'nikma va malakalarini hamda tashkilotchilik qobiliyatlarini takomillashtirish bo'yicha onlayn elektron platforma uchun buyurtma berildi;


- internet orqali yoshlar va xotin-qizlarning moliyaviy va tadbirkorlik savodxonligini oshirish, o'z-o'zini bandligini ta'minlash bo'yicha yagona elektron platforma yaratildi hamda elektron platforma uchun domen sotib olinib, elektron platforma <https://biznestadibir.uz> deb nomlandi;

- yoshlar va xotin-qizlarning talablari va qiziqishlari asosida ularni tadbirkorlik savodxonligi hamda ularning motivatsiyasini oshirishga qaratilgan masofadan o'qitish kursining o'quv metodik ta'minoti va videoroliklar ishlab chiqildi;

- ma'lum muddat davomida yoshlar va xotin-qizlar internet orqali o'qitilib, ularda moliyaviy va tadbirkorlik savodxonligi shakllantirildi (bunda davlat ro'yxatidan o'tkazish, kredit olish tartibi va imtiyozlari, binolarni izlash va reklama usullarini qo'llash, tadbirkorlik shakllari va turlari bo'yicha);

- masofaviy onlayn o'qish kursini muvaffaqiyatli tugatgan yoshlar va xotin-qizlar uchun elektron sertifikat yuklab olish imkoniyati yaratildi.

- ishlab chiqilgan moliyaviy va tadbirkorlik faoliyatiga oid ma'lumotlar hamda uning metodik ta'minoti (o'quv reja, o'quv dastur, matn, videorolik, test va amaliy topshiriqlar) <https://biznestadibir.uz> elektron platformasiga joylashtirildi;



### **Yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish va o'z-o'zini bandligini ta'minlash bosqichlari.**

Ushbu bosqichlar natijasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagidagi yoshlar va xotin-qizlar o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishga erishadi hamda jamiyatdagi ishsiz yoshlar va xotin-qizlarni ish o'rni bilan ta'minlashga sharoit yaratildi.



## MURAKKAB IJTIMOYIY REALLIK: AYOLLAR TADBIRKORLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

*Jalalova G.O. fal.f.f.d., (PhD) – loyixa katta ilmiy xodimi*

*N.Muxammadiyeva – Xalqdeputatlari Chinoz tumani kengashi deputatlari*

**Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy murakkab ijtimoiy reallik davrida ayollar tadbirkorligining muhim ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Ayollar tadbirkorligiga ta'sir etuvchi omillar, zamonaviy yondashuvlar yoritilgan. Bugungi kundagi "To'rtinchi sanoat inqilobi"ning mehnat bozoriga ko'rsatadigan salbiy ta'siri kuchayib borishi haqida fikrlar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, ijtimoiy reallik, ayollar tadbirkorligi, kasbiy ko'nikmalar, ta'lim, madaniyat, stereotiplar, murakkablik

Bugungi kunda insoniyat yashayotgan reallik nihoyatda murakkab, tez va ko'p o'zgaruvchan xususiyatlarga egadir. Chunki zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlarning ko'lami va tezligi oldin hech qachon tarixda kuzatilmaganligi sababli "To'rtinchi sanoat inqilobi" sodir bo'layotgani e'tirof etilmoqda. Zamonaviy jamiyat murakkab tizimga aylanib, undagi elementlar sonining ko'pligi, xilma-xilligi va ular o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarning tobora ortib borishi bilan xarakterlanmoqda. Shuning uchun jamiyat rivojida inson omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ayollar, yoshlar, ularning ijtimoiy faolligi, ta'lim darajasi va tadbirkorlik faoliyatidagi ishtiroki har bir davlat, millat kelajagiga aloqador muammoga aylanmoqda.

Tadbirkorlikni rivojlantirish Global instituti 2015-yilgi hisobotida 77 mamlakatda "Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish indeksini" e'lon qilgan. Hisobotga ko'ra, AQSH, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Daniya, Niderlandiya, Fransiya, Islandiya, Shvetsiya, Finlyandiya va Norvegiya birinchi o'ntalikni egallaganlar. Shuni ta'kidlash lozimki, ayollar tadbirkorlik darajasi yuqori bo'lgan davlatlar moliyaviy inqirozlarni yengilroq o'tkazadilar, ularda iqtisodiy rivojlanishning pasayishi ham kamroq bo'ladi. Bu o'z navbatida jamiyatda asosiy demografik qatlam bo'lgan ayollarning tadbirkorlik faoliyatlarini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlarning ko'plab olib borilishiga sabab bo'lmoqda. Birinchi bo'lib ayollarning tadbirkorlik faoliyati yoritilgan maqola 1970-yilda E.Shvars tomonidan chop etiladi. Keyingi yillarda olimlar bu mavzuni keng doirada tadqiq etmoqdalar. Olim D.Neysbit ayollar tadbirkorligini "ochilayotgan imkoniyatlarni amalga oshirish" sifatida ta'riflagan edi. Darhaqiqat, jamiyatdagi ayollarning tadbirkorlik faoliyati mamlakat uchun katta ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shar ekan,

mazkur jarayonga ta'sir etuvchi omillar, to'siqlar tizim sifatida o'rganishni talab etadi.

Odra Shallal XXI asrda ayollar tadbirkorligi butun jahon, hattoki Yaqin Sharq va Afrika iqtisodiyotining o'sishida hal qiluvchi bo'g'inga aylanganligi, Yevropa Ittifoqi davlatlari ham bu haqiqatni tan olganligini ta'kidlaydi. Respublikamizda ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, kam ta'minlangan ayyollarda kichik biznes ko'nikmalarini shakllantirish, ularni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor berilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida **“Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash”** 69-maqсад etib qabul qilindi. Unda “Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish; Xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash” vazifalari belgilandi.

Ammo ayollarning tadbirkorlik faoliyatini olib borishlari hanuz erkaklarga qaraganda butun dunyoda ancha orqada qolmoqda. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qanday omillar ta'sir etadi?

Olib borilgan tadqiqotlar tahliliga ko'ra, ayollarning tadbirkorligini rivojlantirishga *birinchidan*, har bir mamlakat miqyosida ayollarga yaratilgan ijtimoiy, moddiy, huquqiy imkoniyatlar, imtiyoz, qo'llab-quvvatlash mexanizmlari katta ta'sir etadi. *Ikkinchidan*, madaniy stereotiplar, sifatli ta'lim, shuningdek, tadbirkorlikni o'rganish, mazkur soha bilimlarni olish imkoniyatining yo'qligi ham ta'sir etadi. *Uchinchidan*, ayollar tadbirkorligini rivojlanishida sub'yektiv omillarning ham ta'siri mavjud. Masalan, ayyollardagi o'zlariga bo'lgan ishonchning kamligi, o'zlariga ishonmaslik, qo'rqish. Bunday vaziyatlarda “Golem effekti” ishga tushadi. Ya'ni ayollar tadbirkorlik faoliyatining natijasini salbiy baholaydilar, atrofidagi yaqinlarining ularga ishonchsizlik bildirishi, ularga katta ta'sir etadi. Natijada ko'p hollarda boshlangan biznes yaxshi natijalar bermaydi. Y.Utkina keltirishicha, ayollardagi shaxsiy xislatlar, masalan, rahmdillik, emotsionallik, ishonuvchanlik, hammani ko'nglini olishga intilish, nopunktuallik ham ularning biznes yuritishlarida halaqit beradi.

Shuningdek, madaniy, diniy an'analar ayollarimizning tadbirkorlik faoliyatlariga ba'zida imkon bermaydi. Ayollar garchi o'zlari biznes bilan shug'ullanmoqchi bo'lsalarda, oila, atrofida gilarning ularni tushunmasliklari, an'analarni hurmat qilmaslikda ayblashlari oqibatida maqsadlarini amalga oshira olmaydilar. Shuningdek, ayollarning o'zlarini faqat ona obrazida ko'rishlari, his



etishlari ham ularning o'z ishlarini ochishlariga to'sqinlik qiladi. Ayniqsa, kam ta'minlangan ayollar qatlami bundan katta aziyat chekadi. Ko'rinib turibdiki, ayollarning tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari murakkab, kompleks muammo bo'lib, uni hal qilish uchun tizimli yondashuv talab etilmoqda.

Shuning uchun bugungi kunda Xalqaro Mehnat Tashkiloti (MOT) tomonidan "Ayollarni kichik biznesga jalb qilish" ta'lim dasturi qabul qilindi. Unda kam ta'minlangan, tadbirkorlik qilishni istagan yoki kichik tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan ayollarni qo'llab-quvatlash ko'zda tutiladi. Mazkur dastur kam ta'minlangan ayollarning biznesga kirib kelishini aynan gender nuqtai nazardan yondashgan holda amalga oshiradi. Bunda asosiy maqsad ayollarning tadbirkorlikni boshlash uchun zarur bo'lgan asosiy malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Dastur yordamida ayollar o'zlarining tadbirkorlik malakalarini oshirishlari, tadbirkorlikni rivojlantirishga oid mavjud muassasalarga murojaat qilishni o'rganadilar.

Ammo shuni ta'kidlash lozimki, dunyoda "to'rtinchi sanoat inqilobi"ning o'zgarishlar to'loqini davom etar ekan, ayollarning bandlik masalasiga, ularni tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda yangi muammolar yuzaga kelmoqda. Bu muammolar zamonaviy "to'rtinchi sanoat inqilobi"i davrida texnologiyalarning mehnat bozoriga ko'rsatadigan salbiy ta'siri bilan bog'liqdir. Ya'ni "birinchidan, yangi texnologiyalar ta'sirida ishsizlar sonining ko'payishi, yangi ko'nikmalarga talab ortishi sodir bo'ladi. Bu o'z navbatida jamiyatdagi ayollarni yangi ko'nikmalarga tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, texnologiyalarning vayronkor ta'siri bilan birga kapitalizatsiya effekti kuzatilib, yangi mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talab ham ortib boradi". Demak, yangi kasb va xizmatlar haqida tadbirkorlik qilishni istayotgan ayyollarga mehnat bozori haqidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida va ko'proq, sifatli qilib yetkazishni talab etadi. Chunki zamonaviy o'zgarishlar ta'sirida "Kelajak kasblari" hisobotiga ko'ra ayyollar ishlaydigan juda ko'plab kasblar avtomatlashtirish natijasida ularga talab kamayadi va ko'plab ayyollar ishsizlar safini to'ldirishi mumkin. Shuning uchun ayyollarda tadbirkorlik ko'nikmalarni rivojlantirish, zamonaviy jamiyatda ularga raqamli makondan foydalanish ko'nikmalari - digital-tafakkur, digital-kommunikatsiyani rivojlantirish talab etiladi. Ayollar tadbirkorligida soft skills ahamiyati muhim bo'lib bormoqda. Unga huquqshunoslik, psixologiya, menejment, konfliktologiya, ritorika, sotsiologiyaga oid bilimlar kiradi. Tadbirkorlikda konflikt-menejment, nizolarni boshqarish muhim ahamiyatga ega. Shaxslararo ziddiyatlar ijtimoiy hayotning tarkibiy qismidir. Tadbirkorlik faoliyatida pozitiv hamkorlikka asoslangan muzokara jarayonlarini

to'g'ri tashkil qilish, biznes-nizolar va bahsli vaziyatlarni samarali hal qilish katta ahamiyatga ega.

Ko'rinib turibdiki, ayyollarda zamonaviy texnologik o'zgarishlar davrida tadbirkorlik qila olishlari tizimli, murakkab muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Shunga qaramasdan, bugungi kunda ayollar tadbirkorlik bilan keng shug'ullanishga intilmoqdalar. Demak, jamiyat rivojlanishi, bugungi kundagi transformatsion jarayonlar ayyollar tadbirkorligiga ham katta ta'sir etmoqda. Jamiyatda mavjud madaniy omillarning o'zgarishiga olib kelmoqda. Madaniyat — tarixiy rivojlanish davomida inson faoliyatini tashkil etishdan iborat dasturlar majmuasidir. U o'z ichiga faoliyat, hatti-harakat, munosbatlarni oladi. Ayollarga, ularning ijtimoiy faoliyatlariga munosbatning o'zgarishi ko'rsatadiki, madaniyat ham o'zgarib, transformatsiyalanmoqda. Yangi tizimga o'tilmoqda. Zamonaviy ijtimoiy iqtisodiy sohadagi o'zgarishlar oxir oqibat madaniy transformatsiyalarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur o'zgarishlarning ko'rinishlari ayollar ijtimoiy faolligining ortib borayotganligida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarni kichik biznes va tadbirkorlikka keng jalb etish, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash va bu borada erishilgan natijalarni tahlil etgan holda, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar va ilmiy amaliy loyihalarni yangi metodologik yondashuvlar asosida olib borish muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, zamonaviy ijtimoiy transformatsiyalar kuchayib borayotgan, zamonaviy global tahdidlar ortib borayotgan davrda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga murakkab tizim sifatida yondashish va tadqiq etish samarador natijalar berishni ta'minlaydi.

Zero, jamiyatdagi har bir soha (ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy, kognitiv, ta'lim va h.k.), har bir demokratik qatlam muhim bir element sifatida o'zaro bog'liq, o'zaro ta'sirda rivojlanadi. Bu esa ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda barchaga foyda keltiruvchi, umumiy qadriyatlar va aniq maqsadlarga yo'naltirilgan, innovatsion tizimlarni ishlab chiqishni talab etadi. Mazkur zamonaviy tizimlarni ishlab chiqish har bir mamlakat uchun ham ijtimoiy, ham madaniy, ham iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda "Yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish va o'z-o'zini bandligini ta'minlashga qaratilgan yagona elektron ma'lumotlar bazasini (onlayn veb-portal) yaratish" innovatsion loyihamiz respublikamizda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish yo'lidagi muhim innovatsion amaliyot natijasidir. Mazkur portal tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga bel bog'lagan ayollarimizga ma'lumotlarni tez va oson yetkazib berish imkoniyatini yaratadi.



### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son. 2022-2026-yilarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonda rivojlantirish Strategiyasi. <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. Shvab K. To‘rtinchi sanoat inqilobi. Toshkent: Nixol, 2022.
3. Алгада Х. Женское предпринимательство как предмет научных исследований. <file:///C:/Users/Bahor/Downloads/zhenskoe-predprinimatelstvo-kak-predmet-nauchnyh-issledovaniy.pdf>
4. <file:///C:/Users/Bahor/Downloads/zhenskoe-predprinimatelstvo-kak-predmet-nauchnyh-issledovaniy.pdf>.
5. Нейсбит, Джон. Мегатренди / Джон Нейсбит; [Пер. с англ. М.Б. Левина]. - М.: АСТ: Ермак, 2003. (Тул. тип.). - с.108.
6. Одра Шаллал. Что мешает женскому предпринимательству. <https://www.forbes.ru/forbes-woman/366607-mir-stereotipov-chto-meshaet-zhenskomu-predprinimatelstvu>.
7. <https://www.forbes.ru/forbes-woman/366607-mir-stereotipov-chto-meshaet-zhenskomu-predprinimatelstvu>
8. <https://thedecisionlab.com/biases/the-pygmalion-effect>
9. Уткина Н.У. Объективные и субъективные факторы развития женского предпринимательства в России / Н.У.Уткина // Женщина в российском обществе. – 2017. – № 1 (82). – С. 17-27.
10. [https://www.ilo.org/gb/WCMS\\_090565/lang--ru/index.htm](https://www.ilo.org/gb/WCMS_090565/lang--ru/index.htm).
11. [https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/-europe/-ro-geneva/---sro-moscow/documents/publication/wcms\\_312675.pdf](https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/-europe/-ro-geneva/---sro-moscow/documents/publication/wcms_312675.pdf).
12. Shvab K. To‘rtinchi sanoat inqilobi. Toshkent: Nixol, 2022. –Б.60 61.
13. Shvab K. To‘rtinchi sanoat inqilobi. Toshkent: Nixol, 2022. –Б.73 74.
14. Инглхарт Р. Постмодерн: меняющиеся ценности и изменяющиеся общества. <https://sociology.mephi.ru/docs/polit/html/ingl.htm>

### IJOBİY TA'LIM MUHITINI TASHKIL ETISH

*Kadirova Gulnora Xasanovna*

*Professional ta'limni rivojlantirish instituti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida ijobiy muhit yaratishning samarali tashkil etish va bu borada optimal yondashuvlarga murojaat qilish masalalari yoritilgan. Ta'lim jarayonida ijobiy muhit yaratishga ta'sir etuvchi omillar, tamoyillar

va vositalari tizimlashtirilgan. Ijobiy muhit shakllantirishning ta'lim samaradorligini sifat jihatdan oshirilishidagi mohiyati tahlil etilgan. Shuningdek auditoriyada ijobiy muhit yaratishga xizmat qiluvchi ta'lim metodlari va ularni takomillashtirish borasida ham so'z boradi.


**Tayanch so'z va tushunchalar:** ta'lim jarayonidagi muhit, ta'lim muhitiga yo'naltirilgan metodlar, pedagogik muhit, motivatsion muhit, differensial yondashuv.

Uzluksiz ta'lim - bu kontekst o'zgarishiga mos holda uzluksiz o'rganish va izlanishdir. U mulohaza yuritish, tahlil etish va amalga oshirish jarayonini o'z ichiga oladi. Mulohaza yuritish turli nuqtai nazarlarni hisobga olgan holda, ma'lum yoki qabul qilingan bilimlardan chetga chiqib, jarayonni amalga oshirishda tanqidiy fikrlash uchun zarurdir. Mulohaza yuritish kelajakda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkinligini yoki bugungi kunda amalga oshirilgan harakatlarning oqibatlari qanday bo'lishi mumkinligini tahmin qilish uchun analitik yoki tanqidiy fikrlash kabi kognitiv qobiliyatlarini safarbar qiladi. Tanqidiy fikrlash ham, mulohaza yuritish ham shaxsning mas'uliyat bilan harakat qilishga tayyor bo'lishga yordam beradi. Ta'lim muhitining ijobiy yoki salbiy ekanligi ta'limning natijadorlik qiymatini oshiradi

Hozirgi globallashtirish davrida axborotlar oqimi ko'lami kengaygan. Bu esa ta'lim oluvchilar bilan faoliyat olib borishda bir qator murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Ta'lim oluvchini o'rab turgan olamda turli yo'nalishdagi shaxsning rivojlanishiga salbiy va ijobiy ta'sir ela olishi mumkin bo'lgan axborot oqimlari mavjud. Bugungi kundagi ta'lim beruvchining asosiy kasbiy kompetenligi safiga turli axborot oqimlari qurshovidagi ta'lim oluvchini ta'lim muhitiga olib kira olish va shu muhitda faolligini ta'minlash komponentini kirita olamiz. Bu esa o'z navbatida ta'lim beruvchilar oldiga ta'lim jarayonida ijobiy muhitni tashkil etish muammosini yuzaga keltiradi.

Ta'lim jarayonidagi muhit ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilarning shaxsiy va kasbiy sifatlaridan kelib chiqadi. Ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisi o'zining shaxsiy muhiti ya'ni aurasiga ega. O'z navbatida tashkil etilgan ta'lim jarayoni ham ma'lum muhit ostida bo'ladi. Bu ikki ob'yekt orasida ma'lum darajada munosabat shakllanadi. Shu munosabatning ijobiy o'zaro uyg'unlashuviga bir necha omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu omillarning bir necha turini tizimlashtirdik. (1-rasm)





**1-rasm. Ta'lim muhitiga ta'sir etuvchi omillar**

**Psixologik omillar:** Ta'lim jarayoni ishtirokchilarining psixologik holati va o'zaro ta'sirlashuvi har qaysi zamon ta'limining asosiy omili hisoblangan. Ta'lim jarayoniga tadbir etilishi mumkin bo'lgan bir qator psixologik yondashuvlar mavjud. Biologik, bixevioristik, gumanistik, jarayonga asoslangan, kongnitiv, ijtimoiy-psixologik, psixo-analitik yondashuvlar bular jumlasidan. Ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilarda ijobiy dinamikani shakllantirishida jarayonga mos keladigan psixologik yondashuv to'g'ri tanlay olishi yetarlicha ahamiyat kasb etadi.

Psixologik omillarning yana bir ta'siri ta'limning motivatsion qismida o'z aksini topadi. To'g'ri tanlangan motivatsiya ta'lim jarayoni natijadorligini belgilaydi. Ta'lim muhitining faolligi ta'lim beruvchining "Motivatorlik" rolini mahorat bilan ijro etishiga tayanadi. Ta'lim oluvchilarning shaxsiy rivojlanishiga va inson kapitalini barqarorlashtirishga qaratilgan motivatsion g'oyalarni ilgari surish va ta'lim oluvchilar psixologik aurasiga kirib borish bu jarayonning muhim aspektlaridir [5].

**Pedagogik omillar.** Ta'lim beruvchi ta'lim jarayonida pedagog, adrogog yoki tyutor sifatida faoliyat olib bormasin pedagogning kasbiy sifatlariga belgilangan qarashlarga va kasbiy kompetenliklariga tayangan holda faoliyat olib boradi. Optimallashtirib boruvchi kasbiy sifatlar va kasbiy kompetenlik ta'lim muhitiga o'z ijobiy ta'sirini bermay qolmaydi.

Pedagogning konfliktologik vaziyatlarga to'g'ri yondashuvi, ichki va tashqi psixologik ta'sirlarga barqarorligi shular jumlasidandir. Ta'lim jarayonini ta'lim sohasining shaffoflik, ochiqlik, teng huquqlilik kabi demokratik tamoyillar,

uzviylik, uzluksizlik, moslashuvchanlik kabi ustuvor tamoyillari asosida olib borishi shubhasiz auditoriyada ijobiy muhitni shakllantiradi [4].

**Didaktik omillar.** Pedagogik shart-sharoitlarning asosiy urg‘usi albatta didaktik materiallarning rang-barangligi va jozibadorligiga mutanosibdir. Bu auditoriyaga ta’lim beruvchining moslashish jarayonini tezlashtiradi. Bundan tashqari doimiy takomillashib boruvchi didaktik ta’minot ta’lim oluvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini orttirishi bilan bir qatorda ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirishdagi individual imkoniyatlari doirasini kengaytiradi. Ta’lim oluvchi o‘ziga mos shakldagi didaktik material bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘lsa yoki baholash materiallarida tanlov imkoniyat berilsa, unda ta’limdan qoniqish xissi va albatta ijobiy kayfiyatda ta’lim olish ehtiyoji paydo bo‘ladi.

Tadqiqotchi A.Shlayxerning fikricha jamiyat farovonligi ko‘proq odamlarning jamoaviy harakat qilish qobiliyatiga bog‘liq. Bu ta’lim oluvchiga o‘z vazifalari haqida o‘ylash, boshqalar uchun ham, ular bilan ham harakat qilish imkonini beradigan individual akademik yutuqlarni oshirish uchun o‘qitish va hamkorlikni rag‘batlantirishni anglatadi [3].

**Tashkiliy omillar.** Tashkiliy omillar sifatida auditoriyaning jihozlanishi, moddiy-texnik ba’zaning to‘g‘ri ta’minlanganligi, umuman olganda ta’lim oluvchi uchun qulay sharoitning mavjudligini ta’kidlash mumkin. Bu ayniqsa amaliy mashg‘ulotlar uchun ahamiyatli ko‘rinish.

Ma’lumki O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunida davlat ta’lim talablari va boshqa ta’limga oid me’yoriy hujjatlarda ta’lim jarayonining tashkiliy jihatlariga belgilangan me’yorlar mavjud. Me’yor talablaridan chetlanmagan holda tashkiliy ishlarga kreativ yondoshuv ta’lim muhitiga ijobiy ta’sirini beradi [1,2]. To‘g‘ri tanlangan ranglar, grafiklar, ko‘rgazmaviy materiallarning optimal-motivatsion xarakterda bo‘lishi jarayon muhitini ijobiylashtiradi. Shu o‘rinda ta’limni tashkillashga bo‘lgan umumiy talablarni konvergensiya g‘oyalari asosida takomillashtirish tashkiliy omillarning sifat jihatdan o‘zgarishi bilan borishiga olib keladi. Ya’ni ta’lim jarayoni tashkil etilayotgan ob’yektning jo‘g‘rofiy joylashuvi, iqtisodiy-ijtimoiy holati, aholining qadriyatlariga uyg‘unlashgan tarzda.

Xulosa o‘rinida ta’kidlashimiz mumkinki, ta’lim muhitiga ta’sir etuvchi omillar ko‘lami keng. Ushbu maqolada ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tdik. Lekin bu sohada izlanishlarni davomli olib borilishi zarurati ta’limning samaradorligini oshirishga bo‘lgan harakatlar bilan mutonasibdir. Chunki ta’lim oluvchilarning qiziqishi, ishtiyoqi, ehtiyojlariga muvofiqlashgan tashkiliy jarayonlar ta’lim natijalariga ijobiy o‘zgarish bera oladi. Ta’lim auditoriyada yoki auditoriyadan



tashqarida tashkil etilishidan qat'iy nazar jarayonda ijobiy muhitni yaratishga intilish sifatli ta'lim tashkil etishning muhim aspektlaridan biri bo'lib qolaveradi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-sonli qarori.

2. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 4-sentabrdagi "Professional ta'lim muassasalari uchun o'qitish materiallari to'plamlarini yaratishni tashkil etish to'g'risida"gi 465-son buyrug'i.

3. А.Шлайхер Образование мирового уровня. Как выстроит школьную систему XXI века? / Москва. – 2019. -336-s

4. Аргунова М.В. Ключевые образовательные компетенции // Химия в школе. – 2009. - № 6. - S. 21.

5. А.А.Вербиский. Развитие мотивации студентов в контекстном обучении: монография / А.А.Вербиский, Н.Л. Бакшаева. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2000. –200 s.

6. Г.Х.Кадирова. Педагогические условия творческого саморазвития старшеклассника в креативном образовании // Инновационное развитие науки и образование. Сборник международной дистанционной конференции. – Казахстан, 2020. - S.197-199.

## **INNOVATSION TA'LIM KLASTERINING MOHIYATI VA ASOSIY VAZIFALARI**

*Kadirova Gulnora Xasanovna*

*Professional ta'limni rivojlantirish instituti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada innovatsion ta'lim klasterining mohiyati hamda ta'lim sohasidagi asosiy vazifalari yoritilgan. Shuningdek innovatsion ta'lim klasterining asosiy funksiyalarining toifalari qisqacha bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim klasteri, innovatsion ta'lim klasterining asosiy funksiyalari, klaster komponentlari

Klaster yondashuv ta'lim, tadqiqot va biznes muassasalarining geografik yaqinligi bilim va innovatsiyalarni almashish osonlashtirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Klasterlar a'zolariga bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lish va hamkorlik qilish imkonini beruvchi tarmoq tuzilishini ta'minlaydi. 1990-yilda Garvard biznes maktabi professori Maykl Porter "Klaster" tushunchasini birinchi marta "Xalqlar raqobatining afzalliklari" asarida kiritgan (The Competitive Advantage of Nations). U klasterlar deganda ma'lum bir sohada ixtisoslashgan o'zaro bog'langan kompaniyalar va tegishli muassasalarning geografik jihatdan to'plangan guruhlarini deb ta'riflaydi va bu klasterlar raqobatbardoshlikni oshirishi va innovatsiyalarni rag'batlantirishi mumkinligini ta'kidlaydi.

O'sha davrdan boshlab ushbu yondashuv turli sohalarda, jumladan, ta'lim va fanida keng qo'llanila boshlandi. Ta'lim klasterlari, masalan, universitetlar, tadqiqot institutlari, ta'lim bilan bog'liq kompaniyalar va ilg'or ta'lim xizmatlarini taqdim etish va ta'limda innovatsiyalarga olib borish uchun birgalikda ishlaydigan boshqa manfaatdor tomonlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Klaster yondashuvi, dastlab Maykl Porter tomonidan ta'riflanganidek, ma'lum bir sohada o'zaro ta'sir qiluvchi tashkilot va muassasalarning geografik birikmasini tavsiflaydi. Ta'lim kontekstida klaster yondashuvi bilim almashish, hamkorlik va innovatsiyalarni rag'batlantirish maqsadida ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar, korxonalar va davlat organlari guruhini nazarda tutadi.

Klaster yondashuvini ta'lim sohasida qo'llash bir qator afzalliklarga olib kelishi mumkin. Birinchidan, klasterlar o'z a'zolari o'rtasida bilim va texnologiyalarni almashishni osonlashtirishi mumkin. Ikkinchidan, ular iqtisodiyot va jamiyat ehtiyojlarini to'liq qondiradigan ta'lim dasturlarini ishlab chiqishga hissa qo'shishlari mumkin. Nihoyat, klasterlar tadqiqot, ta'lim va biznes o'rtasida sinergiya yaratish orqali innovatsion faollikni oshirishi mumkin.

Innovatsion ta'lim klasterining mohiyati uning a'zolarining birgalikdagi innovatsion faoliyatini rag'batlantirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Klasterning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat: ta'lim (malakali mutaxassislarni tayyorlash), ilmiy (yangi bilim va texnologiyalarni yaratish), innovatsion (yangi texnologiya va usullarni joriy etish), ijtimoiy (klaster a'zolarining va umuman mintaqaning ijtimoiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish) va iqtisodiy (mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish).

Innovatsion ta'lim klasterining asosiy funksiyalarini quyidagi toifalarga bo'lish mumkin:



1. Ta'lim funksiyasi: Innovatsion rivojlanish va iqtisodiyotga hissa qo'sha oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash. Bu, shuningdek, uzluksiz ta'lim va butun hayot davomidagi ta'limni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

2. Ilmiy funksiya: qo'shma tadqiqot va ishlanmalar orqali yangi bilim va texnologiyalarni yaratish. Klasterlar ushbu bilim va texnologiyalarni tarqatish va ulardan foydalanishni ham yengillashtiradi.

3. Innovatsion funksiya: ta'lim xizmatlari, mahsulotlari va jarayonlarini yaxshilashga olib keladigan yangi texnologiyalar va metodologiyalarni joriy etish.

4. Ijtimoiy funksiya: Klaster a'zolari va umuman mintaqaning ijtimoiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish. Bu mintaqada ta'lim va malaka darajasini oshirish, ishtirokchilar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlik va integratsiyani yaxshilashni o'z ichiga olishi mumkin.

5. Iqtisodiy funksiya: investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish va mahalliy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish orqali hududning iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish.

Bu funksiyalarning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq va birgalikda ta'lim sohasida innovatsion rivojlanish uchun qulay muhit yaratishga yordam beradi.[1]

Innovatsion ta'lim klasterining mohiyati ta'lim sohasida innovatsion g'oyalar va yechimlarni shakllantirish va amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bu barcha klaster a'zolarining quyidagi asosiy yo'nalishlarda birgalikdagi faoliyatini nazarda tutadi:

- yangi ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish;
- ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va ilmiy-texnikaviy yechimlarni ishlab chiqish;
- professional ta'lim sohasida loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- klaster a'zolari o'rtasida tajriba va bilim almashish;
- innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratish uchun hokimiyat organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish.

Shunday qilib, innovatsion ta'lim klasteri professional ta'lim tizimining asosiy elementi bo'lib, innovatsion madaniyatni shakllantirish va yangi bilim va texnologiyalarni yaratishga xizmat qiladi.

**Uch tomonlama spiral:** Loetze Etkovarz va Genri Etkovarz tomonidan taklif qilingan ushbu model universitetlar, sanoat va hukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aks ettiradi. Ushbu uch tomon innovatsiyalarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun bir-biri bilan o'zaro hamkorlik qiladi.[2]

"Uch tomonlama spiral" modeli Loetz Leydesdorff va Genri Etkovits, ikki taniqli fan sotsiologlari tomonidan taklif qilingan. Ushbu kontsepsiya

innovatsiyalarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun universitetlar, sanoat va hukumat o'rtasidagi munosabatlar va hamkorlikni ifodalaydi. Uchta "spiral" ning har biri (universitetlar, sanoat va hukumat) asosiy rol o'ynaydi. Universitetlar tadqiqot va ta'lim bilan shug'ullanadi, sanoat bu tadqiqotni mahsulot va xizmatlarga aylantiradi va hukumat tegishli siyosatni ishlab chiqish va moliyalashtirish orqali ushbu jarayonlarni tartibga soladi va qo'llab-quvvatlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oliy ta'limda innovatsion o'qish tajribalari: Virtual almashinuv bilan chegaralarni oshib o'tish - Bowen, J., Hakim, L., & Murad, R. (2021). Oliy ta'limda ta'lim texnologiyalari xalqaro jurnali, 18(32).

2. Innovative learning experiences in higher education: Transcending boundaries with Virtual Exchange - Bowen J., Hakim L., & Murad R. (2021). International Journal of Educational Technology in Higher Education, 18(32).

## XORIJIY TALABALARNING IJTIMOIIY MADANIY MOSLASHUVIDA KOMPETENTLIKNING AHAMIYATI

*Matchanova Nargiza To'lginovna*

*Ma'mun-Universiteti, "Psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy talabalarning ijtimoiy madaniy moslashuvida kompetentlikning ahamiyati va xorijiy talabalarning moslashish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida amaliy va nazariy ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, xorijiy talabalar, shaxsiy xususiyatlar, madaniy farq, til malakalari

**Аннотация:** В данной статье представлена практическая и теоретическая информация о значении компетентности в социальной и культурной адаптации иностранных студентов и факторах, влияющих на процесс адаптации иностранных студентов.

**Ключевые слова:** Социальная адаптация, социальная компетентность, коммуникативная компетентность, иностранные студенты, личностные особенности, культурные различия, языковые навыки



So‘nggi yillarda oliy ta‘lim sohasida xalqaro hamkorlik rivojlanishi asnosida xorijiy talabalar soni oshib borayotganligi, ularning o‘zga madaniy muhitga ijtimoiy-madaniy moslashuvi masalasini dolzarbligini namoyon qilmoqda.

“Ijtimoiy-madaniy moslashuv” tushunchasining mohiyatini o‘rganish, ilmiy pedagogik va psixologik adabiyotlarda ushbu hodisaning ko‘plab talqinlarini yaratilishiga olib keldi. Bu xilma-xillik muammoning murakkabligi, xilma-xilligi va unga turli fanlar tomonidan yondashuvlarning o‘ziga xosligi bilan izohlanadi, chunki ijtimoiy-madaniy moslashuv muammosi falsafiy, ijtimoiy, psixologik, pedagogik, madaniy jihatlardan ko‘rib chiqilgan.

Shaxs nafaqat biologik moslashuv, balki oldingi munosabatlar tizimini qayta qurish natijasida yuzaga keladigan moslashuv bilan ham tavsiflanadi [2]. M.S.Berejnaya ushbu moslashuvni “ijtimoiy” deb tavsiflashni taklif qildi. Tadqiqotchilar G.D.Volkov va N.B.Okonskayalar moslashuvning hech bir turini bir-biridan ajratmagan holda ijtimoiy moslashuv dominant tip sifatida baholashadi. O‘z navbatida, ijtimoiy moslashuv “individning mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimiga integratsiyalashuvi” sifatida talqin qilinadi. Bunday ta‘rif, bizning fikrimizcha, to‘liq emas, chunki u ijtimoiy muhit va shaxsning o‘zaro ta‘sirini hisobga olmaydi, bunda faoliyat nafaqat shaxs tomonidan, balki jamiyat tomonidan ham ruxsat etiladi [5].

Turli olimlarning ishlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, xorijiy talabalarning ijtimoiy-madaniy moslashuvini o‘rganish muammosini hal qilish orqali ijobiy tendensiyalar yuzaga kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

- bu jarayonning muammolari yoritib borilmoqda;
- shaxsga yo‘naltirilgan yo‘nalish kasb etadigan falsafiy, antropologik, sotsiologik, psixologik va pedagogik tadqiqotlar natijalarini birlashtirish davom etmoqda;
- turli fanlarda “moslashish” va “moslashish jarayoni” tushunchalari takomillashtirilmoqda.

Shu bilan birga, biz xorijlik talabalarning moslashuv jarayonini ham, ushbu yo‘nalishdagi pedagogik faoliyat tizimini ham alohida o‘rganish bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar hali yetarli darajada rivojlanmaganligini ta‘kidlagan holda ushbu tushunchaning mohiyatini ko‘rib chiqamiz.

Ijtimoiy-madaniy moslashuv - bu yangi va notanish muhitning madaniy va ijtimoiy ko‘nikmalarini, qadriyatlarini va me‘yorlarini qabul qilish, rivojlantirish va chet el madaniyati bilan samarali o‘zaro munosabatda bo‘lish uchun eng munosib muloqot ko‘nikmalarini egallashni anglatadi. Agar talabalar madaniy va ijtimoiy mas‘uliyatli bo‘lsa, ular faol ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolishga va yangi jamiyatda ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo‘ladilar. Ayrim

olimlar, masalan, G.S.Triandis ijtimoiy moslashuvni ijtimoiy kompetensiya fenomeni prizmasi orqali ko‘rib chiqadi va shu bilan bog‘liq holda u uchta komponentni ajratadi: individual-shaxsiy kompetensiya (o‘zini-o‘zi tashkil etish va o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatlari), ijtimoiy-psixologik kompetensiya (ijtimoiy o‘zaro ta‘sir qilish qobiliyatlari), ijtimoiy-madaniy kompetensiya (umumiy madaniyat sohasidagi bilim va malakalar) [6]. Muvaffaqiyatli moslashish jarayoni shaxsga farovonlik tuyg‘usini beradi, vaziyatni ijobiy baholashga va umumiy hayotdan qoniqishga ta‘sir qiladi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va o‘zimizning empirik tadqiqotlarimiz turli omillar ta‘siri ostida ijtimoiy-madaniy moslashuv xususiyatlarini ko‘rib chiqishga imkon berdi [1]. Xorijiy talabalarning moslashish jarayoniga ta‘sir etuvchi omillarni uchta toifaga bo‘lish mumkin, xususan:

- makroiijtimoiy ta‘sirlar (masalan, huquqiy cheklovlar, kamsitish, etnik xilma-xillikka bag‘rikenglik darajasi, akademik qiyinchiliklar) bilan bog‘liq bo‘lgan omillar;

- shaxsning yashash tarzi (masalan, dunyoqarash xususiyatlari, ikki madaniyat o‘rtasidagi farqlar va boshqalar);

- individual omillar (masalan, yoshi, jinsi, tilni bilish darajasi). Ushbu omillarni batafsil ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, talabalarning shaxsiy xususiyatlari moslashish jarayoniga muhim ta‘sir ko‘rsatadi. Moslashish jarayoniga ijobiy yoki salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan bir qator shaxsiy xususiyatlarni sanaydigan bo‘lsak: xarakter, temperament, sub‘yektiv lokus nazorat darajasi, moslashuvchanlik, ochiqlik, motivatsiya, ta‘lim, o‘tmishdagi ijobiy va salbiy tajriba, introversiya va ekstroversiya, motivatsiya, o‘zini-o‘zi qadrlash, muammolarni hal qilish kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. X.Xekxauzen tadqiqotlarida moslashuv bakalavriat bosqichidagi talabalar uchun osonroq o‘tishi, chunki ularning xarakter xususiyatlari egiluvchanligi yuqori ekanligi, aspirantlarda esa moslashish jarayonida ko‘proq muammolar uchrashi ularning qadriyatlar tizimi, urf-odatlariga bo‘lgan munosabati, qiziqishlari, dunyoqarashi allaqachon shakllanib bo‘lganligi sabab qilib keltiriladi. Xorijiy talabalar haqida gapirganda, stressagen vaziyatlarni inobatga olish lozim, chunki majburiy migratsiya (masalan, universitet yoki ota-onalarning qarori bilan), shuningdek, yangi ijtimoiy-madaniy yo‘nalishga o‘tish jarayonidan salbiy kutishlar, atrof-muhit talablari va talabaning ijobiy umidlar bilan solishtirganda, talabalardagi moslashish muammolarini kuchaytiradi [7].

Moslashish jarayoniga ta‘sir etuvchi yana bir omil - bu mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy farqdir. Madaniy farq tushunchasi 1980-yilda I.Babiker va



L.Miller tomonidan madaniyatlar farqiga qarab moslashishning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish maqsadida ilmiy muomalaga kiritilgan.

Madaniy farq-yangi ijtimoiy-madaniy muhit va xorijiy talabaniing ona madaniyati o'rtasidagi farq darajasidir [9]. Madaniy farq toifalari 3 guruhga bo'lingan: o'xshash madaniyatlar, turli madaniyatlar va diametral qarama-qarshi madaniyatlar. Diametral qarama-qarshi madaniyatga ega mamlakatlardan kelgan talabalar moslashishda ko'proq qiyinchiliklarga duch kelishdi.

Bir-biriga yaqin madaniyatlar boshqa nisbatan uzoq madaniyatlarga qaraganda bir-biriga tez moslashadi, qadriyatlarini qabul qilishi jadallashadi va asosiy muhitga shaxsning integratsiyalashuvini osonlashtiradi.

Insonga ta'sir qiluvchi asosiy ijtimoiy-madaniy muhitning retseptiv ta'sir ko'rsatish darajasi umumiy etnik guruhga chambarchas bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida butun mehnat muhitiga ta'sir ko'rsatadigan omil hisoblanadi.

Til malakalari va kommunikativ kompetensiya ham ijtimoiy-madaniy moslashuv bilan bog'liq omillardan biri hisoblanib, talaba mezbon davlat tilini qanchalik yaxshi tushunsa, ijtimoiy-madaniy moslashish jarayoni va talabalar jamoasidagi o'zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishib keta olish shunchalik oson kechadi [4]. Bu borada tadqiqotchi Y.Kim muloqot va madaniyatlararo moslashuv nazariyasida samarali ijtimoiy muloqot yangi madaniyatda muvaffaqiyatli moslashishning kaliti ekanligini ta'kidlagan [8]. Ko'pgina xorijiy talabalar ko'pincha nima aytilayotganini tushunmasliklarini tan olishadi va xushmuomalalik tufayli boshlarini qimirlatishlari mumkin. Xorijlik talabalarda til malakasining yuqori bo'lishi nafaqat muloqot sifatiga ta'sir qilishi, balki ularda ishonch hissini uyg'otishi, millatlararo aloqalarini oshirishi bilan ham muhimdir. Xorijlik talabalarining tilni bilishi ularning akademik muvaffaqiyati, oliy ta'lim tizimi va tuzilishini tushunishi bilan ham bog'liq. Tilni bilish darajasi, shuningdek, shaxslararo muloqotni rivojlantiradi, bu chet ellik talabalarga mahalliy aholining marosimlari va xatti-harakatlarini tushunish bilan bog'liq muhim ma'lumotlarni olishga yordam beradi va shu bilan xorijiy talabalarga o'z xatti-harakatlari uchun mos yozuvlar nuqtasini beradi.

Moslashuvning dastlabki bosqichida etnik jamoalar va diasporalarga o'zlarining avvalgi madaniyati tanish bo'lganligi ularda qulaylik hissini oshiradi va moslashishni osonlashtirishga xizmat qiladi. Dastlabki bosqichdan so'ng, etnik ijtimoiy muloqot odamlarga o'zlarining asl madaniyati bilan aloqada bo'lishga imkon beradi. Xorijiy talabalar va mezbon fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar moslashish qiyinchiliklarini kamaytiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аргунова В.Н., Лондаджим Т. Барьеры социокультурной адаптации иностранных студентов, обучающихся в российских вузах // Вестник ННГУ 2008. №4. С. 7-12
2. Бережная М.С. Адаптивное поведение личности // Проблемы и перспективы социокультурной адаптации детей и юношества средствами художественного творчества: Коллективная монография. М.: Компания Спутник, 2006.- С. 14-22.
3. Витенберг Е.В. Социально-психологические факторы адаптации к социальным и культурным изменениям. СПб.: Речь. 2004. - 204.
4. Набивачева Е. Проблемы адаптации иностранных студентов в вузе. // Высшее образование в России.- 2006 - № 12.
5. Реан, А.А. Психология адаптации личности Текст. / А.А.Реан, А.Р.Кудашев, А.А.Баранов. СПб., 2002. – 352.
6. Триандис Г.С. Культура и социальное поведение / Пер. В.А.Соснина. М.: Изд-во ИНФРА М, ИЗДАТЕЛЬСКИЙ ДОМ, 2007. - 384.
7. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность / Хайнс Хекхаузен. — СПб.; М.: Питер: Смысл, 2003. — 860 .
8. Becker, M. N. The health belief model and personal health behavior Text. / M. N. Becker // Health Educat. Monogr. 1974. - Vol. 2. - P 324-508.
9. Furnham A. The friendship networks of foreign students: A replication and extension of the functional model // International Journal of Psychology. - 1985. - Vol. 20. - P. 709-722.

### ДИСТАНЦИОННОЕ УПРАВЛЕНИЕ С ЦЕЛЬЮ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

*Махамаджанова Нозима Рустамовна, докторант национального  
исследовательского института профессионального развития и обучения  
педагогов новым методикам им.А.Авлонии*

Аннотация: Эффективная цифровая система управления школой предлагает множество преимуществ: от оптимизации административных задач и улучшения коммуникации до облегчения принятия решений на основе данных и предоставления персонализированного опыта обучения. Это не только освобождает преподавателей от обременительных



административных обязанностей, но и способствует созданию совместной, инклюзивной и увлекательной образовательной среды.

Образовательный ландшафт XXI века неразрывно связан с всепроникающим влиянием цифровых технологий. Это кардинально изменило то, как мы учим, учимся, общаемся и управляем образовательными процессами, стимулируя сдвиг парадигмы от традиционных методов к более динамичным, интерактивным и эффективным подходам. Одной из областей, где этот сдвиг весьма очевиден, является управление школами. Интеграция цифровизации в системы управления школами стала важнейшим приоритетом во всем мире, учитывая убедительные преимущества, которые она предлагает в улучшении образовательных результатов, операционной эффективности и общего школьного опыта<sup>[6]</sup>.

Начало 2020 года заставило весь мир вновь заняться вопросом цифровизации образования. Интерес к этому вопросу связан со значительным научно-техническим прогрессом в области цифровизации, а также возникновением пандемии. В докладе ЮНЕСКО о цифровой трансформации за 2020 год отмечается, что около 89% учащихся во всем мире, или 1,54 миллиарда детей, в том числе почти 743 миллиона девочек, не посещали школы из-за закрытия школ из-за COVID-19. В ответ цифровые платформы для управления школами стали играть важную роль в обеспечении дистанционного обучения и обеспечении непрерывности образования в эти трудные времена<sup>[2]</sup>. Кроме этого, в отчете Всемирного банка за 2021 год подчеркивается острая необходимость цифровой трансформации в образовании, заявляя, что около 53% детей в странах с низким и средним уровнем дохода не могут прочитать и понять простой текст к 10 годам. В отчете подчеркивается потенциал цифровых технологий в решении этой «бедности в обучении», предполагая, что они могут расширить возможности обучения, повысить административную эффективность и обеспечить принятие решений в сфере образования на основе данных<sup>[3]</sup>.

Дистанционное управление, также известное как удаленное или виртуальное управление, становится все более распространенным в европейских странах благодаря развитию технологий и изменениям в культуре труда. В контексте Европы практика дистанционного управления различается в разных странах под влиянием таких факторов, как культурные нормы, внедрение технологий и правовая база. Например, страны Северной и Западной Европы, включая Нидерланды, Швецию и Германию, продемонстрировали более высокий уровень принятия удаленной работы. В

этих странах часто царит сильная культура баланса между работой и личной жизнью и гибкие условия работы<sup>[4]</sup>. И наоборот, в странах Южной и Восточной Европы традиционная офисная работа по-прежнему более распространена, а удаленная работа менее распространена, хотя ситуация постепенно меняется<sup>[5]</sup>.

Независимо от страны, дистанционное управление требует уникального набора навыков и стратегий. Менеджерам приходится справляться со сложностями управления командой, с которой они не взаимодействуют регулярно. Это предполагает поддержание эффективной коммуникации, использование цифровых инструментов, сосредоточение внимания на результатах, а не на физическом присутствии, а также воспитание чувства доверия и автономии среди удаленных сотрудников. Доверие играет решающую роль в динамике удаленной работы, поскольку оно заменяет контрольный аспект традиционного управления. Руководители должны доверять своим сотрудникам выполнять свои рабочие обязанности, несмотря на то, что они не находятся в физически контролируемой среде. Эффективное общение также имеет решающее значение в условиях удаленной работы. Управляющие должны создать четкие линии связи, гарантируя, что члены их команды понимают цели организации и свои конкретные роли<sup>[8]</sup>.

Более того, умелое использование цифровых инструментов необходимо для эффективного дистанционного управления. Это могут быть коммуникационные инструменты, такие как Zoom и Microsoft Teams, инструменты управления проектами, такие как Asana, и даже технологии виртуальной реальности для удаленного сотрудничества<sup>[7]</sup>.

Необходимую цифровую инфраструктуру для дистанционного управления поддерживают Стратегия единого цифрового рынка Европейского Союза и Общий регламент по защите данных (GDPR). Эти законы облегчают беспрепятственное онлайн-общение и сотрудничество через границы, а также обеспечивают конфиденциальность и безопасность данных – ключевые аспекты удаленной работы<sup>[1]</sup>.

В заключение, дистанционное управление не только является растущей тенденцией в Европе, с региональными различиями и уникальными проблемами, оно также, предоставляет организациям значительные возможности, такие как: повышенная гибкость, потенциальная экономия средств и доступ к более широкому кадровому резерву. Интеграция цифровизации в управление школами — это не просто технологический



сдвиг, а стратегический шаг к созданию устойчивой системы образования. Это дает школам возможность адаптироваться к меняющимся образовательным потребностям и проблемам, прокладывая путь к будущему, в котором образование станет более доступным, интересным и эффективным.

Дистанционное управление требует уникального набора лидерских навыков и стратегий для обеспечения эффективности и производительности. Поскольку тенденция к удаленной работе продолжает набирать обороты, удаленное управление, вероятно, станет важной частью управления организацией. Соответственно, менеджеры должны сосредоточиться на результатах работы, а не на контроле рабочих процессов. В условиях отсутствия физического присутствия лидеры должны создать рабочую среду, ориентированную на результат, и обеспечить четкое понимание членами команды своих задач и ожидаемого качества работы.

### Литература:

1. European Commission. (2020). Shaping Europe's digital future. Retrieved from <https://digital-strategy.ec.europa.eu/en>
2. UNESCO. (2020). Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and education: All means all. UNESCO Publishing.
3. World Bank. (2021). Realizing the Promise: Boosting Secondary Education Outcomes in Developing Countries. World Bank.
4. Blok, M., Groenesteijn, L., Schelvis, R., & Vink, P. (2020). The effects of a corporate office concept on workers' health and performance. *Ergonomics*, 63(3), 245-260.
5. Felstead, A., & Henseke, G. (2017). Assessing the growth of remote working and its consequences for effort, well-being and work-life balance. *New Technology, Work and Employment*, 32(3), 195-212.
6. Gibson, C. B., Huang, L., Kirkman, B. L., & Shapiro, D. L. (2014). Where global and virtual meet: The value of examining the intersection of these elements in twenty-first-century teams. *Academy of Management Perspectives*, 28(3), 217-234.
7. Makarius, E. E., & Larson, B. Z. (2020). Changing the perspective of virtual work: Building virtual intelligence at the individual level. *Academy of Management Perspectives*, 34(2), 208-230.
8. Zaccaro, S. J., Bader, P., Braddy, P. W., Paquin, S. P., Dubrow, S., & Yirenkyi, G. (2020). The changing nature of leadership development and the role of digital technology in leader development practices. *Leadership Quarterly*, 31(1).

## PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING TA'LIM SIFATINI OSHISHIDAGI ROLI

*Muminova Muhayyo Meliqulovna*  
*Sharof Rashidov tuman 2-son kasb-hunar maktabi*  
*Ijtimoiy gumanitar fanlari kafedراسi mudiri*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada professional ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirishda raqamlashtirish jarayonining o'rni va uning istiqbolli natijalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlari:** professional ta'lim, raqamlashtirish, ta'lim jarayoni, texnologiya, boshqarish tamoyillari, zamonaviy pedagogika, ta'lim sifati.

Bugungi zamonaviy bosqichdagi professional ta'lim tizimidagi pedagogik dolzarb vazifalarga fan, zamonaviy texnika, ilg'or texnologiyalar, zamonaviy o'qitish metodlari va vositalaridan foydalanish asosida zamon talabiga mos keladigan yosh avlodni tarbiyalab, kerakli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lgan yetuk professional kadrlarni tayyorlash va ularni bilim olishi uchun kerakli bo'lgan, o'qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi.

Ta'lim sifatini oshirish, fan va texnologiyaning eng so'nggi yutuqlarini amaliyotga joriy eta oladigan, o'z javobgarligini his etadigan, kasb-hunarli, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, tashabbuskor va tadbirkor yoshlarni tayyorlash kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Bu o'z navbatida ta'lim jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda bugungi kunda o'qitishning an'anaviy ko'rinishidan farq qiladigan zamonaviy texnologiyalarni qo'llab, noan'anaviy o'qitish jarayonlaridan foydalangan holda yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi. Shu bois ham ilmiy-texnika taraqqiyotining jadal sur'atlarda rivojlanayotgan hozirgi davrda o'qitishning an'anaviy texnologiyalari zamonaviy ta'lim berish usuliga mo'ljallangan o'qitishning metod va vositalari bilan almashtirilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad har tomonlama yetuk, jahon standartlari darajasi talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlashdir. Ta'lim sifatining oshib borishi o'quv mashg'uloti jarayonida foydalanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni turli yo'nalish va maqsadlarda qo'llanilayotganligiga bog'liq. Bu texnologiya pedagogik loyihalashtirish, ta'lim jarayonini tashkil qilish va albatta ta'lim oluvchi hamda pedagog uchun qulay shart-sharoit yaratish orqali hamkorlikda ishlashdir.



Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.09.2019-yildagi PF-5812-son farmoniga asosan tashkil etilgan Respublikamizda faoliyat olib borayotgan 704 ta professional ta’lim muassasalari mavjud bo‘lib, shundan 330 ta kasb-hunar maktabi, 166 ta kollej, 208 ta texnikum. Barchamizga ma’lumki yuqoridagi ta’lim muassasalarining barchasi ham yetarlicha adabiyotlar, elektron darsliklar va jihozlar bilan ta’minlanmagan.

Jamiyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb ijtimoiy zaruriyat ekaniga urg‘u bergan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni qayd etib o‘tadi: “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘ldan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi.”

O‘qitish tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish “ta’limni raqamlashtirish” deb nomlanadi. Bunda barcha o‘quv hujjatlari – o‘quv rejalari, fan dasturlari, tegishli fanlarning ishchi o‘quv dasturlari, guruh jurnallari, o‘quv materiallari onlayn shaklga o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2020-yil 4-sentyabrdagi 465-sonli “Professional ta’lim muassasalari uchun o‘qitish materiallar to‘plamlarini yaratishni tashkil etish” to‘g‘risidagi buyrug‘iga asosan bugungu kunda prof.edu.uz saytiga professional ta’lim tizimi 272 xil fan modullari bo‘yicha 1265 ta o‘qitish materiallari joylashtirilgan bo‘lib bu Respublikamizdagi barcha ta’lim muassasalari pedagog hodimlari uchun juda katta yengillik yaratilishiga asos bo‘ldi.

Agar Professional ta’lim tizimining raqamlashtirish tizimini mukammal ravishda shakllantirilsa, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikum o‘quvchilari uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. O‘quvchilar istalgan sharoitda – axborot-resurs markazida, uy sharoitida Internetga bog‘lanish orqali masofadan tashkil etilayotgan o‘quv mashg‘ulotlari, sinov va imtihonlarda ishtirok etishi mumkin. O‘quvchilarda ta’lim muassasasiga kelmayotgan holda kunning istalgan vaqtida kerakli adabiyotlar, fan resurslari va zarur bo‘lgan kerakli manbalardan to‘liq foydalana olish imkoniyati yaratiladi. Bunday imkoniyatlarning yaratilishi zamon talabiga mos yetuk professional kadrlarni yetishib chiqishi uchun munosib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamli\\_tehnologiya\\_asoslari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamli_tehnologiya_asoslari)
2. <https://lex.uz/ru/docs/-4767514>
3. <https://edu.profedu.uz/>
4. Raqamli texnologiyalarning yangi O‘zbekiston rivojiga ta’siri. 21.06.2023.

## “MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI USLUBCHISINING METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI”

*Normurodova Nodira Maxmudovna*  
*Xalqaro Nordik Universiteti 1-kurs magistranti.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari uslubchisi va uning vazifalari, kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi tahlil qilingan. Hozirgi paytdagi uslubchilarning kasbiy kompetensiyasidagi kamchiliklar va muammolar o‘rganilgan. Uslubchining kasbiy kompetentligini oshirish masallariga to‘xtalib o‘tilgan, ta’lim-tarbiya ishlarini talab darajasida amalga oshirishi, boshqarish, metodik yordam, liderlik sifatleri haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlari:** kasbiy kompetentlik, pedagogik mahorat, ta’lim integratsiyasi, pertseptiv qobiliyat, kommunikativ qobiliyat, konstruktiv qobiliyat, gnostik qobiliyat, didaktika, uslubchi, liderlik, boshqaruv usuli, axborot texnologiyalar, tashabbus, tajriba.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali quyidagilarga yo‘nalishlari belgilab berilgan:

-sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish;

-pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;

-yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko‘nikmaga ega, tarbiya, o‘qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish.



Bugungi kunga qadar kompetensiyaviy yondashuv asosida tarbiyachi-metodistning kompetentligini rivojlantirish borasida yetarlicha tadqiqot ishlarining olib borilmaganligi ham dolzarb muammodir. Chunki ta'lim muassasalarida uslubchining kasbiy kompetentligi rivojlantirilsa, ularning innovatsion kompetentligi tarkib toptirilsa, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kompetentlikni shakllantirishning nazariy va amaliy masalalari o'rgatib borilsa, tarbiyachi faoliyatining keyingi bosqichlarida bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash bilan bog'liq masalalar biroz bartaraf etilgan bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti nizomida, hamda 255-sonli malaka tavfsiflari to'g'risidagi buyrug'da uslubchining huquq va vazifalari aniq belgilab berilgan. U ta'lim-tarbiya uslublarini mukammal egallagan, siyosiy ongi, dunyoqarashi keng, yuksak ma'naviy fazilatlar sohibi, tadbirkor, soha tizimida uch yil stajga ega bo'lgan, kamida bitta xorijiy tilni biladigan pedagog-tarbiyachilar orasidan tayinlanadi.

Uslubchi hamkasblarining hurmatini qozonish va ularga o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlarida yordam berish uchun muayyan rahbarlik salohiyatiga ham ega bo'lishi lozim. U nafaqat puxta nazariy tayyorgarlikka, balki bilim va tajribalarini amalda qo'llash ko'nikmasiga ham ega bo'lishi zarur. Tajribali uslubchi tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondashish g'oyalarini umumlashtira bilishi, aniq maqsadni ko'zlab faoliyat yuritishi, har bir tarbiyachining imkoniyat va qobiliyatlarini e'tiborga olishi bilan ajralib turadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisining ta'lim-tarbiya yo'nalishidagi faoliyatining samaradorligi, uning obro'- e'tibori ko'p jihatdan pedagoglar jamoasi, eng avvalo, tashkilot rahbariyatining jipsligi, uyushqoqligi va bir yoqadan bosh chiqarib faoliyat yuritishiga bog'liqdir.

Uslubchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni tadqiq qilish masalalari bir qator olimlarning ishlarida o'z ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy layoqatlilik - ishonchlilik sifatleri bilan birgalikda o'qituvchining kasbiy - individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrni olg'a surganlar. O'z navbatida, kasbiy layoqatlilik tushunchasi, V.A.Slastenin ta'kidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy shakllanganligini tavsiflaydi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda, ko'pgina pedagog olimlarning ilmiy ishlarida «kompetentlik» degan tushuncha keyingi paytlarda keng qo'llanilmoqda. Ta'lim tizimiga kompetentli yondashuv xorijiy adabiyotlarda o'tgan asrning 60-yillarida shakllana boshlagan edi.

G'arb mamlakatlarida shakllangan an'anaga muvofiq mutaxassisning kasbiy malakasi uning kompetentlik, ta'lim tizimi esa — bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi. Xorijiy mamlakatlarda an'anaga muvofiq ishchining bilim va malakalarining o'ziga xos-xususiyati hisoblangan mutaxassislik (malakaviy) standartlari ishlab chiqiladi. Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Pedagogikada kompetent yondashish mutlaqo yangi hodisa emas, balki uning irmoqlari uzluksiz rivojlanib boruvchi ta'lim jarayonlarida mavjud bo'lib, ular bosqichma-bosqich shakllangan. «Mahorat», «malaka», «salohiyat» masalalari, faoliyat, shu bilan birgalikda bir qator faoliyatlarning birikuvi M.N.Skatkin, I.Y.Lerner, V.V.Krayevskiy, G.P.Shedrovidskiy, V.V.Davidov va boshqa pedagogika sohasining olimlari ilmiy asarlari asosini tashkil etgan. D.L.Tompson, D.Pristinlar: «Kasbiy kompetentlik - ishda kerak bo'lgan bilimlarning va barcha axloqiy qoidalarning yig'indisidir», - deb ta'kidlaydilar. I.V.Grishina kasbiy kompetensiya shaxsning o'z professional faoliyatini qanchalik darajada egallaganligi, deb baho beradi va quyidagicha ta'riflaydi:

A.K.Markova eng ko'p o'qituvchi mehnatining kasbiy kompetentligi asoslarini qidirgan pedagog olim. A.K.Markova fikri bo'yicha o'qituvchining mehnati kompetentlikka aylanadi qachon-ki o'qituvchi o'z faoliyatini yetarlicha yuqori hamda talabalarni o'qitish va tarbiyalashni yuqori darajada amalga oshirsa. Ushbu asoslar bilan birga o'qituvchining kasbiy kompetentligini to'rtga bo'lib o'rganadi: Maxsus yoki faoliyatli kasbiy kompetentlik - bu faoliyatni yuqori kasbiy darajada olib borishi. Maxsus kasbiy kompetentlik nafaqat maxsus bilimlardan, balki bu bilimlarni amalga oshirishdan iborat;

Ijtimoiy kompetentlik - bu qo'shimcha faoliyatni olib borish yo'llarini bilish, hamkorlikda bajarish yo'llarini bilish; Shaxsiy kompetentlik – o'zini rivojlantirish va o'zini ko'rsatish yo'llarini bilish (mutaxassis o'zining faoliyatini rejalashtirish, mustaqil qaror qilish, ma'lumotlar bilan va o'z ustida ishlash).

Individual kompetentlik - bu o'zini boshqarish yo'llarini bilish, kasbiy rivojlanishga tayyorgarlik va kasbiy yangiliklar yaratish. Shu bilan birga o'qituvchining bilimlari yangiliklar bilan boyigan bo'lishi, psixologik va



pedagogik fazilatlar yuqori darajada bo'lishi. Kasbiy kompetensiya tuzilishi va mazmuni ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat. Kasbiy kompetensiya –bu bilim, mahorat va tajriba uzviyligi bo'lib, loyihalash mutaxassis faoliyatini ro'yobga chiqaruvchi omil hisoblanadi. Turli mualliflar tomonidan e'lon qilingan kasbiy kompetensiya muammolari to'g'risidagi ilmiy maqolalarda ijodiy izlanish eng asosiy sifatlardan biri ekanligi qayd etiladi. Ayniqsa, kasb ta'limi o'qituvchilari uchun bu o'ta muhim jihat sanaladi hamda mutaxassisning kasbiy kompetensiyasida ijodkorlik masalasiga alohida urg'u beriladi. Ijodiy dunyoqarash va qo'rqmay ijodiy faoliyat ko'rsatish, Hatto u turmush masalalari bo'lsa ham; «bola» va uning mashg'ulotlari erkin tarzda takomillashib borishini chin dildan istashi va uni tashkil etish maqsadi talabning o'sishi va har tomonlama rivojlanishi uchun shaxsiy mas'ullik ana shular jumlasidandir.

Uslubchining kompetensiyasini aniqlashda metodlardan foydalanishga qaror qildim. Men so'rovnoma metodidan foydalandim va onlayn va oflayn tarzda o'tkazildi. Maktabgacha ta'lim uslubchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirishda so'rovnoma usulidan foydalanishni afzal ko'rildi. Bu usulda 10 ta savoldan foydalangan holda amaliyotda qo'llab, uslubchilar bilan onlayn va yozma tarzda anketa-so'rovnomalar o'tkazildi. Bu orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uslubchilarning bilim salohiyatini va muammolarini o'rganildi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirining 255-sonli buyrug'i. 2021-yil 30-dekabr.
2. Sh.A.Sodiqova. "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur chashmalari" T.: 2013-y.
3. N.M.Kayumova. "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T.: 2013.
4. Sh.M.Mirziyoyev. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.
5. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102b.
6. Line M. "Creating Caring Qualified Early Childhood Teachers: An Exploration Of The Relationship Between Teacher Efficacy And Learner-Centeredness Among Early Childhood Professionals In Arkansas". Published by ProQuest (2016)

7. R.Suleymanova. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish. Psixologik trening asoslari fan, to'plamlar va ular ustida amallar, 2 5341812802136840895/  
<https://azkurs.org/kasbiy-kompetentlikni-shakllantirish.html>

## TA'LIM TIZIMIDA KOMPETENSIYA MAZMUNI

*Nurmuhamedova Barno Rashidovna*  
*132-maktab ingliz tili fani o'qituvchisi*

Bugungi kunda jahon amaliyotida bo'lajak kadrlarining mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim muassasalari bilan ish beruvchilar ehtiyojlarini o'rganish, mehnat bozorida vaziyatni tahlil qilish orqali sifatli ta'limni tashkil etish, kompetensiyalarni rivojlantirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmlarini amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlarini intensiv kengaytirib borish kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini oshirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'qitishning axborot va innovatsion texnologiyalarini integratsiyalash natijasida ta'limning zamonaviy shakllari va vositalarini joriy etishga oid ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish hamda yetarli darajada kasbiy tayyorgarlikni ta'minlovchi kasbiy, amaliy ta'lim berish metodikasini takomillashtirishni taqozo etadi.

Kompetensiya haqida to'xtalsak, "competence" inglizcha so'zdan olingan bo'lib, lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqobatchilar bilan o'zaro munosabatlarda oqilona yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Kompetentlikni layoqatlilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma'lum bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin. Boshqacha aytganda, kompetentlik – faoliyatga doir kategoriya bo'lib, sub'yektning qo'yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyati jarayonida



namoyon bo'ladi. Umumiy holda ta'riflaydigan bo'lsak, kompetentlik – individning jamiyatda, xususan kasbiy faoliyat sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi, atrofidagi ob'yektlar va sub'yektlar bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha muayyan malakalar va kasbiy tajribalar shakllanganligining muayyan darajasi demakdir.

Psixologik nuqtai nazardan A.K.Markova kompetentlikni shunday ta'riflaydi: kompetentlik muayyan - kasb talablariga mos kelish darajasi. U kompetentlikni psixik sifatlarning qo'shilishi sifatida, mustaqil va mas'uliyat bilan (ta'sirchan kompetentlik) harakat qilishga imkon beruvchi ruhiy holat sifatida, odamning ma'lum bir mehnat vazifalarini bajarish qobiliyati va ko'nikmasiga ega bo'lishi sifatida belgilaydi [2].

E.F.Zeerning fikricha, kasbiy kompetentlik – kasbiy bilimlar, ko'nikmalar yig'indisi, shuningdek, kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullari bo'lib, ular quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- ijtimoiy-huquqiy kompetentlik – ijtimoiy institutlar va odamlarning o'zaro faoliyatlari sohasidagi bilim va ko'nikmalar, shuningdek, kasbiy muloqat yo'llarini va xulq-atvor qoidalarini puxta egallaganlik;

- maxsus kompetentlik – mustaqil ravishda muayyan faoliyat turlarini amalga oshirishga tayyorlik, ko'p uchraydigan kasbiy masalalarni yecha bilish va o'z mehnati natijalarini baholay olish, o'z mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda o'zlashtira olishga qodirlik;

- shaxsiy kompetentlik – kasbiy mahoratini va malakalarini doimiy ravishda orttirib borishga qodirlik, kasbiy faoliyatida o'zini ko'rsata olish;

- autokompetentlik – o'zining ijtimoiy-kasbiy imkoniyatlari bo'yicha haqqoniy tasavvurga ega bo'lish, kasbiy qiyinchiliklarni bartaraf eta olish [3].

Kompetensiya tor ma'noda shaxsning malaka talablari doirasida bevosita xizmat vazifalarini bajarish uchun ahamiyatga ega bo'lgan sifatlari yig'indisining xarakteristikasi sifatida tushuniladi. Shu nuqtai-nazardan kasbiy kompetentlik shaxs kasbiy sifatlarining negizi hisoblanadigan hamda mehnat va texnologik jarayonlarni tahlil qilish, texnik hujjatlarni va topshiriqlarni tahlil qilish, mehnat jarayonini bexato amalga oshirish, texnologik talablarga rioya qilish, qo'shimcha malakalarni egallash, jarayonlarni tashkil etish madaniyatining yuqori darajaliligi, texnologik jarayonda vujudga keladigan nosozliklarni bartaraf etish kabi faoliyatning elementlari orqali taqdim etilgan kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishni taqozo etadi.

Shunday, kasbiy kompetentliklar borki, ular ko'plab kasblar uchun asos bo'lib xizmat qiladi va ishlab chiqarishda ham, ijtimoiy amaliyotda ham qo'llanilganda o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan

holda, ta'lim jarayonining ham mazmunini, ham shakllarini zamonaviy ta'lim tamoyillariga asosan baravariga o'zgartirish zarur. Bunda o'zgartirilgan shakllar ta'lim oluvchilarga ma'lum bir kompetensiyalar bo'yicha bilim bermasdan, balki, butun ta'lim jarayoni davomida ular asosida faoliyat olib borishlarini ta'minlashi kerak. Ya'ni, ta'lim oluvchi navbatdagi ko'nikmalar to'plamini shakllantirish yo'li bilan bo'lajak kasbiy faoliyatiga tayyorlanishi emas, balki, kompetensiyalarni shu yerda va hozir singdirib borishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
2. А.К.Маркова Психология труда учителя, [текст] / А.К. Маркова. – М.: Просвещение, 2003. – 151 с.
3. E.F.Zeer Psixologiya professiy. – Yekaterenburg: Delovaya kniga, 2003.- 336 s.

## O'QUVCHILARGA INGLIZ TILINI O'RGATISH ORQALI KOMPETENTLI MUTAXASSIS TAYYORLASH

*Nurmuxamedova Barno Rashidovna*  
*132-maktab, ingliz tili fani o'qituvchisi*

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish va ularda ingliz tilini keng hamda chuqur o'qitishga alohida e'tibor qaratilib, bunda ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan malakali mutaxassislarni tayyorlash, sohaga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini hamda intensiv ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish hamda ingliz tili mutaxassislarni tayyorlashda CEFR (Common European Framework of Reference for Language) tizimi asosida ta'lim mazmuni va sifatini xalqaro darajaga ko'tarishda bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xalqaro mehnat bozori talablariga to'la javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash va ularning xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishlari, xorijiy tillarni o'qitish metodikasi va o'quv-uslubiy ta'minotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda o'zlashtirish natijalarini ob'yektiv baholash mexanizmlarini ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan.

Jahon amaliyotida o'quvchilarning ingliz tili bo'yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ingliz tilidagi eshitish, yozish, gapirish va o'qish



kompetensiyalarini shakllantirish, ingliz tilini o'qitish sifatini oshirishni takomillashtirish davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanib, bunda ta'limning har bir bosqichida shaxsning shakllanishi va rivojlanib borishida ingliz tillarini chuqur o'zlashtirishi, tillarning fanlarga integrallashtirilgan holda o'rganilishiga alohida e'tibor qaratilgan. O'qitishning mazmuni va o'quv jarayonidagi yangicha yondashuvlar o'quv jarayonidagi sub'yektlarning har tomonlama rivojlanishini talab etadi. Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va rivojlanish muammolarini hal qilishda o'qitishning intensiv texnologiyalari muhim omil hisoblanib, ularda intensiv o'qitish – ta'lim olayotgan shaxsning fikrlashga doir ishlarini qat'iylik asosida tashkil etishga, mustaqillik, o'z-o'zini rivojlantirish va baholash, ijodkorlik kabi qobiliyatlarini ta'minlovchi o'zaro harakatlarga yo'naltirilgan jarayondir. Bugungi kunda ingliz tillarini o'rganish darajalarini aniqlashning xalqaro standartlarining (IELTS, TOEFL, DSD) joriy etilishi, ochiq ta'lim tizimlari imkoniyatlarining ortib borishi, horijiy davlatlar o'rtasida ta'lim sohasida olib borilayotgan o'zaro hamkorlik ingliz tiliga bo'lgan talablarni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda har bir soha vakillari ingliz tilini mukammal egallashi uning ish faoliyatida ham, shaxsiy hayotida ham katta yutuqlarga erishishga zamin yaratadi. Jamiyatimizning ham shiddat bilan rivojlanishida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan axborotlarning hajmi hamda boshqa bir qancha omillar o'qitishda insonning qobiliyatlaridan maksimal darajada foydalanishni talab qiladi. Muloqot, bilish, axborotni olish va to'plash vositasida ingliz tilidan foydalanishning hozirgi zamondagi shart-sharoitlari nutq faoliyatining barcha turlari – ingliz tilida gapirish va eshitib tushunish, tahliliy o'qish, o'quv axborotlarining ketma-ketligi va mantiqiyliigi hamda yozish kabi kompetensiyalarni egallash zaruratini belgilab beradi. O'qitishning intensiv ta'lim texnologiyalari o'qitilayotgan shaxsda nafaqat qisqa muddatlarda kompetensiyalarni shakllantirilishiga, balki o'quvchining ikkinchi tilga oid kompetensiyasini shakllantirish jarayonida psixologik muammolarni yengib o'tishga mo'ljallangandir.

O'quvchilarning ingliz tilidagi yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishda didaktik va pedagogik vositalardan foydalanishning bir necha bosqichga ajratgan holda o'rganishni taklif qilamiz.

Birinchi bosqich. Ushbu bosqichda yozma axborot tayyorlash vazifasi va maqsadi bayon qilinadi. O'quvchilarga ma'lum bir mavzu yuzasidan topshiriqlar beriladi, ularning diqqatini kelib chiqishi mumkin bo'lgan ayrim orfografik qoidalarga qaratiladi, zarur hollarda bunday qiyinchiliklarni namunaviy misollar orqali batafsilroq tushuntirib qo'yilgani maqsadga muvofiq. Masalan, write-right-rite kabi so'zlarni qiyoslab solishtirish orqali ulardagi orfografik va talaffuzi bilan

bog‘liq qiyinchiliklarni o‘quvchilar yaxshiroq tushunib, farqlab olishni o‘rganib olishadi. Bu bosqichda o‘quvchilarga berilgan mavzu bilan bog‘liq omonim so‘zlar berilib, ularni aytib berishi mashq qilinadi. Bular o‘quvchilarda orfografik ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. O‘rganilayotgan omonim so‘zlarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirib olinganlik darajasini aniqlash uchun ularga «Fill in the blanks by the corresponding words given below» (nuqtalar o‘rnini quyida berilgan so‘zlardan mosini tanlab to‘ldiring) kabi topshiriqlarni berish mumkin. Bular individual va juft-juft holda bajarilishi mumkin. Guruh-guruh bo‘lib ishlaganda esa omonim so‘zlar tushirilib qoldirilgan matnlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ikkinchi bosqich. Ushbu bosqichda berilgan mavzuga oid so‘zlar texnik vositalar yordamida namoyish etiladi. Masalan, multimedia orqali namoyish etilgan tasvirlardan mavzuga oid so‘zlar yordamida macrep tuzishlari mumkin. Bu avval o‘qituvchi rahbarligida, keyinroq mustaqil holda bajarilishi maqsadga muvofiq. Kalit so‘zlarni gaplarda qo‘llash orqali leksik-gpammatik qiyinchiliklar bartaraf qilinadi.

Uchinchi bosqich. Ushbu bosqichda gaplar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikka e‘tibor qaratiladi. O‘quvchilar macrep yordamida mavzuga oid matn tuzishni mashq qilishadi. Bunday ish o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, ko‘nikmalarni shakllantirish, o‘quv materialini yodda saqlab qolishni osonlashtirish bilan birga o‘z fikrini ingliz tilida ravon ifodalay olish kompetensiyalarini ham shakllantiradi.

To‘rtinchi bosqich. Ushbu bosqichda o‘quvchilar berilgan mavzu asosida o‘zlari tuzgan yozma matnlarni bir-birlariga o‘qib beradilar va boshqalarning yozgan matnlariga nisbatan o‘z fikrlarini bildiradilar. Ularning fikrlari ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Masalaning bunday qo‘yilishi ulardagi tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Beshinchi bosqich. Ushbu bosqichda har bir o‘quvchi o‘z matniga nisbatan bildirilgan fikrlarni hisobga olib, matnni qayta yozib chiqadi. Buning natijasida ba‘zan avvalgi matndan farq qiluvchi tamomila yangi matn tayyorlanishi ham mumkin. Bu o‘quvchining o‘z ishiga qanchalik ijodiy yondashganligiga bog‘liqdir.

Yuqorida keltirilgan bosqichlar asosida o‘quvchilarning nutq kompetensiyasini shakllantirish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning shaxsiy qarashlari, emotsional holati, ichki imkoniyatlari, bilim darajasi haqida ko‘proq ma‘lumotga ega bo‘lishi bilan bir qatorda har bir o‘quvchi uchun qiyinchilik tug‘dirgan holatlarni ham yaxshiroq bilib olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchiga o‘quvchilardagi individual qiyinchiliklarni bartaraf etish yo‘llari va usullarini ishlab chiqishga yordam beradi.



## INDIVIDUAL TA'LIM TAMOYILLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH

*Omonova Muxlisa Do'stnazar qizi*  
*Chirchiq davlat Pedagogika Universiteti erkin tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Shaxs va individual sifatlar o'zaro bir-birini to'ldiradi, shu sababli pedagogikada shaxs tarbiyasi hamda individuallik masalalariga ko'proq e'tibor qaratiladi. Maqolada o'quv ehtiyojlari darajalari bo'yicha tabaqalashtirish asosida individual ta'lim tamoyillarini qo'llagan holda o'quvchilarning tanqidiy fikrlashni shakllantirish masalalari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Shaxs, tarbiya, individuallik, madaniyat, fikrlash, bilim, ko'nikma, metod.

Ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi mexanizmlarini yaratish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasini, uning vositalarini ishlab chiqish, o'zlashtirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o'quvchilarni o'qitishni jadallashtirish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Ushbu vazifalarni bajarish mavjud ta'lim tizimini mukammallashtirishni, uni hozirgi zamon talablariga mos rivojlantirishni, xususan ta'lim paradigmasini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishga, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fundamental bilimlarni mustahkam egallashga qodir mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirishni taqozo etadi.

Jamoaviy mehnat sharoitida o'quvchilarga individual yondashish zarurligi haqidagi g'oya Yan Amos Komenskiyga (1592-1670) tegishli. "Buyuk didaktika"da o'qituvchi faoliyatining tashkiliy masalalari o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, ularni Y.A.Komenskiy olti turga bo'lib, tegishli pedagogik ta'sirlarni taklif qiladi: «Birinchidan, o'tkir aqli, bilimga intiluvchan va moslashuvchan o'quvchilar; ular, birinchi navbatda, ish bilan ta'minlashga qodir. Ularga ilmiy mazmun taklif qilishdan boshqa hech narsa kerak emas. Ikkinchidan, aqli o'tkir, ammo itoatkor bo'lsa-da, sust bo'lgan bolalar bor. Ularni faqat tebratish kerak. Uchinchidan, aqli o'tkir, ilmga intiluvchi, lekin tizgini yo'q, qaysar o'quvchilar bor. To'rtinchidan, o'rganishda itoatkor va izlanuvchan, lekin sekin va letargik bo'lgan o'quvchilar mavjud. Beshinchidan, ahmoq va bundan tashqari, befarq va letargik o'quvchilar bor. Ular o'jar bo'lmasa, ularni ham tuzatish mumkin. Oxirgi o'rinda ahmoq,

buzuq tabiatga ega o'quvchilar turadi: ko'pincha bu o'quvchilar umidsiz. Ular taqir tuproq, na ularga ishlov berish, na ularga teginish kerak..." [Y.A.Komenskiy].

Shaxs va individual sifatlar o'zaro bir-birini to'ldiradi, shu sababli pedagogikada shaxs tarbiyasi hamda individuallik (o'ziga xoslik)ni rivojlantirish, ta'lim esa madaniyatni (ijtimoiy tajribani) o'zlashtirish jarayoni sifatida qaraladi. Ta'lim, rivojlanish hamda tarbiya o'z birligida shaxs ontogenezining mohiyatini hamda individning maqsadga muvofiq ijtimoiylashuvi natijasini aks ettiradi [N.A.Muslimov, 2004, 128 b.].

O'quvchilarning fikrlash individualligini rivojlantirishda o'z-o'zini boshqaradigan fikrlash jarayonini shakllantirish asosiy rol o'ynaydi. Bu jarayonning tashqi ko'rinishi o'quvchining o'quv faoliyatida o'zini-o'zi boshqarishiga to'g'ri keladi. Ta'limni individuallashtirishning maqsadi o'quvchilarning tafakkuri individualligini (ongning individualligini) rivojlantirish bo'lganligi sababli, ta'limni individuallashtirishning tizimli omili o'quvchilarning o'quv faoliyati bilan o'zini o'zi boshqarishidir.

Ta'limni individuallashtirish individual yoki mustaqil ish sifatida belgilanadi. Bu ta'limni individuallashtirishda o'quvchilarning o'zini-o'zi boshqarishning o'quv faoliyatidagi asosiy roli haqidagi bayonotga mos keladi, chunki o'z-o'zini boshqarish o'quvchilarning mustaqil ishlashi uchun zarur shartdir.

Individual ta'lim tamoyillari asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirish baholovchi teskari aloqa bilan uyg'unlashgan holda o'quvchining ta'lim muhitiga moslashishi va uning xususiyatlariga asoslangan ta'limni individuallashtirishni taklif etadi.

Ta'lim muhitining murakkabligi vazifalar va mustahkamlashning noaniqligi bilan belgilanadi. O'quvchi o'zining ta'lim muhiti bilan o'zaro munosabat tajribasiga tayangan holda masalalar yechishni o'rganayotganda ta'lim muhitiga moslashadi. Ta'lim muhitiga moslashish jarayonida o'quvchiga tashqi ta'sirlar uning harakatini sonli baholash bilan mustahkamlashi, shu orqali o'z-o'zini boshqaruvchi fikrlash jarayonining shakllanishiga hissa qo'shishi kerak.

Ta'lim muassasalarida ta'limning me'yoriy hujjatlari individual yondashuv, shuningdek o'quvchilarning o'quv faoliyatini mustaqil loyihalash, asosiy va chuqurlashtirilgan darajada o'quv fanlarini o'zlashtirish imkonini beruvchi moslashuvchan individual ta'lim yo'nalishlarini shakllantirish uchun sharoit yaratishi kerak. Individual ta'lim tamoyillari asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashni shakllantirish o'quv ehtiyojlari darajalari bo'yicha tabaqalashtirish asosida hal etiladi, bu esa o'qituvchining o'quvchilar faoliyatini rejalashtirishda qo'llaniladigan o'quv- bilish faoliyatining individual yo'nalishlarini amalga



oshirish uchun o‘quv-metodik ta’minotni ishlab chiqish imkonini beradi. Biroq, mualliflar tomonidan o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish va chuqurlashtirish uchun ta’lim mazmuni, metodlarini oraliq nazorat qilish va keyingi tezkor tuzatish kirish natijalari asosida yo‘nalishni tezkor o‘zgartirish imkoniyati taqdim etilmagan.

Ta’lim mazmuni va metodlarini tezkor o‘zgartirish imkoniyatidan kelib chiqib, “individual yo‘nalish” tushunchasini shaxsan muhim o‘quv maqsadlariga erishishga qaratilgan ta’lim faoliyatining izchil olingan natijalari to‘plami deb belgilaymiz. Fanni o‘rganishning individual yo‘nalishini shakllantirish deganda biz o‘quv faoliyatini loyihalash (o‘quv davri uchun faoliyatning dastlabki rejasini tuzish), o‘quv faoliyatini amalga oshirish (o‘quv natijalarini izchil olish va to‘plash), o‘quvchining erishilgan ta’lim natijalarining shaxsiy-ahamiyatli maqsadlarga muvofiqligini/ nomuvofiqligini aniqlash asosida o‘quv faoliyatini boshqarish, ya’ni dastlabki faoliyat rejasidagi vaziyatni o‘zgartirishni tushunamiz.

Individual talim tamoyillari asosida tanqidiy fikrlash uchun har bir o‘quvchiga vazifalarning qulayligi, ta’limda muvaffaqiyatga erishish uchun vaziyatni yaratish, o‘rganilayotgan mavzuni grafik holatini ifodalovchi tayanch sxemalardan foydalanish, mavzuni o‘zlashtirishda to‘liq mustaqillikka bosqichma-bosqich o‘tish kabi hamkorlik metodikasi tamoyillarini amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shunday qilib, ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, individual ta’lim tamoyillari asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirish olimlar tomonidan faol o‘rganilmoqda va qonunchilik darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Shu bilan birga, o‘qituvchi tomonidan ta’lim ehtiyojlari va qobiliyatlari turli darajadagi murakkablik va yo‘naltirilgan dasturlarni shakllantirishni talab qiladigan o‘quvchilar uchun o‘quv materialini o‘zlashtirishning mazmuni va usullarini ishlab chiqish o‘qituvchilarning katta ma’lumot yuklanishiga olib keladi.

Individual ta’lim tamoyillari asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirish maktab ta’lim faoliyatida qisman hal qilingan, chunki o‘quvchining individual ehtiyojlari individual o‘quv trayektoriyasini amalga oshirish orqali emas, balki ta’lim vazifalari yoki faoliyatini farqlash orqali hisobga olinadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiy. – Toshkent: Fan, 2004. – 128 b.
2. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiy. – Toshkent: Fan, 2004. – 128 b.
3. Рашидов Х.Ф. Особенности развития среднего специального,

профессионального образования в Узбекистане. –Ташкент: Фан, 2004. –288 с.

4. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta‘lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Ped. fan. dokt. ... diss. – Toshkent: 2004. – 314 b.

## **“NODAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINI ZAMONAVIY YONDOSHUV ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH”**

*Omonova Xusnidaxon Topivoldiyevna*

*Xalqaro Nordik Universiteti, “Pedagogika” kafedrası magistranti*

**Kalit so‘zlar:** Nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, menejment, tamoyil, boshqarish usuli, boshqarish uslublari, rahbar, rahbarga qo‘yiladigan talablar.

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan, boshqarish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsiya texnologiyalari tatbiq etilib, ularga tayangan yondashuvlar qaror topmoqda.

Boshqarish usulining eng muhim belgilaridan biri uning ilmiy yondashuvga tayanishida namoyon bo‘ladi. Zero, bugun boshqaruv jarayonini ilmiy asosda tashkil etmasdan uning izchilligi va samaradorligini tasavvur etib bo‘lmaydi.

Nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari rahbar xodimlarini rivojlantirish davlatning o‘zining maqsadlarini amalga oshirish yo‘lidagi muammolarni o‘z ichiga oladi. Bu maqolada, nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini boshqarish tizimini takomillashtirishning muhimligi va ta‘lim tashkiloti rahbari va unga qo‘yiladigan talablar haqida bahs olib boriladi.

Maktabgacha ta‘lim uzluksiz ta‘lim tizimining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi — bola shaxsining har jihatdan rivojlanishini ta‘minlash, qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘qishga, doimiy ta‘lim olish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish va maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun tayyorlashdan iborat. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarning bilimi va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga, ularni vatanparvarlik, mustaqillik g‘oyalariга sadoqat, tariximiz va boy ma‘naviy-ma‘rifiy merosimiz va qadriyatlarimizga yuksak hurmat ruhida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.



Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan, boshqarish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsiya texnologiyalari tatbiq etilib, ularga tayangan yondashuvlar qaror topmoqda. Boshqarish usulining ham eng muhim belgilaridan biri uning ilmiy yondashuvga tayanishida namoyon bo'ladi. Zero, bugun boshqaruv jarayonini ilmiy asosda tashkil etmasdan uning izchilligi va samaradorligini tasavvur etib bo'lmaydi.

Albatta, rahbar shaxs muayyan tashkilotni samarali boshqarishi uchun avvalo, yetarli malaka va bilim, rahbarlik salohiyati, ko'plab ma'naviy-axloqiy xislat va fazilatlar sohibi bo'lishi darkor. Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish ham bundan istisno emas. Ushbu ta'lim tashkilotlaridagi boshqaruv faoliyatida nazariy bilim va amaliy tajriba va ko'nikmalarni o'zaro uyg'un holda qo'llash ta'lim-tarbiya bilan bog'liq masalalarni talab darajasida hal etish, bu jarayonda foydalaniladigan usul va uslublarni uzluksiz takomillashtirib borish, umuman olganda, maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishning qonuniy asoslari "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident qarori, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Konsepsiya, Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, "Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida NIZOM", O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonuni, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (2022) va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 7-fevral kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli farmonida "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy

himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta‘minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining qulayligini ta‘minlash, umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Globalashuv sharoitida o‘ziga xos ijtimoiy institut hisoblanuvchi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ham ijtimoiy-pedagogik faoliyatni yo‘lga qo‘yish muhim vazifa hisoblanadi. Binobarin, bolalarni maktabgacha ta‘lim yoshidan ijtimoiy munosabatlarga moslashtirish turli salbiy holatlar yuzaga kelishining oldini olishda o‘ziga xos dolzarblik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021-yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarorida maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta‘lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Bu qaror maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

Har qaysi sohani samarali idora etish, avvalambor, boshqarish tamoyil va mezonlari, usul va uslublarining ilmiy asoslangani, qay darajada takomillashgani bilan belgilanadi. Shu bois ularning har birini tavsiflash, mohiyatini ifodalashga ehtiyoj tug‘iladi.

Tamoyil – biror bir sohada, jumladan, ta‘lim sohasida ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan xulosalar, erishilgan natijalar.

Boshqarish usuli – boshqaruv sub’yektining (bizning holatimizda bu — maktabgacha ta‘lim boshqaruvi idoralari, tashkilot rahbariyati va h.k.) muayyan maqsadlarga erishishni nazarda tutgan holda boshqaruv ob’yektiga (bizning holatimizda bu — maktabgacha ta‘lim tashkiloti, tarbiyalanuvchilar va h.k.) ta’sir etish usul hamda vositalarining majmui.

Boshqarishning psixologik uslublari – bu shaxsning mustahkam psixologik xislatlari – diqqat, idrok, tafakkur, sezgi, ong orqali boshqarish uslublari majmui. Bu tushunchalar o‘zaro bir-birlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bularning barchasi kishilar o‘rtasidagi munosabatlarda kuzatiladi.



Nafaqat davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, balki nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti ham murakkab tarmoq bo'lib, direktorning undagi roli, faoliyati ko'p qirralidir. Ta'lim tashkiloti direktori - maktabgacha ta'lim tashkilotining tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib ta'minlash vazifalarini to'laqonli hal etishga qaratilgan. U maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur lozim-sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi. NMTT direktori ham o'z ishida davlatimiz va Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak onglilik va siyosiy yetuklik, tamoyillilik, o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik – bu tashkilot direktoriga qo'yiladigan asosiy talablardir.

Rahbar - maktabgacha ta'lim tashkilotining tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'laqonli hal etishga qaratilgan. U bolalar tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Yuksak onglilik va siyosiy yetuklik, prinsiplilik, o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik – bu direktorga qo'yiladigan asosiy talablardir. Jamoadagi to'g'ri, o'zaro munosabatlar har bir xodimning mehnat va ishlab chiqarish intizomligiga rioya qilishni ta'minlaydi. Rahbarlik mavqei o'z g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy, huquqiy saviyasini va mintaqaviylik mahoratini doimo ongli ravishda pedagogik bilimlarni bolalarga ta'lim berish nazariyasi va amaliyotini puxta egallashga, hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim oldida turgan vazifalarni bilishga, o'z bilimlaridan amaliy faoliyatda foydalanishga majbur etadi. Ta'lim tashkiloti rahbari o'quv dasturlari, davlat talablarini, metodik qo'llanmalarni, normativ hujjatlarni yaxshi bilishi va unga amal qilishi kerak. U pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur bilib, yetuk va kamchiliklarini darhol bartaraf qilish choralarini ko'rish lozim. Barcha darajadagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan va ishlab chiqarish bilan aloqasi qanchalik kuchli bo'lsa, uning samaradorligi shuncha katta bo'ladi.

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan, boshqarish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsiya texnologiyalari tatbiq etilib, ularga tayangan yondashuvlar qaror topmoqda.

Agarda innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda Nodavlat maktabgacha tashkilotlarida boshqaruvning zamonaviy usullarini tashkil etsak, nafaqat ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv malakalari, balki tashkilotda tarbiya olayotgan

tarbiyalanuvchilarning ham raqamli texnologiyalar asosida ta'lim-tarbiya olishini ta'minlagan bo'lar edik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://lex.uz/docs/-4333062?ONDATE=21.05.2021>
2. R.X.Djurayev, S.T.Turg'unov. Ta'lim menejmenti.–T.: Voris-nashriyot, 2006. -259 b.
3. R.X.Djurayev, S.T.Turg'unov. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. –T.: Fan, 2006.
4. R.Valijonov va boshq. Menejment asoslari. –T.: Sharq, 2002.
5. Л.В.Перегудов, М.Х.Саидов. Менежмент и экономика высшего образования. Ташкент, Молия, 2001.

### **“SELFED” METODI QO‘LLASH ORQALI PROFESSIONAL TA’LIM O‘QUVCHILARINI AMALIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

*Otamirzayev Samadjon Olimjon o'g'li*

*Namangan muhandislik-qurilish instituti, Mustaqil izlanuvchi.*

*Sanoatni axborotlashtirish fakulteti dekan o'rinbosari.*

Mamlakatimiz ta'lim tizimida o'quvchilarning fan asoslarini o'rganishga qiziqishini oshirish, ta'lim olish sifatini jahon talablari darajasiga ko'tarish bo'yicha ijobiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, kimyo ta'limi metodik ta'minoti mazmunini takomillashtirishda amaliy mazmunga ega topshiriqlarni ishlab chiqish zaruriyati kuzatilmoqda.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, kimyo fani mazmuni va aniq-tabiiy fanlarning tayanch tushunchalarini o'zaro integratsiyalash, metodik ta'minot mazmunini baholashning xalqaro dasturlar talablari asosida ishlab chiqish, o'quvchilarning amaliy ish ko'nikmalarini shakllantirish ishlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kun professional ta'lim tizimi oldiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalari, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalari yuklangan. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi kompetensiyaviy yondashuv o'qitish maqsadlariga erishish uchun ta'lim mazmunini boyitish o'quv



jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va natijalarni tahlil etish imkonini beradigan umumiy usullar yig'indisi hisoblanadi.

O'quvchilarning kimyo faniga doir amaliy kompetensiyasi – kimyo fani bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, o'quvchilarda kimyo faniga doir amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda **“Selfed”** metodidan foydalanish yaxshi samara beradi.

“Selfed” metodi muallifi: Otamirzaev Samadjon Olimjon o'g'li. “Selfed” metodi - inglizcha “Selfeducation” so'zidan olingan bo'lib, “o'z-o'zini tarbiyalash” yoki “o'z-o'zini o'qitish” ma'nosini anglatadi. Mazkur metodni qo'llash o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va o'rganishga undaydi hamda ularni amaliy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ushbu metodni professional ta'lim muassasalarida laboratoriya mashg'ulotlarini olib borishda qo'llash tavsiya etiladi.

“Selfed” metodining mohiyati: O'quvchilarda mustaqil o'rganish faoliyati, ya'ni laboratoriya ishlarini mustaqil bajarish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich. Bunda o'quvchilar o'zlariga berilgan vazifani (laboratoriya ishini) maqsadini aniqlab oladilar.

2-bosqich. O'quvchilar kerakli bosqichlarni o'zlari alohida yoki guruh bo'lib belgilaydilar, ya'ni laboratoriya ishini qanday bajarishni rejalashtiradilar.

3-bosqich. O'quvchilar o'z rejalari asosan laboratoriya ishini bajarish uchun nazariy bilimlarga ega ekanliklarini sinab ko'radilar.

4-bosqich. O'quvchilar o'z ish rejalari asosan laboratoriya ishlarini bajaradilar.

5-bosqich. O'quvchilar laboratoriya ishini bajarishda o'zlarini faoliyatlarini o'zlari baholaydilar.

**“Selfed” metodining qo'llanilishi:** Laboratoriya mashg'ulotlarini “Selfed” metodini qo'llab quyidagi besh bosqichda olib borish mumkin bo'ladi:

**1-bosqich. Maqsadni belgilash.** Bunda o'quvchilar o'zlariga berilgan laboratoriya ishini bajarishda o'zlari muayyan maqsadni belgilaydilar. O'quvchilar o'zlarining alohida maqsadlarini belgilashlari, ya'ni laboratoriya ishini bajarishdan maqsadni belgilashlari lozim bo'ladi.

O'qituvchi esa o'quvchilarga o'z maqsadlarini belgilashlari uchun harakatlar majmuini, kerak bo'ladigan materiallar va vaqtni aniqlashda ko'maklashadi hamda o'z maslahatlarini beradi.

**2-bosqich. Rejalashtirish.** O‘quvchilar laboratoriya ishini qanday bajarishni belgilaydilar, ya’ni rejalashtiradilar. Bunda ishni bajarish uchun kerakli

asbob-uskunalar, laboratoriya jihozlari, didaktik materiallar mavjudligi tekshirib chiqiladi. Laboratoriya jihozlarini sonini hisobga olgan holda, bir vaqtning o‘zida necha kishi ishni bajarish mumkinligiga qarab, ishni bajarish rejasini ishlab chiqadilar, bunda laboratoriya ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar asos bo‘ladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga kerakli axborot manbaalarini izlab topish bo‘yicha o‘z maslahatlarini beradi va zaruriyatga qarab, ularga kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zi berishi mumkin.

**3-bosqich. Sinash.** O‘quvchilar o‘zlarini laboratoriya ishini bajarishga tayyor ekanliklarini sinab ko‘radilar, bunda laboratoriya ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalarda keltirilgan sinov savollaridan foydalanadilar. O‘quvchilar o‘z rejalari bo‘yicha biror qarorga kelgach, mazkur qaror bilan o‘qituvchini tanishtiradilar.

O‘qituvchi qarorda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan xato va kamchiliklarni aniqlaydi hamda o‘quvchiga ushbu xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha o‘z maslahatlarini beradi.

**4-bosqich. Bajarish.** O‘quvchilar laboratoriya ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalarda keltirilgan ishni bajarish tartibiga amal qilgan holda ishni bajaradilar va o‘z harakatlarini hamda erishayotgan natijalarini monitoring qilib boradilar.

O‘qituvchi o‘quvchilarning ishni bajarish jarayonlariga faqat uskunalarni ishlatishda xavfli vaziyat vujudga kelsa (yoki kelishi mumkin bo‘lsa), o‘quvchilar xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilmasalar yoki belgilangan maqsad yo‘lidan sezilarli darajada og‘ib ketsalargina aralashadilar.

**5-bosqich. Baholash.** O‘quvchilar laboratoriya ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalarda keltirilgan formulalardan foydalanib hisob-kitob ishlarini amalga oshiradilar, tajribada olingan natijalarni nazariy ma’lumotlar bilan taqqoslaydilar va tegishli jadvallarni to‘ldirgan holda kerakli grafik, chizma yoki diagrammalarni chizadilar. Bunda topshiriqni ya’ni laboratoriya ishini qanday bajarilgani bo‘yicha boshlang‘ich bahoni avval o‘quvchilarning o‘zlari beradilar. Buning uchun ular o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan baholash varaqalarini to‘ldiradilar.

So‘ngra ushbu baholar o‘qituvchi tomonidan ko‘rib chiqiladi va zaruriyatga qarab o‘zgartirilishi ham mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilar



bajargan ishlari va uning natijalari bo'yicha hisobot (taqdimot) tayyorlaydilar hamda uni yakka tartibda o'qituvchiga topshiradilar.

Shunday qilib laboratoriya mashg'ulotlarini **“Selfed” metodi** orqali olib borilganda darsning samaradorligi ortadi, chunki bunda har bir o'quvchi o'zi mustaqil ravishda ishlashga majbur bo'ladi va shunga yarasha tayyorgarlik ko'radi hamda ular o'zlarini o'zlari baholaydilar. Shuning uchun dars davomida birorta o'quvchi ham chetda qolmaydi va o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari sezilarli darajada ortadi.

Agar bilim mustaqil anglangan, his etilgan, qiyinchiliklarga duch kelib o'rganilgan bo'lsa, unda bu bilim to'la va chuqur o'zlashtirilgan bo'ladi. Bularning barchasi o'rganilayotgan fanga doir o'quvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantiradi, ish faoliyatini rejalashtirishda vaqtdan unumli foydalanishga, o'z-o'zini nazorat qilishga, xatolarni tuzatishga hamda mustaqil fikrlashga va ishlashga undaydi. O'quvchi tomonidan doimiy aqliy faoliyat bilan shug'ullanish-aqliy faoliyatga ehtiyojni rivojlantiradi va o'quvchilarni vaqtni tejab-saralab ishlatishga o'rgatadi.

## **PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARIDA TADBIRKORLIK SAVODXONLIGINI OSHIRISH – DAVR TALABI**

*Samiyeva Nafisa Shamsiddinovna Shofirkon qishloq xo'jaligi mahsulotlari  
texnologiyasi texnikumi, “Biznes asoslari” fani o'qituvchisi*

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish, jumladan, ularni ish bilan ta'minlash hamda tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning turli yot g'oyalari ta'siriga tushib qolishlarining oldini olishda muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda ta'kidlash o'rinliki, professional ta'lim muassasalari bitiruvchilarini, xususan, yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, mamlakatimizdagi iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlarda chuqur bilimli, yuksak saviyali, mustaqil fikrlaydigan yoshlarning ishtirokini ta'minlash bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining yangi taraqqiyot bosqichida davlat va jamiyatning jadal rivojlanishiga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada aholining farovonligini, ijtimoiy-iqtisodiy o'sishini ta'minlashdagi muhim islohotlar zamirida mamlakatda tadbirkorlikka keng yo'l ochish, har bir hududda ishbilarmonlik muhitini yaratish yo'lidagi chora-tadbirlar alohida ahamiyatga egadir.

Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida keyingi yillar uchun strategik vazifalarni belgilab berar ekan, “Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash biz uchun eng muhim masalalardan biri bo‘lib qoladi. “Kichik va o‘rta biznes to‘g‘risida”gi qonun loyahasini ishlab chiqish zarur. Unda kichik va o‘rta biznes mezonlari, hamda bu soha vakillarini rag‘batlantirish mexanizmlari nazarda tutilishi kerak”, – degan qat‘iy fikrni bildirib o‘tdi.

Bugungi kunga kelib respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida “tadbirkorlik”, “tadbirkor”, “biznes”, “biznesmen” kabi tushunchalar keng qo‘llanila boshlandi. Ularning mazmun va mohiyatini anglash ma‘lum bir ma‘noda o‘quvchilar ongida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik haqida tasavvurni shakllantiradi. Tadbirkorlik o‘z ichiga ijtimoiy munosabatlarni qamrab olgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. Unda huquqiy, ruhiy, tashkiliy, iqtisodiy va tarixiy jihatlar mavjud. Mazmuni va mohiyati bo‘yicha unumli faoliyatni anglatadi.

Tadbirkorlik va biznes tushunchalari mazmunan bir-biriga yaqin. U kishilarning ishbilarmonlik faoliyatidan kelib chiqqan munosabat bo‘lib, biron-bir unumli ish, faoliyat bilan bog‘liqlikni anglatadi. Biznes bilan bog‘liq shaxs “biznesmen” deyiladi. Biznes – bu inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, biznes – ish, men – odam degan ma‘noni anglatadi. Tadbirkorlik (biznes) iqtisodiy kategoriya bo‘lib, xo‘jalik yuritish usuli, iqtisodiy fikrlash turi hisoblanadi.

“Biznes”, “tadbirkorlik” tushunchalari to‘g‘risidagi yuqorida keltirilgan mualliflar fikrini qo‘llab-quvvatlagan holda aytishimiz mumkinki, “tadbirkorlik” – bu kishilarda yoshlikdan ijodkorlikni, yangilik yaratish borasida tinimsiz mehnat, izlanishlar olib borishni –talab qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda “tadbirkor” tushunchasi birinchi marta 1723-yilda Parijda nashr etilgan “Umumiy tijorat lug‘ati”da paydo bo‘lgan va bunda “tadbirkor” deganda “ishlab chiqarish va ob‘yektlar qurilishi bo‘yicha majburiyatni o‘z zimmasiga olgan shaxs” deb tushunilgan. Ilmiy termin sifatida “tadbirkorlik” tushunchasi Angliyada XVII asr oxiri va XVIII asrning boshlarida taniqli ingliz iqtisodchisi Richard Kanton ishlarida qo‘llanilgan. Uning fikricha, tadbirkor tavakkalchilik sharoitida faoliyat ko‘rsatuvchi kishidir, ya‘ni tadbirkor-bu tavakkalni oldindan ko‘ra biluvchi va uni o‘z zimmasiga olishni istovchi, kelajakka intilgan shaxs bo‘lib, uning harakatlari daromad olish va yo‘qotishlarga tayyor turishlik bilan tasniflanadi. Shu boisdan u yer va mehnat omilini iqtisodiy farovonlikni belgilab beruvchi boylik manbai deb biladi.

Tadbirkorlik – biznesning eng asosiy unsuri bo‘lib, uning zamirida mustaqil tashabbus, javobgarlik, tavakkalchilik, tadbirkorlik g‘oyasi, foyda olishga



yo'naltirilgan maqsadga muvofiq faoliyatdir. Tadbirkorlik – mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish orqali daromad topishni ko'zlovchi faoliyat. Tadbirkorlik qonunda belgilangan tartibda tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan shaxslar tomonidan ishlarning bajarilishi yoki xizmatlar ko'rsatilishidan, mulkdan foydalanish va tovarlarni sotishdan, muntazam daromad olishga yo'naltirilgan mustaqil faoliyat tarzida ta'riflanadi.

Mazkur ta'rif tadbirkorlikning mohiyati va mazmunini ochib beradi, ya'ni:

-tadbirkorlik faoliyatining mazmuni aholining tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi;

-ehtiyajlarni qondirishga mulkdan foydalanish, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish yo'li bilan erishiladi;

-tadbirkorlikni harakatlantiruvchi kuchning maqsadi daromad olish hisoblanadi;

-tadbirkorlik faoliyati tashabbuskorlik xususiyatiga ega (tadbirkor tayinlanmaydi, balki u shu tarzda qaror topadi);

-tadbirkorlik – bu bir martalik ish emas, balki doimiy mashg'ulot, muntazam faoliyatdir;

Hozirgi zamon iqtisodiy adabiyotlarda va olimlar o'rtasida "tadbirkorlik" tushunchasining mohiyatini ochib berishda yagona bir umumiylikni ifoda etadigan ta'rif yo'q. Ko'pchilik hollarda bu hodisaning mohiyati tadbirkorlik faoliyatining maqsadi bilan almashtiriladi. Chunki, tadbirkorlikning pirovard maqsadi faqat foyda olish emas, balki talabni, takror ishlab chiqarishni va individual yoki ijtimoiy guruhning, umuman jamiyatning doim o'zgarib turadigan, doim o'sib boradigan ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog'liq ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashdan iborat bo'lib, u manfaat (foyda) ko'rish bilan bir qatorda, bozorda samarali faoliyat yuritishni ta'minlaydigan ishlarni amalga oshirishdir.

Bulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, kasb-hunar kolleji o'quvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etishda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyatga egaligi aniqlandi: tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish jarayonlarini, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bosqichlarini, biznes-rejani tuzish qoidalarini o'rgatish; tadbirkorlik sub'yektlarini soliqqa tortish tartibi, soliqlarning iqtisodiy mohiti va amal qilish xususiyatlari, soliq tizimi va uning tarkibiy tuzilishlarini o'rgatish; kelgusidagi kasbiy faoliyatni rejalashtirishni o'rgatish, ish izlashda aniq maqsad va rejalarni belgilay olish ko'nikmasini shakllantirish; bitiruvchilarning yuqori darajada raqobatbardoshligini ta'minlash, ularning kasbiy salohiyatini oshirish; davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan yoshlarning o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun maqsadli

kreditlar ajratish va ularning sarfini ta'minlashda tizimli nazoratni yo'lga qo'yish; tadbirkorlik faoliyatining imkoniyatlarini kengroq tushuntirish; yoshlar o'rtasida kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun yaratilgan imtiyozlarni kengroq targ'ib etish; tadbirkorlik faoliyatiga oid bilim va malakalarni rivojlantirish; yuqori natijalarga erishgan tadbirkorlar hamda mutaxassislar bilan uchrashuvlarni ko'paytirish; o'z biznesini tashkil qila olish va yoshlarni bandligini ta'minlashga hissa qo'sha olish kabi sifatlarni shakllantirish lozim.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda tadbirkorlik faoliyatini nazariy va amaliy jihatdan o'rgatish, ularni iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish, ishlab chiqarish hamda ish bilan band etish jarayonlarini psixologik sog'lom muhitini yaratishga alohida yondoshuvni tashkil qilish lozim.

## **ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH**

*Samiyeva Nafisa Shamsiddinovna Shofirkon qishloq xo'jaligi mahsulotlari  
texnologiyasi texnikumi, "Biznes asoslari" fani o'qituvchisi*

Bugungi kunda zamonaviy ta'limni tashkil etishda qo'yiladigan asosiy talablardan biri ortiqcha kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish asosida kasbiy va umumiy kompetensiyalarni shakllantirish, faoliyatni nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga oid katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini zamonaviy o'qitish texnologiyalari tashkil etmoqda.

Ushbu o'qitish texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonlarini sifatli va mazmunli tashkil etish orqali ta'limiy maqsadlarga erishish mumkin. Ana shunday texnologiyalardan biri – "SMART" texnologiyasidir.

SMART texnologiya har bir sohada maqsadlarni to'g'ri qo'yish va vazifalarni aniqlashda zamonaviy yondashuv bo'lib, dastlabki bosqichda barcha mavjud ma'lumotlarni umumlashtirishga, faoliyatning maqbul (optimal) shartlarini



ko'rsatishga, resurslarning adekvatligini aniqlashga va jarayonning barcha ishtirokchilariga aniq va tushunarli vazifalarni taqdim etishga imkon beradi.

SMART - (aqli, aql-idrokli, texnologik) qisqartma so'zini dastlab 1954-yili amerikalik olim, iqtisodchi, publitsist, pedagog, XX asr menejment nazariyachilaridan biri Piter Ferdinand Druker (19.11.1909- 11.11.2005 y.y.) kiritgan. So'ngra 1965-yili Paul Meyer, so'ngra 1981-yili George T.Doran o'z ilmiy tadqiqot ishlarida qo'llay boshlaganlar.

SMART - menejment va loyihaviy boshqaruvda maqsadni aniqlash va masalalarni qo'yish uchun foydalaniladigan abbreviaturadir.

SMART quyidagi so'zlarning bosh harflaridan tashkil topgan:

SMART so'zini tashkil etuvchi harflar va ularning ma'nolarini ko'rib chiqaylik.

S – specific — aniq. Maqsad masimal aniq bo'lishi va Siz hamda atrofdagilar tomonidan bir xil tushunilishi lozim. SMART texnologiyasi bo'yicha u: Bevosita nima qilinishi kerak? Qachon? Qanday miqdoriy ko'rsatgichlarda? kabi savollarga javob berishni ko'zda tutadi.

M – measurable — o'lchovli. Siz va maqsadga erishishni topshirgan kishilar, maqsad erishilganligi aniq bo'ladigan mezonlarni tushunishlari kerak. SMART texnologiyasi shaxsni, u erishiladigan natijalarda o'zining foydasini ko'radigan darajada motivatsiya qiladi.

A – achievable, aggressive, attractive — erishiladigan, ehtirosli, tajovuzkor, jozibador.

Achievable – erishiladigan. Texnologiyaning bunday mezoni ko'proq yollangan (taklif etilgan, jalb etilgan mutaxassis) xodimlarga to'g'ri keladi. Mutaxassislarga maqsadni uzatadi, lekin ularning harakatlari egallagan lavozimlari doirasida chegaralangan. Ambitious — ehtirosli. SMART texnologiyaning ushbu talqin qilinishi tashkilotning menejer (ish egasi, yaratuvchisi va mafkuraviy rahbar yoki yollangan menejeri – yollangan malakali boshqaruvchi)lari uchundir.

Aggressive – tajovuzkor. SMART texnologiyasi bo'yicha maqsadga erishilganlikni baholash mezoni tadbirkorlar uchundir. Maqsad, atrofdagilarning fikri bo'yicha sog'lom ma'no doirasidan chiqib ketganda, egasi natijaga erishish uchun barcha harakatlarni amalga oshiradi.

Attractive – jozibador. Yakuniy natija nafaqat egasiga, balki maqsadlarga erishish uchun topshirilgan barcha shaxs (mutaxassis va xodim)larga ham erishish istiqbollari qamrab olishi kerak.

Ko'rinib turibdiki, SMART texnologiyasining ushbu toifasi (mezoni) ham shaxsni boshqarish bilan aloqador.

Resource – resurs. SMART texnologiyasi hozirda Sizda mavjud bo‘lgan resurslar (shaxs, mablag‘, vaqt)ni haqqoniy baholashga imkoniyat beradi. Ta’limdagi hususiy xatolaridan biri – bir kishiga turli yo‘nalishdagi masalalarni topshirish, ya’ni turli mutaxassislar jamoasi o‘rniga barcha yo‘nalishlardagi ishlarni bir kishi olib borishidir.

T – time bound – vaqt bo‘yicha chegaralar. SMART texnologiya ixtiyoriy vaqt bo‘yicha maqsadni chegaralash sharti bilan qo‘yiladi. Siz maqsadni bajarilish vaqtini aniq qo‘yishingiz yoki aniq bir davrga bog‘lashingiz mumkin. Shuni yodda tutish lozimki: Muddatsiz maqsad bajarilmaydi!!! Maqsadning dolzarbligi. Smart maqsadlarni qo‘yishda inson ularni qimmatligini, zarurligini sezishi lozim. Smart maqsadlarni to‘g‘ri qo‘yish texnologiyasi qo‘yilgan maqsadlarni dolzarbligini, unga erishish usullarini, erishilgan natijalarni o‘lchash mumkinligini va aniqlilikni hisobga olishni talab etadi.

Maqsadni qanday qo‘yish kerak? Biz aynan, professional ta’lim muassasalarida qanday qo‘llash mumkinligini keltirib o‘tamiz.

S–specific (Aniq maqsad) – professional ta’lim tizimini takomillashtirish yuzasidan “3” toifaga kiruvchi ta’lim muassasalarini tashkil etish.

M–measurulle (o‘lchov) – o‘quv reja, malaka talablari va soha mutaxassisligi bo‘yicha kadrlarni tayyorlash uchun master-klass tashkil etish.

A–achieveble (qanday qilib?) – har bir soha bo‘yicha mutaxassislarning hususiyatlari, sohalari, ta’lim shakli, o‘quv muddati, qabul tartibi, kontingenti va o‘qitish xarajatlarini ishlab chiqish.

R–relevant (dozarbliligi) – Respublikamizda har qanday sohasini rivojlanish uchun professional kadrlarlarni tayyorlashning muhimligi.

T–time-baund (belgilangan vaqt) – 2019-2023-yillar davomidagi maqsadlar aniq muddatlari bilan belgilab olinadi.

SMART texnologiyasiga asoslangan amaliy mashg‘ulotlarda pedagogik innovatsion faoliyatni shakllantirish imkoniyatlari ortadi. Amaliy mashg‘ulotlarni rejalashtirishda SMART topshiriqlari va masalalar imkon qadar (ya’ni, o‘quv materialining mazmuniga bog‘liq holda) pedagogik innovatsion faoliyatni shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak va uni amalga oshirishda o‘quvchi tomonidan kreativlik, mantiqiylik va tizimlilik, integrativlik harakatlari amalga oshiriladi. Bu topshiriqlarning umumlashtiruvchi xarakterini hisobga olgan holda ular fanni o‘rganishning yakuniy bosqichida rivojlantirish lozim.

Demak, SMART texnologiyalardan unumli foydalanish nafaqat maktab o‘quvchilari, talabalar, balki malaka oshiruvchilarni ham yangi bilimlarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishi kerak, shunda ular jahon hamjamiyatida muvaffaqiyatli



muloqot qila oladilar, barcha o‘quvchilarni o‘z-‘zini tarbiyalash jarayoniga faol jalb qiladilar.

## **TIJORAT BANKLARIDA ZAMONAVIY XIZMATLARNI VA TARANSFORMATSIYA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

*Shamsiyeva Yulduz Olimovna*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv  
akademiyasi doktoranti*

Iqtisodiyotning raqamli modernizatsiyasi hozirgi kunda juda ham ommaviy masalalardan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishi sharoitida alohida davlatlar iqtisodiyotining integratsiyasi va to‘lov tizimlarining rivojlanishi, xususan, naqdsiz to‘lov shakllari, banklarning raqamli zamonaviy xizmatlari turlarini rivojlantirish yo‘nalishi kuzatilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini globalashtirish hamda ilmiy-texnika taraqqiyotining jadallashuvi sharoitida bank va moliya tizimini tubdan isloh qilish, bank tizimiga xorijiy investorlarning ishonchini yanada oshirish hamda ularning e‘tiborini jalb qilish shuningdek, soha barqarorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni keng qo‘llagan holda, ko‘rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va xizmatlar bozori ko‘lamini kengaytirib borish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodchi olimlarning fikriga ko‘ra, moliyaviy sektorning global innovatsion transformatsiyasiga yo‘naltirilgan, zamonaviy xizmatlar rivojlangan yangi iqtisodiy davridamiz va bu an‘anaviy moliya institutlari uchun ulkan raqobat muhitini yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy moliyaviy texnologiyalarning tijorat banklari faoliyatiga integratsiyalashuv darajasi ularning raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini belgilaydi.

Raqamli tarmoq raqamli bankning tayanchi bo‘lib, call-markaz, internet-banking, mobil banking va filiallar qo‘yilgan poydevorga qo‘shimchalar hisoblanadi. First Direct (Buyuk Britaniya) filialsiz bank yaratishda birinchilardan bo‘lgan. Mijozlarga xizmat ko‘rsatish bank tomonidan telefon orqali amalga oshirilgan. Birinchi kun davomida bank 1000 ta qo‘ng‘iroqlarni qabul qilgan va First Direct portfelida 500 000 dan ortiq mijozlar bor edi. Birinchi marta “raqamli bank” yoki neobank atamasi 2014-yilda AQShda nashr etilgan Kris Skinnerning “Digital bank” kitobida batafsil tavsiflangan va keyinchalik 2015-2020-yillar davomida Yevropada rivojlangan. Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘pchilik neobanklar bank litsenziyalarini cheklovchi to‘siqlar tufayli texnik jihatdan to‘liq "banklar"

hisoblanmaydi.

O‘zbekiston Respublikasida bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan “raqamli” banklar va bank bo‘linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yanada kengaytirish masalalariga alohida e‘tibor berilmoqda. Raqamlashtirish iqtisodiyotning barcha sohalarini, shu jumladan bank faoliyatini rivojlantirishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Bank xizmatlarini raqamlashtirish bu bank faoliyatining istalgan sohasidagi zamonaviy iqtisodiy, tashkiliy va boshqaruv, institutsional innovatsiyalar majmuasidir. Bank faoliyatini raqamlashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad mijozlarni ko‘paytirish va faoliyatni kengaytirish uchun innovatsion ish usullari, yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini joriy etish bilan bog‘liq uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga erishish uchun moliyaviy “start up”lari bilan hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini mustahkamlashdir. Shu jumladan, transformatsiya ajarayonlari va bank tizimiga yangi “start up”larni joriy etish masalari asosan yoshlarni sohaga jalb etishni talab etadi chunki bizga ma‘lumki, yoshlar yangi texnologiyalar va raqamlashtirish jarayonlariga ancha moslashuvchan hamda yangi tizimni tez o‘rgana oladi. Bu esa iqtisodiyotda yoshlarni ish bilan ta‘minlash masalasining bir yechimi desak ham aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi kompaniyalar iqtisodiyotning anchagina ulushini egallaydi. Shuning uchun ularni raqamlashtirish mamlakat YAIM o‘shishiga bevosita ta‘sir qiladi. Boshqacha qilib aytganda, davlat sektorining raqamli transformatsiyasi O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shishning muhim drayverlaridan biri bo‘la oladi. Jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “Raqamli Qozog‘iston” davlat dasturini ko‘rishimiz mumkin. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, uni amalga oshirishdan jami iqtisodiy samaradorlik 2018-2019-yillarda 2 mlrd. AQSH dollaridan ko‘proqni tashkil etgan. Birgina shuning o‘zi ham axborot texnologiyalarini iqtisodiyotga joriy etish foydasiga salmoqli dalil bo‘la oladi.

An’anaviy bank faoliyatining eng katta kamchiliklaridan biri hujjatlarning qog‘oz shaklda aylanishidir. Raqamli banklarda xizmat tezligiga va ortiqcha hujjat aylanishiga yo‘l qo‘ymaslik alohida ahamiyatlidir. Bundan tashqari, raqamli banklar foydalanuvchiga kommunal to‘lovlar, telefon uchun va kredit qarzdorliklarni so‘ndirish kabi muntazam to‘lovlar uchun avtomatik to‘lovlarni o‘rnatish imkonini beradi. Mijoz endi to‘lov sanalarini eslab qolish uchun harakat



qilishi shart emas. Mijoz kelgusi va to‘lanmagan to‘lovlar haqida ogohlantirishlarni tanlashi mumkin.

Raqamli banking xizmatlarini chekka hududlarga kengaytirish har tomonlama rivojlanish sari qadam hisoblanadi. Qishloqning chekka hududlarida bank ofislarini ochish ko‘p xarajatlarni talab qiladi va bunda ham raqamli banklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Raqamli bank orqali pul o‘tkazmalari qalbaki valyuta xavfini kamaytiradi. Raqamli banklar yordamida foydalanuvchi bir tugmani bosish orqali noto‘g‘ri joylashtirilgan yoki yechib olingan mablag‘lar haqida xabar berishi va bloklashi mumkin. Ushbu imtiyoz bank mijozlari uchun mavjud bo‘lgan maxfiylik va xavfsizlikni sezilarli darajada mustahkamlaydi. Naqd pulsiz jamiyatni targ‘ib qilish orqali raqamli bank qora pullarning aylanishini cheklaydi, bu orqali Hukumat fondlar harakatini kuzatib borishi mumkin. Uzoq muddatda raqamli banklar faoliyati esa valyutaga bo‘lgan talabni kamaytirishi iqtisodchilar tomonidan tasdiqlangan.

Banklar kelajakda raqamli bank xizmatlarini yaratishda mobil ilovalar hamda smart bankingga ko‘proq e‘tibor berishlari kerak. Mijozlar filial an‘anaviy bank xizmatlaridan foydalanishda bugungi kunda noqulaylik his qilishni boshladi, sababi insonlar uchun hammasidan ham vaqt masalasi muhimligini hisobga olsak, bank xizmatlaridan foydalanishda vaqt sarfi yuqori. Raqamli bank strategiyasini muhim omillaridan biri bu bank xizmatlari turini ko‘paytirgan holda mobil ilovalarga joylashtirishdir. Bunda bankning operatsion xarajatlari kamayadi hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati ijobiyga o‘zgaradi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” gi 5992-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. PF-6079-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi qarori loyihasi.
4. Vahobov A.V., Malikov T.S. “Moliya” Darslik.–T.: 2010.
5. Abdullayev O.M., Fattaxov A.A., K. Axmedov “Raqamli iqtisodiyot”, Toshkent, 2018.

## RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TA'LIM RESURSLARI YARATISH VA ULARDAN FOYDALANISH

*Toshtemirov Doniyor Eshbayevich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.  
Guliston davlat universiteti, "Pedagogika" kafedrasini mudiri.*

**Annotatsiya.** Maqolada raqamli texnologiyalar asosida elektron ta'lim resurslari yaratish va ulardan foydalanish masalalari tadqiq qilingan. Elektron ta'lim resurslarini yaratish tartibi va qo'yiladigan talablar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim resurslari, elektron darslik, axborot-kommunikatsiya tizimlari, o'quv-uslubiy materiallar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga asosan "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi qabul qilindi. Ushbu strategiyada ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish yo'lida katta ishlar amalga oshirilib, zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayoni axborot bilan ta'minlanishi kundankunga rivojlanib bormoqda. Shuningdek, respublikamizda ta'lim jarayoni axborotlashtirildi, uzluksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olindi [1].

Hozirgi kunda ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlari vositalari keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasini qo'yimoqda.

Raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan elektron ta'lim resurslari grafik, matnli, nutqli, musiqiy, video, audio, foto va boshqa axborotlarning to'plamidan tashkil topadi. Elektron ta'lim resurslari ixtiyoriy elektron tashuvchilarda aks etadi, kompyuter ekrani va tarmog'ida nashr etilishi mumkin [2].

Elektron ta'lim resurslari ta'lim jarayonida elektron vositalar hisoblanib, bilimlarning mos ilmiy-amaliy sohasi bo'yicha tizimlashtirilgan, o'quvchilar tomonidan shu sohadagi bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy va faol egallashni ta'minlaydigan elektron nashrdan iborat bo'ladi [3].

Elektron ta'lim resurslari yuqori darajada bajarilishi va badiiy bezalishi, axborotning to'liqligi, uslubiy qurollarning sifati, sifatli texnik bajarilishi, ko'rgazmaliligi, mantiqiyiligi va bayon qilish ketma-ketligi bilan ajralib turishi lozim. Elektron ta'lim resurslari vizual va audio axborotlarni keskin sifatini



oshiradi, u yoriqroq, rangli va dinamik bo'ladi. Bunda multimedaning yangi texnologiyalarining imkoniyatlari katta o'rin egallaydi. An'anaviy ko'rgazmalilik o'rganilayotgan ob'yektning aniqligini hisobga olgan bo'lsa, kompyuter texnologiyasidan foydalanish nafaqat haqiqiy ob'yektlarning dinamik imkoniyatlarini ifodalash, balki ilmiy qonuniyatlarni, nazariyalarni, tushunchalarni ifodalash imkoniyatlari yaratiladi [4, 5].

Elektron ta'lim resurslarining asosiy komponentlari bo'lishi mumkin bo'lgan ta'limga mo'ljallangan kompyuter vositalarining asosiy ko'rinishlari quyidagilardan iborat: umumiy mo'ljallangan xizmat dasturiy vositalar; o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va o'lchash uchun dasturiy vositalar; elektron trenajerlar; matematik va imitatsion modellashtirish uchun dasturiy vositalar; virtual laboratoriyalarning dasturiy vositalari; axborot-izlash ma'lumotnomali tizimlar; avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlari; elektron darsliklar; ekspertli va intellektual o'qitish tizimlari; kasbiy faoliyatni avtomatlashtirish tizimlari va boshqalar [6, 7].

Bunda umumiy mo'ljallangan xizmat dasturiy vositalar - ko'plab hisoblashlarni avtomatlashtirish uchun, o'quv hujjatlarni tayyorlash, eksperimental tadqiqot ma'lumotlarini qayta ishlash uchun qo'llaniladi. Ulardan laboratoriya, amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda, mustaqil ishlarni tashkil etishda va loyiha ishlarini amalga oshirishda ham foydalanilishi mumkin.

Ta'lim oluvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va o'lchash uchun dasturiy vositalar - nisbatan yaratilishi oson bo'lganligidan keng foydalanib kelinayotgan vositalar hisoblanadi. Bunda o'quvchining asosiy vazifasi taqdim etilgan javoblarning birini (to'g'risini) tanlash talab etiladi. Bunday dasturlar o'qituvchini individual nazorat vazifalarini berish, ularni tekshirish va baholash ishlaridan ozod etadi. Bu bilan o'qituvchida o'quvchilarni ko'p marotaba bilimlarini sinash, o'zini-o'zi sinash, o'quv materiallarini takrorlash, mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Elektron trenajyorlar - o'quvchilarning amaliy ko'nikma va malakalarini ishlab chiqish uchun foydalaniladi. Bunday vositalar murakkab sharoitlarda amallar bajarish va hatto tasodifiy vaziyatlarda avariya qarshi harakatlarni ishlab chiqishda foydalanish samaralidir. Bir qancha sabablarga ko'ra real qurilmalarni, masalan, energiya ta'minotining o'chishi, katta hafli shuningdek, avariya vaziyatlarini yaratish imkoniyati bo'lgan joylarda foydalanish maqsadga muvofiq emas. Bundan tashqari trenajerlar masalalar yechish ko'nikma va malakalarini ishlab chiqarishda foydalaniladi. Bunday hollarda, ular nazariyadan qisqacha ma'lumot olishni, turli darajadagi mustaqil ta'limni, mashq qilishni, nazorat va o'zini-o'zi nazoratini ta'minlaydi.

Matematik va imitatsion modellashtirish uchun dasturiy vositalar - eksperimental va nazariy tadqiqotlarning chegarasini kengaytirish, fizik eksperimentni hisoblash eksperimenti bilan to'ldirish imkoniyatini beradi. Bir holatlarda tadqiqot ob'yektlari, boshqa holatlarda – o'lchash qurilmalari modellashtiriladi. Bunday vositalar qimmatbaho laboratoriya jihozlarini xarid qilib olishning mablag'ini qisqartirishga imkoniyat beradi va o'quv laboratoriya xonalarida turli xavfsizlikni oz bo'lsada ta'minlaydi.

Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlari - odatda o'quvchilarni nazariy materiallar bilan tanishtirish, mashq qilish va bilim darajasini nazorat qilishni ta'minlaydigan nisbatan kichik hajmdagi o'qitish dasturlaridan iborat [8, 9, 10].

Elektron darsliklar - o'quv predmetini yoki uning katta qismini bevosita kompyuter yordamida mustaqil yoki o'qituvchi ishtirokida o'zlashtirish imkoniyatini ta'minlaydigan dastur– uslubiy majmuadir. Boshqacha aytganda, elektron darslik – kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta'lim uslublaridan foydalanishga mo'ljallangan o'qitish vositasi bo'lib, undan mustaqil ta'lim olishda (bu muhim) va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o'quv materiallari o'quvchiga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o'rinli foydalaniladi. Elektron darslik tushuncha, ta'kid va misollarni tushunish va xotiraga olishni, talabning miyasini ishlashini, eshitishini, emotsional xotirasini va hatto, kompyuterli tushuntirishdan foydalanishini ko'zda tutgan holda, maksimal osonlashtirilishi kerak [11].

Elektron darsliklar kompyuter texnologiyalari samaralaridan foydalanib eng muhim tushuncha va qonuniyatlarni tushunish va yodda saqlashni maksimal darajada yengillashtiradi. Elektron darslikni ishlab chiqishda uchta asosiy komponent: o'quv materialni bayon etish, amaliyot va teskari aloqa e'tiborga olinishi kerak.

Ekspertli va intellektual o'qitish tizimlari - bunday tizimlar ekspertlarning yetarlicha murakkab masalalarni yechishdagi faoliyatini modellashtiradi. Bu tizimlar yangi bilimlar egallash, o'quvchining savollariga javob va aniq bir predmet sohasidagi masalalarni yechishni ta'minlaydi.

Kasbiy faoliyatni avtomatlashtirish tizimlari - amaliy dasturlar paketi shaklida o'qitishning elektron vositalari nafaqat o'rganish ob'yekti sifatida, balki kasbga yo'naltirilgan masalalarni yechishda ham foydalaniladi. Bu tushunchalar va ularning tavsiflaridan, ko'rsatilgan vositalar o'qitishning elektron vositalari yoki ularning elementlariga misol bo'la olishi ko'rinib turibdi.



Ta'limda qo'llaniladigan har qanday elektron vositalarini yaratishga va ulardan ta'lim tizimida foydalanishga o'ziga xos pedagogik, psixologik va ergonomik talablar qo'yiladi. Elektron ta'lim resurslariga qo'yiladigan ilmiy talab ta'lim resursidan foydalanishda o'quv materialini bayon qilishning ishonchliligi, shunidek eng oxirgi ilmiy yutuqlarni hisobga olinganligini ifodalaydi. O'quv materialini egallash jarayoni zamonaviy ilmiy bilish uslubi, tajriba, taqqoslash, kuzatish, abstraktlash, umumlashtirish, aniqlashtirish, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, modellashtirish uslubi, tizimli tahlil usubi asosida qurilishini ko'zda tutadi.

Elektron ta'lim resurslariga asoslangan elektron o'quv adabiyotlari bilim oluvchilarning tasavvurlarini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan bo'lib, ko'proq chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar bo'yicha yaratilishi lozim. Uzluksiz ta'lim tizimidan fan va texnologiyalarning rivojlanishi sari mazmuni tez o'zgaruvchan, chuqurlashtirib o'qitiladigan, umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha asosan kam adadli elektron o'quv adabiyotlari tayyorlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni, "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi.
2. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. T.: Fan. 2009. -146 b.
3. Abduqodirov A.A., Tursunov S.Q. Ta'limda axborot texnologiyalari, Toshkent, 2019. – 340 b.
4. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: "Universitet", 2019. - 232 b.
5. Abduraximov D.B., Toshtemirov D.E. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Guliston, 2020. - 332 b.
6. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007. – 160 b.
7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
8. Toshtemirov D.E. Ta'lim portali: yaratish tamoyillari, mazmuni va foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston sh. 2015. - 156 b.
9. Toshtemirov D.E., Niyozov M.B., Yuldashev U.A., Irsaliyev F.Sh. Resource support of distance course information educational environment// Journal

of Critical Reviews Vol 7, Issue 5, 2020 p. 399-400,  
<http://www.jcreview.com/fulltext/197-1586441254.pdf?1603174386>

10. Toshtemirov D.E., Niyozov M.B. Ta'lim jarayonida veb texnologiyalarning o'rni // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar. 2(46).2020. B.114-120

11. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish kontsepsiyasi. Toshkent: Sharq, 2002. - 20 b.

## INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

*Turayev Og'abek, Islamov Ravshan*

*Urganch davlat universiteti, Ijtimoiy- Iqtisodiy fanlar fakulteti*

**Annotatsiya:** Raqamli texnologiyalarni joriy qilish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lgan o'zgaruvchan muhitda mijozlarning sodiqligi tushunchasi yanada chuqurroq o'rganilishi kerak. Ushbu maqola raqamli texnologiyalarni strategik boshqarishning samaradorligiga va almashish iqtisodiyoti kontekstida mijozlarning sodiqligiga ta'sirini o'rganadi. Biz raqamli texnologiyalarni strategik boshqarish, mijozlarning sodiqligini aks ettiruvchi yangi konstruksiyalarni o'z ichiga olgan maxsus modelni ishlab chiqish uchun rejalashtirilgan xatti-harakatlar nazariyasi bilan bir qatorda raqamli qabul qilish bo'yicha tadqiqotlardan foydalanamiz.

**Kalit so'zlar:** konstruksiya, model, texnologiya, innovatsion, biznes, transport, resurs, heterojen, mijoz.

**Annotation:** In a changing environment with great potential for the introduction of digital technologies, the concept of customer loyalty needs to be explored further. This article explores the impact of strategic management of digital technologies on productivity and customer loyalty in the context of sharing economics. We use digital adoption research alongside planned behavior theory to develop a special model that includes strategic management of digital technologies, new constructs that reflect customer loyalty.

**Keywords:** construction, model, technology, innovation, business, transportation, resource, heterogeneous, customer.

So'nggi o'n yilliklarda birgalikda iqtisodiyot tushunchasi tez o'sishi va ijtimoiy va iqtisodiy tizimning turli jihatlariga keskin ta'siri tufayli adabiyotda



ko'proq e'tiborga sazovor bo'ldi. Iqtisodiyotni almashish platformalari, ayniqsa COVID-19 epidemiyasi davrida keng qo'llaniladi, birgalikda iqtisodni "egalikdan ko'ra foydalanish va foydalanish imkoniyatini birinchi o'ringa qo'yadigan to'liq foydalanilmagan tovar va xizmatlarga kirishni tengdoshga almashish" deb ta'riflaydi. Stefani (2015) ta'kidlaganidek, birgalikda iqtisod "kam foydalanilmayotgan aktivlarni olish va ularni jamiyat uchun onlayn tarzda foydalanishga imkon berish qiymati, bu esa mulkka bo'lgan ehtiyojning kamayishiga olib keladi". Boshqa tomondan, iste'molchilarni hamkorlar deb hisoblaydi. Rivojlanayotgan onlayn almashish platformalari xaridorlar va sotuvchilarga innovatsion tarzda o'zaro hamkorlik qilish va savdo qilish imkonini berish orqali an'anaviy biznesni qayta shakllantirdi. Iqtisodiyotni taqsimlashning afzalliklari to'lov vositalariga qo'shimcha ravishda tranzaksiya xarajatlarini, samarasizlikni va qidiruv xarajatlarini kamaytirish orqali biznesdan-biznesga o'zaro munosabatlarni optimallashtirishni o'z ichiga oladi. Ushbu platformalar marketing, moliyalashtirish, transport va kompyuter fanlari. Birgalikda iqtisodiyot ijtimoiy aloqalarni oshirish va mustahkam ijtimoiy aloqalarni ta'minlash uchun iste'molchilar tarmog'ini ifodalaydi. Bundan tashqari, almashish resurslarni kamroq talab qiladi va atrof-muhitga ta'sirni kamaytiradi. Biroq, iqtisodiy platformalarni almashishda, dolzarb strategik muammolardan biri o'zgaruvchan muhitda mijozlarning sodiqligini rivojlantirishdir. Raqamli texnologiyalarning so'nggi yutuqlari raqamli xizmatlar bozorida qattiq raqobatni kuchaytiradigan xizmat innovatsiyalari tezligini tezlashtirdi. Biznes-mijoz (B2C) almashish kontekstidagi adabiyotlar Big Data Analytics (BDA), Sun'iy intellekt (AI) va Blockchain Technology (BT) kabi yangi texnologiyalar almashish platformalariga yuqori darajadagi innovatsion xizmatlarni taklif qilish imkonini beradi, deb ta'kidlaydi sifat, keng xilma-xillik va yuqori darajada shaxsiylashtirilgan, natijada mijozlarni jalb qilish va foyda keltiradi. Biroq, ba'zi mulohazalar tufayli, bu xulosalar raqamli texnologiyalar va mijozlarning sodiqligi o'rtasidagi munosabatlarni almashish platformalari kontekstida shakllantirish uchun yetarli bo'lishi mumkin emas. Birinchidan, yangi mijozlarni sotib olish birligining narxi mijozlarni ushlab turishdan nisbatan past. Shunday qilib, tasdiqlangan mijozlar bazasini kengaytirish sodiq mijozlar bazasini saqlab qolish va kengaytirish orqali raqobatdosh ustunlikka ega bo'lish uchun yetarli emas Bundan tashqari, B2B kontekstida mijozlarning sodiqligini boshqarish B2C kontekstidan tubdan farq qiladi, chunki sinchkovlik bilan o'rganilishi kerak bo'lgan boshqa munosabat va xulq-atvor omillari paydo bo'ladi. Shu sababli, raqamli texnologiyalarni qabul qilish va B2B kontekstida mijozlarning sodiqligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunish uchun iqtisodiy platformalarni almashish zarurati mavjud. Raqamli

texnologiyalarni o'zlashtirish va mijozlarning sodiqligi o'rtasidagi bog'liqlikni shakllantiruvchi muhim mexanizm eWOM deb nomlangan og'zaki so'zning yangi davrining boshlanishi bilan bog'liq. eWOM mahsulot yoki xizmatning xususiyatlari bo'yicha mijozlar o'rtasidagi raqamli aloqa sifatida aniqlanadi. B2B almashish kontekstida mijozlar turli agentliklarning xatti-harakatlari bilan boshqariladigan biznes vakillaridir. Bundan tashqari, B2B kontekstidagi raqamli platforma mijozlarning ijtimoiy va shaxsiy tuzilishiga integratsiyalanmaganligi sababli, ilg'or raqamli texnologiyalarning ta'siri individual mijozlar uchun har xil bo'ladi. Shu sababli, raqamli texnologiyalar potentsial ravishda B2B almashish kontekstida eWOM va mijozlarning sodiqligiga yanada nozikroq ta'sir ko'rsatishga olib kelishi mumkin. B2B mijozlari asosan hissiy jihatlarga e'tibor qaratadigan individual mijozga qaraganda, raqamli texnologiyalarni qo'llashning strategik usuli bilan ko'proq shug'ullanadi. Raqamli texnologiyalarni boshqarish ma'lum miqdordagi strategiyalarni o'z ichiga olishi kerak, ularning ta'siri individual mijozning qoniqishidan tashqariga chiqadi va butun mijozlar tashkilotini qamrab oladi. Hozirgi tadqiqot bir qator hissa qo'shadi. Birinchidan, biz B2B kontekstida mijozlarning haqiqiy xatti-harakatlarini o'rganish va raqamli texnologiyalarni o'zlashtirishni strategik boshqarishning o'zaro ta'siri bilan birgalikda iqtisodiyot bo'yicha mavjud adabiyotlarni kengaytiramiz. Ikkinchidan, biz almashish iqtisodini o'rganish uchun bir qancha yangi uslubiy yondashuvlarni qo'llaymiz, jumladan, eWOM va mijozlarning sodiqligining keng qamrovli o'lchovi, B2B almashish kontekstida raqamli qabul qilishni baholash uchun mos tahlil tizimini ishlab chiqish va natijalarni baholashda mijozlarning heterojenligini yaxshiroq nazorat qilish uchun DID mos keladigan baholovchilar. Ushbu usullar mijozning o'zini-o'zi tanlashi va teskari sabablar tufayli noto'g'rilikni kamaytiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nick Malyshev (nick.malyshev@oecd.org) or Céline Kauffmann (celine.kauffmann@oecd.org) OECD Regulatory Policy Division, <http://oe.cd/regpolicy>
3. Project Information Document/ Integrated Safeguards Data Sheet (PID/ISDS) Concept Stage Date Prepared/Updated: 05-Sep-2018 Report No: PIDISDSC24091 Public, : <http://www.worldbank.org/projects>
5. <https://www.researchgate.net/publication/336675826>:The activities of banks in Uzbekistan in the modern digital economy
6. <http://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/en/home/countryinfo.html>
7. <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.ATLS.CD?locations=UZ>



8. <http://pubdocs.worldbank.org/en/421341493272766409/Uzbekistan-Snapshot-April-2017.pdf>

9. <http://documents.worldbank.org/curated/en/485571468318338846/pdf/815890PUB0Redu00Box379836B00PUBLIC0.pdf>

10. <http://tsue.uz/?p=12549>

11. [https://central.asia.news.com/en\\_GB/articles/cnmi\\_ca/features/2017/04/13/feature-01](https://central.asia.news.com/en_GB/articles/cnmi_ca/features/2017/04/13/feature-01)

12. [www.bakermckenzie.com/en/insight/publications/2020/02/uzbekistan-enacts-new-tax-code](http://www.bakermckenzie.com/en/insight/publications/2020/02/uzbekistan-enacts-new-tax-code).

## INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK BAG‘RIKENGLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MADANIYATLARARO MULOQOTNING AHAMIYATI

*Umarova Sarvinoz Sardorovna,  
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola ingliz tili o‘qituvchilarida pedagogik bag‘rikenglikni rivojlantirishda madaniyatlararo muloqotning muhim rolini o‘rganadi. Mavjud adabiyotlar va empirik tadqiqotlarni o‘rganish orqali ushbu maqola ingliz tili o‘qituvchilari uchun madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining ahamiyatini va uning pedagogik bag‘rikenglikni rivojlantirishga ijobiy ta‘sirini ta‘kidlaydi.

**Annotation:** This article examines the important role of intercultural communication in the development of pedagogical tolerance in English language teachers. Through an examination of existing literature and empirical research, this paper highlights the importance of intercultural communication competence for English language teachers and its positive impact on the development of pedagogical tolerance.

Zamonaviy jamiyatda (raqamlashtirish, axborot va ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish, masofaviy ta‘limni joriy etish sharoitida) madaniyatlararo chet tillari muloqoti hayot va ta‘limning ajralmas elementi sifatida qaraladi va axborot, qadriyatlarining intensiv almashinuvi bilan tavsiflanadi. Madaniyatlararo muloqot talabalarga turli mamlakatlarda yashovchi xalqlarning madaniy xususiyatlari, an‘analari, odobi va urf-odatlarini haqidagi bilimlarini kengaytirish; aloqa sheriklarining til va madaniy xilma-xilligini tushunish va qabul qilish;

kommunikativ vazifa va kommunikativ vaziyatga muvofiq o'z ko'nikma va qobiliyatlaringizni oshirish; til va nutq vositalaridan foydalanish; o'zaro tushunish va maqsadlarga erishish uchun maqbul bo'lgan xatti-harakatlar va muloqot strategiyalari va taktikalarini tanlash imkonini beradi. Chet tillarini o'rganish jarayonida madaniyatlararo muloqotga tayanish yangi bilimlarni o'zlashtirishga, o'quvchilarning ijtimoiy faolligini, ijodkorligini va harakatchanligini rivojlantirishga yordam beradi, chet tilini o'rganish motivatsiyasini oshiradi, yangi qiziqarli psixologik va pedagogik usullardan foydalanishga ilhomlantiradi.

E.I.Buldakovning fikricha, madaniyatlararo muloqot zamonaviy insonning kundalik hayotida omil bo'lib, uning dunyoni idrok etishi va o'zini-o'zi identifikatsiya qilish jarayonini murakkablashtirdi. Natijada, muallifning ta'kidlashicha, allaqachon yangilanish holatida bo'lgan zamonaviy insonning ijtimoiy yaxlitligi tobora ko'proq parchalanib bormoqda [1]. Bundan kelib chiqadiki, madaniyatlararo muloqot zamonaviy jamiyatdagi shaxslardan mulohaza, yangilanish va ijodiy yondashuvni talab qiladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ta'lim sohasida madaniyatlararo muloqot o'qituvchilar va talabalar o'rtasida madaniy kompetentsiyani rivojlantirish uchun ajralmas hisoblanadi [2]. U turli shaxslarni bog'laydigan, o'zaro tushunish va tolerantlikni rivojlantiruvchi ko'prik bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik bag'rikenglik, ko'pincha madaniy kompetensiya yoki madaniy sezgirlik deb ataladi, madaniy jihatdan xilma-xil sinflarda samarali o'qitishning asosi hisoblanadi. Bu madaniy farqlarni tan olish va qadrlashni, o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun o'qitish usullarini moslashtirishni, inklyuziv va hurmatli o'quv muhitini yaratishni o'z ichiga oladi

*Pedagogik bag'rikenglikni tarbiyalashda madaniyatlararo muloqotning o'rni:*

- Madaniy xabardorlikni oshirish:

Madaniyatlararo muloqot ingliz tili o'qituvchilarining madaniy xabardorligini rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shadi. Turli madaniyatlar va muloqot uslublari bilan tanishish orqali o'qituvchilar o'z o'quvchilarining kelib chiqishi, e'tiqodlari va qadriyatlarini chuqurroq tushunishadi. Bu rivojlangan madaniy xabardorlik ularga o'z ta'lim usullarini madaniy farqlarni hisobga olgan holda moslashtirishga imkon beradi va shu bilan tushunmovchilik va mojarolarning oldini oladi.

- Samarali muloqotga yordam berish:

Samarali madaniyatlararo muloqot ko'nikmalari ingliz tili o'qituvchilariga turli til va madaniy kelib chiqishi bo'lgan talabalar bilan muloqotdagi bo'shliqlarni



bartaraf etishga imkon beradi. Ular o‘quv jarayonini barcha o‘quvchilar uchun qulayroq va mazmunli qilish uchun o‘z tili, imo-ishoralari va o‘quv materiallarini moslashtira oladi.

- Empatiya va madaniy sezgirlikni targ‘ib qilish:

Madaniyatlararo muloqot empatiya va madaniy sezgirlikni rivojlantirishga yordam beradi. Madaniyatlararo o‘zaro munosabatlarda ishtirok etadigan o‘qituvchilar o‘z talabalarining tajribalari va qiyinchiliklariga hamdard bo‘lishlari mumkin. Bu hamdardlik, o‘z navbatida, yanada inklyuziv va qo‘llab-quvvatlovchi sinf muhitiga yordam beradi.

*O‘qituvchilar malakasini oshirish dasturlari uchun ahamiyati:*

- Madaniyatlararo muloqot treningini kiritish:

O‘qituvchilar ta’lim dasturlari madaniyatlararo muloqotni o‘qitishni o‘z o‘quv dasturlariga kiritishga ustuvor ahamiyat berishi kerak. Bunday treninglar bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini madaniy jihatdan xilma-xil sinflarda samarali harakat qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi.

- Reflektiv amaliyotni targ‘ib qilish:

O‘qituvchilar uchun ta’lim dasturlari, shuningdek, o‘qituvchilar madaniyatlararo muloqot kontekstida o‘zlarining e’tiqodlari, noto‘g‘ri qarashlari va o‘qitish amaliyotlarini tanqidiy ko‘rib chiqadigan reflektiv amaliyotni rag‘batlantirishi kerak [3]. Reflektiv faoliyat o‘z-o‘zini anglashni kuchaytiradi va pedagogik bag‘rikenglikni rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu shartlarni amalga oshirish nafaqat ko‘p madaniyatli ta’limga, balki madaniy xilma-xillik sharoitida o‘zaro munosabatlar tajribasini, kelajakdagi o‘qituvchining ko‘p millatli ta’lim muhitida kasbiy muloqotga tayyorligini ta’minlaydigan shaxsiy fazilatlarni bag‘rikenglik, turli etnik va diniy guruhlar vakillariga hurmat va ishonch hissini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘qituvchilarda pedagogik bag‘rikenglikni tarbiyalashda madaniyatlararo muloqot ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki bu muloqot madaniy xabardorlikni oshiradi, empatiya va madaniy sezgirlikni rivojlantiradi. Shunday ekan, o‘qituvchilarning ta’lim dasturlarida madaniyatlararo muloqot mashg‘ulotlarini aks ettiruvchi amaliyotlarning integratsiyasiga katta ahamiyat berilishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Булдакова Е. И. “Буферно-синергические зоны” в пространстве межкультурной коммуникации: автореф. дис.....канд.филос.наук / Е. И. Булдакова. — Ростов н/Д,2008. —23 с.
2. Deardorff, D. K., & Jones, E. (2009). Intercultural Competence. In V. Savicki (Ed.), *Developing Intercultural Competence and Transformation* (p.35)

3. Khasanova, G. K. (2022). THE NEED FOR TECHNOLOGY IN THE DESIGN OF THE PEDAGOGICAL PROCESS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 20), (p.97)
4. Ana María Villegas and Tamara Lucas. Preparing Culturally Responsive Teachers: Rethinking the Curriculum. *Journal of Teacher Education* 2002;( p. 20)
5. Ibragimov, X. I., & Salimova, Z. K. (2021). Intensive in teaching english characteristics of application of methods. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 77(4), b.1588-1594.

## OLIV TA'LIM MUASSASI TALABALARIDA PEDAGOGIK BAG'RIKENGLIKNI SHAKLLANTIRISHDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV

*Umarova Sarvinoz Sardorovna*  
*Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti*

**Annotation:** This article explores the importance of basic competencies in higher pedagogical education and highlights how they contribute to the development of competent and empathetic educators.

**Аннотация:** В этой статье исследуется важность базовых компетенций в высшем педагогическом образовании и подчеркивается, как они способствуют развитию компетентных и чутких педагогов.

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida ro'y berayotgan transformatsion o'zgarishlarning asosiy g'oyalaridan biri – globallashuv jarayonida ijtimoiy-siyosiy va madaniy barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarda bag'rikenglik madaniyatini tarkib toptirish zarurligini anglash muammosidir. Ushbu ma'noda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim tizimini, xususan, oliy pedagogik ta'limni tubdan o'zgartirishni talab qilmoqda. Yagona ta'lim makonini yaratish, bosqichli ta'lim tizimini joriy etish, oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagogik jarayonni ta'limni tashkil etishda yangicha yondashuvlarni amalga oshirishga yo'naltirishni taqozo etmoqda.

Shu sababli bugungi kunda kompetensiyaga asoslangan yondashuv oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonining mazmuni va natijalariga qaratilgan strategik yo'nalishga aylandi. Pedagogik kompetensiyalar deganda o'quvchilarning samarali



o'qitish va mazmunli faolligini ta'minlash uchun har bir o'qituvchi ega bo'lishi kerak bo'lgan asosiy ko'nikma, munosabat va sifatlar to'plami tushuniladi. Ushbu kompetensiyalar mavzuga oid bilimlardan tashqari keng ko'lamli atributlarni ya'ni shaxslararo munosabatlar, muloqot qobiliyatlari, hissiy intellekt, tanqidiy fikrlash va moslashuvchanlikni o'z ichiga oladi.

I.A.Zimnyaya kompetensiyaga asoslangan yondashuv modernizatsiya jarayonining asosiy jihatlarini eng chuqur aks ettiradi va quyidagi qoidalarni ta'kidlaydi: (a) kompetensiya kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning atributi, mutaxassisning muayyan faoliyat bilan shug'ullanishga tayyorligi sifatida belgilanadi va qobiliyatlarni ushbu kompetensiya dastlab paydo bo'lgan sharoitlardan boshqacha sharoitlarga o'tkazish qobiliyati bilan tavsiflanadi; (b) kompetensiyaga asoslangan yondashuv o'zgaruvchan voqelikka javoban ta'lim mazmunini yangilash sifatida namoyon bo'ladi va insonning ta'lim syujetlari va vaziyatlardan tashqarida harakat qilish qobiliyatining sharti bo'lib ko'rinadi [1].

Bermus A.G. esa kompetensiyaga asoslangan yondashuv an'anaviy yondashuvlarning zamonaviy korrelyatsiyasi sifatida qaralishini ta'kidlaydi [2].

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv, O.E.Lebedev fikricha, ta'lim maqsadlarini belgilash, ta'lim mazmunini tanlash, o'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholashning umumiy tamoyillari yig'indisidir. Ushbu tamoyillar quyidagi qoidalarni o'z ichiga oladi:

- Ta'limning ma'nosi - o'quvchilarda ijtimoiy tajribadan foydalanish asosida turli soha va faoliyatdagi muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantirishdir.

-Ta'lim mazmuni - bu kognitiv, g'oyaviy, axloqiy, siyosiy va boshqa muammolarni hal qilishda didaktik moslashtirilgan ijtimoiy tajriba. Ta'lim jarayonini tashkil etishdan maqsad talabalarda ta'lim mazmunini tashkil etuvchi kognitiv, kommunikativ, tashkiliy, axloqiy va boshqa muammolarni mustaqil hal qilish tajribasini rivojlantirish uchun sharoit yaratishdir.

-Ta'lim natijalarini baholash ta'limning ma'lum bir bosqichida o'quvchilar erishgan ta'lim darajalarini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi [3].

Psixologik lug'atda kasbiy pedagogik kompetensiya "o'qituvchining pedagogik faoliyatini, pedagogik muloqotini va o'qituvchi shaxsini shakllantirishni belgilaydigan, ma'lum qadriyatlar, ideallar tashuvchisi sifatida zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi" deb ta'riflanadi.

Ta'limning zamonaviy tendentsiyalariga muvofiq, pedagogik kompetensiyalarga quyidagilar kiradi:

- *Samarali muloqot qobiliyatlari*

Muvaffaqiyatli o'qitishning asosi samarali muloqotdir. Kuchli muloqot qobiliyatiga ega bo'lgan o'qituvchilar murakkab g'oyalarni aniq ifodalashlari, o'quvchilarni munozaralarga jalb etishlari va konstruktiv fikr bildirishlari mumkin. Muloqot sinfdan tashqarida ham mavjud, chunki o'qituvchilar qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratish uchun hamkasblari, ota-onalari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishlari kerak.

- *Empatiya*

Empatiya - bu o'qituvchilarga o'z o'quvchilarini chuqurroq tushunish imkonini beradigan asosiy xususiyatdir. Empatik o'qituvchilar individual ehtiyojlarni tan olgan va moslashtirilgan yordamni ko'rsatgan holda tarbiyalanuvchi va inklyuziv sinf muhitini yaratishi mumkin. Hissiy intellekt o'qituvchilarga o'z his-tuyg'ularini samarali boshqarish, hissiy tartibga solish va qiyin vaziyatlarni xotirjamlik bilan hal qilish imkonini berish orqali empatiyani to'ldiradi.

- *Pedagogik bilimga egalik*

Asosiy kompetensiyalar fan bilimlaridan tashqarida bo'lsa-da, o'qitilayotgan mavzu doirasida mustahkam bilimga ega bo'lish juda muhimdir. Pedagogik mazmundagi bilimlar deganda mavzuni chuqur anglash va uni o'quvchilar uchun darslar davomidan mazmunli va qiziqarli o'tkazish qobiliyati tushuniladi. Ushbu bilim o'qituvchilarga noto'g'ri tushunchalarni oldindan bilish va o'qitish usullarini turli xil ta'lim uslublariga moslashtirishga imkon beradi.

- *Auditoriyani boshqarish va intizom*

Samarali o'rganish uchun tartibli va maqsadli dars muhitini yaratish juda muhimdir. Sinfni boshqarishning mustahkam ko'nikmalariga ega bo'lgan o'qituvchilar talabalar o'zlarini xavfsiz his qiladigan va faol ishtirok etishga undaydigan ijobiy va tuzilgan o'quv muhitini yaratishi mumkin.

- *Moslashuvchanlik va uzluksiz ta'lim*

Ta'lim sohasi doimo rivojlanib bormoqda va o'qituvchilar o'zgaruvchan sharoitlarga va yangi metodologiyalarga moslashishi kerak. Uzluksiz ta'limga sodiqlik o'qituvchilarning so'nggi tadqiqotlar, yutuqlar va ilg'or tajribalar bilan o'z bilim va qobiliyatlarini yangilanib turishini ta'minlaydi, bu esa ularga o'z talabalariga doimiy ravishda yuqori sifatli ta'lim berish imkonini beradi.

Ta'limga asoslangan kompetensiyalar oliy pedagogik ta'limning asosini tashkil etib, intiluvchan o'qituvchilarga muvaffaqiyatli va nufuzli o'qituvchi bo'lish uchun zarur ko'nikma va munosabatlarni beradi. Samarali muloqot, empatiya, pedagogik mavzuni bilish, sinfni boshqarish, tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik va umrbod ta'limga sodiqlik - bularning barchasi



o'qituvchilarga o'z o'quvchilarining hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga imkon beradigan muhim tarkibiy qismlardir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, oliy pedagogik ta'limdagi asosiy kompetensiyalarning ahamiyatini baholab bo'lmaydi. Izlanuvchan o'qituvchilar nafaqat fan bilimlarini chuqur egallagan balki, samarali muloqot, empatiya, sinfni boshqarish, tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik va uzluksiz ta'lim olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarurdir. Ushbu kompetensiyalar muvaffaqiyatli o'qitish amaliyoti yaratiladigan poydevorni tashkil qiladi va ta'lim va jamiyat kelajagini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Samarali muloqot qobiliyatlari o'qituvchilarga talabalarni jalb qilish, konstruktiv fikr bildirish va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish imkonini beradi. Empatiya va hissiy intellekt tarbiyalanuvchi va inklyuziv o'quv muhitini yaratadi, talabalar bilan mazmunli aloqalarni rivojlantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования//И.А.Зимняя//Высшее образование сегодня. -№ 5, 2003. -С. 22-27.
2. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании // Интернет-журнал «Эйдос». - 2005. -С. 15.
3. Лебедев О.Е. Компетентностный подход в образовании // Школьные технологии. 2004. - № 5. - С. 3–12.
4. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.-B. 28.
5. Байденко В.В. Компетенции в профессиональном образовании // Высшее образование в России. 2004. №11.-С. 34-35.

## ВЛИЯНИЕ ВЫСОКОКАЧЕСТВЕННОЙ ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ НА РАЗВИТИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Ашурова С.Ю. - Главный научный сотрудник проекта  
Уматалиева К.Т.- Докторанта института развития профессионального образования ( PhD)*

**Аннотация:** В данной статье представлено влияние высококачественной информационно-образовательной среды на развитие методической компетентности педагога профессионального образования их основы, необходимые ресурсы и перспективы.

**Ключевые слова:** информационные технологии, коммуникационные технологии, педагог профессионального образования, методическая компетентность педагога.

**Аннотация:** ushbu maqolada yuqori sifatli axborot – ta’lim muhitining professional ta’lim o’qituvchisining metodik kompetentsiyasini rivojlantirishga ta’siri, ularning asoslari, zarur resurslari va istiqbollari keltirilgan.

**Калит so‘zlar:** axborot texnologiyalari, aloqa texnologiyalari, professional ta’limi o’qituvchisi, o’qituvchining metodik kompetentsiyasi.

На сегодняшний день система профессионального образования является одной из самых обширных сфер человеческой деятельности. Во всем мире возросла социальная роль образования. От его направленности и эффективности во многом зависят перспективы развития человечества. «Ныне общепризнано, - говорится в одном из важнейших документов ЮНЕСКО, - что политика, направленная на борьбу с бедностью, защиту окружающей среды, укрепление прав человека, улучшение международного взаимовлияния и обогащение национальной культуры не дадут эффекта без соответствующей стратегии в области образования»

Образование сегодняшнего дня получило новый виток своего развития. Для достижения задач поставленных перед системой образования в условия открытой образовательной системы необходимо активное внедрение информационных ресурсов и создания информационно среды для педагогов и обучающихся профессионального образования.



Создание высококачественной высококачественной информационно-образовательной среды влияющей на развитие методической компетентности педагога профессионального образования рассматривается в основном как достаточно сложная техническая задача, позволяющая коренным образом модернизировать технологическую основу системы образования, осуществить переход к открытой образовательной системе, отвечающей требованиям постиндустриального общества. Вместе с тем нельзя отрицать, что создание данной среды это не только чисто техническая задача. В широком смысле, образовательная среда подсистема социокультурной среды, совокупность исторически сложившихся фактов, обстоятельств, ситуаций. Она выражается в целостности специально организованных педагогических условий развития личности.

Информационно-образовательная среда изучалась во многих аспектах. Из них стоит выделить следующие три.

Во-первых, как одна из сторон деятельности. Человек при этом рассматривается, как участник коммуникативного процесса, т.е. в основном с точки зрения своей способности представить личное знание в той форме, в какой это знание может быть отчуждено, т.е. в форме информации. А, восприняв информацию, вновь превращать ее в свое личное знание.

Во-вторых, как система исторически сложившихся форм коммуникации.

В-третьих, как созданная всем обществом информационная инфраструктура, позволяющая осуществить коммуникативную деятельность в масштабах, соответствующих уровню развития этого общества: издательства, библиотеки, информационные центры, банки данных, средства массовой информации и т.п.

Одной из особенностей информационной среды является то, что любая информационная среда предоставляет возможность получения необходимых для него данных, сведений, гипотез, теорий и пр., умение же получать информацию и преобразовывать ее необходимо воспитывать, вырабатывать, оно приобретает в процессе обучения. Ю.А.Шрейдер выражает это так: "В книгах можно прочесть о многом, но из них нельзя получить умения читать. Информационно-образовательная среда может сохранить многие знания, но не может сохранить в себе умения пользоваться ею.

Информационно среда создается усилиями отдельной группы людей. Исследователи отмечают, что информационная среда учебной деятельности формируется:

преподавателем (он определяет содержание программы курса, выбор учебной литературы, методы преподавания, стиль общения и т.д.);

педагогическим коллективом учебного заведения (он определяет общие требования к учащимся, сохраняемые традиции данного учебного заведения, форму взаимоотношений педагогического и ученического коллективов и пр.);

государством как общественным институтом (оно определяет материальное обеспечение образования в целом, социальный заказ на формирование той или иной системы знаний и взглядов).

Анализ достоинств и недостатков, существующих образовательной среды, дидактических традиций национальной системы образования, а также современного состояния информационных технологий и средств телекоммуникаций, позволяет сформулировать следующие принципы, на которых должны строиться проектируемые в настоящее время информационно-образовательные среды.

Сформулированные принципы построения информационной образовательной среды делают необходимым рассмотрение информационно-образовательной среды, с одной стороны, как части традиционной образовательной системы, а, с другой стороны, как самостоятельной системы, направленной на развитие активной творческой деятельности учащихся с применением новых информационных технологий

Дидактика применения информационной образовательной среды в образовательной системе исходит из того, что наличие преподавателя в системе обучения является обязательным и его основная функция состоит не в передаче информации, а в управлении процессом обучения.

Информационная образовательная среда, организованная в сети Интернет, на web-сайте, представлена как совокупность субъектов информационного взаимодействия или воздействия; собственно информации, предназначенной для использования субъектами информационной среды; информационной инфраструктуры, обеспечивающей возможность осуществления обмена информацией между субъектами; отношений, складывающихся в связи с формированием, передачей, распространением и хранением информации.

Однако большая часть педагогов профессионального образования не осознает необходимости в повышении уровня своей информационной культуры. Часть же педагогов убеждены в необходимости обучения.



Таким образом, можно подвести итог что вопрос совершенствования информатсионной культуры и компетентности педагога профессионального колледжа является весьма актуальным и требует дальнейшего изучения.

### Использованная литература

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису- Ташкент. Узбекистан, 2020 г.
2. Шрейдер Ю.А. «Информатсионные процессы и информатсионная среда». [Научно-техническая информатсия. серия 2: Информатсионные процессы и системы](#) Издательство: [Всероссийский институт научной и технической информатсии РАН](#). Москва-2008 ISSN: 0548-0027

## ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH TA'LIMI USTALARINI KOMPETENTLI TAYYORLASH

*Uralov Sirojiddin Axmadalievich*

*Professional ta'limni rivojlantirish instituti, tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Maqolada professional ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy – pedagogik kompetentligini rivojlantirish sohasida yuqori natijalarga erishish maqsadida amalga oshirish ko'zda tutilgan islohotlar, taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar.** Professional ta'lim, kasbiy-pedagogik kompetentlik, andragogika, masters metod, pindocs, rolli o'rin, elektron platforma.

**Аннотатсия.** В статье приводятся реформы, предложения и рекомендатсия, направленные на достижение высоких результатов в области развития профессионально-педагогической компетентности мастеров производственного образования, работающих в профессиональных учебных заведениях.

**Ключевые слова.** Профессиональное образование, профессионально-педагогическая компетентность, андрагогика, masters metod, pindocs, ролевая места, электронная платформа.

Professional ta'lim tizimi jamiyatning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari uchun ishchi xodim va mutaxassislar bilan ta'minlovchi asosiy manbaidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning rivojlanishi va raqobatning kuchayishi ishchi-xodimlarni tayyorlashning sifat va samaradorligiga qo'yilgan talablarning

oshishiga va natijada ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy malaka darajasiga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan uzluksiz professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda "...joylarda ishsizlik kuzatilayotgan bir paytda ishchi kasblar bo'yicha mutaxassislarga katta ehtiyoj borligi" to'g'risida so'z yuritilib, o'z nutqi davomida "...ta'lim dasturlarini xalqaro talablar asosida yangidan ishlab chiqib, o'qituvchi va ishlab chiqarish ustalarini tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish zarurligi"ni alohida ta'kidlab o'tilgan edi<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida [1] «Hayot davomida ta'lim olish» tamoyili asosida boshqaruv hamda pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirish uchun ta'lim dasturlarini innovatsion yondashuvlar asosida doimiy yangilab borish, hususan ishlab chiqarish ta'limi ustalari uchun ularning kasbiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan malaka oshirish shakllarini mustaqil tanlash va o'zlashtirish imkoniyatini yaratish belgilangan edi [2].

Bu esa o'z navbatida, ishlab chiqarish ta'limi ustalarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi oldiga zamonaviy talablarni qo'yadi. Professional ta'lim muassasalarida faoliyat yuritib kelayotgan ishlab chiqarish ta'limi ustalarini kasbiy-pedagogik mahoratini oshirib borish va kompetentli mutaxassis darajasida tayyorlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratish – ushbu sohada bir muncha zamonaviy islohot va qarashlarga talabni orttiradi.

Ilmiy izlanishlar natijasida, biz ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlanish holati bo'yicha aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirish taklifini kiritamiz:

1. Ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirish maqsadida, ta'lim muassasasida muntazam ichki o'qishlarni tashkil qilish tizimi va yoki mexanizmini ishlab chiqish;
2. Ichki o'qitish bo'yicha dasturlarni, ularning kasb standartlari, malaka talablari va lavozim vazifalaridan kelib chiqib kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqish;

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 15-iyuldagi yig'ilish bayonnomasi.



3. Ustalarning doimiy o'z ustida ishlab pedagogik bilimlarini rivojlantirib borish maqsadida, ishlab chiqarish ta'limi ustalari uchun elektron platforma ishlab chiqish;

4. Ustalarning pedagogik bilimlarini doimiy baholab borish va monitoringini yuritishda akmeologik yondashuv asosida monitoring tizimini ishlab chiqish;

5. Elektron platforma orqali yuqori natijalarga erishayotgan ishlab chiqarish ta'limi ustalarini pedagogik attestatsiyadan o'tkazish va mos toifalarni berish tizimini ishlab chiqish.

Professional ta'lim muassasida ishlab chiqarish ta'limi ustalarining ichki o'qishlarini tashkil etishdan oldin ularning o'qitish mazmuniga e'tibor qaratish, bunda kompetensiyaviy yondashuvlar asosida kasb standarti, malaka talabi, lavozim vazifalari va ta'lim muassasasida ish faoliyati bilan yuzaga keladigan kundalik vazifalarni inobatga olgan holda, ularning maxsus-texnologik, shaxsiy-motivatsion, tashkiliy, raqamli, uslubiy va ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali maqsadga erishish mumkin[3].

Ishlab chiqarish ta'limi ustalarining yosh xususiyatlarini, ishdan ajralmagan holda o'qitish tizimini, andragogik tamoyillarni hisobga olgan holda mustaqil ta'lim shaklida ular uchun tayyorlash mazmunidan kelib chiqib, elektron platforma ishlab chiqiladi.

Andragogika - kasbiy rivojlanish, kattalarni o'qitishda masofali ta'limning imkoniyatlari, xalq universitetlari, ayollar ta'limi, kattalar ta'limining shakllari va texnologiyalari, yoshi katta kitobxonlar ta'limi, ta'limiy turizm, pedagogik jarayonni tashkil etishda pedagogik andragogikani egallashni talab etadi [4].

Elektron platforma bilan ishlashda har bir ishlab chiqarish ta'limi ustasi [www.masterprofedu.uz](http://www.masterprofedu.uz) platformasi orqali ro'yxatdan o'tadi va ta'lim mazmunini mustaqil o'zlashtirib boradi. Ishlab chiqarish ta'limi ustalari o'quvchilarning ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyotlariga umumiy rahbarlik qilishdagi tashkiliy ishlari davrida platformaning mobil versiyasidan ham foydalanishlari mumkin.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalari uchun dastur mazmunini nazariy jihatdan egallash albatta biroz qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun ularga fasilitatsiya (osonlashtirish) tamoyili asosida mazmunni yengillashtirish asosida tashkil qilish tavsiya etiladi. Buning uchun ta'lim muassasasida ustalar uchun haftasiga 2 soat ichki o'qishlar tashkil qilinadi. O'qish master klass (mahorat darslari) shaklida o'tkazilib, ustalar tomonidan mustaqil o'rganilgan pedagogik bilimlari turli andragogik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodlari orqali mustahkamlanadi.

Ta'lim jarayonida quyidagilardan foydalanish shaxsga yo'naltirilgan ta'limning yana bir belgisidir:

- ijodiy topshiriqlar;
- kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar;
- muammoli vaziyatlar;
- rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari;
- bahs-munozara, debat;
- musobaqa ko‘rinishidagi bellashuvlar[5].

Mazkur vaziyatda, biz tomonimizdan mualliflik guvohnomasi olingan (№006733) “Masters metod” metodlar jamlanmasini, ya’ni “Pindocs” va “Rolli o‘rin” metodlaridan foydalanishni taklif qilishimiz mumkin.

“Pindocs” metodi. (inglizcha – “Pin” belgilash va “docs” online hujjat ma’nosida ishlatilib, online hujjatda belgilashni bildiradi) Mazkur metod ustalar faoliyatida o‘zini mustaqil fikri yoki savollarga bo‘lgan javobini bildirish va guruhda o‘z fikri va o‘rniga ega ekanligiga imkoniyat beruvchi faoliyatni tashkil etadi. Pinbord metodida ishlab chiqarish ta’limi ustalari kichik guruh a’zolari sifatida o‘z javoblarini kartochkalarga belgilashib guruh sardoriga taqdim etishsa, mazkur metodda ta’lim beruvchi tomonidan tashkil etilgan va online shaklda ekranda namoyon bo‘luvchi googledocs yaratiladi hamda hujjat havolasi kichik guruh telegram kanaliga yuboriladi.

Pindocs - raqamli ta’lim muhitida pedagogik jarayonni loyihalashtirish, online document asosida ta’lim oluvchilarning kognitiv bilimlarini rivojlantirishning innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarali texnologik-metodik to‘ldiruvchisi hisoblanadi.

“Rolli o‘rin” metodi. Mazkur metodda ishlab chiqarish ta’limi ustalari mavzu mohiyatini o‘zlari mustaqil his etib to‘liq tushunishlari uchun rol ko‘rinishida mansab egasi yoki mas’ul javobgar shaxs – ish o‘rni egasi sifatida ishtirok etishadi. Lavozim vazifasida belgilangan funksiyalarni qolgan tinglovchilar oldida bajarib yoki namoyish qilib ko‘rsatib beradilar. Ushbu metodning ayrim jihatlari rolli o‘yinni eslatrsa, bunda asosiy farqi ijro etuvchi stuli bilan farqlanadi. Ayrim tomondan simulyatsion yoki immitatsion ta’lim metodlariga ham haqiqiy holatning boshqa ko‘rinishi sifatida yaqin keladi. Rolli o‘rin – rolli o‘yin orqali bajariladigan har qanday ishtirokni aniq lavozim egasi stul (kreslo), mansab lavozimi javobgarligi doirasida hal etishda qo‘llaniladi.

Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, ishlab chiqarish ta’limi ustalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tayyorlashda turli innovatsion metodlardan foydalanish – professional ta’lim sohasida zamonaviy pedagogik yondashuvlarning yangi qirralarini ochib beradi.



## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 26-fevraldagi 106-sonli qarori;
2. S.A.Uralov. Boshlang‘ich professional ta’lim muassasalarida ishlab chiqarish ta’limi ustalari ish faoliyati samaradorligini oshirish muammo sifatida. Kasb-hunar ta’limi ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal. 2022-yil, 2-son;
3. S.A.Uralov. Ishlab chiqarish ta’limi ustalarining raqamli kompetentlilik darajasini aniqlash mezonlari. “Respublika janubida elektr energetika sohasining rivojlanish istiqbollari” xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallar to‘plami. 2022-yil. 16-17 dekabr.
4. O‘.M.Asqarova, M.A.Abdullayeva, M.Boltayeva. Andragogika. O‘quv qo‘llanma. Namangan-2014.
5. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. Toshkent-2015.

## НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ ПРОБЛЕМНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ (PBL).

*Хасанова Наргиза Атхамовна*

*Исследователь института развития профессионального образования  
и преподаватель кафедры Туризма при Ташкентского Международного  
Университета Кимё*

**Аннотация:** В данной статье представлены научно-теоретические основы формирования практических навыков у учащихся в профессиональном образовании с использованием проблемно-ориентированного обучения (PBL). Также описывается использование проблемно-ориентированного обучения (PBL) в профессиональном образовании.

**Ключевые слова:** Проблемное обучение (PBL), профессиональное обучение, виды проблемного обучения (PBL), факторы успеха проблемного

обучения (PBL), типовые типы проблемных ситуаций, проблемное обучение (Описание PBL).

**Abstract:** This article presents the scientific and theoretical foundations of the formation of practical skills in students of professional education using Problem-Based Learning (PBL). It also describes the use of problem-based learning (PBL) in vocational education.

**Key words:** Problem-based learning (PBL), professional learning, types of problem-based learning (PBL), success factors of problem-based learning (PBL), typical types of problem situations, problem-based learning (Description of PBL).

В процессе строительства нового Узбекистана развитие науки является одним из основных столпов. Применение проблемных ситуаций в сфере туризма у учащихся в профессионального образования с целью обеспечения учащихся в профессионального образования знаниями и умениями для формирования практических навыков с использованием проблемно-ориентированного обучения (PBL). Формирование компетентности в настоящее время определено как одна из наиболее актуальных задач в профессиональные учебные заведения. Наш президент подписал ряд законов, постановлений и указов по этому вопросу. В частности, УП № 5812 Президента Республики Узбекистан от 6 сентября 2019 года «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы профессионального образования», 7 февраля 2017 года «О дальнейшем развитии Республики Узбекистан» в УП №-4947 «О стратегии внутренних действий», подготовке и воспитании нового поколения кадров с высоким интеллектуальным и духовным потенциалом, способных выдвигать новые инициативы и идеи для развития страны и реализовывать их в целях чтобы выпускники организаций стали современными профессионалами, акцентируется внимание на формировании у них необходимых знаний и умений. Давайте сначала ответим на вопрос, что такое проблемно-ориентированное обучение (PBL).

Проблемно-ориентированное обучение (PBL) предполагает, что эффективное обучение требует, чтобы учащиеся реконструировали то, что они уже знают, в контексте реального мира, приобретают новые знания, а затем развивают новые знания, которые у них уже есть [1], проблемно-ориентированное обучение (PBL) с использованием обучения с минимальным учителем используется в качестве образовательной стратегии по широкому кругу предметов в высшем секторе [2], совершенствованная



технология обучения [3], это метод преподавания учебного материала таким образом, чтобы создает в сознании учащихся задачи и проблемы, основанные на научных исследованиях. Известно, что в мыслительной деятельности учащегося возникают проблемные ситуации, а он побуждает учащегося к предметному поиску и к логически правильным научным выводам [4], под руководством учителя создается проблемная ситуация, и эта проблема в результате активная самостоятельная деятельность учащихся, она предназначена для организации учебного процесса, позволяющего осуществлять творческое усвоение знаний, умений и навыков и развитие мыслительной деятельности [5].

Проблемное обучение (PBL) – это методология обучения, основанная на создании и предъявлении учащимся реальных проблемных ситуаций или задач, требующих активного и самостоятельного исследования, анализа и поиска решения. Вместо передачи традиционных знаний преподаватель побуждает учащихся к активному поиску информации, формированию гипотез, проведению экспериментов, обсуждению результатов.

Проблемно-ориентированное обучение (PBL) помогает учащимся развивать критическое мышление, независимое, творческое мышление и свободное мышление. Это также помогает развивать навыки общения, сотрудничества и принятия решений в группе.

Мукумов Б.Р. один из ученых Узбекистана, говорил, что успешность проблемно-ориентированного обучения (PBL) зависит от следующих факторов:

1. Проблематизация учебного материала;
2. Активизация познавательной деятельности учащихся;
3. Гармонизация учебного процесса с игрой и работой;
4. Умение правильно и эффективно использовать проблемные методы учителем;
5. Составьте цепочку проблемных вопросов относительно решения проблемной ситуации и объясните учащимся в логической последовательности [6].

Опираясь на исследования А.И.Матюшкина, он разделил проблемные ситуации для педагогической практики на наиболее характерные виды:

1. Жизненная ситуация, т.е. когда учащиеся осознают, что их прежних знаний недостаточно для объяснения нового факта;
- 2) Когда учащиеся сталкиваются с необходимостью использования ранее полученных знаний в новых практических условиях. Как правило, преподаватели организуют эти условия не только для того, чтобы учащиеся

могли применить полученные знания, но и столкнуться с тем, что их недостаточно. Знание учащимися этого факта вызывает познавательный интерес и побуждает к поиску новых знаний;

3) При наличии противоречия между теоретически возможным способом решения задачи и практической невозможностью выбранного метода. При этом задача учителя заключается в том, чтобы учащиеся понимали смысл и причины противоречий, столкновения разных точек зрения, появления новых взглядов. Этот тип проблемных ситуаций может создаваться и при изучении текущих вопросов программы.

4) При наличии противоречия между практическим результатом, достигнутым при выполнении учебного задания, и недостатком знаний у обучающихся для его теоретического обоснования. Способность управлять учебным процессом заключается в том, что проблемная ситуация в своей психологической структуре имеет не только предметно-содержательную, но и мотивационную, личностную сторону (интересы, желания, потребности, возможности и т. д.) учащихся [7].

Поэтому проблемно-ориентированное обучение (PBL) является одним из наиболее эффективных средств активизации познавательного и творческого мышления учащихся. Его уникальность заключается в том, что учащийся анализирует фактический материал и самостоятельно использует его для извлечения новой информации. Другими словами, это расширение и новое применение ранее усвоенных знаний. Но решение такой задачи учащийся не может узнать ни у учителя, ни из материала учебника, учащийся сам ищет его и находит, когда его помещают в соответствующую ситуацию. Это поисковый метод обучения, в отличие от педагогического метода восприятия подготовленного материала (хотя последний метод также вызывает определенную активность мышления).

### Литература

1. Kilroy, D. A. (2004). Problem based learning. *Emergency Medicine Journal*, 21(4), 411–413. doi:10.1136/emj. 2003.012435
2. Wells, S., Warelow, P., & Jackson, K. (2009). Problem based learning (PBL): A conundrum. *Contemporary Nurse*, 33(2), 191–201. doi: 10.5172/conu. 2009.33.2.191
3. Сиддиков И.М., Игамбердиев У.Р. Использование проблемных образовательных технологий в формировании творческих способностей учащихся об педагогических вузов // ОРИЭНС. 2021. № 11.



4. Мухиддин Ш.Ш. Технологии организatsii проблемных занятий со учащийся педагогического вуза // Наука и образование. 2021. №2.

5. Мукимов Б., Худайбердиева А. Использование проблемных образовательных технологий для повышения эффективности учебного процесса в колледжах newjournal #3 2023.

6. Мукимов Б.Р., Худайбердиева А. -Использование проблемных образовательных технологий для повышения эффективности учебного процесса в колледжах. Журнал инновatsiй нового века 2023г.

7. Матюшкин А.М. Проблемные ситуatsii в мышлении и обучении. – М.: Директмедиа Паблишинг, 2008.

## **INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MA’NAViy-MA’RIFIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA ILMIY METODOLOGIK MUAMMOLAR TAHLILLARI**

*Xolikov Eldor Muxamadaliyevich*

*Professional ta’limni rivojlantirish instituti “Malaka oshirish va qayta tayyorlash” fakulteti bosh mutaxassisi*

Bugungi kunda ilm-fan sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida innovatsion, ijodiy, akmeologik, andragogik va tizimli yondashuvlar bilan bir qatorda integrativ yondashuvlardan ko‘proq foydalanilmoqda [1,2]. Bu yo‘nalishning ijobiy tomonlari shundan iboratki, muayyan bir tizimni tadqiqot g‘oyalari bilan integratsiyalashtiriladi. Aslida integratsiyali ta’limni ichki mantiqiy bog‘liqlik va chuqurroq metodologik aloqalarga asoslanib, amalga oshirish zarur. Chunki ta’limga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarda, ta’lim tizimida chegaradosh fanlarning tabiiy moslashuvigina emas, balki kichik kontinental (bir guruhga kiruvchi fanlarning boshqa guruh fanlari bilan) moslashuvi ham o‘zlashtirilishiga zaruriyat tug‘ilmoqda [3].

Hozirgi kunda ta’lim tizimida integrativ yondavushlar masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Integrativ yondavushlar pedagogik jarayonga integratsiyalashgan holda tadqiqotchilar rivojlanish jarayonining ilgari bir-biridan farq qiladigan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog‘liq jihatlaridan birini tushunadilar. Jumlagi yanada aniqlik kiritadigan bo‘lsak, ta’limda integratsiya deganda biz yangi faol pedagogik jamoada ijodiy o‘shishni, ta’lim oluvchilarga foydali hamda ularning ongiga singdirishning qulay usullarini qo‘llash mahoratini tushunamiz [3-8]. Ta’lim tizimiga integratsiyani kiritish ta’lim

muassasasi va jamoatchilik o'rtasida turgan ta'lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vosita bo'lishi mumkin. O'qitish jarayonida integratsiyani qo'llash nazariyasi ta'lim muassasalarida sifatga erishish uchun alohida ahamiyat kasb etadi [5].


Jahonda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda integrativ yondashuvlar asosida pedagogikadan foydalanish, o'qitish jarayonlarining integratsiyalashuviga kompleks yondashuvni tatbiq etishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, mavzular va fanlararo integratsiyani qo'llash asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish, konsentrizm tamoyili asosida o'quv materiallarini tizimlashtirishning modullashgan integratsiyasini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya fanlararo aloqalarning ayrim jihatlarini mashhur pedagoglarning ilmiy ishlarida ko'rishimiz mumkin [8].

O'quv jarayonlarida sifat samaradorligiga erishishda hamda bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlashda fanlararo bog'lanish asosida ta'limni integratsiyalash yo'lidagi izlanishlar izchil davom etmoqda. Bu tadqiqotlar g'oyat murakkab va ayni paytda katta samara berib kelmoqda. Hozirgi kunda, ta'lim jarayonlarini integrativ tashkil etish, integratsion ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish, konsentrlangan va modulli ta'lim talablari asosida o'qitish mazmuni va metodikasini aniqlashtirishni taqozo etib kelmoqda [7].

Integrativ yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlashda quyidagi tamoyillarga e'tibor qaratiladi ya'ni: ta'lim jarayonini yanada insonparvarlashtirish; ta'lim, ma'naviy va ma'rifiy jarayonlarga doir ilmlarni tizimli integratsiyalash; bo'lajak o'qituvchilar shaxsi shakllanishini fanga oid bilimlarni anglash vositasida amalga oshirish; bo'lajak o'qituvchilarda fikrlash doirasida fanga oid bilimlar ta'sirining ustuvorligi kabilarni keltirishimiz mumkin. Bo'lajak o'qituvchilarni zamon talablariga javob beradigan, mehnat bozorida raqobatlasha oladigan, o'z sohasi bo'yicha yetuk kadr bo'lib, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlarga tayyor bo'lishida integrativ yondashuvlar asosi fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog'lash bosqichi bo'lib, o'zini yuqori ko'rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o'tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Demokratik pedagogikaning asoschisi Y.A.Komenskiy bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa bog'liq holda o'rganilishi kerak, deb ta'kidlaydi [8].



Genetik jihatdan integratsiya–uzviylik, fanlararo aloqadorlik, o‘zaro aloqadorlik va nihoyat, o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o‘quv fanlari mazmunini eng kamida ta‘lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir. Chunki o‘qituvchilarni ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga tayyorlashda fanlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o‘rganilayotgan o‘quv fanlari doirasida ma‘lum didaktik birliklar orasida o‘rnatilib, ularni o‘rganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko‘zda tutadi, bundan farqli o‘laroq, integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o‘quv fani yoki integratsiyalab o‘rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi. Integratsion yondashuv asosida kadrlar tayyorlash o‘rganilayotgan ob‘yektning barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib tabaqalashtirib, mohiyati va mazmunini anglab yetish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi.



**1-rasm. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga tayyorlash tamoyillari.**

Demak, integratsiya har doim ham uning ikkinchi tomoni bo‘lgan tabaqalashtirish differentsiyaga tayangan holda rivojlanib boradi. Integratsiyalash yo‘li bilan yangi psixologik jarayon, yangi faoliyat tuzilmasi hosil bo‘ladi. Bu

yangi tuzilma ilgari alohida-alohida bo'lgan elementlardan sintezlash yo'li bilan hosil qilinadi. Integrativ yondashuv mazmunan tutash, aloqador, mantiqiy bir-birini taqozo etuvchi va bir-biriga singib chuqurlashtiruvchi va kengaytiruvchi o'quv fanlarini integratsiyalash uchun qo'llanilib, yaxlit mantiqiy mukammal bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishni ko'zda tutadi [1, 2, 3].

Bir so'z bilan aytganda, integratsiyalashgan texnologiyaning didaktik xususiyatlari ta'lim oluvchi shaxsiga yo'nalganlik, o'quv-bilish faoliyatining boshqarish, konsentrizm, hamkorlik, ijodkorlik o'quv fani mavzusi, tayanch tushuncha va bilimlar, ko'nikma, malakaviy kompetensiyalarni ta'lim maqsadlari ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi bilan ichki integratsiyasi dinamikligini ta'minlashga erishish orqali namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi bildirilgan fikrlarga xulosa tariqasida shuni ta'kidlash lozimki, mamlakat ravnaqi, uning ertangi porloq kelajagini yaratadigan yoshlar qalbiga milliy qadriyatlar, xalqimizning boy tarixi va ma'naviy merosi an'analarini chiqur singdirib ularni vatanparvarlik, bag'rikenglik ruhida tarbiyalash har bir o'qituvchi, har bir ota-ona qolaversa, har bir fuqaroning burchidir. Buning uchun imkoniyatlar yetarli, faqat har birimiz bu ma'suliyatni chuqur his etib, kuch – g'ayratimizni safarbar etishimiz lozim. Bunday e'tibor, bo'lajak o'qituvchilar qalbida insoniylik urug'larining unishiga, katta hayot yo'lida barkamol inson bo'lib yetishishlariga yordam beradi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Sh.To'rayev Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va uni tashkil qilish metodikasi, o'quv qo'llanma. –T.: Paradigma-2017.158 b.
2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. –T.: Voris-nashriyot, –2013. –B. 10-35. 21.
3. Yulbarsova X.A. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi: ped. fan. bo'yicha fals. dok. (PhD) diss. –Arzamas, 2020.
4. M.M.Mirqosimova. Masofaviy ta'lim sharoitida o'quv fanlarini integratsiyalash tamoyillari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2020 -yil No1). 69-80-b.
5. S.Saidova Ma'naviy–ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirishning pedagogik asoslari “Durдона” nashriyoti Buxoro – 2020 y.
6. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova “Boshlang'ich ta'limni integratsiyalashgan pedagogikasi” Toshkent – “ILM ZIYO” 2009 y. 56 b.



## ПРЕПОДАВАНИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ УЧАЩИХСЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Холходжаева Дилфуза Шоакромовна*

*Министерство высшего образования, науки и инноваций Республики  
Узбекистан докторант I курса Института развития профессионального  
образования*

**Аннотация:** В статье обсуждаются проблемы преподавания английского языка в современном в условиях образовательной реформы и с точки зрения компетентностного подхода

**Ключевые слова:** Компетенции, академический английский, английский для специальных целей, языковая образовательная политика

**Abstract:** The article discusses the problems of teaching English in a modern university in terms of educational reform and from the point of view of the competence approach

**Key words:** Competences, academic English, English for special purposes, language educational policy.

В связи с интеграцией в западное экономическое сообщество, актуальной становится задача изучения английского языка. Современный английский язык признан одним из основных навыков обучения наряду с чтением, математикой и компьютерным языком. Профессиональное образование в наше время становится не менее глобализованным, чем экономика, а английский язык, как пишет Д. Грэддолл, оказывается его ключевым ингредиентом, частично из-за того, что наиболее престижными университетами по-прежнему являются университеты англоязычных стран, а частично потому, что именно знание английского дает возможность сделать интернациональным и студенческое сообщество, и штат преподавателей. В мире, английский изучается в рамках общеобразовательной программы как иностранный язык (формат EFL — English as a Foreign Language). Рассматривая особенности преподавания английского в формате EFL, многие специалисты в последнее время приходят к выводу о недостаточной эффективности этого подхода. В основе его — представление об обучающемся как о чужаке, иностранце, задача которого — как можно удачнее имитировать языковое поведение носителей языка. Как пишет Д.Грэддолл, обучающийся английскому языку рассматривается как лингвистический турист — ему позволено посещение, но не дано право

постоянного проживания, и он всегда должен уважать превосходство носителей языка. Такой подход можно считать наследием тех времен, когда распространение английского языка в мире было обусловлено экономическим и геополитическим доминированием англоязычных стран. В современном обществе, согласно статистике, лишь для одного из четырех человек, говорящих по-английски, этот язык является родным, следовательно, в большинстве случаев английский выступает как *lingua franca*, т.е. служит посредником в общении, не являясь родным ни для одного из собеседников. Методики преподавания английского языка развиваются таким образом, чтобы отвечать общественным, политическим и экономическим потребностям того нового мира, в котором он изучается и используется. Рассмотрим вкратце наиболее популярные на сегодняшний день подходы к изучению и преподаванию английского языка. Интересный, хотя и не лишенный противоречий, подход — ELF (*English as a Lingua Franca*) «английский как лингва франка». Его актуальность вытекает из указанного ранее факта распространения английского как языка международного общения. В данном подходе на передний план выступает успешность общения, а неукоснительное следование нормам и правилам носителей языка оказывается менее важным. Целый ряд исследователей лингвистов работает над составлением корпусного описания наиболее типичных особенностей употребления английского как лингва франка (*VOICE — Vienna-Oxford International Corpus of English*). К ним относятся, например, упрощение глагольных парадигм, сдвиги в употреблении артиклей и предлогов, предпочтительное использование инфинитива по сравнению с герундием, расширение сочетаемости широкозначных глаголов и другие. Важным моментом в ELF-подходе является тот факт, что люди, использующие английский как лингва франка, рассматриваются как активные и полноправные пользователи языка, которым нет нужды жестко следовать формальным нормам, если коммуникативный успех может быть достигнут и без этого. Соответственно, ELF считается не «дефектным» языком, а вполне адекватной его формой, отвечающей своим функциям. Спорным является вопрос о культурной «нейтральности» ELF. Высказываются прямо противоположные мнения: от «лингвистического империализма» (ELF способствует доминированию англоязычных стран) до отсутствия культурной маркированности или, наоборот, поликультурности ELF. Какими бы ни были недостатки этого подхода, очевидно, что в современном мире ELF дает большую мотивацию к изучению, чем EFL.



Возможность межкультурного общения в любой точке Земли привлекает людей больше, чем возможность погрузиться в традиции, культуру и менталитет англоязычных стран, изучая EFL. Несомненно, в этом смысле распространение ELF способствует уменьшению преобладания англофонов. Не только в Узбекистан, но и во многих других странах проявляется недостаточность профессионального образования английского языка.

Этот подход предполагает изучение одного или нескольких предметов программы профессиональной подготовки на иностранном языке. Обучение становится бифокальным: предмет изучается через язык, а язык изучается через предмет. Либо предмет, который учителя преподают на иностранном языке, либо учителя языка, которые включают важные предметы в свое преподавание. Среди преимуществ CLIL указывают следующие. В основе методики — акцент на естественный язык и предмет, интересный обучающимся. Обучение происходит в процессе использования языка. Количество аудиторных часов иностранного языка значительно увеличивается. Проблемы заключаются в том, что CLIL непросто интегрировать в уже имеющиеся учебные планы. Серьезное изучение какого-либо предмета требует уже сложившегося языкового навыка. Кроме того, не так просто подготовить учителей, способных преподавать в рамках CLIL. Есть, однако, направление, которое уже довольно давно и весьма успешно сочетает обучение языку с изучением/повторением еще какой-либо дисциплины. Это ESP (English for Specific Purposes) «английский для специальных целей», который иногда называют «CLIL для взрослых». К ESP относятся деловой английский, английский для юристов, инженеров, медиков, летчиков, финансистов, т.е. это английский для самых разнообразных специальностей и отраслей экономики. Обучение ESP призвано удовлетворит специальные потребности обучающихся, использует методологию соответствующей специальности, фокусируется на релевантном для данной специальности языке в области грамматики, лексики, регистра, дискурса и жанра. ESP может изучаться как уже работающими специалистами, имеющими достаточный профессиональный опыт, так и техникум, которые еще только готовятся работать в той или иной области. В первом случае английский, как правило, выступает только как инструмент профессионального общения. Во втором случае изучение английского нередко знакомит студентов с новыми для них темами, подходами, методами, существующими в той специальности, которую они изучают. То есть изучение языка действительно интегрируется с изучением специальной дисциплины. Наконец, говоря об английском языке в техникум,

нельзя не упомянуть EAP (English for Academic Purposes) «английский для академических целей». EAP сосредоточивается на тех навыках, которые необходимы для успешного обучения в техникум по той или иной специальности на английском языке, включая. Кроме обучения языку специальности (терминологии, типичным формам дискурса и т.д.), EAP включает также базовые навыки, необходимые для обучения в техникум и общения в академической среде. Интернаціоналізація университетського образования сделала EAP одним из самых актуальных направлений в изучении английского. Университеты — організації со сложной структурой, с устоявшимися академическими традициями и культурой. Даже обучаясь на родном языке, студенты проходят нелегкий период адаптації к техникумской среде. При обучении на иностранном языке они сталкиваются с еще большим количеством трудностей. Вместе с тем, если студент благополучно адаптировался и успешно завершил образование на иностранном языке, он по праву может считаться особенно ценным специалистом. И дело даже не в том, что он учился в престижном вузе и владеет иностранными языками. Важно то, что в процессе обучения он приобрел ценные навыки адаптації, гибкости, дипломатичности в общении в поликультурной среде, анализа различных точек зрения и выработки своего уникального творческого подхода. Даже если впоследствии он не будет работать в международных компаниях, он и на внутреннем рынке сможет построить успешную карьеру для себя и принести пользу своей отрасли. Тот факт, что все большее количество университетов стремится выйти на международный уровень, поднимает еще одну проблему, о которой до сих пор недостаточно много говорилось. Техникумы неанглоязычных стран, желающие обучат иностранных студентов и разрабатывающие курсы на английском языке, сталкиваются с проблемой нехватки квалифицированных кадров. Однако, профессиональная образование если предполагает выйти на международный уровень, он может поставит перед своими преподавателями вполне посильную задачу — изучение английского языка и разработку курсов специальных дисциплин на английском языке. EAP/ESP для преподавателей может включать на базовом уровне знакомство со специальной терминологией и грамматикой. На более высоких уровнях — это освоение навыков устной презентації на английском языке, академической письменной речи, ведения научной дискуссии, написания научных статей, составления профессиональных портфолио.



### Использованные источники:

1. Дружинина М.В. Формирование языковой образовательной политики университета как фактор обеспечения качества профессионального образования. Архангельск, 2009
2. Graddoll D. English next. <http://www.britishcouncil.org/learningresearch-english-next.pdf>.
3. Seidlhofer B. <https://www.univie.ac.at/voice/>

## RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH TEKNOLOGIYALARI

*Xotamov Eldorbek Orifjonovich*

*Shahrixon agrosanoat texnikumi, Ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor  
o'rinbosari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishda raqamlashtirish jarayonining ta'siri va asosiy tashkiliy-pedagogik omillari tahlil qilingan. Ta'lim sifatini oshirishda texnologiyalarning o'ri muhim ekanligi xususida qayd etilgan

**Kalit so'zlar:** ta'lim, texnologiya, raqamlashtirish, innovatsiya, integratsiya, modernizatsiya, o'qituvchi, o'quvchi

Hozirgi zamonaviy bosqichda pedagogik dolzarb vazifalarga fan, texnika, ilg'or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan shaxs - fuqaroning tashkil topishni ko'zda tutadi. U ushbu ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda ta'lim xizmatlarining iste'molchisi, buyurtmachisi sifatida va xuddi shunday ishlab chiqaruvchi sifatida ishtirok etadi. Ta'lim sifatini oshirish, fan va texnologiyaning eng so'nggi yutuqlarini amaliyotga joriy etish asosida ijodkor, kasb-hunarli, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, tashabbuskor va tadbirkor, o'z javobgarligini his etadigan yoshlarni tayyorlash kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Bu o'z navbatida ta'lim jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Ularni qo'llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki, uni amalga oshirmay turib qo'llangan

har qanday texnologiya kutilgan natijani bermaydi. Bugun kunda o'qitishning an'anaviy ko'rinishidan farq qiladigan zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, o'qitish jarayonini yagona shaklga keltirish va yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi.

Raqamli texnologiyalar tariximizdagi har qanday innovatsiyaga qaraganda tezroq rivojlandi. Bor-yo'g'i yigirma yil ichida rivojlanayotgan dunyo aholisining qariyb 50 foizini qamrab oldi va jamiyatni o'zgartirdi. Raqamli texnologiyalar moliya, savdo va davlat xizmatlaridan foydalanishni kuchaytirish orqali tizimli ekvalayzer sifatida namoyon bo'ldi. Barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim sohasiga ham kundan kun yangi o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlarning kirishi soha mutaxassislariga katta mas'uliyat yuklamoqda. Chunki, bo'lajak mutaxassisga zamonaviy jahon standartlari talablariga mos keladigan bilimlarni berish, ularni mustaqil fikrlaydigan, o'z sohasining yetuk mutaxassisi sifatida tayyorlashda o'qituvchilarning o'rni benihoya kattadir. Bu, o'z-o'zidan o'qituvchilarni izlanishga, o'z ustida tinmay mehnat qilishga, yangiliklarni tez o'zlashtirib, o'quvchilarga yetkazishlarida sidqidildan mehnat qilishlarini talab etadi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida kundan-kunga ko'payib borayotgan axborotlarni o'quvchilarga yetkazish, ularni tez o'zlashtirishga yo'naltirish va bilimlarni to'la, mukammal egallashlari uchun sharoit yaratish shartdir. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar respublikamizning deyarli barcha sohalarini keng qamrab olishi natijasida ulardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Yildan-yilga raqamli texnologiyalari va uning texnik vositalari rivojlanib, mukammallashib bormoqdaki, Internet tarmog'i kirib bormagan va qo'llanilmaydigan sohani topish mushkul bo'lib bormoqda.

Mamlakatimizda ta'limning mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo'nalish sifatida qaralib, dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish tadqiqotlari takomillashtirilmoqda. Raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish asosida raqamlashtirish, multimedia va tarmoq tizimlari yordamida o'quv jarayonini tashkil etish yotadi. Raqamli texnologiyalar o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda, o'quv rejalar, o'quv dasturlari va o'quv materiallarini yaratishga tavsiyalar ishlab chiqishda, testlashtirish va nazorat qilishda o'qituvchilarga ko'makchi vazifasini bajaradi. O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy salohiyatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishi bo'yicha mavjud holat, muammolarni o'rganish natijalari bo'yicha statistik tahlil natijalari haqida ma'lumot beriladi. Maktab



tizimi, o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalarni o'z ichiga olgan o'zaro bog'liq murakkab ta'lim ekotizimidir.

Raqamli texnologiyalar va vositalar yordamida bog'langan kommunikativ onlayn va yuzma-yuz o'quv maydonlarini yaratish o'quv innovatsiyalarini qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarni jalb qilish va rag'batlantirish, o'quvchilarga kelajak kasblarga tayyor bo'lishi uchun hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon berishi mumkin. O'quvchilarga ta'lim berish uchun o'qituvchilar o'qitish amaliyotida kasbiy rivojlanishga muhtojligi ta'kidlangan. OECD mamlakatlarida o'rganilgan boshqa raqamli strategiyalar[2], davlat siyosatining muhimligi, o'qitish va o'rganishni yaxshilash va ta'lim beruvchilarni malakasini oshirish uchun maxsus raqamli strategiyalarni ishlab chiqishni ta'kidlaydi.

Raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli qabul qilish va integratsiyaga erishish uchun o'qituvchilarni yetarli darajada qo'llab-quvvatlash va malakasini oshirishga ehtiyoj mavjud [3]. Sinfda raqamli texnologiyadan samarali foydalanishning asosiy to'siqlariga vaqt yetishmasligi, rag'batlantirish, texnologik yordam va raqamli texnologiyani amaliy tarzda qanday amalga oshirishni bilmaslik kiradi. O'qituvchilarni innovatsion malaka oshirishni ta'minlash ularning loyihalash va ijro etish jarayoniga jalb qiladigan bilimlarini shakllantiradi va o'z amaliyotida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkonini beradi. Hargis va Wilcoxlar o'qituvchilarning ish samaradorligini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ba'zi bepul resurslarni, shu jumladan onlayn hamkorlik vositalarini (masalan, Skype, Google hujjatlari, Second Life) muhokama qildi [4]. Ushbu vositalar o'qituvchilar faoliyati samaradorligini darsni kengroq auditoriyaga, masalan, boshqa maktabda yoki maktab ichidagi boshqa sinfda taqdim etish; Sinfdan tashqarida bo'lgan o'quvchilarga yordam berish orqali oshirgan.

“Teaching and Learning International Survey” (TALIS) ma'lumotlariga ko'ra, o'qituvchilarning taxminan 60% o'qitish uchun AKT bo'yicha o'rtacha yoki yuqori rivojlanish ehtiyojlarini qayd etgan. O'qituvchilarning texnologiyadan foydalanish bo'yicha boshlang'ich tayyorgarligining yetishmasligi o'qituvchilarni o'z ta'lim amaliyotlarida undan samarali foydalanishga tayyor emasligiga olib kelishi mumkin [5].

Petersonning fikriga ko'ra o'qituvchilarni tayyorlashda aralash ta'limdan (onlayn va yuzma-yuz) foydalanish sinfda raqamli texnologiyadan foydalanishning ko'payishiga olib kelishi mumkin [6].

Xuddi shunday, Masters va boshqalar nazorati ostida o'tkazilgan tadqiqotda o'qituvchilar uchun onlayn trening boshqa yondashuvlar bilan solishtirganda,

keyinchalik ular o‘qitgan o‘quvchilar uchun sinfda yaxshi natijalarga olib kelishini aniqladilar [7].

Cheok va Vong o‘zlarining tahlillarida o‘qituvchilarning darsga munosabati, darsning samaradorligi ularning texnologiyalardan faol foydalanishi bilan chambarchas bog‘liqligini aniqladilar va: “muassasani o‘qitish, texnik va boshqaruv nuqtai nazaridan qo‘llab-quvvatlash o‘qituvchilarni yangi innovatsiyalarni o‘zlashtirishga undashda zarur bo‘lgan muhim omillardir” deb ta’kidladilar [8].

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ta’limni modernizatsiya va isloh qilish jarayonlari xalq ta’lim tizimida, ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu tizimda dars berish jarayonida yangi texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish maqsadida doimiy ravishda joriy etib borilishi zarur. Yuqoridagi statistik ma’lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonda uzluksiz kasbiy salohiyatni oshirishni tashkil etish uchun malaka oshirishning an’anaviy, masofaviy hamda gibridd shakllariga mos keluvchi malaka oshirish modelini ishlab chiqish; zamonaviy ta’lim metodlari, fan bo‘yicha zamonaviy yangiliklar, ilg‘or xorijiy tajribalar hamda innovatsion texnologiyalarni o‘rgatuvchi milliy tildagi o‘quv kurslarini ishlab chiqish; ushbu o‘quv kurslarida o‘qituvchilarni ta’lim olishini tashkil etish uchun zamonaviy platformalar yaratish; internet orqali ta’lim olishda muammosi bor o‘qituvchilar uchun optik disklarga o‘quv kurslari yozish va ularni yetkazish; klaster shaklidagi master klasslar va mahorat darslarini tashkil etish bugungi kun talabiga javob beruvchi zamonaviy pedagogni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonda ta’lim sifatini ta’minlashda ilg‘or xorijiy tajribalarni tatbiq etish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolishi muhimdir.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Makhmutovna T.K., Ibragimovna T.I. Specific features of the pedagogical process focused on increasing the social activity of youth //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – T. 9. – №. 6. – C. 165-171.

2. OECD (2021). What schools for the future? Schooling for tomorrow. OECD Publishing, Paris.

3. G.Fransson, J.Holmberg, C.Westelius. The challenges of using head mounted virtual reality in K-12 schools from a teacher perspective. Education and Information Technologies, 25(4), (2020), p.3383–3404.

4. J.Hargis, S.M.Wilcox. Ubiquitous, Free, And Efficient Online Collaboration Tools For Teaching And Learning. Turkish Online Journal of Distance Education. 2008. (TOJDE) 9, p. 9-17.



5. C.Blackwell. Teacher Practices With Mobile Technology Integrating Tablet Computers Into The Early Childhood Classroom. Journal of Education Research, Oct. 7, 2013. p.231-255.

6. Peterson and McClay. Assumptions and Practices in Using Digital Technologies to Teach Writing in Middle-Level Classrooms across Canada, Literacy, Nov., 2012. <https://www.researchgate.net/publication/263192857>

7. Masters et al. The Effects of Online Teacher Professional Development on Fourth Grade Students' Knowledge and Practices in English Language Arts.' Journal of Technology and Teacher Education, v.20, n.1, Jan 2012. p.21-46.

8. Cheok and Wong. Predictors of E-Learning Satisfaction in Teaching and Learning for School Teachers: A Literature Review' International Journal of Instruction, v.8, n.1, Jan 2015. p.75-90.

## **PROFESSIONAL TA'LIM O'QITUVCHILARIDA TEXNIK FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTRISH USULLARI**

*Xudayberganov Tohir Farhadovich,*

*Professional ta'limni rivojlantirish instituti bo'lim boshlig'i:*

*Matyakubova Mohira Otanazarovna*

*Xonqa tuman 1-son kasb-hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi:*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada professional ta'lim o'qituvchilarida texnik fikrlashini shakllantirish muammosiga qaratilgan bo'lib, buning uchun ta'limning psixologik-pedagogik sharoitlarini yaxshilash, professional ta'lim o'qituvchilarining texnik salohiyatini sifat jihatidan oshirishga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Integrativlik, operativlik, ijod va refleksivlik, konstruktiv, axborot kommunikatsiya texnologiyalari.

XXI asrda professional ta'lim o'qituvchilarida texnik fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish, texnik tizimlarni boshqarish elektron texnikaga berilish munosabati bilan murakkablashmoqda. Ko'pgina qurilmalar va mashinalar "qora quti" tamoyili bo'yicha ishlovchi, yopiq qismlarga ajralmaydigan tizimlarni tashkil qilmoqda.

Oddiy odam esa texnikani yaratish fazosidan chiqarilib, iste'molchi va foydalanuvchi rolini o'ynamoqda. Shuning uchun professional ta'lim o'qituvchilarida texnik fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish turmush

tajribasi va intuitsiyaga asoslana olmaydigan murakkab jarayon bo‘lib, nafaqat insonning umumiy intellektiga, amaliy malakalariga, texnik fikrlash qobiliyatlariga, balki kasbiy ta‘limning qanchalik samaradorligiga ham bog‘liq. Bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalari kasbiy ta‘lim yo‘nalishlarida tayyorlanayotgan bo‘lajak professional ta‘lim o‘qituvchilari texnika va texnologiyani yaratish jarayonida faol ishtirok etishi va texnikaning ishlashini ta‘minlay olishi kerak, bu esa yangi ta‘lim sharoitlarida ularda texnik fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish muammosini yanada dolzarblashtiradi.

Texnik fikrlashning mohiyati texnik masalalarni muvaffaqiyatli yechishdan iborat, chunki, ularni yechish jarayonida texnik fikrlashning zaruriy sifatlari shakllanadi. Shu bois, talabalarda texnik fikrlashni shakllantirishning ta‘limiy resurslari asosi bo‘lib an‘anaviy tarzda masalalar hisoblanadi. Texnik fikrlashning shakllanishini belgilovchi ta‘limiy resurslarga biz talabalarning texnik qobiliyatlarini rivojlantirish vositalari, texnologiyalari, texnikalari, metodikalari, usullari va muhitlari hamda ularning shakllanishining darajasini baholashga imkon beruvchi tashhishlash vositalarini kiritamiz.

Texnik fikrlash ko‘nikmasining shakllanishi, o‘zaro bog‘liq va bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda namoyon bo‘ladigan shaxsiy sifatlarga ega quyidagi texnik qobiliyatlar bilan birga kechadi: texnikani tushunishga, texnika bilan munosabatga kirishishga, texnik buyumlarni tayyorlashga, texnik kashfiyotchilikka qobiliyatlar.

**Texnik tushunish** – bu fazoviy modellarni to‘g‘ri idrok etish, ularni taqqoslash, tanib olish va farqlash qobiliyati. Ushbu ikki omilga muvofiq bugungi kunda, texnik fikrlash shakllanish darajasini aniqlashga imkon beradigan tashhishlash testlari ishlab chiqilgan. Texnik qobiliyatlar testlari sinaluvchilarning texnika sohasidagi to‘plangan bilimlari, tajribalarini aniqlashga yo‘naltirilgan.

Texnik va konstruktiv sxemalar asosida texnik fikrlashni shakllantirish resurslarida muammo masalalarni yechish ta‘lim resurslariga murojaat qilib, asosiy diqqat e‘tiborni konstruktiv – texnik masalalarni yechish va ta‘limning ko‘rgazmali vositalariga qaratgan.

Texnik fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishni ta‘minlovchi vositalarga shuningdek o‘yinli vaziyatlar va kasbiy yo‘naltirilgan o‘yinlarni kiritish mumkin.

Professional ta‘lim o‘qituvchilarida texnik fikrlash ko‘nikmasini samarali shakllantirish va rivojlantirishni ta‘minlovchi va texnik fikrlash komponentlarini shakllantirish usullari tizimini (tushunchali, obrazli, va amaliy) ifodalovchi va uning sifat xarakteristikalarini (integrativlik, operativlik, ijod va refleksivlikning



zaruriy darajasi)ni o'zida ifodalovchi pedagogik ta'sirlarni o'z ichiga olgan integrativ dastur ishlab chiqilgan.

Texnik fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishning eng katta imkoniyatlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taqdim etadi, virtual laboratoriya yordamida Professional ta'lim o'qituvchilari turli texnik effektlarni imitatsiyalaydi.

Zamonaviy professional ta'lim o'qituvchilarda texnik fikrlash ko'nikmasi shakllanishi va rivojlanishida tayanch korxonalar ta'lim resurslarining rolini alohida qayd etish lozim. Bularga korxonaning ishlab chiqarish muhiti va bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining kasbiy faoliyati sohasidagi ob'yektlar kiradi. Korxonaning ishlab chiqarish jarayoni atrof-muhit elementlarini dinamik o'zgarishini vujudga ketirib, ko'pgina ishlab chiqarish vaziyatlari, kasbiy muloqot mavzulari va kasbiy ta'sirlar mazmunini hosil qilib bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining texnik fikrlashi ko'nikmasini shakllantirishning chegaralanmagan imkoniyatlarini taqdim etadi.

Texnik fikrlash ko'nikmasi shakllanishi va rivojlanishida motivatsiya musobaqadoshlik va ilmiy texnik ijodkorlik ko'rgazmalarida hamda kasbiy mahorat konkurslarida ishtirok etish bilan ta'minlanadi.

Professional ta'lim o'qituvchilarida texnik fikrlash ko'nikmasini shakllantirish resurslariga shuningdek, tobora yangi shakl va mazmun kasb etayotgan ish beruvchilar bilan o'zaro ta'sir ham kiradi. Bunday resursning imkoniyatlariga texnik fikrlash ko'nikmasi shakllanishi va rivojida motivatsiya va texnik sohadagi turli xil fikrlash operatsiyalari tajribalarini to'plash kiradi. Texnik mavzularda kasbiy suxbatdosh bilan muloqot tajribasi ma'lum atamashunoslik va texnologik zahirani yaratadi.

O'quv masalasi o'quv faoliyatni tashkil etish va o'quv natijalarini loyihalashning haqiqiy vositasi bo'lishi uchun, quyidagi shartlarga rioya qilinishi kerak:

- 1) o'quv maqsadlar bilan bog'langan masalalar tizimini ishlab chiqish;
- 2) masalalarni konstruksiyalashda nafaqat yaqin o'quv maqsadlarga, balki olis o'quv maqsadlarga mo'ljal olish;
- 3) o'quv masalasini o'zlashtirish ularni yechishda o'qitishning bevosita mahsuloti sifatida ishtirok etadigan faoliyat vositasi sifatida loyihalash.

Texnik fikrlash ko'nikmasini shakllantirishning juda muhim vositasi, bizning nuqtai nazarimizga ko'ra masala bo'lgani uchun texnik masalalarning o'ziga xos xususiyatlarini va turlarini aniqlash zarur. Texnik masala - bu biror bir texnik ob'yektga oid masala (ya'ni ma'lum sharoitlarda berilgan maqsad) bo'lib u izlash faoliyati jarayonida yechiladi.

Ma'lumki, har qanday masalani yechish bosqichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- masalani anglash, biladigan va bilmaydiganlarni farqlash;
- bilmaydiganini oldindan sezish, yechish qoidasini izlash (farazni ilgari surish va uni tekshirish);
- topilgan yechimni amalga oshirish (ijro qiluvchi harakatlar va yechimning to'g'riligini tekshirish).

Texnik fikrlash ko'nikmasini shakllantirish natijasi texnik masalalarni muvaffaqiyatli hal etish bo'lib, bu jarayonda u o'zining quyidagi sifat xarakteristikalarida namoyon bo'ladi:

- ijodiy tavsifi (kreativlik);
- integrativlik;
- operativlik (tezkorlik) va refleksiflik.

Bu tavsiflarga mo'ljal olish texnik fikrlash ko'nikmasining shakllanish jarayonini diagnostik (tashhisli) qilishga imkon beradi.

Professional ta'lim o'qituvchilarida texnik fikrlash ko'nikmasi barcha komponentlari va sifatiy xarakteristikalari o'zaro yaqin bog'langanligi hamda talabalarning texnik bilimlar va intellektual ko'nikmalarni egallashda ularning barqaror birligidan kelib chiqqan holda ularda texnik fikrlash ko'nikmasini shakllantirish komponentlari mohiyati (maqsadlar va ularga erishishga yo'naltirilgan harakatlar) ishlab chiqiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Masharipova G. Kasbiy ma'naviyat //Scienceweb academic papers collection. – 2022
2. Слостенин, В.А., Кашарин В.П. / Психология и педагогика – М., Академия 2007-477с



## PROFESSIONAL TA'LIM TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION HAMKORLIK AHAMIYATI

*Xushmatova Nilufar Axatovna*

*Professional ta'limni rivojlantirish institutining mustaqil izlanuvchisi.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada innovatsion hamkorlik orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lgan yangi uslubiy yondashuvlar va vositalar, innovatsion hamkorlik asosida professional ta'lim talabalarining kasbiy kompetensilarni rivojlantirish dolzarb ekanligi, uning ahamiyati to'g'risida fikr bildirilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются новые методологические подходы и инструменты, которые могут быть реализованы посредством инновационного сотрудничества, обосновывается актуальность развития профессиональных компетенций студентов профессионального образования на основе инновационного сотрудничества, его важность.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, innovatsion rivojlanish insonlarda, xususan, turli tashkilot, korxonalar va firma xodimlari, mutaxassislarida innovatsion bilimlarga asoslangan faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini, kompetensiyani hamda muayyan amaliy tajribani shakllantirishni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, innovatsion rivojlanish "innovatsion inson"ni shakllantirishni talab etadi. Innovatsion inson keng ma'nodagi iborat bo'lib, u mamlakat har bir fuqarosining ijtimoiy hayotda, iqtisodiy taraqqiyotda, fan va texnologiyalar rivojlanishida ro'y berayotgan o'zgarishlarning faol tashabbuskori, yaratuvchisi bo'lishini va bu o'zgarishlar uning hayotiy tamoyillarining ajralmas qismi bo'lib qolishini anglatadi. Bu har bir inson innovatsion muhitda o'zining qobiliyati, qiziqishi, salohiyatidan kelib chiqqan holda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali bajara olishi talab qilinadi deganidir. Shunday ekan, innovatsion hamkorlik asosida professional ta'lim talabalarini innovatsion faoliyatga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish orqali kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

So'nggi yillarda professional ta'lim talabalarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muammosi faol ko'rib chiqilmoqda. Tarixiy kontekstda ushbu tadqiqot sohasi o'zgaruvchan jamiyatda yosh mutaxassislarni moslashtirish uchun asosiy kompetensiyalarning muhimligini anglash bilan yangilandi. Bo'lajak

mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish va bilimlarini yangilash vositasi sifatida innovatsion hamkorlikka alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi bosqich o'quv jarayoniga innovatsion uslub va texnologiyalarni faol joriy etish bilan tavsiflanadi, bu bir tomondan talabalarning ijodiy fikrlashini rag'batlantirsa, ikkinchi tomondan o'qitishga standart yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Shu sababli, L.V.Chuprova zamonaviy ta'lim sharoitida mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi [1]. Shunday qilib, innovatsion hamkorlik sharoitida talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda, bu esa keyingi amalga oshirilayotgan ilmiy va amaliy takomillashtirishni talab etadi.

Kasbiy kompetensiyalarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun individual yondashuv talab etiladi. Buning uchun asosiy kompetensiyalar ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv uchun samarali-maqсадli asos bo'lib xizmat qiladi, bu har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Ta'lim sifati nuqtai nazaridan S.Ye.Shishov kompetensiya tushunchasini talaba shaxsining, jumladan, bilim, ko'nikma, malaka va uning kasbiy faoliyatiga munosabatini integratsiya qiluvchi xususiyat sifatida ko'rib chiqadi [2].

Shu bilan birga, kompetensiyalarni shakllantirish ta'lim jarayonining asosiy elementi bo'lib, bu jarayonning muvaffaqiyati to'g'ri usul va yondashuvlarni tanlashga, shuningdek, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olishga bog'liq.

Innovatsion hamkorlik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda, ayniqsa, asosiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga e'tibor qaratiladigan zamonaviy ta'lim sharoitida muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim tizimiga kiritilgan innovatsiyalar ko'pincha ta'lim muassasalar, tashkilotlar va ekspertlar o'rtasidagi hamkorlikni talab qiladi. Bunday hamkorlik tajriba va ilg'or o'qitish amaliyoti almashinuviga yordam beradi, bu esa pirovardida talabalarda yuqori sifatli kompetensiyalarni rivojlantirishga olib keladi.

O'quv jarayoniga joriy etilayotgan yangi pedagogik va axborot texnologiyalari o'qituvchi va talabalardan ma'lum kompetensiyalarga ega bo'lishni talab qiladi. Ushbu kompetensiyalarni faqat innovatsion hamkorlik va uzluksiz o'rganish orqali muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkin. I.A.Zimnyaya ta'limga kompetensiyaga asoslangan yondashuv faqat innovatsion hamkorlik orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lgan yangi uslubiy yondashuvlar va vositalarni talab qilishini ta'kidlaydi[3].



Ta'lim sohasidagi innovatsion hamkorlik nafaqat innovatsion usullarni joriy etish vositasi, balki bilim, ko'nikma va malaka almashish platformasi bo'lib, pirovardida talabalarda yuqori sifatli kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga olib keladi.

Talabalarning kasbiy va shaxsiy tayyorgarligi darajasini aniqlashda kompetensiyalarni rivojlantirishning hozirgi holatini baholash usullari asosiy rol o'ynaydi. Baholash jarayoni ilmiy adabiyotlarda taklif etilgan turli usullar va yondashuvlar yordamida tashkil etilishi mumkin.

V.I.Avanesov tomonidan ko'rib chiqilgan pedagogik nazorat oliy o'quv yurtlarida talabalarning kompetensiyalarini baholashning asosiy mexanizmlaridan biridir. Ushbu usul o'qituvchilarga o'qitishning turli bosqichlarida talabalarning malakalarini rivojlantirish dinamikasini kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi [4]. N.F.Talizina bilimlarni o'zlashtirish jarayonini boshqarish usullariga alohida e'tibor beradi, bu ham kompetensiyalarning rivojlanishini baholash usullari bilan chambarchas bog'liqdir [5].

Innovatsion hamkorlik doirasida talabalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishiga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Asosiy maqsad shundan iboratki, talabalar ma'lumotni passiv tarzda o'zlashtiribgina qolmay, balki olgan bilimlarini amalda qo'llay olishi hamdir. Bunday yondashuv talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, jamoada ishlash va murakkab muammolarni hal qilishni o'rganish imkonini beradi.

Innovatsion hamkorlik ta'lim va fan sohasidagi taraqqiyotning asosiy omili hisoblanadi. Fan, biznes va ta'limning birgalikdagi say-harakatlari yangi texnologiyalarni yaratish, ularni tijratlashtirishni ta'minlash va murakkab ilmiy va ishlab chiqarish muammolarini hal qilish uchun kadrlar tayyorlash imkonini beradi. Shu bilan birga, nafaqat yangi mahsulotlar va texnologiyalarni yaratish, balki ularni ishlab chiqish va qo'llashga qodir bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ham muhimdir

Shunday qilib, innovatsion hamkorlik tez o'zgaruvchan mehnat bozori sharoitlariga moslasha oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonining asosiy elementiga aylanadi.

### **Adabiyotlar**

1. Чупрова Л.В. К проблеме совершенствования системы подготовки специалистов в высшей школе // Педагогика и современность, 2012. - № 1. - С. 63-67.

2. Шишов С.Е. Понятие компетенции в контексте качества образования // Стандарты и мониторинг в образовании. – 2002. – No 2. – С. 63-65.

3. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно - целевая основа компетентностного подхода в образовании / И.А. Зимняя // Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. – Москва, 2004. – С. 40.

4. Аванесов В.И. Основы научной организatsии педагогического контроля в высшей школе. -М.: Исследовательский центр, 1989. - 192 с.

5. Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоения знаний / Н.Ф. Талызина. – Москва : Педагогика, 2014. – 92 с.<sup>[LSEP]</sup>

## ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN SHAXSLARNI REABILITATSIYA QILISHNING O‘ZIGA XOSLIGI (XOTIN-QIZLAR MISOLIDA)

*Ziyayeva Xolida Omonqul qizi*

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti dotsent v.b.*

*Sotsiologiya fanlari bo‘yicha (PhD)*

**Annotatsiya.** Maqolada reabilitatsiya tushunchasiga berilgan ta’riflar, uning maqsadi, ob’yekti, turlariga ta’rif berilgan. Ijtimoiy reabilitasiyaning oziga xos jihatlari va ijtimoiy reabilitatsiya bilan shug‘ullanadigan mutaxassislarining asosiy vazifalari, O‘zbekistonda zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid samarador chora-tadbirlar haqida to‘xtalangan.

Reabilitatsiya - (rehabilitation) bu kasallik, jarohat yoki holsizlantiruvchi vaziyatni boshidan o‘tkazgan individuumlar uchun yo‘naltirilgan aniq maqsadli jarayondir. Zo‘ravonlikka uchragan shaxslarni reabilitatsiya qilish dasturlarini tahlil qilishni boshlashdan avval ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya va turli sohalarda reabilitatsiya qanday tushuncha ekanligini bilishimiz kerak. Shundagina biz o‘z izlanishlarimizda suyanadigan fenomenni tanlab olamiz.

Reabilitatsiyani tibbiy-pedagogik va psixologik-pedagogik uslublarining ma’lum tizimi deb hisoblasak, uning natijasida bola rivojlanish jarayonidagi qiyinchiliklarga, ijtimoiy muhitga, jamiyatga moslashishga, tengdoshlari bilan muloqot qilishga, mehnat qilishga, ijtimoiy xayotga o‘zining psixologik, jismoniy layoqatlari doirasida ko‘nika oladi va shu orqali o‘zidagi kamchiliklarni yengib, o‘rnatilgan normaga mos bo‘la boshlaydi.



Reabilitatsiya tushunchasiga berilgan JSST tomonidan qabul qilingan ta'rifni olsak, bu shunday tizimki, qaysiki unda sub'yektning (shaxsning) mehnatga layoqatini topishiga qaratilgan bir necha tadbirlar jamlanganligini ko'ramiz.

Xalqaro mehnat tashkiloti (MOT) reabilitatsiyaga bergan ta'rifiga ko'ra reabilitatsiya sog'liqni tiklashga qaratilgan tadbir. Shu tadbir natijasida shaxslar o'zlarining cheklangan psixologik yoki jismoniy imkoniyatlarini yengib o'tib, kasbiy, psixologik va jismoniy to'laqonli shaxsga aylanishlariga qaratilgan[1].

Reabilitatsiyaning maqsadi insonlarni avvalgi holatiga qaytarish. Reabilitatsiya tushunchasi insoniyat tarixida nisbatan yangi tushuncha hisoblanadi. K.Renner va G.Yumashevga ko'ra reabilitatsiya - bu kasal va invalidlar (bolalar va kattalar)ning funksional va ijtimoiy mehnatini tiklovchi jamoat zaruratidir. Bular davlat, jamiyat, tibbiyot, psixologik, pedagogik, yuridik va boshqa tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy reabilitatsiya - bu insonni ijtimoiy mavqei, sog'ligi, ishga layoqatlilik huquqini tiklashga qaratilgan kompleks choralardir. Ijtimoiy reabilitatsion faoliyatni turli darajalari farqlanadi: ijtimoiy-tibbiy, kasbiy-mehnat, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy - rolli, ijtimoiy-huquqiy.

Ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya mijoz (nogirin va boshqalar)ga jamiyatda va atrof muhitda adaptatsiya jarayoni samarali kechishiga, ma'naviy-psixologik muvozanatga erishishga, o'ziga ishonishga, psixologik diskomfortni bartaraf etishga, to'liq hayot bilan yashab ketishga yordam beradi.

Ijtimoiy psixologik reabilitatsiya ob'yekti bo'lib, kasal va nogironlar bilan bir qatorda quyidagi odamlar guruhi hisoblanadi, bular: nafaqaxo'r va keksalar; bomjlar; qarovsiz va ko'chada qolgan bolalar hamda o'smirlar; ishsizlar, qochoqlar va migrantlar; ekstremal vaziyatga tushgan odamlar; hukmni o'tayotganlar va ozodlikka chiqqanlar; alkogoliklar va giyohvandlar kabilar kiradi.

Reabilitatsiya tushunchasi faqat nogironlarga taalluqli emas. Tibbiy reabilitatsiyadan tashqari jismoniy, ijtimoiy, yuridik, psixologik va boshqalar mavjud.

Ijtimoiy reabilitatsiya - yo'qolgan ijtimoiy funksiyalarni va hayotni qo'llab-quvvatlovchi muhit bilan aloqalarni tiklash sifatida e'tirof etiladi.

Yuridik reabilitatsiya – ilgari e'tirof etilgan aybni bekor qilish hisobiga yaxshi nom va qonuniy huquqlarni tiklash;

Psixologik reabilitatsiya – shaxsning yo'qolgan qobiliyatlarini tiklash, uning egiluvchanlik (plastikligi)ning namoyon bo'lishi sifatida tasniflanadi. V.Mamonova-Tomova inson reabilitatsiyaga muhtoj bo'lishi mumkin bo'lgan turli sabablarning 4 guruhini aniqladi[2]. Bu sabablarga quyidagilar kiradi: tibbiy va biologik (irsiy, tug'ma, individual hayot davrida paydo bo'lgan); ijtimoiy-iqtisodiy

(urbanizatsiya, zamonaviy oila muammolari, bolalarning bo‘sh vaqtini tashkil etish qoidalarining yo‘qligi, ommaviy axborot vositalarining ta’siri va boshqalar);

psixologik (atrofdagi voqelikka munosabat, qobiliyatlarni shakllantirishning turli darajalari, temperament va xarakter);

pedagogik (tizimli ta’limning mavjudligi yoki yo‘qligi, rivojlanish uchun salbiy shartlar paydo bo‘lishining oldini olish)[3]. Sababga qarab, reabilitatsiyaning o‘ziga xos turi ajratiladi.

Rossiya ijtimoiy ish ensiklopediyasida ijtimoiy reabilitatsiya qanday ta’riflangan: ijtimoiy reabilitatsiya "fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan davlat, xususiy, jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar majmui" degan ta’rif keltirilgan[4].

Demak, ijtimoiy reabilitatsiya davlat, xususiy va jamoat tashkilotlari tomonidan shaxsning ijtimoiy faoliyatini tiklash, uni jamiyatga integratsiyalashuvi va ijtimoiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Bundan ham xulosa qilishimiz mumkinki, ijtimoiy reabilitatsiya ob’yektlari og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan shaxslar, sub’yektlari esa reabilitatsiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi davlat, xususiy va jamoat tashkilotlari hisoblanadi.

Ijtimoiy reabilitatsiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

reabilitatsiya xizmatlarini o‘z vaqtida va bosqichma-bosqich amalga oshirish,

reabilitatsiya tadbirlarining izchilligi va murakkabligi,

reabilitatsiyani amalga oshirishda izchillik va uzluksizlik,

har bir mijozga individual yondashuv,

barcha muhtojlar uchun ijtimoiy va reabilitatsiya yordami mavjudligi.

Ijtimoiy reabilitatsiyaning maqsadlari - shaxsning ijtimoiy mavqeini tiklash, ijtimoiy voqelikka moslashish, ijtimoiy va moddiy farovonlikning ma’lum darajasiga erishish, shuningdek, moddiy va nomoddiy mustaqillikka erishish.

Ijtimoiy reabilitatsiya bilan shug‘ullanadigan mutaxassislarning asosiy vazifasi mijozning shaxs sifatidagi ijobiy o‘zgarishlarini, shuningdek, mijozning muhitidagi ijobiy o‘zgarishlarni ta’minlashdir. Ijtimoiy reabilitatsiya jarayonining yo‘nalishlari:

1) Ijtimoiy-psixologik yordam va qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy ta’lim muassasalarida, oilada, ishda homiylik, diagnostika va dolzarb muammolarni hal qilishda maslahat, tashkiliy, muvofiqlashtiruvchi va vositachilik xarakteridagi zarur yordamni ko‘rsatish;

2) huquqlar va imtiyozlar, ularni amalga oshirish tartibi, ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlarni amalga oshirishda yordam berish masalalari bo‘yicha axborot



berish va maslahat berish, shuningdek ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi muassasalar to'g'risida xabardor qilish;

3) Ijtimoiy va psixologik yordam va atrof-muhit bilan ishlash, oila va maishiy munosabatlarni psixokorreksiya qilish;

4) Hayotning turli sohalarida ehtiyoj va qiziqishlarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish - ishga joylashishda yordam berish, bo'sh vaqtni tashkil etish va boshqalar[5].

Zo'ravonlikka duchor bo'lgan shaxslar bilan ishlashda zo'ravonlik va travmadan keyingi stress uchun shoshilinch yordam, shuningdek, individual maslahat va guruh ishlari jarayonida uzoq muddatli yordam ko'rsatiladi. Avvalo, oiladagi zo'ravonlikka uchragan ayol xavfsizlikka bo'lgan asosiy ehtiyoji bilan qondiriladi - agar boradigan joyi bo'lmasa, u boshpana bilan ta'minlanadi. Ishonch telefoni orqali shoshilinch psixologik yordam ham ko'rsatiladi. Agar ayolning tajovuzkordan yashirinadigan joyi bo'lsa, unda uzoq muddatli rehabilitatsiya rejasi ishlab chiqiladi[6].

Uzoq muddatli rehabilitatsiya shaxsiy maslahat bilan boshlanadi. Maslahat davomida oiladagi zo'ravonlik ayolga qanchalik ta'sir qilgani, ayni damda ayol nimaga muhtojligi (hujjatlarni tiklash, ish qidirish va h.k.), ijtimoiy nafaqa olish huquqi bor-yo'qligi, unga qanday psixologik yordam kerakligi aniqlanadi. Keyinchalik, ish rejasi ishlab chiqiladi, sanalar qachon va qaysi mutaxassis ayol bilan ishlashi aniqlanadi. Shaxsiy ish psixolog, ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis, advokat bilan uchrashuvlarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis shoshilinch iqtisodiy yordam, yuridik va tibbiy xizmatlar ko'rsatishda yordam berish, nafaqa va ijtimoiy nafaqalar olishda maslahat va yordam berish, uy-joy, ish topishda yordam berish va oiladagi zo'ravonlikka duchor bo'lgan boshqa ayollar kabi shoshilinch va har tomonlama ijtimoiy yordam ko'rsatadi. Shaxsiy ish psixolog, ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis, advokat bilan uchrashuvlarni o'z ichiga oladi[7].

Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish natijasida ayolning qay darajada mustaqil hayot kechirishi, tajovuzkordan alohida yashashi, farzandlar tarbiyalashi mumkinligi aniqlanadi. Ideal holda, ayol tajovuzkor bilan aloqani butunlay uzadi, o'zaro bog'liqlikni rivojlantiradi va undan xalos bo'ladi.

Ayol o'z huquqlarini tiklaydi, yana hujjatlarga, ish, uy-joyga ega bo'ladi, mustaqil yashaydi, yangi ijtimoiy aloqalar va aloqalarni o'rnatadi va quradi, nizolarni hal qilishning buzg'unchi usullaridan xalos bo'ladi, ijtimoiy jihatdan maqbul turmush tarzini olib boradi.

Demak, ijtimoiy rehabilitatsiya davlat, xususiy va jamoat tashkilotlari tomonidan shaxsning ijtimoiy faoliyatini tiklash, uni jamiyatga integratsiyalashuvi va ijtimoiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish ayollar uchun inqiroz markazlari, shuningdek, davlat va nodavlat ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi va ayollarga inqirozli vaziyatlardan chiqishda yordam berishga qaratilgan[8].

Ijtimoiy rehabilitatsiya ijtimoiy, psixologik, huquqiy yordamni o‘z ichiga oladi va uning asosiy maqsadi mijozning oldingi xulq-atvorini rad etish, jamiyatga qaytish va ijtimoiy mavqeini tiklash, ma‘lum darajadagi ijtimoiy va moddiy farovonlik, moddiy mustaqillik, yashash imkoniyati uchun ichki va tashqi resurslarni topish shuningdek, farovonlikka erishishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zo‘rluk ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni rehabilitatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5116-son qaroriga muvofiq tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan, o‘z joniga suiqasd qilgan yoki o‘z joniga qasd qilishga moyilligi bo‘lgan xotin-qizlarga yordam ko‘rsatish, ularni manzilli qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [9]

Zo‘rluk ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi negizida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzurida Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi va uning hududiy bo‘limlarini tashkil etilgan.

Mavjud 197 ta Zo‘rluk ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish markazlarini optimallashtirish hisobiga 29 ta Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish bo‘yicha respublika, hududiy va tumanlararo namunali markazlar shu jumladan, 1 ta Respublika markazi, 14 ta hududiy markazlar va 14 ta namunali tumanlararo markazlari tashkil etilgan.

Markazlarning asosiy vazifalaridan biri tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan, o‘z joniga suiqasd qilgan yoki o‘z joniga qasd qilishga moyilligi bo‘lgan xotin-qizlarga anonim tarzda shoshilinch tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam ko‘rsatish hisoblanadi. Ushbu qarorga asosan markazlarga quyidagilar joylashtiriladi:

- Zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari;



- o‘z joniga suiqasd qilgan yoki o‘z joniga qasd qilishga moyilligi bo‘lgan xotin-qizlar.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, 2021-yil 1-iyundan boshlab:

- himoya orderi nusxasini olgan, ya’ni tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan yohud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar profilaktik hisobga olinadi;

- markazlarga murojaat qilgan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlarining yo‘qotilgan biometrik pasportlarini (identifikatsiya ID-kartalarini) tiklab berish choralari ko‘rilmogda.

Shuningdek, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarga ruhiy, psixoterapevtik, huquqiy yordam ko‘rsatish, maslahat berish va axborot taqdim etish uchun mo‘ljallangan, 24 soat uzluksiz ishlaydigan “ishonch telefoni” (respublika doirasida yagona qisqa raqam) yo‘lga qo‘yilgan.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Основы социально-педагогической виктимологии: учебное пособие для студентов факультета социальной педагогики и психологии / сост. Н.И. Бумаженко. –Витебск: УО «ВГУ им. П.М.Машерова», 2010 –135 с.

2. Гордеева А.В. Реабилитационная педагогика / А.В.Гордеева. - Москва : Парадигма: Академический Проект, 2005. – 317 с.

3. Российская энциклопедия социальной работы / [Акимова Ю. А. и др.]; под общей редакцией Е.И.Холостовой. - 2-е издание. – М.: Дашков и К, 2017. – 1030 с

4. Справочник по медико-социальной экспертизе и реабилитации / [Р.М.Войтенко и др.]; Под. ред. М.В.Коробова, В.Г.Помникова. - СПб.: Гиппократ, 2003 (ГИПП Искусство России). – 798 с.

5. Гордеева А.В. Реабилитационная педагогика / А.В.Гордеева. - Москва : Парадигма: Академический Проект, 2005. – 317 с.

6. Ковкова Т.Г. Технологии социальной работы с женщинами, подвергшимися насилию в семье / Т.Г.Ковкова, И.А Гизатова. — Текст: непосредственный // Педагогическое мастерство: материалы II Междунар. науч. конф. - Москва: Буки-Веди, 2012.

7. Global Study on Homicide: Gender-related killing of women and girls. — Vienna: United Nations Office on Drugs and Crime, 2018. — С. 11.

## MUNDARIJA

1.	Raxmatullayeva D., Raxmanova S. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini moliyaviy savodxonligini oshirishda xorijiy tajriba	3
2.	Raxmatullayeva D.R. Yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirish va o'z-o'zini bandligini ta'minlash bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari.	5
3.	Abdullayev A.G. Sharq mutafakkirlarining sivilizatsion tadqiqotlarga oid yondashuvlari.	9
4.	Abdullayev A.K. O'quvchilarni loyihalash kompetentligini rivojlantirishda pedagogik tajriba – sinov ishlarini o'rni va ahamiyati.	14
5.	Абдувалиева М.А. Развитие системы нормативно-правовой поддержки семей, воспитывающих детей с инвалидностью в новом Узбекистане.	17
6.	Adilova R.X. Xotin-qizlar ijtimoiy mavqeyining sharqona ta'rifi.	22
7.	Agaliyeva X.N. Kompetentli mutaxassisni tayyorlashda kommunikativ kompetensiyani o'rni.	26
8.	Agaliyeva X.N. Xotin-qizlarni va yoshlarni tadbirkorlikka yo'naltirish orqali kommunikativ kompetensiyasini oshirish tendensiyalari.	30
9.	Alimova S.A. Pedagogik faoliyatda tarbiya turlari va usullaridan foydalanish imkoniyatlari.	34
10.	Avezova O.I. Iqtisodiy tarbiya – iqtisodiy bilim poydevori.	36
11.	Avliyakov A.K. Professional ta'limda ta'lim sifatini ta'minlashdagi ba'zi muammolari.	39
12.	Babadjanova M. Moliyaviy savodxonlik - iqtisodiy taraqqiyot asosi.	43
13.	Baqoyev O.A. Gender tenglik va ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi.	45
14.	Begimqulov H.Sh. Malaka oshirish jarayonini SMART ta'lim texnologiyasi orqali tashkil etish.	48
15.	Begimqulova S.Sh. Ta'limni raqamlashtirish – davr talabi.	51
16.	Ergashev B.B., Xasanov M.A. Professional ta'lim tizimi o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatiga ta'sir etuvchi omillar.	54
17.	Ilxomov B.I. Yoshlar va xotin-qizlar o'rtasida moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish: xorijiy tajribalar.	56
18.	Ilxomova G.Z. Issues to ensure the active participation of youth and women in society including gender equality.	60
19.	Ilxamova G., Raxmatullayeva D., Zaripova D., Xudayberdiyeva I.,	69



	Yoshlar va xotin-qizlarning moliyaviy savodxonligini oshirish bosqichlari.	
20.	Jalalova G.O., N.Muxammadiyeva Murakkab ijtimoiy reallik: ayollar tadbirkorligi va unga ta'sir etuvchi omillar.	72
21.	Kadirova G.X. Ijobiy ta'lim muhitini tashkil etish.	76
22.	Kadirova G.X. Innovatsion ta'lim klasterining mohiyati va asosiy vazifalari.	80
23.	Matchanova N.T. Xorijiy talabalarning ijtimoiy madaniy moslashuvida kompetentlikning ahamiyati.	83
24.	Махамаджанова Н.Р. Дистанционное управление с целью повышения качества образования.	87
25.	Muminova M.M. Professional ta'lim tizimini raqamlashtirishning ta'lim sifatini oshishidagi roli.	91
26.	Normurodova N.M. Maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisining metodik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.	93
27.	Nurmuhamedova B.R. Ta'lim tizimida kompetensiya mazmuni.	97
28.	Nurmuxamedova B.R. O'quvchilarga ingliz tilini o'rgatish orqali kompetentli mutaxassis tayyorlash.	99
29.	Omonova M.D. Individual ta'lim tamoyillari asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish.	102
30.	Omonova X.T. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy yondoshuv asosida boshqarishni takomillashtirish.	105
31.	Otamirzayev S.O. "Selfed" metodi qo'llash orqali professional ta'lim o'quvchilarini amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish.	109
32.	Samiyeva N.Sh. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida tadbirkorlik savodxonligini oshirish – davr talabi.	112
33.	Samiyeva N.Sh. Zamonaviy texnologiyalar orqali moliyaviy savodxonlikni oshirish.	115
34.	Shamsiyeva Y.O. Tijorat banklarida zamonaviy xizmatlarni va taransformatsiya jarayonlarini takomillashtirish yo'llari.	118
35.	Toshtemirov D.E. Raqamlashtirish sharoitida ta'lim resurslari yaratish va ulardan foydalanish.	121
36.	Turayev O., Islamov R. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish usullari.	125
37.	Umarova S.S. Ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik bag'rikenglik kompetensiyasini rivojlantirishda madaniyatlararo muloqotning ahamiyati.	128
38.	Umarova S.S. Oliy ta'lim muassasi talabalarida pedagogik	131

	bag'rikenglikni shakllantirishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv.	
39.	Ашурова С.Ю., Уматалиева К.Т. Влияние высококачественной информативно-образовательной среды на развитие методической компетентности педагога профессионального образования.	135
40.	Uralov S.A. Zamonaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqarish ta'limi ustalarini kompetentli tayyorlash.	138
41.	Хасанова Н.А. Научно-теоретические основы формирования практических навыков у учащихся в профессиональном образовании на основе проблемно-ориентированного обучения (PBL).	142
42.	Xolikov E.M. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlashda ilmiy metodologik muammolar tahlillari.	146
43.	Холходжаева Д.Ш. Преподавание английского языка для учащихся профессионального образования.	150
44.	Xotamov E.O. Raqamlashtirish sharoitida ta'lim sifatini oshirish texnologiyalari.	154
45.	Xudayberganov T.F, Matyakubova M.O. Professional ta'lim o'qituvchilarida texnik fikrlash ko'nikmasini shakllantrish usullari.	158
46.	Xushmatova N.A. Professional ta'lim talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion hamkorlik ahamiyati.	162
47.	Ziyayeva X.O. Zo'ravonlikka uchragan shaxslarni reabilitatsiya qilishning o'ziga xosligi (xotin-qizlar misolida).	165



**“AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA  
YOSHLAR VA XOTIN-QIZLARNI TADBIRKORLIK  
SAVODXONLIGINI OSHIRISH”**

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami**

Muharrir: I. Tursunova  
Badiiy muharrir: B. Haydarov  
Kompyuter sahifalovchi: N. Fayziyeva  
Korrektor: Sh. Hikmatova

Nashr. lits. AI № 276 15.06.2015.  
Bosishga ruxsat etildi. 20.09.2023.  
Bichimi 60x84 1/16 Offset qog‘ozi.  
Times New Roman garniturasini.  
Shartli bosma tabog‘i 11,5. Nashr hisob tabog‘i 10.  
Adadi 100 nusxada. Buyurtma № 28-10.

“LESSON PRESS” MChJ nashriyoti.  
100071. Toshkent, Komolon ko‘chasi 13.

«ZUXRA BARAKA BIZNES» MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri Bunyodkor shoh ko‘chasi 27 A-uy.